

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ashirova Sojida Baxromovna

MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM

O'quv qo'llanma

60110200-Maktabgacha ta'lim

**TOSHKENT
“MAKON SAVDO PRINT” X K -2024**

UDK
KBK

Ashirova S.B. **Maktabgacha inklyuziv ta'lim** [O'quv qo'llanma] / – T-
“MAKON SAVDO PRINT” : 2024. 336 b.

Tuzuvchi: Ashirova Sojida Baxromovna

Taqrizchilar:

M.P. Imomov -ShDPI dotsenti (PhD)

A. Xo'jaqulov *QarDU dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Mazkur o'quv qo'llanma Pedagogika institutlarining Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Maktabgacha inklyuziv ta'lim” fanidan o'quv qo'llanma sifatida tayyorlandi. Ushbu o'quv qo'llanmada fan dasturi asosida mavzular to'liq mujassamlangan bo'lib, qo'shimcha ravishda talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun mavzular kesimida nazariy manbalar kiritilgan.

O'quv qo'llanmadan pedagogika oliy ta'lim muassasalarining “Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi talabalari, magistrarlari, o'qituvchilari va shu sohaga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Аннотация

Данное учебное пособие подготовлено как учебное пособие по теме “Инклюзивное дошкольное образование” для студентов факультета дошкольного образования педагогических институтов. В данном учебном пособии темы полностью воплощены на основе научной программы, кроме того, в раздел тем включены теоретические ресурсы для закрепления знаний студентов.

Пособие может быть использовано студентами, магистрантами, преподавателями и интересующимися сферой “Дошкольное образование” высших педагогических учебных заведений.

Annotation

This study guide was prepared as a study guide on "Inclusive Pre-School Education" for students of the Pre-School Education Department of Pedagogical Institutes. In this study guide, the topics are fully embodied on the basis of the science program, in addition, theoretical resources are included in the section of topics to strengthen the knowledge of students.

The manual can be used by students, masters, teachers and those interested in the field of "Pre-school education" of higher educational institutions of pedagogy.

UDK
KBK

ISBN

© MAKON SAVDO PRINT. 2024
© Ashirova S.B. 2024

So‘z boshi

So‘nngi yillarda Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yyetuk va barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yyetkazish natijasida yaratiladi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni¹ qabul qilindi. Mazkur Qonun hujjatining mazmuniga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bolalarga sifatli ta’lim berish, maktabgacha ta’lim tizimining xizmatlaridan teng foydalanishni ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2021-yil 11-avgustdagi 510-son qarori²ga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori³ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi,

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi ikki oy muddatda reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining namunaviy shtat birliklarini qayta ko‘rib chiqdi.

Ta’lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy meyoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim-tarbiyasi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida imkoniyat darajasida qamrab olinmoqda. Alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalar

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 510-sonli qarori

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

ta'lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus ta'lim muassasalarida emas, barcha uchun teng bo'lgan ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda. Ammo alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga qamrab olishga nisbatan yetarlicha ishlar amalga oshirilmagan.

Mazkur o'quv qo'llanma ana shu mummolarni o'rgangan holda bo'lajak tarbiyachi mutaxassislariga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy va ruhiy imkoniyatidan qat'iy nazar o'z faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etishda nazariy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60110200-maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida ko'rsatilgan **“Maktabgacha inklyuziv ta'lim”** fani bo'yicha dars mashg'ulotlarini sifatli va samarali tashkil etilishini ta'minlash maqsadida tayyorlangan.

I BOB. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining konseptual asoslari va taraqqiyot bosqichlari

Mavzu: Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari

1.1. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining obyekti, predmeti va maqsadi

Hozirda O'zbekiston barcha sohalarda va jahon tendensiyalari asosida jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga barcha sohalardan farqli ravishda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratmoqda. O'zbek milliy ta'lim siyosatining zamonaviy va amaliy yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'limni rivojlantirishdir. Shuning uchun alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga qo'shib ta'lim olishlari uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimizda xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori⁴ bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu hujjatda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish imkonini beruvchi qator huquqiy va tashkiliy vazifalar belgilab berilganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Mazkur hujjat asosida 2020-2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va "YO'l xaritasi" tasdiqlandi. Mazkur hujjatda maxsus ta'limga muhtoj bolalar ta'limini tegishli davrgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Bu konsepsiya asosan ikki bosqichda amalga oshirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan:

Birinchi bosqich 2020-2022-yillarga mo'ljallangan bo'lib bu bosqichda asosiy vazifalar sifatida quydagilar belgilab olingan:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori

-Inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

-Tizim uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

-Inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;

-Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

-Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

-Ularni kamsitish, salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

-Inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi.

Ikkinchi bosqich 2023-2025-yillarga mo'ljallangan bo'lib bu bosqichda amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar sifatida quydagilar belgilab olingan:

- Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinadi;

- Har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

- Maxsus o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

- Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib shakllanishiga qaratilgan choralar ko'riladi;


- O'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib ixtisoslashtirilgan

davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) soni optimallashtirilishi belgilab qo'yildi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar mazmunidan xulosa qilish mumkinki bolalarning qobiliyatlari va har qanday holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Barchamizga ma'lumki, maxsus ta'lim aqliy yoki jismoniy holatiga va tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi hamda inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitilishi kerak ekanligi belgilangan. Bunday ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir - birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal qilishadi.

Maktabgacha inklyuziv ta'limda albatta bir tomonlama harakat bilan natejaga erishib bo'lmaydi. Imkoniyati cheklangan bolaning o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oilaning o'рни muhim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanligini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga singdirish muhim sanaladi.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan deyishimiz mumkin. Tahlil qilingan hujjatlar va fikrlar mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki Maktabgacha inklyuziv ta'lim muammolarini o'rganuvchi va bu tizimga qamrab olingan bolalarning barchasi kelajak uchun ahamiyatli bo'lgan shaxs bo'lib voyaga yetishi lozimligini belgilovchi mustaqil bir fan bo'lishi kerak va bu fan Oliy o'quv yurtining Maktabgacha ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan hamda o'quv rejada ko'rsatilgan barcha mavzularni qamrab olishi lozim.



1.2. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanni fan sifatida quydagi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi

Maktabgacha inklyuziv ta'limning hal qiluvchi vazifasi bolalarning qobiliyati va holatidan qat'iy nazar, ularga sifatli ta'lim berishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan ta'lim tashkilotlarida tarbiya va ta'lim olishlarini ta'minlash zarurligini nazarda tutadi. Hal qiluvchi vazifalar mazmunidan kelib chiqib quydagi vazifalarni belgilab olish shart bo'ladi.

Nazariy vazifa – bu vazifa nuqsonli va rivojlanishda kamchiligi bo'lgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi hamda ta'lim-tarbiyasi muammosining nazariy va metodologik asoslarini o'rganish;




Ilmiy vazifa - maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va DMTT alohida ehtiyojmand bolalar bilan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning milliy tizimini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash;

Amaliy vazifa - nuqsonli va rivojlanishida kamchiligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasiga, defferensial diagnostik ta'sir etish muammosining amaliy yechimlarini ishlab chiqish;

Texnik vazifa - nuqsonli va rivojlanishida kamchiligi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliy jarayonlarda xafsiz qo'llash usullarini o'rganish;

Dasturiy vazifa - maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarning har bir turi uchun zamonaviy talabalarga javob beradigan dasturlarni tuzish, tahlil qilish, eng so'nngi yangiliklardan tez va oson xabardor bo'lish yo'llarini izlab topish;



Maxsus vazifa - alohida ehtiyojga ko‘ra ta’limni tashkil etishning turli shakllarini izlash va ishlab chiqish;

Kasbiy vazifa - rivojlanishida psixik kamchiliklari bo‘lgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni olib boruvchi pedagog va defektologlarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan o‘quv metodik tizimni yaratish.

1.3. Maktabgacha inklyuziv ta’lim fanining asosiy tushunchalari


Maktabgacha inklyuziv ta’lim ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, umumiy, maxsus va pedagogik - psixologik talablarga tayanadi. Umumiy talablar shaxsiy psixologik xususiyatlarni keying yosh davriga o‘tishda yangitdan yuzaga kelishini va shart-sharoitning shakllanishi hisoblanadi. Turli xil nuqsonli bolalarni psixologik xususiyatlarini rivojlantirishni ko‘zda tutadigan adekvat sharoitlarni yaratish maxsus talablar sirasiga kiradi.

Ular psixik jarayonlar, tafakkur, nutq va bola faoliyatini korreksiyalash orqali, undagi nuqsonni kompensatsiyalash, shuningdek, ijtimoiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Meyoriy-huquqiy hujjatlarda maxsus ta’lim tizimiga tegishli bolalar kontengentini belgilovchi bir qancha tushunchalar qo‘llaniladi va bu fanning asosiy kategoriyalari hisoblanadi hamda bu kategoriyalar quydagilar iborat sanaladi:

Defiktologiya - jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini o‘rganish, ularga maxsus ta’lim-tarbiya berish, undagi nuqsonlarni yo‘qota borish qonuniyatlarini o‘rganuvchi soha. Ko‘r va ko‘zi ojiz, kar va qulog‘i og‘ir, aqli zaif, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bor, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bu sohaning asosiy ob’yektidir.

Surdopedagogika - kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib, maxsus o‘quv-tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarini tashkil etish tartib qoidalarini ishlab chiqadi. Zaif eshituvchilarga og‘zaki nutqni o‘rgatish uchun so‘zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko‘rsatiladi.

Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va soʻzlarni ajratib olishga, yaʼni “labga qarab oʻqishga” oʻrganadi.



Tiflopedagogika - koʻr va zaif koʻruvchi bolalarni oʻqitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohadir. Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy oʻrta maʼlumotga ega boʻlishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qoʻyadi.

Koʻr va zaif koʻruvchi bolalar uchun taʼlimni takomillashtirish yoʻllarini, oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab hamda maktabgacha taʼlim tashkilotlari tuzilmasini, ularning taʼlim-tarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqishni oʻrganadi.

Oligofrenopedagogika - aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash, korreksiyalash (tuzatish), ijtimoiy hayotga jalb etish masalalarini o'rganuvchi defektologiyaning tarmog'i.

Oligofrenopedagogikaning asosiy vazifasi aqli zaif bolalarning rivojlanishida korreksion tarbiyaning mohiyatini ochib berish, ulardagi nuqsonning rivojlanishini va nuqsonning o'zini bartaraf etish yo'llarini, maxsus maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqli zaif bolalar uchun maxsus ta'lim-tarbiya va korreksion rivojlantiruvchi ish va metodlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishdan iborat.

Logopediya - nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo'llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta'lim va tarbiya vositasida o'rganadi.

Korreksiya - (lotincha correction-tuzatish) bu pedagogik psixologik va davolovchi tadbirlar tizimi bo'lib, bolalar xulq-atvoridagi va rivojlanishidagi psixofizik kamchiliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'lim.

Kompensatsiya - (lotincha compensation-o'rnini to'ldirish, tenglashtirish)-bu murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, yo'qotilgan yoki buzilgan funksiyalarni tiklash va almashtirish, shuningdek, o'rnini to'ldirish masalalarini o'z ichiga oladigan tushuncha bo'lib, kompensatsiya jarayonining rivojlanishi natijasida jaroxatlar tufayli yuzaga kelgan nuqsonning o'rnini u yoki bu darajada to'ldiriladi.

Ijtimoiylashuv - bu, jamiyat orasida o'z o'rniga ega bo'lish jamiyat va tengdoshlari orasida ijtimoiy moslashuvning hosil bo'lishi demakdir. Ijtimoiylashuv tushunchasi tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi.

Ijtimoiylashuv tushunchasi tor ma'noda qo'llanilganda - ijtimoiy anglash, ijtimoiy o'quv, ijtimoiy moslashuv va ijtimoiy o'rab turgan voqe'likda o'zini anglashni o'z ichiga oladigan, individ tomonidan ijtimoiy malakalarni faol o'zlashtirish jarayoni va natijalaridir.

Ijtimoiylashuv keng ma'noda qo'llanilganda - bu insonni turli xil ijtimoiy birlikdagi ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, ular tomonidan madaniyat elementlari, ijtimoiy meyorlar va qiymatlarni inson xulq-atvori shakllanishida ishtirok etadigan o'z-o'zini anglash va shaxsiy sifatlarni

o‘zlashtirishdir.

Reabilitatsiya - organizmning buzilgan funksiyasini yaxshilash, bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.

Integratsiya - (lot. integration-tiklash, to‘ldirish, integer-butun) ma’nolarini anglatadi va sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha sanaladi.

Adaptatsiya - lotincha adaptation-moslashuv bo‘lib organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi yoki sezgi a’zolarining o‘ziga ta’sir etadigan qo‘zg‘atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasining o‘zgarishi natejasidir. Qo‘zg‘atuvchining ta’sir kuchi o‘zgarishi bilan sezgirlik ham o‘zgaradi. Qo‘zg‘atuvchilar sust ta’sir etganda sezgirlik oshadi, kuchli ta’sir etganda esa kamayadi. Bu hodisa organizmning barcha tashqi sezgilari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, badan sezgisi) ga ta’luqlidir.

Motivatsiya - bu insonlar va boshqa hayvonlarning ma’lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to‘xtatishi sababidan hosil bo‘ladigan jarayon demakdir. Motivatsion holatlar odatda agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi.

Ko‘pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat va xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiya “motiv” so‘zidan olingan bo‘lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi.

1.4. Maktabgacha inklyuziv ta’lim fanining asosiy prinsiplari

Prinsp (lotincha *principium* – so‘zidan olingan bo‘lib asos, boshlanish kabi ma’nolarini anglatadi. Nazariyada, fanda, siyosatda boshlang‘ich qoida, bosh g‘oya, xulq-atvorning bosh qoidasi va boshqalar prinsp tushunchasiga misol bo‘ladi.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanida bir qancha prisplar mavjud bo'lib ular mazmunan bir-biriga yaqin hisoblanadi va ular quydagilarni tashkil etadi.

1. Insonning qadr qimmat, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emaslik prinsipi.
2. Har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega ekanlik prinsipi.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga egalik prinsipi.
4. Har bir kishi bir-biriga muhtojlik prinsipi.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshirilish prinsipi.
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga majburlik prinsipi.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishiga ishonish prinsipi.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama ko'chaytiruchi vosita ekanlik prinsipi.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining asosiy xususiyatlari – asosan 3 qisimga bo'linadi. Bular “Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar”, “psixofizik rivojlanishda kamchiligi bor bolalar”, “alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar”. Fanning barcha xususiyatlar maxsus qo'llanish sohalariga ega hisoblanadi.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining afzallillari – bu muammoli bolaning maksimal imkoniyatlari va maksimal rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish va uni erta maxsus ta'lim vositalari bilan ijtimoiylashtirish maqsadida tashkil etiladigan jarayon orqali amalga oshiriladi va u quydagi avzalliklarga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi.⁵

1. O'z ichki imkoniyatlarini o'zlari uchun kashf etadilar;
2. O'zlarini barcha bilan bir xil hisoblay boshlaydilar;
3. Ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi;

⁵ B. M. Umarov va boshqalar «Pedagogika. Psixologiya» darslik T.: «IJOD-PRINT», 2019 –yil

4. O'zlarida mustaqil harakatlanishga bo'lgan ishonch paydo bo'ladi;
5. Dunyoqarashi kengayib, hayotiy tajribasi rivojlanadi;
6. Qobiliyati va imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalar teng huquqli bo'ladi;
7. O'qitish jarayonida repetitorning individual yordami hosil bo'ladi;
8. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni egallash mumkinligi ortadi;
9. Sifatli ta'lim olish va kelajakda ta'limni davom ettirish, ma'lum bir kasbni egallash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi;
10. Oddiy bolalarda hamdardlik, sabr - toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyati hosil bo'ladi;



Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining kamchiliklari - Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining afzalliklar bo'lgani kabi bu fanning bir qancha kamchiliklari ham bor ularning orasida alohida ajralib turadigan va yechimini ko'proq kutayotganlaridan ayrimlarni qayd etib o'tamiz.⁶

1. Alohida ta'limga ehtiyojli bolalarni kuzatib borish uchun tayyorlangan malakali kadrlar ya'ni o'qituvchilar, psixologlar, defektologlar, logopedlarning yetishmasligi;

2. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan yumshoq munosabatda bo'lish natejasida bu sohada tahsil olayotganlarning bilimlarini baholash jarayonining obyektiv emasligi;

3. Milliy o'quv dasturlari asosida ko'pincha ba'zi bir o'quvchilarning aniq bir yo'nalishda o'qitilmasligi yoki ma'lum bir bosqichda o'qishni davom ettirishga to'sqinlik qilishi;

4. Maktabgacha inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari ko'pchiligi tegishli ma'lumotlarga ega emasligi;

5. Maktabgacha inklyuziv ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan kadrlarning aksariyati o'rta ma'lumotli va oliy ma'lumotlilikka harakatning yo'qligi;

6. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun nafaqat maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yetishmasligi, balki davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu ta'limning yo'lga qo'yilmaganligi;

7. Maktabgacha inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazaning yetishmasligi;

8. Alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish uchun zarur bo'lgan pedagoglarning, psixologlarning va boshqa mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligidagi sustkashlikning mavjudligi;

9. Standart o'quv rejalari alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar uchun mos emasligi;


10. Alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar uchun yaratilgan dasturlarni qayta ko'rib chiqish yoki modernizatsiya qilish holatining pastligi;

⁶B. M. Umarov va boshqalar «Pedagogika. Psixologiya» darslik T.: «IJOD-PRINT», 2019 –yil

11. Mutaxassislar tominidan alohida ehtiyojli bolalarning bilimlarini xolisona ba'holash tizimining mavjud emasligi va buning natejasida bilimlarni ba'holash jarayonining to'g'ri emasligi;

1.5. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining asosiy tamoyillari

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining asosiy tamoyillari - ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun-qoidaga, ya'ni tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:



Inklyuziv ta'limning e'tirof etilish tamoyili - bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon alohida ehtiyojmand bolalarni maxsus va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdi.

Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun hujjatlarni qabul qilish va ishlab chiqish bilan bog'liq holatda hal bo'lib qolmaydi balki diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim bo'lgan usullarni ishlab chiqish bilan hal etiladi.

Ya'ni maktabgacha inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili - o'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini, shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lish tamoyili - "Bog'lanish" so'zining mazmunida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun ta'lim muassasalariga kirish va chiqishning oson bo'lishi masalasi yotadi. Imkoniyati cheklangan bola ta'lim muassasasi binosiga (maxsus zinapoyalar yo'ligi yoki zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli kira olmagan yoki ta'lim muassasalarining xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun ta'lim olish imkoniyati cheklab qo'yilmasligi kerak.

Bu kabi qulayliklarni yaratish juda katta xarajat talab qilmaydi. Har qanday ta'lim muassasasi yangi binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda barpo etilmasdan oldin rejalashtirilishi kerak.


Albatta nogiron bolalar uchun qulay bo'lgan sharoitning mavjudligi normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech qanday muammo keltirib chiqarmaydi. Mazmunan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili - bu tamoyilning mazmuni quydagi ikkita aspektni o'z ichiga qamrab oladi.

- Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

- Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiyaga erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lishi muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni mudao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari, nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkonini beradi. Bu ulardagi shaxsiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolalarning ijobiy rivojlanishiga halaqit berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.



Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili - bu tamoyil nogiron bolalarga faqat nuqson jihatdan yondashish emas, balki bunday bolalarga har tomonlama yondashish lozimligini anglatadi. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotganda uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi.

Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korrektsiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borishni maqsad qilish talab etiladi. Bu tamoyilning mazmunida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davridan boshlab alohida yondashish lozimligini anglatadi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi MTT da va maktabda o'qish bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim olishi ham amalga oshirilishi lozim. Chunki inklyuziv ta'limning asosiy vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iborat.

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili - bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi lozim. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.


Malakaviylik tamoyili - bu maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi shart.

1.6. Maktabgacha inklyuziv ta'limni amalga oshirish bosqichlari

1) ***Izlab topish va jalb qilish bosqichi*** - nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalanib qolish bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular jamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib bormoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshqalardan bекitish holatlari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir.

Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibot -tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish

imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi ta'lim muassasalariga jalb etishi shart.



2) ***Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi*** - bu bosqichda ta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasini tuzib chiqish va bu tuzilgan reja asosida faoliyat olib boorish demakdir.

3) ***Reabilitasiya bosqichi*** - bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiradi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim - tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boradi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi.

Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazida turadi.

4) ***Integratsiya bosqichi*** - bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitasiya jarayoni amalga oshirilgan, nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. YA'ni bu bosqichda

nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyatini beradi.

1.7. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining ilmiy tadqiqot metodlari

Metod (uslub) grekcha (metodos-«yo'l» so'zidan olingan) – bu obyektiv borliqni o'rganish, o'rganilayotgan hodisalarning qonuniyatlari, aloqalarini bilish, ularning paydo bo'lish sabablarini aniqlash yo'li usulidir. O'qituvchi-difektologlarning faoliyatida qo'llash uchun ularning ixtiyorida ta'lim metodlarining va ilmiy tadqiqot metodlarining turli xillaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi.⁷ Bu metodlar tadqiqotlarning barcha turlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanni quyidagi toifa bolalarning ta'lim va tarbiyasi muammolarini hal etadi va shu toifadagi bolalar muammolari o'rganish va hal etish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi: intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar, hissiy-irodaviy sohasi buzilgan bolalar, shuningdek, erta bolalar autizmi, xulq-atvori va faoliyati buzilgan bolalar, murakkab nuqsonli bolalar.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining ilmiy tadqiqot metodlari - bu maktabgacha inklyuziv ta'lim sohasida mavjud bo'lgan muammolar, hozirgi vaqtda ham yechimini kutayotgan mavzularni ochishda va olib borilgan tadqiqot natejalari asosida sohani rivojlantirishda ishlatiladigan metodlardir. Maktabgacha inklyuziv ta'limda bir qancha ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

Har bir ilmiy tadqiqot metoddi o'z xususiyatiga ega hamda o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning u yoki bu tomonini ochishga qodirdir. Tarbiyaga oid barcha ish tajribalarini o'rganmay va

⁷ J. Hasanboyeva va boshqalar «Pedagogika» darslik «Noshir» T.: 2020-yil

umumlashtirmay, pedagogik jarayonni chuqur tadqiq qilmay turib pedagogika fanini rivojlantirib bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqot uslublari bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rganish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy ma'lumotlar olish yo'llaridir. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanni uchun xizmat qiladigan ilmiy tadqiqot metodlari quydagilardan iborat:


Kuzatish, eksperiment, maktab hujjatlarini o'rganish, o'quvchilar ishlarini o'rganish, suhbat va anketalar o'tkazish ilmiy pedagogik tadqiqot uslublari jumlasiga kiradi.

Anamniz (grekcha ananmesis “xotiralar”) – bu metod o'qituvchi defektolog o'rganilayotgan obyektining kasalligi, kasallikning kelib chiqish sabablari, potogenezi va asab sistemasining faoliyati imkominiyatlari aniqlashda yordam beradi. Bu metodda yana onaning homiladorlik vaqtidagi sog'lig'ining ma'lumoti, irsiy ma'lumotlar, tug'riq qanday kechganligi aniqlanadi. Bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish ma'lumotlari, uning psixik faoliyatlarining paydo bo'lishiga oid ma'lumotlar ham bu metod uchun juda muhimdir.

Masalan: bola bo'ynini qachon tutgan, qachon kula boshlagan, yorqin narsalarni kuzata boshlagan vaqti, atrofida qilarga ko'zi tushgan paytda reaksiya qachon paydo bo'lgani, qachon o'tirganini, yurganini, nechchi yoshida tili chiqqanligi, dastlabki gaplari, ishlatgan iboralari bu tadqiqot metodi uchun e'tiborli sanaladi. Bolaning bir yoshgacha qanday kasalliklar bilan og'riganligiga e'tibor beriladi.

Bu kasalliklarning qanday kechishi (o'tkir yoki qayta-qaytalanishi) tomir tortish va hushidan ketish holatlari bo'lgan yoki bo'lmagaligi, bolaning psixik taraqqiyoti qanday o'zgarganligi aniqlanadi. Shundan so'ng tadqiqotchi o'z ishini bola bilan aloqa o'rnatishga, uning bilish faoliyatini o'rganishga yo'naltiriladi.⁸

⁸ J. Hasanboyeva va boshqalar «Pedagogika» darslik «Noshir» T.: 2020-yil



Katamniz - anamez tushunchasining antonimi (grekcha katta, leyin, mnemaynen - tarbiya) ma'nolarini anglatadi. Bu metod uchun asosan o'smirlar tanlab olinadi va uning maktabni bitirgandan keyingi kundalik turmush sharoitida hamda amaliy faoliyati haqida olingan ma'lumotlar yig'indisidan foydalanib ish ko'rish maqsad qilib qo'yiladi.

Bu maxsus muassasalarning korreksion tarbiyaviy ishlarining samaradorligini tekshirishda muhim metodidir. Bu metod yordamida maktabni bitiruvchilar ijtimoiy-ishlab chiqarish faoliyatiga qanchalik kirishib ketishganini "ijtimoiylashganini", "hayotga moslashganini" bilish mumkin.

Kuzatish metodi – bu metod maktabgacha inklyuziv ta'lim fani yuzasidan tanlangan muammonining ilmiy ahamiyatini ochish uchun

maxsus tashkil etiladi va aniq belgilangan kuzatish mavzusini hamda kuzatishdagi dalillarni hisobga olishni nazarda tutadi.⁹ Bu metodning asosiy sharti tadqiqotchi pedagogik jarayonning borishiga aralashmaydi.

U kuzatish rejasini oldindan ishlab chiqishi lozim bo'ladi. Tadqiqotchining rejasida dalillarni, o'zgarishlarni to'plash tartibi, ularni hisobga olish talabi va ishlab chiqish mexanizmlari ko'rsatilgan bo'ladi. Bundan tashqari kuzatish natijasida ma'qullanadigan yoki inkor etiladigan ishchi (gipoteza) yaratib olinadi. Maktabgacha inklyuziv ta'limda kuzatish metodining afzalligi shundan iboratki, u obyektlarni tabiiy holatda o'rganish imkonini beradi.

Bu metoddan foydalanishda dalillar aniq bo'lishi va tadqiqotchining shaxsiy sifatlarigagina bog'liq bo'lmasligi juda muhim sanalanadi. Kuzatishlar jarayonida kuzatiladigan obyektни yoki jarayonni aniq qayd etish lozim bo'ladi.

Kuzatish tadqiqot jarayonida tutash yoki tanlama bo'lishi mumkin.

-tutash kuzatish tadqiqot maydonini kengroq hajmda ko'z atishga nisbatan aytiladi. masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish mashg'ulotlari, faoliyatlarini kuzatish:

-tanlama kuzatishda tadqiqotning kichik - kichik hajmdagi hodisalarni ko'z atishga oid holatda qo'llaniladi, masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarning korreksiyalanuvchi mustaqil faoliyat jarayonlari kuzatiladi:


Kuzatish metodida kundalik yuritish kuzatishlarni qayd qilishning eng sodda va qulay vositasidir. Ammo kuzatishlarni qayd qilishning eng ishonchli usulli moslamalardan ya'ni texnik vositalardan foydalanish hisoblanadi. (vedio telekomunikatsiya, foto va kinosiyomkalardan yoki telekrandan foydalanishdir).

Anketa so'zi - fransuzcha so'z bo'lib, tekshirish degan ma'noni anglatadi. Anketa metodi respondentlardan so'rash metodi bo'lib, u respondentlar tarkibining sifati to'g'risida kerakli ma'lumotlarni olish

⁹ M. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev «Pedagogika»T.: «O'qituvchi» nashriyoti 2000-yil.

uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek kasbga yo‘llashni belgilash uchun ma’lum bir shaklda o‘tkaziladi.

Bu metodni qo‘llashda quyidagi talablarga amal qilish kerak:



Kibernetika metodi - kibernetika grekcha so‘z bo‘lib, rolni boshqaraman, idora etaman boshqarish san’ati degan ma’noni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy prinsip va vositalarini ishlab chiqadi.

Kibernetika metodining mazmunini dasturlashtirish, boshqaruvchi tizimlari, model yasash singari asosiy nazariyalar tashkil etadi. Pedagogika kibernetika o‘quv jarayonini, o‘qitish va bilim berish jarayonlarini boshqarishning alohida shakli sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o‘rtasida juda katta farq bor.

Sotsilogik metod - yuqoridagi sanab ko‘rsatilgan metodlar qo‘llashda tadqiq qilinayotgan respondentlar soni chegaralangan ularning kamchiligi ham shunda ekanligini bilishimiz darkor.

Bunday paytda o‘quvchilarning ko‘pchiligi bilan ommaviy ravishda Maktabgacha inklyuziv ta’lim fanining u yoki bu muammosini hal etishda sotsiologik metodini qo‘llash talab qilinadi.

Pedagogika ilmiy tadqiqot metodlaridan yana biri **nazariy pedagogik g‘oyalarni tahlil qilish metodidir**. Bu metod ta’lim-tarbiyaning muhim masalalarini ilmiy umumlashtirish bilan emas. Balki

uni amalga oshirishda yangi qonuniyatlarni tajribaga asoslangan (empirik metod) amalga oshirish zarur.

Modellashtirish - bu real mavjud pedagogika tizimiga aynan o'xshash maxsus andoza (model) ni yaratib, unda bu tizimni tashkil qilish va faoliyat ko'rsatish prinsiplarini takrorlagan holda uning moddiy yoki hayoliy tarzda ishlab chiqilishi demakdir.

Modellashtirish yordamida tizim aniq holatda muhim bo'lmagan xususiyatlaridan chetga chiqishi mumkin. Tadqiqotchi pedagog bu metoddan foydalanar ekan, bu metodning ayrim xususiyatlari, shakllari va jarayonlarni analitik tarzda o'rganish o'rniga nazort qiladigan sharoitlardagi yaxlit tizimlarni sintetik tarzda bilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Suhbat metodi - ilmiy tadqiqotlarda suhbat metodidan ham keng miqiyosda foydalaniladi. Bu metoddan foydalanish kuzatish metodidan olingan ma'lumotlarni to'ldiruvchi va aniqlovchi materiallar olish, ekspremental topshiriqlar bajarish imkonini beradi. Bu metod yutug'ining asosi bolalar bilan aloqa o'rnatilishi, ular bilan bimalol erkin muloqotda bo'lish imkoniyatining ta'minlanganligidan iborat.

Suhbat uchun o'tkaziladigan tadbirning maqsadini aniqlash dastur ishlanmasi, yo'nalishi va metodikasini asoslash uchun juda muhimdir. Suhbat metodi bevosita berilgan savollarga respondentlar javobining ishonchliligini tekshirish imkonini beruvchi bevosita va bilvosita savollarni kiritishni nazarda tutadi. Bolalarning javoblari albatta videotasmaga qayd qilib boorish muhimdir.

Eksprement metodi - bu ham kuzatish metodi natejalariga oid bo'lib farqli jihati u maxsus tashkil qilinadi, tadqiqotchi tomonidan alohida nazorat qilib turiladi va muntazam ravishda o'zgartirib boriladigan sharoitda o'tkaziladi. Eksprement metodidan mashg'ulot jarayonida kasbiy qiziqishlarni tarbiyalash u yoki bu usulini, ko'rsatma sifatida qo'llash samaradorligini tadqiq qilishda foydalaniladi. Tadqiqotchi eksprement o'tkazishdan oldin tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni

aniq belgilab oladi, bunday masalalar hal qilinishi, amaliyotda sinab ko‘rilishi, pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Eksprement metodining natejalari tahlil qilinadi, taqqoslanadi, buning uchun ikki yoki bir necha guruhlar tuziladi bu guruhlarga olingan bolalar tarkibi bo‘yicha tayyorgarlik darajalari va boshqa ko‘rsatkichlari imkoni boricha bir xil darajada bo‘lishi lozim. Tadqiqotchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan ekspremental material bo‘yicha ish bajariladi. Natejani taqqoslash uchun nazorat guruhleri tanlanadi, bu guruhlardagi bolalar tarkibi ularning jismoniy rivojlanish darajalar bo‘yicha taxminan ekspremental guruhlarga teng holatda bo‘lishi kerak, tanlangan guruhlarda qo‘llanilgan metodlar boshqa guruhlarda qo‘llanilmaydi.

Eksprement natejalari haqida obyektiv ma‘lumotlar olishning bir necha usullaridan foydalaniladi va ular quydagilardan iborat bo‘ladi.

1. Ekspremental guruhlarda boshlang‘ich shartlar nazorat guruhlariga qaraganda bir muncha qulayroqdir; Agar ekspremental guruhlarda aniq sharoitlarda yaxshi natejalar olingan bo‘lsa masalani ekspremental hal qilish o‘zini oqlagan hisoblanadi.

2. Bolalarning tarkibi taxminan bir xil bo‘lgan ikkita guruh tanlab olinadi. Tadqiq qilinayotgan masalaning yangiligi shu guruhlarning aynan bittasida qo‘laniladi.

3. Boshqa mavzu materiallaridan ikkinchi bir guruhni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Agar bunday qo‘lanilishdagi yangi metod yaxshi nateja bersa bunday metod o‘zini oqlagan bo‘ladi.

Tibbiy, psixologik - pedagogik hujjatlarni o‘rganish - bugungi kunda o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlarning keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. O‘zlashtirish natejalarini oluvchi hujjatlar (reja tuzish, rejalashtirish) va boshqa shakllardan iborat bo‘ladi.

Bolalarning ishlarining ayrim qisimlari bo‘yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash mashg‘ulotning ma‘lum davri davomida o‘sishi va rivojlanishlarini aniq o‘rganish imkonini beradi. Misol uchun yurish mashqlari shu maqsadda o‘tkaziladikki ularni tekshirish natejasida bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini mashg‘ulotlaridan

o'zlashtirgan harakat ko'nikmalarini o'zlashtirish natejalari aniq ko'rinishi kerak.

Ma'lum vaqt ichida maxsus ishlarni bajartirib turish bolalar olg'a siljiyotganini va qanday darajada siljiyotganini ko'rsatadi. Bunday tahlil butun guruh bolalar duch keladigan murakkab qiyinchiliklarni, shuningdek bolalarning jismoniy sifatlarni o'zlashtirishlaridagi individull xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.¹⁰


Bola faoliyati natijalarini tahlil qilish - pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda respondentlarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlarni tahlil qilishda va xulosalar chiqarishda foydalaniladi. Maqsad alohida ehtiyojmand bolalarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Bu metodlarni tanlash bolani psixologik - pedagogik o'rganish vazifalari va maqsadlarini qo'yishda uni ijtimoiy rivojlantirish sharoitida va korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir usullarini tanlashda qo'llaniladi.

1.8. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fani bugungi kunda rivojlangan va o'zining nazariy va amaliy ahamiyati bilan alohida ajralib turadigan bir qancha fanlar bilan aloqador. Bunday fanlar qatorini bir necha o'ntalikdan iborat ketma - krtlikda sanashimiz mumkin. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanni bilan aloqador fanlarni mohiyatidan va mazmunidan kelib chiqqan holda turlarga ajratamiz.

Falsafiy fanlar jamiyat va odam hulqi bilan bog'liq fanlar majmui hisoblanadi. Ularning qatoriga quyidagi fanlar kiradi; (antropologiya, arxeologiya, iqtisodiyot, tilshunoslik, siyosat, sotsiologiya, tarix, huquqshunoslik).

¹⁰P. M. Po'latova «Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)» T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti 2005-yil



Antropologiya-odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqalarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farqtafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan. Arxeologiya-qadimgi moddiy madaniyat yodgorliklariga asoslanib kishilik jamiyatining o'tmishini o'rganuvchi fan. Siyosatshunoslik-siyosat, jamiyat, odamlar, jamiyat va davlat munosabatlari haqidagi fan. Sotsiologiya-ijtimoiy tizimlar, guruhlar, shaxslarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan. Tarix-o'tmish voqealar haqida axborot olish, yig'ish, tartiblashtirish va namoyish etish bilan shug'ullanuvchi fan tarmog'i hisoblanadi.

Tabiiy fanlar - bu olamni u biror tabiiy qonunlarga bo'ysunadi, deb qarovchi va uni rotsional o'rganuvchi bo'limlaridir.

Tabiiy fanlar uslubiyoti ijtimoiy va aniq fanlar uslubiyotidan farq qiladi. Tabiiy fanlar sirasiga fiziologiya, biologiya, anatomiya, gigiyena, bioximiya, biomexanika geografiya, fizika, astronomiya, kimyo fanlari kiradi. Fiziologiya-tirik organizmlar va ularning qismlari, sistemalari, organlari, to'qimalari va hayot faoliyatini o'rganadigan fan.

Biologiya-tirik tabiat haqidagi fanlar majmuasi. Biologiya hayotning barcha ko‘rinishlari: tirik organizmlar va tabiiy jamoalarning tuzilishi va funksiyasini, tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va tarqalishi, ularning bir-biri va tirik tabiat bilan o‘zaro bog‘lanishini o‘rganadi. Gigiyena-tibbiyotning bir sohasi; kishilar sog‘lig‘iga turmush va mehnat sharoitlari ta’sirini o‘rganadi hamda kasalliklarning oldini olish, yashash uchun eng qulay sharoit yaratish, sog‘liqni saqlash va umrni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan fan.

Biomexanika- biofizikaning tirik organizm, organ va to‘qimalarning mexanik xossalari hamda ularda sodir bo‘ladigan mexanik hodisalarni o‘rganuvchi bo‘limi. Geografiya-yerning geografik qobig‘i, uning struktura va dinamikasi, alohida komponentlarini hududlar bo‘yicha o‘zaro ta’siri va taqsimlanishini o‘rganadigan fan. Fizika-tabiiy borliq haqidagi fan bo‘lib, tabiatning eng keng tarqalgan qonunlari, modda, uning tuzilishi, harakati va o‘zgarish qoidalarini o‘rganadi. Fizika bu tabiiy fandir, lekin undagi qonuniyatlar va hisob-kitoblar va aniqlikka asoslanadi.

Pedagogik fanlar-shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlar shuningdek, bolaning fizilogik, psixologik holatini inobatga olish muhim ekanligini o‘rganuvchi fanlar tarmog‘idir.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirish masalalarini o‘rganuvchi fan.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fizilogik xususiyatlarini tadbiq etish haqidagi fan hisoblanadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika va psixologika rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bo‘g‘liq muammolarni o‘rganuvchi fanlar tarmog‘i bo‘lib u o‘z navbatida korreksion pedagogikaning tarkibiga kiruvchi fanlar

surdopedagogika va surdopsixologiya, tiflopedagogika va tiflopsixologiya, oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya, logopegiya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi kabi sohalar bilan bog‘liq. Pedagogika tarixi - ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchilik qilgan pedagogik taraqqiyotini o‘rganuvchi fan. Pedagogik texnologiya-ta’lim tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganuvchi fan.

Pedagogik mahorat -bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini tahlil qiluvchi fan. Ijtimoiy pedagogika-ijtimoiy manosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning o‘rni va ahamiyatini oshiruvchi shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirishni ta’minlovchi fan.¹¹

Savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha inkulziv ta’lim fanining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
2. Maktabgacha inkulziv ta’lim fanining asosiy xususiyatlarini izohlab bering?
3. Maktabgacha inkulziv ta’lim fanining tamoyillarini aytib bering?

¹¹ R. Mavlonova va boshqalar «Pedagogika» darslik «O‘qituvchi» T.: 2008-yil

Mavzu: Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining meyoriy - huquqiy asoslari

2.1. Maktabgacha inklyuziv ta'limning huquqiy - meyoriy hujjatlarda yoritilishi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”da “Ta’lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alohida e’tirof etiladi. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishlidir. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975-yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”ga Deklaratsiyani qabul qilindi.¹²

Mazkur Deklaratsiyada ta’kidlanishicha: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘lgan nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat’iy nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlar, shu bilan birga ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega”. (“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya 3-modda). “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyaning mazmunidan shu narsani tushinish mumkinki, nogiron fuqarolar uchun jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish kafolatlanadi.

Ammo mazkur Deklaratsiyada nogiron bolalar, ularning ta’lim olish imkoniyatlari barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini ta’minlash yo‘llari batafsil yoritilmagan edi. Shu sababli BMT 1989-yilda bolalar huquqlarini yanada mustahkamroq muxofaza qilish maqsadida “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalarning huquqlarini hamma joyda himoya qilish maqsadida ishlab chiqarilgan bolalar huquqlari borasidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi.

¹² BMT 1975-yilda "Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida"ga Deklaratsiyani qabul qilindi

U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan radifikatsiya qilingan. Konvensiyani radifikatsiya qilgan 191 ta mamlakat ko'ngilli tarzda zimmalariga "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tadbiq etish majburiyatini oldi. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"¹³ kompleks va universal xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta'minlab beradigan yagona Konvensiyadir. "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladi.

Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida "Bolalar ularning ota-onalari, boquvchilarining irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog'lig'i, qanday holatda tug'ilganliklari va boshqa holatlaridan qat'iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasligi kerak" - deb qat'iy belgilangan. Demak, bu Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo'lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo'lish kafolatlanadi.

Shunday ekan, "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqini ham kafolatlaydi. Aynan 28-modda "Ta'lim insonning siyosiy huquqi", deb nomlangan bo'lib, unda ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini e'tirof etadilar, hamda ana shu huquqni teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etadilar-deyilgan. Ushbu modda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ta'lim olishlarini, ular uchun ham ta'limning majburiy ekanligini ko'rsatib turibdi.

"Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlab, "barcha huquqlar barcha bolalarga" tamoyilini e'tirof etadi. Shuningdek, "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 23-bandida maxsus ehtiyojli bolalarning

¹³ BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"


ta'lim tarbiyasi xususida qisqa va aniq qilib quyidagicha ta'kidlangan: "Nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta'lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim". Bu qoidadan shu narsa ayon bo'ladiki, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi, madaniyatga hamohang bo'lib o'sishi, uning boyliklaridan, go'zalligidan bahra olib jamiyatning rivojiga hassa qo'shishlarining ahamiyati juda kattadir.

Ularning mana shunday imkoniyatlarga ega bo'lishida maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim tizimi va uning mazmuni talabga javob bera olagigan darajada ta'minlanishi kerak. Shuning uchun ham insonparvarlik nuqtai nazaridan jahondagi ko'plab mamlakatlar maxsus-segregasion ta'lim tizimini inkor eta boshladilar. Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berishni ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritdi. Buning natijasida esa 1990-yilda Tailandning Djom'ten shahrida o'ta muhim

Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155 ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildi. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatladi.

Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qilingan: "Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas bolaning layoqati va maktab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Ular quyidagilardan iborat:




“Ta’lim hamma uchun” maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muhtoj bolalarning to‘laqonli mukammal ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida 1994-yilning 7-10 iyun kunlarida xalqaro YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan Ispaniyaning Salamanka shahrida ikkinchi yirik Umumjahon Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur Konferensiya “Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limining kelgusidagi ijrosini ta’minlash Ramkasi” deb atalib, shu yili Salamanka bayonoti “Ish faoliyat Rejasi”


nomi bilan turli nashrlarda chop etildi. Bu hujjatda huquqlar bo'yicha bayonotlar mazmunlarini yorituvchi fikrlar bayon etilgan.

Salamanka bayonoti va Ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar o'qishga qabul qilishlari lozim. Mazkur hujjatda ta'kidlanishicha: "Har bir bola ta'lim olish va o'ziga muvofiq darajada bilimga erishish huquqiga ega":

Bu huquqlar quydagicha ifodalanishi mazmunan to'g'ri deb ko'rsatilgan.



Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash oddiy maktablarning ish faoliyati doirasiga kirar ekan, bu jarayon quyidagi maqsadlarga erishishning eng samarali vositasi bo'la oladi:



Yuqoridagilarga qo`shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, oddiy makablarda bolalarning ko`p qismiga samarali ta`lim berish, umumiy faoliyatning mazmunini tashkil etadi. Salamanka bayonoti va Ish faoliyat rejasida "Ta`lim hamma uchun" shiori ilgari surilamoqda. "Ta`lim hamma uchun" shiori deganda nogiron bo`lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo`yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham teng huquqliligi asosida ta`lim olishlari tushuniladi.

Jumladan, harakat rejasining 3- bandida shunday deyiladi: "Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko`chmanchi xalqlarga tegishli bo`lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchililik asosida tashkil topgan oilalarning bolalari kiradi" (Harakat Rejasiga kirish 3- band). Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta`lim tizimi sharoitida inklyuziv ta`lim berish lozimligi alohida ta`kidlanib, har bir bolaning boshqalarnikiga o`xshamagan o`z ehtiyojlari mavjudligi shuningdek, har bir bolaning yashash joyiga yaqin bo`lgan maktabga borish huquqi mavjudligi alohida ta`kidlab o`tilgan. Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasining ishlab chiqilishi jahon miqiyosida "Ta`lim hamma uchun" mazmunidagi ta`lim siyosati ilgari surilib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta`lim tizimi sharoitida o`qitishning yo`llari belgilab berildi.

Ammo bu ta`lim tizimining mazmun - mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq holatda huquqiy jihatdan asoslash, va uni qat`iy belgilab berish lozim ekanligini ta`minlay olmadi. Shuning uchun ham 2000-yilning 26-28 aprel kunlari Dakarda ta`lim to`g`risida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan "Dakar harakat dasturi" qabul qilindi. Forum qatnashchilari 10 yil oldin qabul qilingan "Ta`lim hamma uchun" Xalqaro Deklaratsiyani qayta tasdiqlab, radifikatsiya qildilar.

Dakar harakat dasturi "2000-yilga qadar jahon miqiyosida ta`lim hamma uchun amaliy faoliyatining darajasini baholash" maqsadiga


asoslanildi. Bu baholashda har bir davlatga o'zining ta'limini barcha bolalar uchun taminlanganlik darajasini tahlil qilib chiqish vazifasi topshirildi. Tahlil asosida har bir davlat 6 ta hududiy Konferensiyalarni o'tkazish davomida 1990-2000 yillarda erishgan yutuqlarini Djomtyenga yetkazib turish lozim deb belgilandi. Dakar harakat Ramkasiga kirgan barcha davlatlar 2002-yilga qadar "Ta'lim hamma uchun" rejasini mukammal tuzib, 2015-yilga qadar bu ta'lim tizimini amaliyotga to'liq joriy etishlari lozim deb topildi.

Ushbu harakat Ramkasi tarkibiga kiruvchi davlatlarning barchasi "Har bir insonga va har bir jamiyatga" shiori ostida barcha insonlar va bolalar ta'limini to'laqonli ta'minlash majburiyatini oladi. Bu harakat dasturida "Ta'lim xavsiz, sifatli, bolaning sog'lig'ini himoya qilib, mustahkamlaydigan, hamma uchun birdek, inklyuziv ta'lim barcha zaruriy resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. O'qituvchilarning saviyasi va o'quv rejalar "Ta'lim hamma uchun" maqsadlariga javob berishi kerak"-deb belgilangan edi.

Uchinchi ming yillik arafasida o'tkazilgan mazkur Dakar Umumjahon Konferensiyasida xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlarda e'tirof etilgan ta'lim olishdagi tenglik amalda keng tadbqiq etilayotganligi alohida ta'kidlandi. Bu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qilindi: Har bir inson: bola, o'smir va kattalarning har biri ta'lim olishi shart va bu ta'lim uning asosiy o'quv imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim; Nuqsonli bolalarning o'quv imkoniyatlari asosiy o'rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta'limga jalb qilish imkoniyatini toppish zarur.

Buyuk Britaniyada 2002-yilda "Bolalarni qutqaring" nomli jamg'arma tashkil topdi.¹⁴ "Bolalarni qutqaring" jamg'armasi tomonidan nashr etilgan "Maktablar hamma uchun" nomli o'quv qo'llanmada esa "Ko'p hollarda inklyuziv va integratsion tushunchalari bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq mavjud. Bu farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

¹⁴ Buyuk Britaniyada 2002-yilda "Bolalarni qutqaring" nomli jamg'arma tashkil topdi




Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha xuquqiy me'yoriy hujjatlar, xalqaro forum Konferensiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zosi ekanligini etirof etadi va ularning ta'limida alohida yangicha yondashuv maydongan kelganligini ma'lum qiladi.

2.2. Xorijiy davlatlarda maktabgacha inklyuziv ta'limning huquqiy-meyoriy asoslari

Jahon miqiyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilmoqda. Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo'naltirilgan qo'shimcha ta'lim ishlarini ko'rsatish ma'suliyatidan ozod etilmaydi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim

turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan.



Avstriyada 1945-yildan boshlab nogiron bolalarni differensial o'qitish tizimi tashkil etilgan bo'lib, bu ta'lim tizimida barcha turdagi nuqsonli bolalar o'qitila boshlandi. Ammo 1980-yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitilishini talab qilib chiqdilar. Folker Ruttening ma'lumotlariga qaraganda "Ayni paytda ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasida ishlovchi pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalarga segregatsiya ya'ni, maxsus ta'lim berishning afzalliklarini shubha ostiga qo'ya boshladilar. 1983-yilda Avstriyaning ta'lim vazirligi inklyuziv ta'lim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu ta'lim modeli asosan to'rtta turga ajratildi:

Inklyuziv sinflar - umumta'lim maktablariga bittadan to'rttagacha maxsus ehtiyojli o'quvchilar qabul qilinadi. Bitta maxsus ehtiyojli o'quvchi ikkita sog'lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiriladi. Sinfda ikkita o'qituvchi ishlab ulardan biri maxsus tayyorgarlikka ega bo'lib, bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg'ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o'qitiladi.

Hamkorlik qiluvchi sinflar - ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablarining sinf o'qituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradi.

Kichik komplektli maxsus sinflar - umumta'lim maktablarining deyarli barchasida 6-11 ta maxsus ehtiyojli o'quvchi jamlanadi hamda maxsus o'quv reja va dasturlar asosida o'qitiladi.

Yordamchi o'qituvchilar sinfi - 4 ta va undan ko'p maxsus ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlaydi hamda maxsus tashxis qilish va korreksion metodikalarni qo'llay oladigan o'qituvchilar tayyorlanadi.

Germaniyada 1979-yilda ta'lim to'g'risidagi majlis qatnashchilari tomonidan maxsus ehtiyojli bolalarni integratsiya ta'lim tizimida o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu konsepsiyada integrasiyaning xilma xilligi va uning mazmun - mohiyati yoritib berildi. B. L. Puzanov va Yu. A. Kostenkovalarning yozishicha, 80 - yillarga kelib Germaniya ta'lim tizimida integratsiyalashning yangicha talqini o'quv matrealini o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirish ishlari amalga oshirila boshlandi.

Ta'lim qonunchiligi va ta'lim tizimini boshqarish asosan yer hokimiyatlari mas'uliyati ostida edi, va shu sababli hududlar bo'yicha muhit o'zaro farq qilishi mumkinligi belgilandi. Oddiy o'quv yurtlariga integratsiyalashgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarga yordam berishning shakllari ham har xil qilib belgilandi. Barcha yerlar uchun "Maxsus ta'limni tashkil qilishga oid tavsiyalarni" 1972-yil, mart oyida asosiy hujjat deb hisoblash mumkin deb ko'rsatildi. Keyingi 20 yil mobaynida nogironlarning ijtimoiy va ta'lim integrasiyasi an'analari kuchaydi; bu esa umumta'lim maktablariga integratsiyalashgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning yaxshilanishiga olib keldi.

Hozirgi kunda Germaniya ta'lim tizimi ichida qo'llab-quvvatlashning turli shakllari mavjud: o'qituvchi va ota - onalarga to'g'ri maslahat berishni ko'zda tutuvchi *oldini oluvchini*; erta aralashish paytidagi fanlararo hamkorlik.

Birgalikda ta'lim darslari- yordam maxsus pedagog yoki boshqa professional mutaxassis tomonidan sinfda yoki uning tashqarisida to'liq yoki qisman ish kuni davomida (bolaning individual ehtiyojlari yoki maktab muhitiga bog'liq ravishda) ta'minlanadi.

Niderlandiyaning 28 ta umumta'lim boshlang'ich maktablarining tarkibida nuqsonli bolalar ham o'qitiladi. Ta'limiy maslahat markazlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umuta'lim sharoitida o'qitish va tarbiyalash yo'llari, xususiyatlari hamda bu bolalar haqida bilish va ma'lumotlar berish borasida bo'lim faoliyat yuritadi. Bu bo'limlarda o'quv materiallari va dasturlarini yangilash, integratsion ta'limning yagona g'oyasini ishlab chiqish, bu ta'lim jzimidagi muammolarning yo'llarini izlab topish borasida samarali ishlar olib boriladi.

Gretsiya – bu davlatda maxsus pedagoglar faoliyat yuritishi va ular barcha maktablarda bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Maxsus pedagoglar oddiy sinfda asosiy emas yordamchi rol o'ynaydi, ammo o'quvchida maxsus ta'limga muhtojlik mavjudligini sezganida alohida ta'limga ehtiyojmand bola uchun u asosiy o'ringa chiqadi va bu to'g'risida ta'lim tashkilotini xabardor qilishi talab etiladi. Maxsus pedagog ishi o'quvchiga bevosita yordam berish va sinf o'qituvchisiga maslahat berishdan iborat. Xususan, u o'quv materialini tanlab olish va o'quv rejasini differensiyalashda yordam ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, maxsus pedagog integratsiyalashgan o'quvchining sinfdoshlariga uning muammolari to'g'risida axborot beradi, maktab va maxsus ta'limga muhtoj o'quvchining oilasi o'rtasida hamkorlik qilishni tashkil etishga ko'maklashadi. Ta'lim yordami o'quvchiga faqatgina maktab ichida ko'rsatiladi. Maxsus pedagog bir vaqtning o'zida bir necha maktabni otaliqqa olgan maxsus ta'lim masalalari bo'yicha maktab maslahatchisi bilan to'g'ridan - to'g'ri hamkorlik qiladi. Zaruriyat tug'ilganda, maktabga ijtimoiy va psixologik yordam berilishi mumkin. U asosan ijtimoiy ta'minot vazirligining tibbiyot - pedagogik markazlari orqali biriktiriladi.

Daniya - umumta'lim maktablarida maxsus ta'limga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mas'uliyat o'qituvchiga yuklatilgan. Bu ehtiyojlarni psixolog - pedagogik xizmat belgilaydi; keyinchalik u o'quvchining rivojlanishini kuzatadi, uni o'qitish dasturiga tuzatishlar kiritadi. O'quvchini maxsus ta'limga yo'llash to'g'risidagi masala o'quv ishlari bo'yicha mudir vakolatiga kiradi. Integratsiya holatida o'qitilishi kerak bo'lgan bola turli yordam olishga to'g'ridan - to'g'ri foydalanishga haqli sanaladi va bunday yordam shakllariga quydagilar kiradi:

- sinfda maxsus o'qituvchidan bilan maxsus ta'lim olish;

- sinfdan tashqarida "guruhda ta'lim olish" (agar o'quvchi bir yoki bir necha fanlar bo'yicha muntazam yordamga muhtoj bo'lsa).

O'quvchi sinf o'qituvchisi bilan kuniga bir necha soat hamkorlik qiladigan maxsus pedagogdan ham yordam olishi mumkin. O'qituvchida o'quvchiga tanaffuslar va darsdan tashqari tadbirlar paytida hamrohlik qiladigan assistent bo'lishi ham mumkin. O'qituvchi, maxsus pedagog va assistent bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Irlandiya - maxsus ta'limga muhtoj integratsiyalashgan o'quvchilarga yordam ko'rsatish maxsus pedagog, fan o'qituvchilari, assistentlar hamda ta'lim va fan departamentining maktabdan tashqari ta'lim va psixologik xizmatlarini ko'rsatuvchi mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinflar (va biroz kattaroq) o'quvchilari haqida ularda o'qish va matematikani o'zlashtirishda muammolar mavjud bo'lgan hollarda shu maqsad uchun ajratilgan maxsus pedagoglar g'amxo'rlik qiladilar. 2000 - yildan boshlab mamlakatning barcha maktablari ularning xizmatlari bilan ta'minlangan.


Ta'lim olishda jiddiy qiyinchiliklarga uchrayotgan o'quvchilar uchun umumta'lim maktablarida ma'sus sinflar yaratiladi yoki ular bilan maxsus pedagoglar ishlaydi. Ta'lim va fan departamentining maktabdan tashqari ta'lim xizmati maktabgacha va maktab o'quvchilari va ularning ota-onalariga yordam ko'rsatadi.

Gap eng avvalo ko`rish va eshitish qobiliyati buzilgan bolalar haqida ketayapti, biroq ayrim o`qituvchilar Daun alomati mavjud bo`lgan bolalarga ham xizmat ko`rsatadi. Xizmat mutaxassislari sinf bilan birgalikda undan tashqarida ham ishlab, nafaqat boshlang`ich maktablarni, balki kattaroq yoshdagi o`quvchilarning ham oldiga kelib turadi. Ular o`quv yondashuvlari, metodikasi, dasturlari va resurslari masalalari bo`yicha maktab o`qituvchilariga maslahat beradi. Har bir bolaning ta`lim olish huquqini ta`minlash uchun ta`lim va fan departamenti psixologik xizmati pedagoglari ixtisoslashgan davlat va ko`ngilli tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi belgilangan.

Islandiya - majburiy ta`lim to`g`risidagi qonunga binoan 1995-yil maxsus ta`limga muhtoj maktabgacha yoshdagi va maktab o`quvchilari maxsus yordam olish huquqiga ega deb belgilandi. Maxsus ta`lim o`qish maqsadlari, dastur mazmuni va o`qitish uslublarini o`z ichiga oladi. "Maktablarga xizmat ko`rsatish to`g`risidagi" nizom 1996-yil o`zini-o`zi boshqarishning mahalliy organlari zimmasiga maxsus pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning xizmatlari bilan birga shahar umumta`lim maktablariga zarur yordam ko`rsatishni ta`minlashni kaearkligini yukladi. Yordam ko`rsatish deganda, maktab o`qituvchilariga o`quv dasturlari va asosiy fanlarni o`qitish masalalari bo`yicha maslahat berish, o`quvchilarga psixologik maslahat berish nazarda tutiladi.

Asosiy e`tibor o`qituvchi va o`quv bo`limi mudiriga ularning kundalik ishlarida, shu jumladan maxsus ta`limga muhtoj integratsiyalashgan o`quvchilar bilan ishlashda yordam ko`rsatish hamda maktab hayoti faoliyatini yaxshilash bo`yicha o`qituvchilarning tashabbuslarini rag`batlantirishdan iborat.

Ispaniya - Alvaro Marchesi Uyastresning tahlili asosida Ispaniyadagi inkyuziv ta`lim xususida quyidagi ma`lumotlar olindi: Ispaniya hukumati tomonidan 1985-yilda rivojlanishida kamchiligi bo`lgan bolalarni ta`lim sohasida integratsiya qilishni nazarda tutadigan loyihani ma`lum qabul qildi. Loyiha 8 yillik muddatga mo`ljallanib, undan ikkita maqsad ko`zlanadi:




Ispaniya ta'lim vazirligi loyihani bajarish maqsadida ixtiyoriy integratsiya dasturining joriy etilishi haqida qaror qabul qildi. Loyihada ishtirok etish istagida bo'lgan maktab va vazirlik o'rtasida o'zaro kelishuv shartnomasi tuziladi. Loyiha boshlanishi bilan 1985 - 1986 yillarda Ispaniyaning 300 ga yaqin maktablari har yili integratsiya dasturida ixtiyoriy qatnashish istagida bo'lganlarga talabnoma beradi.

1990 - yilda Ispaniya parlamenti tomonidan ta'lim tizimi to'g'risidagi yangi umumiy qonun qabul qilindi. Qonunda umumiy ta'lim tizimida barcha o'quvchilar uchun yuqori sifatli ta'lim olishlari kafolatlandi. 1994- yilning boshida Ispaniyada boshlang'ich maktablarning 40% qismida inkyuziv ta'lim tizimi joriy qilinadi.

Italiya – bu davlat 1992-yilda to'liq ta'lim integratsiyasini qamrab oluvchi qonunni qabul qildi. Bu qonunda maxsus ta'limga muhtoj o'quvchiga maxsus pedagog tomonidan yordam ko'rsatilishini nazarda tutilgan edi.

Unda bunday ehtiyojmandlarning mavjudligi rasmiy ravishda aniqlangan bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan. 1994 - yil 24 - fevraldagi qarorga ko'ra Maktabgacha ta'lim muassasalari, boshlang'ich va o'rta maktab shtatida asosiy pedagoglar bilan bir qatorda o'quv yurti barcha tarbiyalanuvchilarining ta'limi sifati uchun javobgar sanaladi. Assisentlar ya'ni yordamchi o'qituvchilar o'quvchilar bilan sinfda va undan tashqarida, yakka tartibda yoki kichik guruhlarda ishlashi mumkin.

Asosiy pedagog bilan birga har bir integratsiyalashgan o'quvchi uchun individual o'quv rejasi tuziladi, uni amalga oshirishda ishtirok etadi. Ularga maktab inspektorlari, turli mutaxassislar, nogironlar uyushmalarining vakillari kiradi. Bunday ishchi guruhlarining vazifasi shundan iboratki, ular integratsiyalashgan ta'limni tashkil qilish bo'yicha shahar maktablarining ishlarini kuzatib boradilar va baholab turadilar hamda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etadilar, maktab ma'muriyati va pedagoglarga maslahat beradilar.



Lyuksemburg shahrida 1994-yilda ishlab chiqilgan qonun maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar uchun maktab ta'limining turli shakllarini ko'zda tutadi. Unda yuridik jihatdan o'quvchilarga ko'mak berishning tashkiliy shakllari haqida fikr yuritilgan. Umumta'lim maktablari sharoitlarida shtatli maxsus pedagog emas, balki "yordamchi personal" deb ataladigan guruh integratsiyalashgan o'quvchiga yordam ko'rsatadi.

Ular maktabning fan o'qituvchilari sanalmasa ham ularning orasida umumiy pedagogik tayyorgarlikka ega maxsus pedagoglar, professional terapevtlar, maxsus instruktorlar, psixoterapevtlar, logopedlar bo'lishi kerak edi. Yordamchi personalning vakillari ta'lim va korreksiya (reabilitasiya) sohasidagi mutaxassislar sanaladi. Qonun mualliflarining fikriga ko'ra, mas'uliyatning bunday bo'lib olinishi amalda yaxshi natijalar beradi. Maktab o'qituvchisi bevosita sinfdagi umumiy ish uchun javobgar bo'lsa integratsiyalashgan o'quvchilarning sinfdagi ta'limi uslublari uchun mas'uliyatni ular o'z zimmasiga oladilar.

Unga zarur qo'shimcha axborotni (yo'riqnomalar) yordamchi personalning a'zolari berishi kerak. Sinfdagi yordam ko'rsatish bo'yicha mas'ul va bevosita maktab inspektorlari va o'qituvchilar bilan ish olib

boradigan Ambulator reabilitasion departament (SREA) tomonidan ko'rsatiladi.

Latviyada – bu davlatda integratsion ta'limga muammo sifatida qaralib, bu masala Liyepayskiy oliy pedagogika maktabi dasturiga kiritildi. Bu yerda asosiy muammo integratsion pedagogikada o'qituvchilar bilan maxsus pedagoglar o'rtasida hamkorlik munosabatlarini yaratish edi.

Litvada davlatida 1992-yil Ma'orif Vazirining tashabbusi bilan maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimiga integratsiyalash modeli ishlab chiqilishiga tayyorgarlik ishlari boshlanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun xorijiy va litvalik Velnyuskiy uiversitetining maxsus pedagogika laboratoriyasida bu tuzum tashabbuskorlaridan ishchilar, bolalar psixiatrlari, psixologlar, logopedlar va pedagog defektologlardan iborat mutaxassislar guruhi tuzildi.

Bu guruh tomonidan "Maxsus ta'lim tizimining loyihasi" nomi bilan integratsion ta'lim tizimining boshlang'ich loyihasi ishlab chiqiladi. 1993- yilda Litva madaniyat va ma'orif vazirligi tomonidan "Maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lim muassasalarida yordam berish (imkoniyatlari) tartibi" Qonuni tasdiqlanadi.

Norvegiya – davlatida alohida ta'limga ehtiyojmand o'quvchilarga yordam berish ta'limda psixologik xizmatining (EPS) o'quv yurtlari mutaxassislari va ota-onalarga maslahat beradigan xodimlari tomonidan ta'minlanadi. Maxsus ta'limning mazmuni, darajasi va tashkiliy shakllari muhokama qilinadi. EPS o'qituvchilarga ularning o'quvchilar bilan kundalik ishlarida maslahat berish bo'yicha mas'ullar etib belgilandi. EPS xodimlariga maxsus bilimlar yetmaydigan hollarda *milliy resurs markazlaridan birortasiga* yordam surab murojaat qilishi mumkinligi belgilab qo'yildi. Bu markazlar umumta'lim maktablari pedagoglari malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli ixtoslashtirilgan kurslarni ham tashkil qiladi.

Maxsus sinflarning barcha o'quvchilari uchun mas'uliyat integratsiyalashgan bolalar bilan ishlashda ko'maklashadigan maxsus mutaxassis etib birkutilgan o'qituvchi zimmasiga yuklatildi.

Maxsus yordamchi mutaxassis qisman yoki to'liq ish kuniga jalb qilinishi mumkinligi belgilandi. Uning xizmat vazifalari doirasiga darslarda va yoki tanaffus paytida bunday o'quvchilarga jismoniy jihatdan ko'maklashish ishlari birlashtiriladi.

Portugaliyada - integratsiyalashgan bolalarga yordamlashish bevosita sinfda maktab o'qituvchilari tomonidan ta'minlanadi. Aynan ularning o'zi bunday toifadagi o'quvchilar uchun o'quv dasturini tuzish uchun javobgar qilib belgilandi. Portugaliyaliklarning fikriga ko'ra o'qituvchi bola qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini bilmasligi mumkin, differensiyalangan individual ta'limni tashkil qilish uchun yetarlicha kasbiy bilimlarga ega bo'lmasligi mumkin ammo umumta'lim maktablari pedagoglari o'quvchilar uchun individual dasturlar, maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarni o'qitishning kundalik amaliyotida yordamchi texnik vositalar va yangi texnologiyalardan foydalanish malakalarini egallashga majburdir deb bilishgan.

1997-yildagi 105/97 - sonli qonunda umumta'lim maktablarining integratsiyalashgan o'quvchilarga ta'lim berishning sifati uchun pedagoglar javob beradi deb belgilangan. Uning qabul qilinishi maktab uchun zarur resurslar to'g'risida tasavvurlarni o'zgartirish bilan bog'liq edi. Shuni e'tiborliki, tashqaridan mutaxassislarni jalb qilish o'rniga umumta'lim maktablari shartlarini boshqa tarzda butlash lozim ekanligi belgilandi. Kadrlarga oid siyosatning o'zgarishi fan o'qituvchilariga yanada xilma-xil va tashkiliy yordam berishni ta'minlashga, maktab ichida fan o'qituvchilariga ularning ishi bo'yicha maslahat berishni ta'minlashga qaratildi.

Zaruriyatga qarab turli maktablarda ishlashi mumkin bo'lgan maxsus pedagoglarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat edi:

- o'quv bo'limi mudiri va maktab, hamda integratsiyalashgan o'quvchilar bilan shug'ullanadigan sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik;

- mutaxassis o'qituvchiga o'quv dasturini moslanuvchan ravishda qayta tuzish, uni o'quvchi imkoniyatlariga mos ravishda diffrensiyalash;
- ta'limning maxsus uslublaridan foydalanishida ko'maklashish;

Finlyandiya davlatida integratsiyalashgan bolalarga yordamlashish maktab tibbiy xizmati ishchilari va mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlarining ta'lim xizmati bo'limi tomonidan amalga oshirilishi kerakligi belgilab qo'yilgan va u ikkita yo'nalishdan iborat.

Birinchisi turli mutaxassis va terapevtlar (logopedlar, psixoterpetlar, psiximotor terapevtlar va h.) tomonidan amalga oshiriladigan yordam.

Ikkinchisi integratsiyalashgan bolalar uchun ta'limning zarur sharoitlarini ta'minlashga mo'ljallangan.

Zarur bo'lgan holda o'quv dasturi bolaning imkoniyatlariga mos ravishda o'zgartirilishi mumkin. Maxsus ta'limga o'tkazilgan har bir o'quvchi uchun unga zarur o'quv jadvalini tuzish va u bilan individual reja asosida ishlash belgilangan. Bunday o'quv rejalar bola farovonligi uchun javobgar barcha jamoa a'zolari tomonidan birgalikda tuziladi. Jamoaga o'quvchining o'zi, uning ota-onasi, pedagog mutaxassislar, mutaxassis ekspertlar a'zo bo'lishi mumkin edi.

Bunday o'quvchi hamma vaqt emas faqat ayrim darslarga kelib, asosiy guruhda o'qishi mumkin bo'ladi. Maktab shtatida maxsus pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va maslahatchilar mavjud bo'lib ularning bari o'qituvchiga yordam ko'rsatishi kerak bo'ladi. Maxsus o'qituvchi sinf o'qituvchisi va uning yordamchisiga ko'maklashishi hamda maxsus guruh yoki yakka tartibdagi mashg'ulotlarga o'quvchini olib kelishi mumkin.

Dars o'tkazish jarayonida zaruriyatga qarab boshqa mutaxassislar (logoped, LFK uslubshunosi va h.) ham bola bilan ishlashi mumkin ammo, odatda ular davolashni individual asosda o'tkazishi kerakligi aytiladi.

2.3. O'zbekistondagi maktabgacha inklyuziv ta'limning meyoriy-huquqiy asoslari

2020-yil 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonunni qabul qildi.¹⁵

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlil o'tkazdi. Hozirda qonun loyihasi Oliy Majlis Senati tomonidan ko'rib chiqilmoqda. 2020-yil 2-iyun kuni Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash qo'mitasi mazkur qonunni takomillashtirish bo'yicha nogironligi bor insonlarning 26 ta jamoat tashkilotini birlashtirib turgan O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasiga so'rov yubordi. Hujjat tahlili shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday tarzdagi kamsitishni istisno qiluvchi ta'lim shakli sifatida kiritilganligiga qaramay, qonun loyihasi inklyuziya tamoyillariga to'g'ri kelmaydi.

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash qo'mitasi ekspertlar kengashi a'zosi **Oybek Isoqov** qonun loyihasida inklyuziv ta'limga ta'rif berishdan boshlash kerakligini ta'kidladi. U quyidagi ta'rifni qonunga kiritishni taklif qiladi:

"Inklyuziv ta'lim - barcha bolalar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir".

Biroq, qonunning 20-moddasi "Inklyuziv ta'lim" bu ta'rifni o'z ichiga olmaydi. Unda faqatgina "inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, shu jumladan ta'lim olish chog'ida o'ziga nisbatan har qanday tarzdagi kamsitishni istisno etuvchi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga nisbatan teng huquqli munosabatda bo'lish" haqida so'z boradi. Mazkur modda nogironligi bo'lgan bolalarning barcha, ya'ni aqliy

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni Qonunchilik palatasi 19-mayda yangi tahrir 2020-yil

va sensor (eshitish va ko`rish) nuqsonlari bo`lgan bolalar toifalarini qamrab olmagan. Moddada ishlatilgan tushuncha “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to`g`risida”gi qonunda keltirilgan “nogiron bolalar” tushunchasiga mos kelishi lozim.

Mazkur hujjatning 20-moddasida inklyuziv ta`lim olish huquqini cheklaydi va quyidagi shartni qo`yadi: “Ta`lim tashkilotlarida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo`lgan bolalarga inklyuziv ta`lim olishi kerak va buning uchun ushbu tashkilotlarda zarur sharoitlar yaratilgan bo`lishi lozim ekanligini anglatadi” deb ko`rsatiladi. Boshqacha aytganda, agar ta`lim tashkilotida inklyuziv sharoitlar yaratilgan taqdirda, nogironligi bo`lgan bolalar inklyuziv ta`lim huquqidan foydalanishga da`vo qilishlari mumkin.

Modda ta`lim muassasasiga nogironligi bo`lgan bolalar uchun maqbul sharoitlarni yaratib berish majburiyatini yuklamaydi. Bundan tashqari, 20-moddada inklyuziv sharoitda ta`limni individual tartibda uyda yoki statsionar sharoitda tashkil etish tartibini belgilash uchun barcha vakolatlarni “ta`lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari” ga berib, inklyuziv ta`lim olish huquqini cheklaydi.

Qonun hujjatining 9-moddasida “Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo`lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalarida, umumiy o`rta ta`lim muassasalarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta`lim olishi kerak” deyilgan. Ushbu moddada keltirilishiga ko`ra, inklyuziv ta`lim ustuvor emas, balki hozirgi kunda mavjud ta`lim shakllaridan birigina xolos. O`zbekistondagi inklyuziv ta`lim tadqiqotchisi, yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktoranti Galina Namning ta`kidlashicha, nogironligi bo`lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, balki umumiy tipdagi ta`lim muassasalarida ta`lim olishlari ustuvor bo`lishi kerak deb ta`kidlaydi.

Mutaxasis Galina Namning ta`kidlashicha “Bu barcha ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalarining bir vaqtda yopilishini anglatmaydi,

lekin bolalarning bu kabi maskanlarda va uyda o`qishiga faqatgina alohida holatlarda rozilik berishi zarur. Ta`lim muassasasini tanlash huquqi bolalarning o`zida va ularning ota-onasida yoki qonuniy vakllarida qolishi kerak”. Mutaxassis bildirgan fikrlari davomida u bolalarning inklyuziv ta`lim olish huquqini kafolatlash uchun maktab-internatlarda yashayotgan va ta`lim olayotgan bolalarda deinstitutionalizatsiya jarayonini amalga oshirish kerakligini ta`kidlaydi.

Shu munosabat bilan barcha darajadagi mutasaddi tashkilotlar ushbu guruh tarkibidagi bolalarning deinstitutionalizatsiya qilinishiga qaratilgan tizimli yondashuvlarni ishlab chiqishi va hayotga tatbiq qilishi kerak. Bu kabi yondashuv ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuvini rejalashtirish va amalga oshirish, keyinchalik umumiy ta`lim muassasalariga yo`naltirishni, institutsionalizatsiya jarayonining oldini olish, ushbu bolalar va ularning oilalari uchun qo`llab-quvvatlash (psixologik, ijtimoiy, moliyaviy, rekreatsion va pedagogik) xizmatlarini yaratishni qamrab olishi lozim ekanligi alohida ta`kidlaydi.

“Ta`lim to`g`risida” gi qonunning yangi loyihasi shunday ishlab chiqilganki, qonun chiqaruvchilar va unga amal qiluvchilar amaldagi mavjud tizim ustunlariga tayanishmoqda. Boshqacha so`z bilan aytganda, “mutaxassislar” o`z tavsiyalarida nogironligi bo`lgan bolalarning ta`lim olishi qay bir shaklida bo`lishini tanlashlariga to`siqlikning mavjud bo`lmasligi haqida boradi. Ammo O`zbekistonning ijtimoiy va madaniy yo`nalishdagi tajribasi shuni ko`rsatadiki, institutsional vakolatga ega bo`lgan psixologik – tibbiy - pedagogik komissiyalarning tavsiyalari institutsional kuchga ega bo`lib, maslahat emas, imperativ xususiyat kasb qiladi. Bundan kelib chiqadiki, nogiron bolaning qayerda o`qishi borasida psixologik – tibbiy - pedagogik komissiyalarning tavsiyalari ota - onalarda hech qanday shubha qoldirmasligi kerak.

Shunday qilib, qonun va uning moddalarini O`zbekistonda nogironlik diskursinining ijtimoiy va madaniy holatidan kelib chiqib tahlil qilish va amalga joriy etish lozim”, - deydi AQSH ning Sirakuz universiteti doktori Mirjahon Turdiyev.

“Buyuk kelajak” ekspertlar kengashi aʼzosi Odila Atabayeva Rossiya Federatsiyasining “Taʼlim toʻgʻrisida” gi qonuni misolida oʻquvchilarga taʼlim muassasasi va taʼlim turini tanlashning akademik huquqi berilishi zarurligini taʼkidlaydi. Shu bilan birga, qonunga asosan taʼlim muassasasi bolaning psixofizik rivojlanishi va sogʻligining ahvolidan kelib chiqib, bepul ijtimoiy - pedagogik va psixologik yordam olishi va psixologik – tibbiy - pedagogik maslahatlar olishi uchun shart - sharoit yaratib berishi zarur.

“Taʼlim toʻgʻrisida” gi qonun loyihasining hozirgi shaklidagi kabi cheklov hech qayerda mavjud emas. Agar biror yordamga ehtiyoj tugʻilsa, demak oʻqituvchining tanloviga koʻra har qanday taʼlim muassasasi bu yordamni koʻrsatishi kerak. Agar umumiy taʼlim muassasasida maxsus taʼlim ehtiyojlari boʻlgan oʻquvchi tahsil olayotgan boʻlsa maktab psixologik – tibbiy - pedagogik komissiyaning xulosasiga koʻra zarur shart -sharoitlarni maktab (rahbariyati) fikri qanday boʻlishidan qatʼiy nazar alohida shart - sharoit yaratib berilishi kerak ekanligini taʼkidlaydi.

Mazkur qonun hujjatining 5-moddasiga koʻra, “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, har kimga taʼlim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi”. Galina Nam mazkur moddaga sogʻligining imkoniyatlariga qaramasdan har kim ilm olish huquqiga ega boʻlishi uchun nogironlikni ham kiritishni taklif qiladi: Nogironligi va rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning umumtaʼlim maktablarida tahsil olish huquqi qonun bilan belgilanishi lozim. Agar bola yoki uning ota-onasi bu huquqdan foydalanish istagini bildirsa, maktab zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim.

2009 - yil Oʻzbekiston imzolagan va bugungi kungacha ratifikatsiya qilinmagan Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasining 24-moddasi nogironligi bor insonlarning taʼlim olish huquqini tan oladi va ushbu huquqni kamsitishsiz hamda teng imkoniyatlar asosida hayotga tatbiq qilish uchun ishtirokchi davlatlarga barcha darajadagi inklyuziv taʼlim va hayoti davomida uzluksiz oʻqishni taʼminlash majburiyatini yuklatadi. Har bir bolaning inklyuziv taʼlim huquqini taʼminlash

maqsadida (barcha darajadagi) tegishli davlat hokimiyati organlari umumta'lim o'quv muassasalarida nogironligi bor va rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ham nazarda tutgan holda barcha o'quvchilarga zarur sharoitlarni yaratishi lozim ekanligini ko'rsatadi.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yil 1-yanvar holatida 16 yoshgacha bo'lgan 101316 nafar nogironligi bo'lgan bola ro'yxatdan o'tgan. Shulardan, 21153 nafari jismoniy va ruhiy nogironligi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarda, 6131 nafari sil va suyak kasalliklariga chalingan bolalar uchun sanatoriy tipidagi maktab-internatlarda, 13272 nafari esa uyda individual tarzda ta'lim olishadi. Statistik ma'lumotlarning tahliliga kora aytish kerakki uyda o'qiydigan bolalarning asosiy toifalari bu tayanch harakati a'zolari shikastlangan, aqliy imkoniyati cheklangan va boshqa nogironligi bo'lgan bolalardir.

Ko'pgina bolalar jismoniy nogironlik yoki tayanch harakati a'zolari shikastlangan bolalar umumta'lim maktablarida bimalol tahsil olishlari mumkin -ularning jismoniy holatlari aqliy salohiyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Maktab binosi bu kabi holatlar uchun moslashtirilmagan bo'lsa ham, darslarni birinchi qavatda tashkillashtirib, kirar joyini pandus bilan jihozlash mumkin. Bu holatda asosiy to'siq jismoniy yoki moddiy omillar emas, balki insoniy munosabatining ko'rinishidir.

Galina Namning ta'kidlashicha, "inklyuziv ta'limni moliyalashtirish muammo tug'dirmasligi lozim. Muammo ustuvor ta'lim yo'nalishlarini tanlashda, nogironligi bor bolalarga to'siq bo'lmasligi lozimligini ko'rsatadi va bundan tashqari ta'lim olishi uchun (faqatgina ta'limga, nafaqadan tashqari) bir yilda 199 mlrd so'm ajratiladi (2016 - yil ma'lumotlariga ko'ra).

Bu yetarlicha katta mablag' biroq uning asosiy qismi maxsus ta'limni qo'llab - quvvatlashga yo'naltiriladi. Bolalarni institutsionalizatsiya qilish jarayoni shu tariqa davom etadi. Moliyaviy mablag'larni inklyuziv ta'limni rivojlantirishga yo'naltirish zarur".

Inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bor bolalarga, balki barcha yoshdagi nogironligi bo'lgan insonlarga ham tegishli bo'lishi kerak. "Qonun loyihasida faqat bolalar haqida so'z boradi, biz esa kattalarning ham umri davomida uzluksiz ta'lim olish huquqi to'g'risida boradi. Inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'lim – tarbiya tizimida, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida, oliy ta'lim tizimida, maktabdan tashqari va oliy ta'limdan keying ta'lim tizimlarining barcha darajalarda sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga, shuningdek, ularning maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining turliligiga qarab amalga oshirilishi zarur.

Masalan, 2018 - yilda I va II guruh nogironlari uchun ikki foizli kvota joriy qilinganidan so'ng, inklyuziv oliy ta'lim masalasi negizida nogiron talabalar uchun universitetlarning o'quv binolari va yotoqxonolari, eshitish qobiliyati cheklangan talabalar uchun imo-ishora tili tarjimonlari, maxsus Brayl yozuvidagi o'quv qo'llanmalarining yo'qligi, ko'rish qobiliyati cheklangan talabalar uchun maxsus o'quv qo'llanmalar va boshqa oqilona qo'layliklar yo'qligi muammosi dolzarblik kasb eta boshladi.

Inklyuziv ta'lim olish huquqini kafolatlash, nogironligi bo'lgan hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan har bir inson ushbu huquqidan to'la foydalanishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish uchun biz qonunga quyidagilarni kiritishimiz lozim

- Asosiy tushunchalar moddasiga inklyuziv ta'lim tushunchasini kiritish lozim;

- "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim" moddasida nogironligi bo'lgan va rivojlanishi nuqsonli bolalar uchun eng ustuvor ta'lim umumta'lim o'quv muassasalarida tahsil olish ekanligi o'z aksini topishi lozim.

Bolalarga davlat ixtisoslashtirilgan, tibbiy - profilaktik muassasalarda yoki uyda ta'lim berish maxsus holatlardagina amalga oshirilishi lozim ekanligini kiritish;

- "Kasbiy ta'lim" va "Oliy ta'lim" moddalariga nogironligi bor insonlarga mazkur ta'lim bosqichlarida tahsil olish imkoni berilishi karakligini qo'shish;

- Ta'lim shaklini tanlash huquqi nogironligi bor bolalar, ularning ota-onalari yoki vasiylarida qolishi kerak. Inklyuziv ta'lim faqat bolalar bilan bog'liq tushuncha bo'lib qolmay, balki yoshidan qat'iy nazar har bir inson hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish huquqiga va imkoniyatiga egaligini belgilash;

Nogironlarning 26 ta jamoat birlashmasidan iborat O'zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi nogironligi bor insonlarning fikrlari qonunda inklyuziv ta'limning xalqaro tamoyillariga va BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi tamoyillariga to'liq mos kelishi lozimligini alohida ta'kidlash.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"¹⁶ni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ- 4860-son qarori¹⁷ ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

a) Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ildovaga muvofiq:

- inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori

- o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;

- inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tartibi;

b) Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom 2- ilovaga muvofiq:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ularda o'quv-tarbiya va davolash-sog'lomlashtirish jarayonlarini tashkil qilish tartibi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish tartibi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni bir ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan boshqa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yoki inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumta'lim tashkilotlariga o'tkazish tartibi;

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi muassasasiga o'tkazish tartibi;

v) Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq:

- alohida sharoitlarda davolanish va sog'lomlashtirishga, ta'lim va tarbiya olishga muhtoj bolalar huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan hamda sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining tashkil etish tartibi;

- sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ularda o'quv-

tarbiya hamda davolash-sog'lomlashtirish jarayonlarini tashkil qilish tartibi;

- o'quvchilarni sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi;

g) Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom 4-ildovaga muvofiq:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning uyda ta'lim olishlarini tashkil etish va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlari;

- uyda yakka tartibda ta'limni tashkil etishda maktab direktori, sinf rahbari, o'qituvchilar hamda ota-onalarning huquqlari va majburiyatlari;

- Tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra, o'quvchida uyda yakka tartibda ta'lim olish uchun asos bo'ladigan kasalliklar (patologik holatlar) mavjudligi aniqlanganda, tibbiy-maslahat komissiyasi tomonidan o'quvchining uyda yakka tartibda ta'lim olishga muhtojligi to'g'risida tibbiy xulosa rasmiylashtirish tartibi;

- uyda yakka tartibda ta'lim olish uchun asos bo'ladigan kasalliklar ro'yxati; maktab tomonidan o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, ota-onalar bilan kelishgan holda ishlab chiqiladigan dars jadvali shakli;

- uyda yakka tartibda ta'lim olayotgan o'quvchining har bir fan bo'yicha alohida yuritiladigan baholash daftari shakli;

d) Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar to'g'risidagi nizom 5-ildovaga muvofiq:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga (maktab, maktab-internatlarga) yuborish bo'yicha psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarni (keyingi o'rinlarda-

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar) tashkil etish va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ularning psixofizik imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim olishlarini tashkil etish tartibi;
- psixologik – tibbiy - pedagogik komissiyalarning maqsad va vazifalari;
- psixologik – tibbiy - pedagogik komissiyalar faoliyatini tashkil etish tartibi;
- psixologik – tibbiy - pedagogik komissiyalar tomonidan hujjatlarni ko'rib chiqish tartibi;

e) Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kasb egallashini ta'minlash, o'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularga maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasblarni o'rgatishni yo'lga qo'yish tartibi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslari jihozlash uchun talab etiladigan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan o'quvchilarga mehnat qilish huquqini beruvchi kasb malakasi bo'yicha davlat namunasidagi sertifikat shakli tasdiqlansin.

2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishi va kasb egallashiga ko'maklashishni tashkil etish bo'yicha ishchi guruh 7- ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Quyidagilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishi va kasb egallashiga ko'maklashishni tashkil etish bo'yicha ishchi guruhining asosiy vazifalari etib belgilansin:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim olishga va kasbga o'qitishga jalb etilishini doimiy nazorat qilish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berish va ularga kasb-hunar o'rgatish bo'yicha joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy o'rganib borish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

- sohaga oid ilg'or xorijiy tajriba va innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 8-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev hamda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sh. X. Shermatov zimmasiga yuklansin.

Ta'lim yo'nalishi turlari va sinflardagi bolalar toifalari	Sinflarning o'quvchilar bilan to'ldirilishi	
	O'quvchilarning minimal soni	O'quvchilarning maksimal soni
1. I — II turlar:		
Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun	8	10
Zaif eshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun	10	12
2. III — IV turlar:		
Ko'r (ko'zi ojiz) bolalar uchun	8	10
Zaif ko'ruvchilar va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun	10	12
3. V tur:		
Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun	10	12

Ta'lim yo'nalishi turlari va sinflardagi bolalar toifalari	Sinflarning o'quvchilar bilan to'ldirilishi	
	O'quvchilarning minimal soni	O'quvchilarning maksimal soni
4. VI tur:		
Poliomiyelit xastaligi oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	10	12
Serebral falaji oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	10	12
5. VII tur:		
Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun	12	16
6. VIII tur:		
Yengil darajadagi aqli zaif bolalar uchun	12	14
O'rta va og'ir darajadagi aqli zaif bolalar uchun	8	10
*Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan muassasalarda ta'lim olayotgan murakkab nuqsonli (rivojlanishida 2 ta va undan ko'p nuqson bo'lgan) bolalar uchun	6	8

Ta'lim yo'nalishlari turlari va bolalar toifalari	Tayyorlov sinflaridagi bolalar soni	Tarbiya guruhleri va kuni uzaytirilgan guruhlarining minimal to'ldirilishi	
		Boshlang'ich sinflardagi bolalar soni	Yuqori sinflardagi bolalar soni
1. I-II tur:			
Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun	8	8	12
Zaif eshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun	8	8	12
2. III-IV tur:			

Ta'lim yo'nalishlari turlari va bolalar toifalari	Tayyorlov sinflaridagi bolalar soni	Tarbiya guruhlari va kuni uzaytirilgan guruhlarining minimal to'ldirilishi	
		Boshlang'ich sinflardagi bolalar soni	Yuqori sinflardagi bolalar soni
Ko'r (ko'zi ojiz) bolalar uchun	10	10	12
Zaif ko'ruvchilar va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun	10	10	12
3. V tur:			
Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun	10	10	14
4. VI tur:			
Poliomiyelit xastaligi oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	8	12	14
Serebral falaji oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	8	8	10
5. VII tur:			
Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun	8	12	16
6. VIII tur:			
Yengil darajadagi aqli zaif bolalar uchun	8	12	12
O'rta va og'ir darajadagi aqli zaif bolalar uchun	8	10	10
*Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qiyotgan murakkab nuqsonli (rivojlanishida 2 va undan ko'p nuqson bo'lgan) bolalar uchun	6	6	8

Uyda yakka tartibda ta'lim olish uchun asos bo'ladigan kasalliklar RO'YXATI

T/r	Kasallikning nomlanishi va patologik holatlari	Uyda yakka tartibda ta'lim olish muddati
I. Somatik kasalliklar		
1.	Biriktiruvchi to'qimaning tizimli shikastlanishi (tizimli qizil yugurik, dermatopoliomiozit), yoshlar revmatoid artriti va tugunchali periarteritning og'ir turlari	6 oy
2.	Yurak va qon aylanish tizimining tug'ma nuqsonlari (dekompesatsiya davri, turg'un yurak va qon aylanishi yetishmovchiligining II va III darajasi)	6 oy
3.	Og'ir darajadagi tetrada Fallo kasalligi	o'quv yili
4.	Tug'ma va orttirilgan tUSDagi o'pka-bronx kasalliklarining II va III darajali turg'un nafas yetishmovchiligi	6 oy
5.	Astmaning og'ir darajasi (haftada bir necha marta yoki har kuni xuruj qilganda)	o'quv yili
6.	Surunkali glomerulonefrit (buyrak funksiyasi buzilishining yaqqol klinik ko'rinishida, qaytalash davridagi tsitostatik va steiroid davo o'tkazilgan davrida)	o'quv yili
7.	Surunkali piyelonefrit va surunkali obstruktiv piyelonefrit (buyrak funksiyasi buzilishining yaqqol klinik ko'rinish davri)	o'quv yili
8.	O'tkir glomerulonefrit birlamchi davolashdan so'ng remissiya davrigacha, birlamchi va ikkilamchi nefrotik sindromi steroid va tsitostatik davo o'tkazilgan davrida	o'quv yili
9.	Turli organlarning xavfli o'smalari	o'quv yili
10.	Mukovissedozning og'ir turi	6 oy
11.	Seliakiyaning og'ir turi (asoratlar bilan kechish davri)	6 oy
12.	Nospetsifik yarali kolitning og'ir turi	6 oy

T/r	Kasallikning nomlanishi va patologik holatlari	Uyda yakka tartibda ta'lim olish muddati
	(qaytalanuvchi kechishi)	
13.	Kron kasalligining og'ir darajasi (asoratlari bilan kechish davri)	6 oy
14.	Jigar tsirrozining dekompensatsiya darajasi	o'quv yili
15.	Noma'lum etiologiyali oqsil-energetik yetishmovchiligining og'ir darajasi (vazn tanqisligi 30% va undan ortiq holatlarda)	6 oy
16.	O'tkir leykoz, aplastik kamqonliklar, irsiy gemolitik kamqonliklar	o'quv yili
17.	Og'ir gemorragik kriz bilan kechuvchi doimo qaytalanib turuvchi surunkali trombositopatiya, trombositopenik purpura, gemofiliya, Villibrand va Glusman kasalliklari	6 oy
18.	Tug'ma va orttirilgan immun tanqisligi holatlari	o'quv yili
II. Psixonevrologik kasalliklar		
1.	Ruhiy holati buzilganligi (shizofreniya, psixozning zo'raygan davri)	o'quv yili
2.	Og'ir nevrozlar (nevasteniya, psixosteniya), nevroz holatlarining zo'raygan davri, shu jumladan, enkoprez, kunduzgi turg'un enurez, dekompensatsiya davridagi duduqlanish	o'quv yili
3.	Turli etiologiyali yaqqol ko'rinadigan ensefaloastenik holatlar (travmatik, yuqumli, somatik)	o'quv yili
4.	Psixopatiyalar, dekompensatsiya davridagi psixopatik holatlar	o'quv yili
5.	Epilepsiyaning zo'raygan davrida	o'quv yili
6.	Mustaqil harakat qila olmaslikka olib kelgan tayanch-harakat a'zolarining buzilishi	o'quv yili
7.	Bolalar tserebral falaji va uning asoratlari (yengil turi)	o'quv yili
8.	Bolalar autizmi (xulq-atvor buzilishlari bilan, o'z-o'zini boshqara olmaydigan harakatlar sindromi)	o'quv yili
9.	Miopatiya. Miastenianing tarqalgan shakli	o'quv yili
10.	Asab tizimining demiyelinlashtiruvchi kasalliklari (yaqqol namoyon bo'lgan klinika davri)	o'quv yili

T/r	Kasallikning nomlanishi va patologik holatlari	Uyda yakka tartibda ta'lim olish muddati
III. Xirurgik kasalliklar		
1.	Tayanch a`zolarining falaji va toz suyaklari faoliyatining buzilishi bilan bog`langan orqa miya churrasi	o`quv yili
2.	Siydik tuta olmaslik, siydik pufagining ekstrofiyasi, siydik yo`llarining atoniyasi dekompensatsiyalangan shakli. Najas tuta olmasligi	o`quv yili
3.	Orqa chiqaruv yo`llarining atreziyasi	6 oy
4.	Turli kasalliklarda oyoqlarning falaji	o`quv yili
5.	Surunkali tayanch-harakat a`zolari kasalligi (surunkali osteomiyelit suyak sili, osteoxondropatiya)	o`quv yili
6.	Bosh miya operatsiyasidan keyingi asoratlangan holatlar	o`quv yili
7.	Tayanch-harakat tizimida o`tkazilgan operatsiyalardan keyingi reabilitativ davr	6 oydan 1 yilgacha
IV. Teri kasalliklari		
1.	Tug`ma bullezepeidermoliz	o`quv yili
2.	Tug`ma ixtiozning zo`raygan davri	6 oy
3.	Eritrodermiya psoriazining yiringli turi	6 oy
4.	Artropatik psoriazi	6 oy
5.	O`tkir teri sil kasalligi	o`quv yili

2.4. Maktabgacha inklyuziv ta'limning "Ilk qadam" davlat o`quv dasturi mazmunida yoritilishi

Ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo`lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni (inklyuziv ta'lim).

Davlat o`quv dasturi har bir bolaning ta'lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o`quv dasturi hisoblanadi. Davlat o`quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo`lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va

ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.¹⁸

Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ta'lim olishi va rivojlantirilishini qo'llab-quvvatlash - bu MTTning direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish hisoblanadi.

Zarur bo'lganda, maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jamoasi va rahbariyati tor mutaxassislarni jalb qilgan holda, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olib bolaning yakka tartibdagi rejasini yaratadi. Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, buning asosida individual-moslashtirilgan dasturlari ishlab chiqilishi mumkin.

Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti va o'qitish usullarini moslashtirish zarur.

Maktabgacha inklyuziv ta'limning “Ilm yo'li” variantiv dasturi bilan bog'liqligi

“Ilm yo'li” variativ dasturi mualliflarining nazarida, maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya vazifasini amalga oshirish bilan birgalikda, bola hayotiy faoliyatining asosiy sohasi hamdir. Shu munosabat bilan, mazkur dasturda aynan pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish huquqini ta'minlashi lozim degan g'oyani ilgari suradi. Bu jarayonda bolalarning zaif toifasiga alohida e'tibor talab etiladi. Jamoada bolalar bir - biri bilan o'zaro aloqa bog'lashga, jinsi, irqi, millati, madaniyati, tili, e'tiqodi, yoshi, alohida talab-ehtiyojlari, oilaning tuzilishi va uning ijtimoiy - iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, boshqa kishilar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga o'rganadi.

“Ilm yo'li” variativ dasturi inklyuziv ta'limning quyidagi tamoyillariga tayanadi:

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil

- Insonning qadr - qimmatini uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;

- Har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir;

- Har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e'tirof etilishiga haqlidir;

- Barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;

- Chinakam ta'lim muayyan o'zaro munosabatlar doirasidagina amalga oshirilishi mumkin;

- Barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi;

- Ta'lim olayotganlar uchun ijobiy yutuqlarga erishish qo'lidan kelmaydigan ishdan ko'ra, uddalay oladigan ishda ko'proq namoyon bo'ladi;

- Rang-baranglik inson hayotini boyitadi;

- Bir - birimizdan farq qilishimiz va har birimiz individual shaxs ekanimizni tan olish;

- Rivojlantiruvchi dasturlarning individuallashtiruvini ta'minlash, ya'ni dasturlarni har bir bolaning birgalikdagi faoliyat doirasidagi talab - ehtiyojlari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining umumiy maqsadlarini e'tiborga olgan holda tuzish;

- Ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarning o'qishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirokini qo'llab - quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;

- Barcha bolalar bir xil taqdirlanishi lozim;

- Yosh xususiyatlariga mos bo'lgan umumiy o'quv rejasidan foydalana olish imkoniyatini yaratadigan ta'limning differensiyallashgan strategiyalariga tayanish;

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti va qisqa muddatli guruhlarini bolaning talab-ehtiyojlariga uzluksiz moslashuvini ta'minlash;

- Bolalarni bir yillik majburiy maktabga tayyorlash bo'yicha guruhlar va maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning talab - ehtiyojlariga doimiy moslashtirilishini ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim prinsipial jihatdan yangicha tizim bo'lib sanaladi. Bu shuni anglatadiki, bunda pedagoglarga ta'lim jarayonini tuzib chiqishda alohida olingan bolaning, ayniqsa, notipik rivojlanishga ega bolalarning fiziologiyasi va psixikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladigan individual o'ziga xosliklarini hisobga olishlari kerak bo'ladi.

“Ilm yo'li” variativ dasturida “Inklyuziv ta'lim” haqida so'z yuritilar ekan, bu mamlakatimizda “Bola huquqlari to'g'risida”gi qonunning amalda ishlayotganligi va imkoniyati cheklangan bolajonlarning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun olib borilayotgan islohotlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining meyoriy-huquqiy hujjatlarida inklyuziv ta'lim haqida gapiring?

2. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida inklyuziv ta'limni tashkil etish va olib borish masalalari haqida tushuntiring?

3. “Ilm yo'li” variantiv dasturida maktabgacha inklyuziv ta'lim masalalarining mohiyati nimalardan iborat?

Mavzu: Maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlari

3.1. Qadimgi davrlarda maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi

Tarixiy taraqqiyot davomida maxsus ehtiyojli bolalarga bo'lgan e'tibor turli davrlarda turlicha kechgan. Ishlab chiqarish kuchlari hali rivojlanmagan, madaniy va ma'naviy qadriyatlar shakllanmagan, inson hayoti tabiat kuchlariga bog'liq bo'lgan dastlabki davrlarda bunday shaxslar jamiyat e'tiboridan chetda qolib kelgan, hatto ularga nisbatan salbiy munosabat hukum surgan. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi ta'lim, madaniyat, fan va sog'liqni saqlash ijtimoiy ong holati bilan bog'liq holda turli davrlarda atrofdagilarning kamolotida jismoniy yoki ruhiy kamchiligi mavjud shaxslar bilan o'zaro munosabatlari turlicha ko'rinishga ega bo'lgan.

Bunda har bir xalqning milliy qadriyatlari, dunyoqarashi, an'analari, urf - odatlari ham muhim rol o'ynagan. Masalan qadimgi Spartada (Gretsiya) jismoniy nuqson bilan tug'ilgan bola jamiyat uchun yaroqsiz hisoblanib, hayotining birinchi kunlaridanoq o'limga mahkum etilgan.

O'rta asr Ovro'pasida esa feodalizm inqirozga uchragan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari endigina shakllanib kelayotgan, hayotda ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetakchilik qilgan bir davrda jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bor shaxslar ijtimoiy hayotdan butunlay ajratib qo'yilgan, ularga bir buyum sifatida munosabatda bo'lish hollatlari tez-tez uchrab turgan. Oddiy xalqning mislsiz eksplutatsiyasi evaziga katta moddiy boylik orttirgan, ammo ma'naviy qashshoq zodagon aristokratlar tabaqasi bunday shaxslarga bir ermak sifatida qaraganlar, hatto bolalarni go'dakligidanoq azoblab, jismonan nogiron qilib, zodogonlarning ko'ngilxushligi uchun ularga sotish hollari ham uchragan.¹⁹

¹⁹ M. E. Axmedova «Pedagogika nazariyasi va tarixi» o'quv qo'llanma T.: 2011-yil

Qadimgi Rimda ham xuddi shunday holat yuz bergan: nuqsonli va zaif tug'ilgan go'daklarni o'ldirganlar. Uyg'onish davri XII-XVI asrlarda inson hayoti, tabiati, uning ruhiy holati va faoliyatiga nisbatan diniy - xolastik va ijtimoiy cheklangan xudbin qarashlarga qarama - qarshi bo'lgan inson tafakkuriga ishonch, uning jismoniy-ruhiy nuqsonlari, kamchiliklari, salbiy hatti-harakatlari, gunoh hamda qilmishlariga hayrihohlik bilan qarash kabi gumanistik g'oyalar o'rtasida kechgan kurashlar bilan tavsiflanadi.

Zero, bu davrda Ovro'pada falsafiy fikr, ilm, fan va moddiy hayotda ancha jonlanish yuz bergan edi. Shuning uchun ham G'arbiy Yevropaga arablar orqali kirib kelgan ilg'or Sharq madaniyati va ilm - fanining ham katta ta'siri bo'lganligi shubhasizdir. Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarning yaxshilanishi G'arbga tibbiyotning kirib kelishiga zamin yaratdi. Shu davrdan e'tiboran G'arb tibbiyotida gumanistik tendensiyalar yuzaga keldi. Vrachlar monastr va qamoqxonalariga borib u yerlardagi ruhiy kasallar ustida kuzatishlar olib bordilar.

Masalan, XVI asrda yashagan tibbiyot professori Faliks Platter 1537-1614 yillarda Fransiyaning Bazel shahrida ruxiy kasalliklarning tasnifini amalga oshirdi. Olimning tasnifi asosida inson organizmidagi turli aqliy, ruhiy va jismoniy buzilishlarning tavsifi yotar edi. XIX asrning o'rtalariga qadar G'arbda qator psixiatr, pedagog va amaliyotchilar faoliyatida bola rivojidagi kamchiliklarni aniqlash, kamchiliklarniig sabablarini topish, ularga ta'lim-tarbiya berish borasidagi muammolar hal etila boshladi. Natijada imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus alohida ta'lim muassasalari ochila boshladi.²⁰

"Juda uzoq vaqt davomida-deb yozadi **N.N. Malofeyev**- maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muasasalariga nisbatan maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib keldi.

²⁰ P. M. Po'latova «Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)» T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti 2005-yil.



XIX asrniig 60-yillariga qadar jahon miqiyosida differensial ta'lim muassasalarining tarmog'i intensiv ravishda o'sib ko'plab davlatlarda hatto 12-15 turdagi maxsus muassasalar ochildi.

Masalan, Qozog'iston, Rossiya va Belgiyada 8 turdagi, Niderlandiyada esa 15 turdagi maxsus muassasalar mavjud edi. 1970 - 1980 yillarga kelib jahon miqiyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi".

Ammo shunday bo'lsada imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar ta'limdan chetda qolib keldi.

3.2. Sharq olimlarining izlanishlarida maktabgacha inklyuziv ta'limning nazariy asoslari

Maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimining nazariy asoslari inson shaxsi, uning taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarga asoslanadi. Maktabgacha inklyuziv ta'lim umumiy didaktika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning umumiy qonun-qoidalaridan foydalangan holda, umumiy pedagogika va maxsus psixologiya fanlarining yutuqlariga ham asoslanadi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haqli ravishda: «Odamlarda ta'lim-tarbiyaga qobiliyat turlichadir. Birovlar bu qobiliyatga ega, boshqalar esa mahrum. Mahrumlar mashaqqatli mehnat, intilish, tirishqoqlik orqali tushunishlari mumkin», degan g'oyani ilgari suradi. Demak, nuqsonlilar ta'lim-tarbiyasida shaxsni alohida o'rganib unga shu asosda muomala qilish zarur.

Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi buyuk sharq mutafakkirlari

o'zlarining saboqlarga boy asarlarida tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avdutoriyaning tarbiyalash g'oyasini ilgari surdilar.



Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari bilish omillarini o'rganishga katta ahamiyat bergan **Abu Nasr Forobiy** 873-950 yillarda yashab ijod qilgan. Farobiy o'z diqqatini bilimning asosiy mezoniga bo'lgan omillariga qaratadi. Uning fikricha, bilimning asosini mavjud narsa va hodisalarni inkor ettiradigan omillar tashkil

etadi. Bu borada Abu Nasr Forobiy inson aql-zakovati xususida fikr yuritib, quyidagi fikrlarni aytgan: «Har bir bolaning bilim va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin» deydi. Farobiyning bilish haqidagi ta'limoti ijtimoiy - falsafiy fikr rivoji tarixida alohida o'rin egallaydi.

Olimning bu boradagi fikrlari uning “Mantiq to'g'risida risolaga muqaddima”, “Mantiqqa kirish”, “Aql to'g'risida”, “Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi” va boshqa asarlarida taxlil qilib berilgan. Mutafakkir insonni yer yuzidagi oliy mavjudot ekanligini ta'kidlab, uning qobiliyati, tevarak atrofdagi narsa va hodisalarni idrok qilish kuchiga katta baho bergan. Farobiy o'z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o'zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to'g'risidagi mulohazalaridan iborat ekanligini bildiradi.

Farobiy “Ilm va san'atning fazilatlari haqida” kitobida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (alaraz)dan substansiya (javhar)ga qarab borishni uqtiradi. Inson voqelikni idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq va boshqa vosita hamda usullar orqali bila oladi. Olim hissiy va aqliy bilish mavjudligini, ular bir-biridan farq qilishini ham aytib o'tadi. Hissiy bilishda sezgi a'zolari yordamida ashyolar, narsa va hodisalarning muayyan sifatlari bilib olinadi.

Shu bilan birga, sezgi orqali narsa va buyumlarning muhim bo'lmagan tomonlari ham idrok qilinadi. Aql orqali esa buyumning sifatlarini mavhumlashtirish orqali uning mohiyati va umumiy tomonlari anglab olinadi.

Farobiy aqlni, bir tomondan, ruhiy quvvat, ya'ni tug'ma, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiyaning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Farobiy davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatda, axloq va xulq-odob qoidalariga rioya qilishda, ta'lim-tarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi. Farobiyning qimmatli fikrlaridan biri uning dunyoviy ruh va dunyoviy aql, ularning barhayotligi haqidagi ta'limotning talqinidir. Mutafakkirning nazarida kishining ruhi va aqli o'lganidan keyin yo'q bo'lib ketmaydi, balki dunyoviy ruh va aql bilan qo'shiladi.

Demak, odamning ruhi va aqli abadiylikka ketadi. Lekin ular hech qachon qaytib kelmaydi va namoyon bo'lmaydi. Ular tanani tashlab ketgandan so'ng bir butunlikni tashkil etadi, aql va ruh yashash davomida orttirgan barcha ma'naviy boylik to'planib barhayot dunyoviy ruh va aqlni tashkil etadi. Mutafakkirning bu ta'limotida dunyoning abadiyligi, inson zotining o'lmasligi, inson bilimlari va aqlining uzluksizligi, insoniyat ma'naviy madaniyatining taraqqiyoti haqidagi purma'no g'oyalari mavjudligini ko'rsatadi. Uning talqinida aqliy bilish koinot aqli yordamida haqiqiy ilmga aylanadi. Farobiy bilishning ratsional usulini asoslagan buyuk mutafakkirdir. U falsafiy taraqqiyotda, kuzatuv, bahs-munozara, bilish usullari, hissiy mushohada to'g'risida o'z davri uchun e'tiborga molik fikrlarni ilgari surdi.²¹

Farobiyning maktabgacha inklyuziv ta'limni tashkil etish va alohida ta'limga ehtiyojmand bolalarga ta'lim-tarbiya berishda foydalanishimiz mumkin bo'lan fikrlari ko'p bo'lib ulardan ba'zilarini tahlil qilib o'tamiz. Farobiyning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolari hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markaz vazifasini bajaradi.

²¹ M. E. Axmedova «Pedagogika nazariyasi va tarixi» o'quv qo'llanma T.: 2011-yil

Biz soʻz yuritmoqchi boʻlgan soha – maxsus taʼlimga ehtiyoji boʻlgan bolalar psixologiyasi, maxsus psixologiyaning bir tarmogʻi boʻlib, turli jihatdan turli darajada meʼyordan chetlashgan bola va oʻquvchilarning ruhiy qonuniyatlarini oʻrganadi.

Maxsus psixologiya nuqsonli bolalarning ruhiy qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan boʻlib, quyidagi qismlardan iborat:

1. Aqli zaif bolalar psixologiyasi (oligofrenopsixologiya).
2. Qulogʻi kar va zaif eshituvchi bolalar psixologiyasi.
3. Koʻzi koʻr va zaif koʻruvchi bolalar psixologiyasi.
4. Turli darajada nutqlari buzilgan bolalar psixologiyasi.
5. Murakkab nuqsonli bolalar psixologiyasi.
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi.
7. Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalar psixologiyasi.

Nuqsonli bolalar ichida aqli zaif bolalar ruhiyati nisbatan mukammal oʻrganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan birmuncha keng, atroflicha oʻrganilmagan. Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari shu toifa bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan defektologlarni, oligofrenopedagoglarni qurollantirishdan iborat. Aqli zaif bolalar taʼlim-tarbiyasi korreksiyasini toʻgʻri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqidagi bilimlar juda zarur.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi maʼlumotlari defektologlarda, oligofrenopedagoglarda obyektiv dunyoqarashning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Ruhiy jarayonlarni ilmiy jihatdan toʻgʻri tushunib yetish shaxsning barkamol shakllanishida alohida ahamiyatga ega.²²

²² L.R.Moʻminova va boshqalar “Maxsus psixologiya” oʻquv qoʻllanma T.: Oʻzbekiston faylasuflari milliy



Ibn Sino 980-1037-yillarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlarimizdan biri bo'lib u kasallikni vujudga keltiruvchi ob'yektiv omillarni o'rganish asosida kasalliklarni turlarga ajratadi va davolash usullarini ishlab chiqadi. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mutafakkir psixologiyaga doir masalalar bilan ko'proq qiziqqan va maxsus

asarlar yozib qoldirgan.

Bularga misol qilib “Jon to'g'risida risola” (“Risola fi-al-nafs”), “Psixologiya to'g'risida risola” (“Risola dar revanshinosi”), “Tushni yo'yish kitobi” (“Kitob al-Ta'bir”), “Jon –Ruh haqida kitob” (“kitob al-muhjat”). Ibn Sino sharqda ham o'rta asr sharoitida psixologiyaga doir masalalarni sistemalashtirdi va unga doir maxsus asarlar yozdi. Shuning uchun biz Ibn Sinoni Sharqda psixologiyaga asos solgan olim, deb ayta olamiz. Abu Ali ibn Sinoni psixologiya masalalarini yoritishga qiziqtirgan asosiy omillar mavjud.

Bular;

- birinchidan, o'zidan ilgari o'tgan sharq mamlakatlari olimlari yozib qoldirgan asarlarni o'rganishga havas qo'yganligi bo'lsa

- ikkinchidan. antik dunyo olim va faylasuflarining ta'siri ham rol o'ynadi.

- - uchinchidan,

Abu Ali ibn Sinodan uning tibbiyot sohasida olib borgan kishi kasallarni har tomomlama kuzatish, odamning asab sistemasini yaxshi o'rganishni talab etardi. Shuning uchun ham har xil kasallilarni davolash jarayonida kishilarning psixik xususiyatlarini, ruxiy emotsional holatlarini amaliy bilish zarur bo'lib qolgan. - to'rtinchidan, Abu Ali ibn Sinoning psixologiya bilan qiziqishining yana bir sababi shundaki, psixologiya yosh avlodni tarbiyalash va o'qish jarayonlari masalalarini samarali hal qilishga katta yordam berishini anglagan edi.

Abu Ali ibn Sino, agar har qanday narsa va hodisa ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo'lsa demak, insonning yashashi va harakatida ham biror sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri "ruhiy quvvatdir" deb ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol-xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi va bu psixik jarayonning bir – biri bilan mustahkam bog'liq ekanligini anglaydi.

Abu Ali ibn Sino birinchi bo'lib, psixik funksiyalar miyadagi ma'lum markazlar faoliyatiga bog'liq degan fikrni ilgari surdi va uni ilmiy isbotlashga urinadi. Uning fikricha, jonivorlar va insonlar o'simliklar dunyosidan farqli o'laroq, tashqi ta'sir kuchlarini hissiy idrok etish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat uch xil kuch orqali namoyon bo'ladi: tanani harakatga keltiruvchi, harakatlantiruvchi kuch, umumiy kuch (u ko'rish, eshitish, his etish, ta'm va hid bilish faoliyati bilan bog'liq) va aql kuchi (unga xayolot, xotira va aql-idrok kiradi). Mana shu kuchlarning har biri miyaning ma'lum qismi bilan bog'liq hamda bosh miya biron qismining kasallanishi u bilan bog'liq, kuch faoliyatining ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.²³

Ibn Sino insonning tafakkur qobiliyatiga yuqori baho beradi. Inson aql-idrok orqali narsa va hodisalarni qiyoslash va abstraksiyalash yo'li bilan bir-biridan ajratadi. «Tafakkur kuchi, - deb yozadi u, - ezgulik va adovat, haqiqat va yolg'onni farqlaydi hamda ularning foyda yoki zararini his qilib tekshiradi» («Tib qonunlari», 1-kitob).

Ibn Sino «Tib qommlari»ning uchinchi kitobida tafakkurga yetadigan zararlar va buning natijasida kelib chiqadigan kasalliklar haqida ham keng ma'lumot beradi. U asablarning asosiy vazifasi miya bilan turli xil sezgi va harakat organlari o'rtasida aloqani amalga oshirishdan iborat ekanini yaxshi tushungan. U sezgi organlari bilan asablar vositasida tashqi muhitning moddiy realligi idrok qilinishini, asablarning biologik va

²³ L.R.Mo'minova va boshqalar "Maxsus psixologiya" o'quv qo'llanma T.: O'zbekiston faylasuflari milliy

fiziologik funksiyalarini ajratib ko'rsatib beradi. Asablarning foydasi ikki tomonlamadir.

Birinchisi bevosita foyda: masalan, miya asablar vositasida hislar va harakatlarni boshqa organlarga yetkazadi;

Ikkinchisi, bilvosita foyda: masalan, etni mahkamlash va tanaga kuch baxsh etish.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarini o'rganish haqidagi ta'limotlarni, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Biz yoshlar o'rnak olish sifatida ko'proq ilm izlanib, o'zimiz uchun, kelajak uchun harakat qilib buyuk bir shaxs ya'ni komil inson bo'lib yetishimiz kerak. Buning uchun eng avvalo bilim, ko'nikmaga ega bo'lib o'z ustimizda mukammal izlanishimiz kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, Abu Ali ibn Sino psixologiya sohasidagi ko'pgina ilg'or va haqqoniy fikrlari bilan psixologiya fanining keying taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.²⁴


Beruniy 973-1048-yillarda yashab ijod qilgan buyuk alloma bo'lib u tabiat hodisalari sirlarini o'rganishda tajriba, empirik kuzatish va ular asosida olingan faktlarga asoslanadi va bilish jarayoni sezishdan boshlanadi deb ta'kidlaydi. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir.

A. Avloniy o'zbek marifatparvarlarining yirik vakli bo'lib u tarbiya-pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir deydi.


²⁴ R. B. Raximova "Abu ali ibn sino asarlarida pedagogik-psixologik yondoshuvning o'ziga xos jihatlari" nomli maqolasi
Международный научный журнал № 5 (100), часть 1 «Научный импульс» Январь, 2023 419-423 bet

3.3. Maktabgacha ta'limning inklyuziv ta'limning Xorjiy davrlarlarda rivojlanishi va taraqqiy topishi

Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta'limni amalga oshirish asosan quydagi yo'nalishlarda olib boriladi ommaviy maktablarda, maxsus tuzatish maktablarida, ommaviy maktablarning maxsus sinflarida (tuzatish sinflarida) va boshqalar. Shuningdek Yevropa tajribasi bo'yicha inklyuziv ta'limning qamrov statistikasi quydagicha ekanligi oxirgi paytlarda qayd etilmoqda.



Xorijiy mamlakatlarda ham inklyuziv ta'lim - bu barcha bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini nazarda tutadi, shu bilan birga nogiron bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi. Maqsad nogironlarni kasbiy tayyorgarlikka o'rgatishda to'siqsiz muhit yaratishdir. Xorijiy davlatlar falsafasida ham asosiy qadriyatlar quydagilar ekanligi qayd etiladi:



Xorijiy davlatlarda amalga oshirilayotgan inklyuziv ta'limda ham bir qancha to'siqlar mavjudligi inobatga olinib uni bartaraf etish masalasi davlat siyosati darajasida ko'riladi:

1. Ko'pgina zamonaviy maktablar arxitekturasida inklyuziv ta'limga moslashtirilmagan.

2. Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ko'pincha o'qitilishi shart emas deb qaraladi.

3. Aksariyat o'qituvchilar va ommaviy maktab direktorlari umumiy ta'lim jarayonida nogironlik muammolari haqida yetarli ma'lumotga ega emas.

4. Nogiron bolalarning ota-onalari farzandlarining ta'lim olish huquqlarini qanday himoya qilish kerakligini bilmaydi, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlaridan qo'radi.

Xorijiy davlatlar jamiyatning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga bo'lgan munosabati evolyutsiyasi.

I davr - miloddan avvalgi VIII asr va miloddan avvalgi XII asrga to'g'ri keladi. Bu davrda Likurg qonunlari ilgari surilgan unga ko'ra: zaif, kasallarni yo'q qilish kerak edi. Miloddan avvalgi VIII asrga kelib Qadimgi dunyoda bizni qiziqtirgan odamlarning taqdiri shunday ediki, ular fuqarolar hisoblanmasdi va ularning maqomi qullarning holati bilan teng edi. Hatto qonun ham imtiyozli sinflarga mansub bo'lganlarni kamsitardi. Nogironlarga yangi ideallar, yangi qadriyatlar, ularga yangi nuqtai nazar bilan qarash ularni yer yuzidagi hayotining ma'nosi sifatida qarash kerak ekanligini tan olish xristian ta'limotini olib keldi.

Ilk bor Monastirda nogironlar uchun xospislar va boshpanalar paydo bo'ldi. Vizantiya davlatida IV asrda G'arbiy Rim VII asrlarga kelib ko'zi ojiz jangchilar uchun mo'ljallangan birinchi dunyoviy boshpanalar paydo bo'ladi. Yevropada XII asrda bu tizim yanada takomillashdi.

II davr - XII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Ma'rifat davrida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ba'zi odamlar "fuqarolik rehabilitatsiyasi" ga erishadi - ular nafaqat g'amxo'rlik qilishni davom ettiradi, balki ba'zilariga bilim o'rgatishga harakat qilishadi. Shunday qilib, 1770 - yilda Parijda kar va soqovlar uchun birinchi davlat maxsus maktabi paydo bo'ldi,

III evolyutsiya davri 18-asrning oxiri 20-asr boshlariga to'g'ri keladi. Xorijiy mamlakatlarda majburiy umumiy boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi qonunni qabul qilish masalasi ilgari suriladi. Birinchi marta nogironlarning maqomi qonuniy ravishda o'zgartiriladi. Evropaning aksariyat mamlakatlari ularning ta'lim olish huquqini tan olishadi. Avstriya, Angliya, Germaniya, Daniya, Italiya, Fransiyada parallel ta'lim tizimi sifatida maxsus ta'limni tashkil etishadi. Eshitish, ko'rish, aql-zakovati buzilgan bolalarning uch toifasini o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Qolgan bolalar cherkov va dunyoviy xayr-ehsonlar homiyligida qolishda davom etadi.

IV evolyutsiya davri - XX asr boshlaridan 70-yilgacha davom etadi. Milliy ta'lim tizimlarini vertikal ravishda olib borish nazariyasi ilgari suriladi. Bu vaqtda yangi maktab turlari 1, 5 va o'ntagacha va gorizontal ravishda takomillashtirish va farqlash davrida yuzaga keladi

maktabgacha va maktabdan keyingi ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi va ta'lim muassasalari turlarining ko'payishi hosil bo'ladi. Turli mamlakatlarda ushbu ro'yxatga kar, eshitish qobiliyati past, ko'r, ko'rish qobiliyati past, nutqida nuqsoni bo'lgan kar va kar bolalar uchun maktablar ochib boriladi.

V evolyutsiya davri - XX asrning 70-yillaridan so'nggi vaqtlarga to'g'ri keladi. Bu davr BMTning 1971-yildagi aqli zaif shaxslarning huquqlari va bolalarni himoya qilish va rivojlantirish to'g'risidagi deklaratsiyasini qabul qilishi BMT ning bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi nogironligi bo'lgan odamlarning turli xil imkoniyatlarini yaratish uchun standart qoidalarining ishlab chiqilishi bilan farqlanadi. Salamanxadagi Butunjahon konferensiyasining deklaratsiyalari ta'limning mavjudligi va sifati" 1994-yil birgalikda kelishuvga olib keldi. Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi kamsitishga qarshi milliy qonunlar ishlab chiqiladi.

Yangi madaniy me'yorning shakllanishi - odamlar o'rtasidagi farqlarni hurmat qilish-ijtimoiy va pedagogik integratsiya g'oyasiga olib keldi. Bundan tashqari umumiy oqimga qo'shilish ushbu davrda bolani maxsus maktabga, hatto undan ham ko'proq maktab-internatga yuborish ota-onadan, tengdoshlaridan, hayotning to'liqligidan ajralib turishga urinish sifatida qabul qilish masalalariga alohida e'tibor beriladi.

G'arbda deyarli hech qanday muassasalarda nogironlar uchun chelovlar yuq masalan rus bolalar uylarida, hatoki bu muassasalarda tug'ilgandan keyin darhol ota-onalari tomonidan tashlab ketilgan chaqaloqlarni ham qabul qiladi va joylashtiradi. Angliyada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar tug'iladigan oilalarning 90% dan ortig'i bolalarni uyda tarbiyalaydi yoki chaqaloqlar asrab olinadi yoki homiylik ostidagi oilalarga joylashtiriladi.

Yevropaning Ko'pgina mamlakatlarida katta yoshli nogironlar uchun internatlar allaqachon tarqatib yuborilgan. Hozirda Evropa mamlakatlaridan faqat Angliya va Italiyada maxsus psixiatriya shifoxonalaridan butunlay voz kechishga qaror qilindi.

Bugungi kunda aksariyat G'arb mamlakatlarida nogiron bolalarni birlashtirishning ahamiyati to'g'risida ma'lum bir tushuncha mavjud emas. Davlat munitsipal maktablari maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun byudjet mablag'larini oladi va shunga mos ravishda nogiron sifatida ro'yxatdan o'tgan o'quvchilar sonini ko'paytirishdan manfaatdor hisoblanadi.

1980-1990 yillarda olib borilgan tadqiqotlar foyda, yutuq nuqtai nazaridan asosan integratsiyalashgan ta'limni namoyish etganligi bor haqiqat. Tadqiqotchilar integratsiya tushunchasini asosan, bola o'z maktabi va jamiyati tomonidan qabul qilinishi uchun tayyor bo'lishi kerakligini taklif qilinishi aytiladi.

Ammo jamiyat tezda o'zgarishga qodir emas va bunday sharoitda biz faqat integratsiyaning jismoniy tarkibiy qismi va ijtimoiy tarkibiy qismning yo'qligi haqida gapirishimiz mumkin. Bundan tashqari, integratsiya jamiyatda mavjud bo'lgan individual farqlarning keng doirasini hisobga olishni o'z ichiga olmaydi deb ta'kidlashadi. Natijada, 1990-yillarda AQSh va Yevropa mamlakatlarida ota-onaning o'zini-o'zi tashkil etish muammosiga bag'ishlangan nashrlar paydo bo'ldi. Bu inklyuziv ta'lim g'oyasini ommalashtirishga yordam berdi. Shunday qilib, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda "inklyuziya" atamasi "integratsiya" tushunchasi bilan almashtirib ishlatila boshlandi.

Shu bilan birga, "integrate" so'zi bir butunga birlashishni anglatadi, "include" esa o'z tarkibida bo'lish, qo'shish, qamrab olish degan ma'noni anglatishi isbotlandi. Keyinchalik bu so'zlarning mazmuni insonning jamiyatdagi o'rni haqidagi yangi nuqtai nazarni aks ettirdi. Bugungi kunda inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha eng mukammal qonunchilikka ega mamlakatlar sifatida Kanada, Kipr, Daniya, Islandiya, Hindiston, Malta, Gollandiyani ajratib ko'rsatish mumkin.

Rus pedagoglari, psixologlari, shifokorlari Ye.K. Grachyova, V.P. Kashenko G.I. Rossolimo, M.P. Poslavskaya, A.N. Graborov va boshqalarning amaliy pedagogik faoliyatlarida alohida ta'limga ehtiyojmand bolalarga maxsus bilim berishda oid fikrlar o'z aksini topdi.


Rossiyada aqliy nuqsonli bolalarga ijtimoiy tarbiya berish masalalari K. D. Ushinskiy va P.F. Lesgaftning pedagogik ishlarida, ilg'or rus shifokorlari, fiziologlari va psixologlari V. M. Bexterev, I. M. Sechenov, I. P. Pavlov, F. V. Malyarevskiy, G. Ya. Troshin, A.F. Lazurskiy, A.V. Vladimirskiy ishlarida rivojlantirildi.

Ilg'or rus ziyolilari chor hukumati bilan keskin kurashlar asosida o'zlarining zamonaviy, qimmatli fikrlarini olg'a surdilar. Aqliy nuqsonlilikni o'rganish, tasniflash, ta'lim-tarbiya nazariyalarini ishlab chiqish, nuqsonlilikni to'g'rilash borasida juda ko'p yutuqlarga erishdilar.²⁵



L.S. Vigotskiyning 1924-yilda aytgan optimistik bashorati naqadar haqiqiy ekanligini hozir defektologiya sohasida erishilgan, erishilayotgan yutuqlar ham ko'rsatib turibdi. «Ehtimol, insoniyat ertami-kechmi ko'rlik, karlik, aqli zaiflikni yengadi.

Ammo ularni biologik va tibbiyot tomonidan ko'ra, ijtimoiy hamda pedagogik tomondan ancha ilgari yengadi», - deb ta'kidlaydi.²⁶



K.D. Ushinskiy alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlari olib borish juda murakkab vaziyat ekanligini ta'kidlab bunday nuqsonlilar bilan ishlashda materallarni ko'proq takkrorlash yo'li bilan natejani yaxshilash mumkinligi haqida shunday degan: «Materialni o'z vaqtidamustahkamlamagan o'qituvchi yukni

yomon bog'lab, aravani quvgan aravakashga o'xshaydi. Orqasiga qaramay, aravani quvib manzilga yetib kelgach, aravada hech narsa qolmagan bo'ladi.

²⁵ Z. T. Nishanova «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» darslik T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil

²⁶ Z. T. Rajamuradov va boshqalar «Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi» darslik «Tafakkur bo'stoni» T.: 2013-yil

U esa uzoq masofani bosib o'tganligidan xursand bo'ladi. O'qituvchi ham o'z vaqtida materialni mustahkamlab bormasa, fan o'qib tugatilgach, bolaning ongida hech narsa qolmasligi mumkin».²⁷

4.4. O'zbekistonda maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimining yirik nomoyondalari va ularning salmoqli qadamlari

Bizning mamlakatimizda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maxsus maktablar, maktab-intematlariga va mehribonlik uylariga bosh miyaning organik buzulishi natijasida bilish faoliyati turg'un buzulgan bolalar qabul qilinadi. Aqli zaiflikning og'ir va yengil darajalariga ko'ra korreksion ta'lim-tarbiya ishlari dasturi hamda o'quv rejasi ishlab chiqiladi, bunda ularning o'ziga xos xususiyatlari va yoshlarini, albatta, inobatga olish zarur shart hisoblanadi.

O'zbekiston aholisining aksariyatini 14 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Shular ichidagi imkoniyati cheklangan va alohida yordamga muhtoj bolalarning hammasi hisoblanganda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus muassasalar tashkil qilinishi va ta'lim-tarbiya ishlari tashkil etilishi dolzarb masala ekanligini bilish qiyin emas. Yosh avlodni har tomonlama sog'lom kamol toptirish ishi davlatimiz g'amxo'rliги va nazoratida bo'lib kelayotganligi quvonarli holat.

O'tgan davrda O'zbekiston Respublikasining defektologiya sohasidagi birinchi olimasi-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent S.Sh. Aytmetovadir. Sh. Aytmetova defektologiya fakultetining mustaqil fakultet sifatida tashkii etilishida va dastlabki defektolog mutaxassislarni yetishtirib berishda katta xizmat qildi. Bundan tashqari u O'zbekistonda oligofrenopsixologiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga bir qancha pedagog, psixologlar bilan birgalikda katta hissa qo'shdilar.

Urushdan keyingi davrda Respublika maorif vazirligining «Nuqsonli bolalar umumiy majburiy ta'limni ta'minlash choralari to'g'risida» qarori

²⁷ P. M. Po'latova «Maxsus pedagogika» -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti 2014-yil

qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda respublikaning turli viloyat va shaharlarida aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar uchun maktab, maktab-internatlar tashkil etila boshlandi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ishi markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, 1967-yilda Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida boshlandi. Shu institutni bitirgan o'zbek olimlaridan G'.B. Shoumarov, K.Q. Mamedov va G. Berdiyevlar maxsus psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

Ular tomonidan maxsus psixologiya faniga oid uslubiy tavsiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, monografiyalar yaratilgan. G'.B. Shoumarov «Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar maxsus maktabini bitirgan yosh oilalarda ijtimoiy-psixologik muammolar» mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. K.Q. Mamedov «Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida) » mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. G. Berdiyev o'z ilmiy-tadqiqot ishida sog'lom va aqli zaif bolalarning shaxslararo munosabatlari muammosini o'rganib chiqqan.

Mamlakatimiz va chet el defektologlarining nazariy tekshirishlari, tajribalarining ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar potensial rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lar ekan. Aqli zaif bolalarning ruhiy taraqqiyot xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari haqida ularning bilim egallash xususiyatlarini bilmaslik defektologlar uchun kundalik ishlarida katta qiyinchilik, tushunmovchiliklarga olib keladi.



Respublikamiz tarixida 1971-yilda oligofrenopedagog va logoped mutaxassisligining birinchi qaldirg'ochlari uchirma qilindi. Defektologiya bo'limida ana shu birinchi qaldirg'ochlardan bo'lgan V.S. Rahmonova mutaxassis sifatida ish boshladi, keyinchalik shu fakultetning

iqtidorli yosh mutaxassislaridan B. Shoumarov, K. Mamedov, P. Po'latovalar kafedraga o'qituvchilikka qabul qilindi. Kafedraning iqtidorii mutaxassisi G'.B. Shoumarov defektologiya fanini rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hozirda pedagogika fanlari doktori, professor G'.B. Shoumarov bir necha shogirdlar yetishtirgan. Uning umumiy psixologiya va maxsus psixologiya faniga oid e'tiborga molik tavsiyalari, o'quv qo'llanmalari va darsliklari mavjud.

Olimning «Ming bir savolga ming bir javob» nomli kitobi, «Oila va muhabbat», «Oila etikasi va psixologiyasi» ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmasi, G'. Shoumarov, K. Mamedov bilan hammualliflikda yozgan 1998-yilda yaratilgan «Rivojlanishi sustlashgan bolalar diagnostikasi» nomli o'quv qo'llanmalari maktabgacha inklyuziv ta'lim sohasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.²⁸

K. Mamedov ham defektologiya fakultetining ravnaq topishida o'z hissalarini qo'shgan mutaxassislardan biri hisoblanadi. K. Mamedov yordamchi maktab o'quvchilari psixologiyasini o'qitish uslubi-yatini o'zbek tilida ishlab chiqdi va oligofrenopsixologiya fanidan bir qator o'quv qo'llanmalar yozgan, Jumladan, «Aqli zaif o'quvchilar psixologiyasi», «Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi», A. Soatov, P. M. Po'latova bilan hammualliflikda «Oligofrenopedagogika asoslari» nomli o'quv-metodik qo'llanmani yaratadi.

1974-yili defektologiya bo'limi ikkita: oligofrenopedagogika va logopediya kafedrasini hamda surdopedagogika va klinika asoslari kafedralariga bo'linadi. Surdopedagogika va klinika asoslari kafedrasini tibbiyot fanlari doktori M.G. Mirzakarimova boshqardi. M.G. Mirzakarimova eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (lorpatologiya), aqli zaif bolalar klinikasi va boshqa tibbiyotga oid fanlarni o'zbek tilida talabalarga yetkazishda va respublikamizda defektolog kadrlarni tayyorlashga o'z hissasini qo'shgan zahmatkash olim ayollardan biri bo'lgan.

²⁸ P. M. Po'latova «Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)» T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti 2005-yil.

Ulardan so'ng R.M. Qoriyeva boshqargan bu kafedrani I.A. Alimova, N.Sh. Bekmurodov, X.M. Gaynutdinov va boshqalar surdopedagogika fanining rivojlanishida dastlabki qadamlarni qo'yishgan. Oligofrenopedagogika va logopediya kafedrasini pedagogika fanlari nomzodi dotsent A.I. Soatov boshqardi. A.I. Soatov birinchi marta o'zbek tilida «Yordamchi maktab o'quvchilariga matematika o'qitish metodikasi» nomli o'quv qo'llanma yaratgan.

1984-yildan defektologiya fakulteti mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Fakultetni S.Sh. Aytmetova bir yil boshqaradi. 1986-yildan fakultetni pedagogika fanlari doktori, professor L.R. Mo'minova boshqara boshlaydi. 1988-yil mustaqil defektologiya fakulteti sirtqi bo'limi tashkil etilib, unga V.S. Rahmonova boshchilik qiladi.

L.R. Mo'minova defektologiya fakultetini boshqargan vaqtida ya'ni 1986-1999-yillarda ilmiy sohada eng jadal sur'atlarda rivojlangan davr bo'ldi. L.R. Mo'minova defektologiya fakultetini boshqarish davrida ikki kafedraning ilmiy salohiyatini oshirishga ulkan hissa qo'shdi. Shu davrda L.R. Mo'minova yetuk mutaxassislarning yetishib chiqishida o'ziga xos maktab yaratdi. M.Yu. Ayupova, P.M. Po'latova, H.M. Po'latova, U.Yu. Fayziyeva, N.X. Dadaxo'jayeva, D.M. Nurkeldiyeva, M.P. Hamidova, Sh. Amirsaidova, Z. Ahmedova, L. Nurmuhamedova, F.A. Mirboboyeva, Ya. Chicherina shunday shogirdlar jumlasidandir.

L.R. Mo'minova defektologiya faniga oid 100 ga yaqin ilmiy maqolalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar va darsliklar yaratgan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutq nuqsonlarini bartaraf etishga oid o'zbek tilidagi ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmasi, nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalash borasidagi ota-onalar uchun metodik tavsiya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, «Logopediya» (hammualliflikda yozilgan) nomli o'quv qo'llanmasi hozirgacha zaruriy o'quv qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. L.R. Mo'minova 1991-yildan defektologiya fakulteti qoshida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi

talablar asosida maxsus pedagogika ta'limning o'quv-metodik majmuasini ishlab chiqish» mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi va bu ishni muvaffaqiyatli himoya qildi.

Nazorat savollari

1. Qadimgi davrlarda maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi haqida nimalar bilib oldingiz?

2. Sharq olimlarining izlanishlarida maktabgacha inklyuziv ta'limning nazariy asoslari haqida gapiring?

3. Maktabgacha ta'limning inklyuziv ta'limning Xorjiy davrlarlarda taraqqiy topishiga misollar keltiring?

II BOB. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha inklyuziv ta'limni tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish

Mavzu: Maktabgacha inklyuziv ta'lim uchun maxsus muassasalarni tashkil etish

4.1. Maktabgacha inklyuziv ta'lim uchun maxsus muassasalarni tashkil etish va ularning asosiy vazifalari

Respublikamizda olib borilayotga barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni²⁹ qabul qilindi. Mazkur Qonunga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarga sifatli ta'lim berish, maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2021-yil 11-avgustdagi 510-son qarori³⁰ga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori³¹ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi,

²⁹ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2021-yil 11-avgustdagi 510-son qarori

³¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi ikki oy muddatda reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy shtat birliklarini qayta ko'rib chiqdi.

Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolar ta'lim-tarbiyasini qamrab olgan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta'lim - imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini ta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi³².

4.2. Maktabgacha inklyuziv ta'lim uchun maxsus muassasalarni tashkil etishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mohiyati

Maxsus ta'lim tizimi - deganda jismoniy va ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarga (ko'zi ojiz, kar-soqov, aqli zaif, tayanch harakatli apparatida nuqsoni bo'lgan, nutq nuqsoni bo'lgan bolalar) uchun aniq maqsadni ko'zlab «korreksiya», «kompensatsiya», «reabilitatsiya» ishlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalari nazarda yutilgan bo'lib ular maxsus tashkil etiladi³³.

Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga bog'liq deb hisoblanadi. Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, alohida e'tibor bergan holda yetuk defektolog mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga urg'u berdi.

³² L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil.

³³ M. U. Xamidova «Maxsus pedagogika»-T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti 2018-yil

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslangan holda fuqarolarning millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, ta'lim olishga huquqliligi tamoyili qaror topdi. Respublika fuqorolari orasidagi nogironlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni davlat o'z burchi deb bildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ularni milliylik va o'z-o'zini anglash ruhida tarbiyalash, o'qitish uchun, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar tayyorlashga katta e'tibor bermoqda bundan tashqari, nogironlarni himoya qilish bo'yicha bir qancha buyruqlar chiqarilgan va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, qabul qilingan qaror va qonunlar mazmunida nogironlar va nogiron bolalar, ularning jismoniy, aqliy, psixik rivojlanishini yaxshilash, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqish masalalari aniq ko'rsatilgan. Jumladan; nogironlikning oldini olish va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabrda qabul qilingan 433-sonli «O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996-2000 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi», ishlab chiqilgan bo'lib bu dastur 2000-2005-yillarga mo'ljallangan qator tadbirlarni amalga oshirish mazmunini qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.


Bunday dasturlar mazmunida eng avvalo quydagi masalalalarni hal qilishga oid vazifalar o'rin olganligini ko'rish mumkin: nogironlikning oldini olish, nogironlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularning ruhiyatini yaxshilash va sog'lomlashtirish, nogironlikni ilk yoshlik vaqtdan aniqlash va saralash, ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish va korreksion-pedagogik ishlar orqali korreksiyalash, kasbga yo'naltirish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, jismoniy tarbiyalash, nogironlar bilan ishlash uchun kadrlar tayyorlash masalalariga oid bo'lgan vazifalar shular jumlasidandir.

Ko'rinib turibdiki, nogiron, alohida yordamga muhtoj bolalar ham zamon talabiga javob beradigan ilmiy bilimlarning elementar asoslarini egallashi, hayotda o'z o'rnini topa olishlari haqida tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu boradagi g'amxo'rlik ishlari amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasida barcha maxsus ta'lim-tarbiya muassasalari davlat ixtiyorida ekanligi belgilandi va bu tashkilotlarning mablag'lari davlat budjeti hisobidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi.

Maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyati davlat tomonidan boshqarilib boriladi. Shu kabi tadbirlar maxsus ta'lim ustidan davlatning siyosatini amalga oshirish, o'quv reja va dasturiarining yagona bo'lishini ta'minlash imkoniyatini berdi. Nogiron bolalarning barcha turlari uchun maxsus maktablar, maktab-internatlarida va sog'lomlashtirish sanatoriylarida ta'limning bepul amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Bugungi kunda maxsus ta'lim tizimining o'ziga xos bo'lgan asosiy jihatlaridan biri shuki bu tizimga asosan uchta vazirlik birdek aloqador hisoblanadi: Bular; Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirliklaridir. Maxsus muassasalarning hech bir turida bolalar nazoratsiz qolmasligi uchun moddiy imkoni bo'lgan maktablarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, yetim bolalar uchun bolalar uylarida, maxsus maktab-internatlarda alohida ishlar tizimi tashkil etilmoqda:



4.3. Maktabgacha inklyuziv ta'lim uchun reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish

Reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda Ixtisoslashtirilgan tashkilot deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom umumiy tipdagi davlat tashkilotlari, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

3. Ixtisoslashtirilgan tashkilot o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va boshqa qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga muvofiq olib boriladi.³⁴

4. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishiga, shuningdek ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 11-avgustdagi "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 510-son qarori

5. Ixtisoslashtirilgan tashkilot akkreditatsiyasi attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Ixtisoslashtirilgan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va davlat tilidagi o'z nomi yozilgan muhrga hamda shtampga, mustaqil balansga, budjet va budjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

2-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning maqsadlari va vazifalari

7. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishini ta'minlash;
- bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan bolalarga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek bunday bolalar tarbiyalanayotgan oilalarga malakali ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, jamiyatdagi, oiladagi hayotga, o'qishga va mehnat qilishga imkon qadar to'liq hamda o'z vaqtida moslashishiga ko'maklashish.

8. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq

tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik yordam berilishini ta'minlash;

- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga hurmat, o'ziga va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;
- tibbiy abilitatsiya va reabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;
- bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;
- bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;
- o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

3-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilotni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi

9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Ixtisoslashtirilgan tashkilotning muassisidir.

10. Ixtisoslashtirilgan tashkilot muassis tomonidan tashkil etiladi va qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

11. Ixtisoslashtirilgan tashkilot ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va reabilitatsiya markazidan iborat, shuningdek o'z tuzilmasida bolalar va ularning qonuniy vakillari bilan vaqtinchalik yashaydigan xostelga ega bo'lishi mumkin.

12. Ixtisoslashtirilgan tashkilotda muassis bilan kelishilgan holda faoliyati Ixtisoslashtirilgan tashkilot faoliyatining ustav turlariga zid bo'lmagan qo'shimcha bo'limlar, xizmatlar, tarkibiy bo'linmalar ochilishi mumkin. Barcha tarkibiy bo'linmalar o'z faoliyatida Ixtisoslashtirilgan tashkilotning direktoriga bo'ysunadi.

13. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning bino va inshootlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilmasdan xususiylashtirilishi, musodara qilinishi va qayta ixtisoslashtirilishi mumkin emas.

14. Ixtisoslashtirilgan tashkilot o'quv yili tugaganidan keyin qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotni qayta tashkil etish yoki tugatish jarayonida tarbiyalanuvchilarni boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi tomonidan bolaning qonuniy vakillari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

4-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

15. Ixtisoslashtirilgan tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Ixtisoslashtirilgan tashkilot:

- bolalarning jismoniy o'sishi va sog'lig'i mustahkamlanishi uchun sanitariya-gigiyena me'yorlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratishi va ularga rioya etilishini ta'minlashi;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli nozologiyalarni davolash standartlariga muvofiq bolalarning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasini o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratishi;

- ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, psixik va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashi;
- bolalar to'g'ri ovqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;
- bolalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda umumta'lim muassasalarida o'qishga sifatli tayyorlashni ta'minlashi;
- maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash ustidan nazorat olib borishda, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash, abilitatsiya va reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilotdagi guruhlarini ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirilishi.
- zarur moddiy-texnik bazasi va malakali tibbiyot xodimlari mavjud bo'lganda, asosiy ta'lim-tarbiya faoliyati bilan birga pulli davolash-sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatishi shart.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotning qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

17. Ixtisoslashtirilgan tashkilot quyidagilar uchun javob beradi:

- bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolalar Ixtisoslashtirilgan tashkilotda bo'lgan vaqtida ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;
- belgilangan talablarga muvofiq ta'lim-tarbiya, korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshirish;
- bolani tarbiyalash va ta'lim berish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berish;
- umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta'minlash;

ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

18. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning faoliyati ustidan monitoring hamda nazorat vakolatli davlat organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

19. O`quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta`lim olayotgan bolalarni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

5-bob. Ko`p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim tashkiloti

20. Ko`p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim tashkiloti (keyingi o`rinlarda ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot deb ataladi) Ixtisoslashtirilgan tashkilotning tarkibiy bo`linmasi hisoblanib, u erda tarbiyalanuvchilarga ta`lim va tarbiya beriladi.

21. Bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga qabul qilish ushbu tashkilotda bo`sh joylar bo`lsa, kalendar yil davomida amalga oshiriladi.

- Bolalar ularning qonuniy vakillari roziligi bilan quyidagilar asosida qabul qilinadi:
- Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyasining belgilangan tartibda berilgan xulosasi;
- O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo`yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi.

22. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo`lish davri va bolalar bilan o`tkaziladigan korreksion ishlar muddati Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.

23. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo`lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

- eshitishida og`ir nuqsonlari bo`lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ko`rishida og`ir nuqsonlari bo`lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;

- aqliy zaiflik bilan tarbiyalanuvchilar uchun;
- tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun.

24. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:

- kar tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- zaif eshituvchi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

zaif ko'ruvchi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 15 nafar va ko'pi bilan 18 nafar tarbiyalanuvchi;

- gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o'rta darajada aqliy zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 6 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- psixik rivojlanishida kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

25. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ovqatlanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda tarbiyalanuvchilarning ovqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik Ixtisoslashtirilgan tashkilotning direktori zimmasiga yuklanadi.

26. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi:

- og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik;
- shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;
- tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;
- turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;

- asab tizimining organik shikastlanganligi sababli siydik va najas ushlab turolmaslik;

- yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi;

- ko'zi ko'r qulog'i karlar.

27. Bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdan quyidagilar asosida chiqariladi:

- bolani qonuniy vakillarining arizasi;
- sog'liqni saqlash organlari muassasalarining tibbiy ko'rsatmalari;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot va bolaning qonuniy vakillarning o'rtasidagi shartnoma shartlarining bajarilmasligi;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot tibbiy-psixologik-pedagogik kengashining xulosasi;

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasida ko'rsatilgan bolaning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugashi;

- maktab yoshiga yetishi (7 yosh).

6-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

28. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni ta'lim olishi, tarbiyalashni, ularni parvarishlashni va bolalarga korreksion-pedagogik yordamni ko'rsatishni ta'minlaydi.

29. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan (shu jumladan, mualliflik, moslashtirilgan va boshqa) dastur bilan belgilanadi.

30. Ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, taqvim-mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi.

31. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot qonun hujjatlariga hamda Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarga ta'lim-tarbiya berish shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

32. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi yo'nalish asosida bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar frontal, kichik guruh va yakka tartibda olib boriladi. Guruhlar va korreksion-ta'lim kabinetlar zarur ixtisoslashtirilgan asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

33. Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim beriladi va tarbiyalanadi:

- ta'limning korreksion yo'naltirilganligi;

- ijtimoiy moslashuvi;
- ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta`limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

34. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda besh kunlik ish haftasi belgilanadi. Bolalar tashkilotda bo`ladigan muddatga qarab guruhlar:

- to`liq kunli guruhlar (kuniga 10,5 soatgacha);
- bolalar kechayu kunduz bo`ladigan guruhlar (24 soat) bo`lishi mumkin.

35. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ishlash tartibi va tarbiyalanuvchilarning bo`lish muddati Ixtisoslashtirilgan tashkilotning ustavida va muassis qarorida belgilanadi.

36. Ixtisoslashtirilgan tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga joylashtirilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi. Bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo`ladigan vaqt ushbu shartnomada ko`rsatiladi.

37. Ta`lim-tarbiya jarayoni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning maxsus maktabgacha ta`lim bo`yicha tegishli malakaga ega pedagog xodimlari tomonidan o`tkaziladi. Ta`lim jarayonining psixologik-pedagogik kuzatuv psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

38. Pedagog xodimlari ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot faoliyatiga va ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga umumiy rahbarlik Ixtisoslashtirilgan tashkilotning o`quv-tarbiya ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

39. Ta`lim-tarbiya davlat tilida hamda “Davlat tili to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

7-bob. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari

40. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

- tarbiyalanuvchilar;
- pedagog xodimlari;
- tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar;
- bolaning qonuniy vakillari.

41. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

- bepul maktabgacha ta'lim olish;
- rehabilitatsiya va tibbiy xizmatlardan foydalanish;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan dori-darmonlar ro'yxatiga asosan dori vositalari bilan bepul ta'minlanish;

O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va me'yorlariga muvofiq ovqatlanish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilarining boshqa huquq va majburiyatlari qonun hujjatlari va Ixtisoslashtirilgan tashkilot ustaviga muvofiq belgilanadi.

42. Tegishli ixtisoslashtirilgan ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka, yuksak axloqiy xislatlarga ega shaxslar Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda pedagogika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

43. Bolaning qonuniy vakillari ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning ta'lim-tarbiya faoliyati, o'z farzandiga berilayotgan ta'lim va ko'rsatilayotgan rehabilitatsiya yordami bilan ushbu tashkilotning ishiga aralashmay tanishish huquqiga ega.

8-bob. Rehabilitatsiya markazi va rehabilitatsiya jarayonini tashkil etish

44. Rehabilitatsiya tadbirlari Ixtisoslashtirilgan tashkilotning tarkibiy bo'linmasi hisoblangan rehabilitatsiya markazida shtatdagi tibbiyot va pedagog xodimlari, shuningdek Ixtisoslashtirilgan tashkilotga hududiy

biriktirilgan sog'liqni saqlash organlari muassasalarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

45. Reabilitatsiya markazining tibbiyot va pedagog xodimlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlagan davolash standartlariga muvofiq bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini korreksiya qilish, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tibbiy reabilitatsiya, abilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazadi.

46. Belgilangan davolash kursi doirasida reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning har bir tarbiyalanuvchisi uchun yakka tartibda mashg'ulotlar jadvalini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

47. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning tarbiyalanuvchilaridan tashqari reabilitatsiya markazi Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tomonidan yuborilgan nogironligi bo'lgan bolalarni va rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 2 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni ham ambulator sharoitida qabul qiladi va reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazadi.

Bolalarni ambulator sharoitida qabul qilishda ularga ko'rsatiladigan reabilitatsiya muolajalarni davriyligi yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturida belgilanadi, unda bir oy davomida reabilitatsiya muolajalari kursini olish, bolaning sog'lig'i holatiga qarab va Ixtisoslashtirilgan tashkilotni Tibbiy-psixologik-pedagogik kengashining tavsiyalari bo'yicha 3 yoki undan ko'proq oydan so'ng muolajalarni takroran o'tkazish nazarda tutiladi.

48. Reabilitatsiya markazida ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotining har bir tarbiyalanuvchisiga hamda ambulator sharoitida davolanish kursidan o'tgan bola uchun belgilangan namunadagi tibbiy kartasi ochiladi. Tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugagandan keyin yoki ambulator sharoitida davolanish kursi tugaganidan so'ng bolaning qonuniy vakillari yashash joyi bo'yicha tibbiyot muassasasi uchun tibbiy kartasidan ko'chirma beriladi.

49. Reabilitatsiya markazida besh kunlik ish haftasi belgilanadi. Qabul qilish jadval bo'yicha belgilangan vaqtda - har kuni 7,2 soatdan amalga oshiriladi.

50. Reabilitatsiya markazi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bola yashash joyi bo'yicha tuman (shahar) markaziy ko'p tarmoqli poliklinikaning yo'llanmasi asosida, yuqumli kasalliklar bilan aloqa bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotnomani albatta talab qilgan holda, qo'shimcha pulli ambulator xizmatlarini tashkil etishga haqli.

51. Tibbiy jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar tibbiy jismoniy tarbiya instruktori yoki tegishli tayyorgarlikka ega o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

52. Reabilitatsiya markazida barcha sog'lomlashtirish va reabilitatsiya tadbirlari to'g'ri tashkil etilishi hamda o'tkazilishi ustidan nazorat sog'liqni saqlash hududiy boshqarish organlari tomonidan olib boriladi.

Sog'liqni saqlash hududiy boshqarish organlari reabilitatsiya markazini tibbiyot kadrlari bilan to'ldirish, ularning malakasini oshirish, shuningdek davolash va sog'lomlashtirishning zamonaviy texnologiyalari hamda usullarini keng jalb qilish, maslahatlari bilan yordam ko'rsatishi uchun yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun mas'uldir.

53. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning shtatdagi xodimlari sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

54. Tibbiyot va pedagog xodimlar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq reabilitatsiya jarayonini tashkil etish uchun javob beradi. Reabilitatsiya markazi faoliyatiga va reabilitatsiya jarayonini tashkil etishga umumiy rahbarlik Ixtisoslashtirilgan tashkilotning davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan amalga oshiradi.

9-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilot xosteli

55. Ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga bola ambulator sharoitida belgilangan davolash kursi doirasida reabilitatsiya muolajalarini oladigan

davrda bola (bolalar) o'z qonuniy vakillari bilan birgalikda vaqtinchalik yashashi uchun xostel tashkil etishga ruxsat berilsin.

56. Xostellar yuridik maqomga ega bo'lmaydi va Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan boshqariladi.

57. Xostellar asosan o'zini-o'zi moliyalashtirish mablag'lari hisobiga saqlanadi. Shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik (beg'araz) yordamlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan mablag' jalb qilinishi mumkin.

58. Xostellardan tushgan tushumlar Davlat budjetiga undiriladigan soliqlar, Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilinsin.

59. Xostellardan foydalanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

10-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning faoliyatini moliyalashtirish

60. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning faoliyati quyidagilar hisobiga moliyalashtiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari;
- pulli xizmatlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'shimcha daromadlar olish huquqiga ega.

61. Ixtisoslashtirilgan tashkilotga qo'shimcha budjet mablag'larini jalb qilish budjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmaydi.

62. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bolalarni saqlash uchun ota-onalar to'lovi undirilmaydi.

63. Ixtisoslashtirilgan tashkilot o'zi tomonidan tasdiqlangan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

64. Ixtisoslashtirilgan tashkilotda xodimlar ish haqi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotda rahbarlar, pedagog va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

65. Ixtisoslashtirilgan tashkilot tegishli davlat organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moliyaviy va statistik hisobot taqdim etadi.

66. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning moliya-xo'jalik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan nazorat qilinadi.

11-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilotni boshqaruvi

67. Ixtisoslashtirilgan tashkilot qonunchilik hujjatlariga, ushbu Nizomga va Ixtisoslashtirilgan tashkilotning ustaviga muvofiq boshqariladi.

68. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- Pedagogik kengashi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori.

69. Ixtisoslashtirilgan tashkilot Pedagogik kengashi:

- Ixtisoslashtirilgan tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot ish rejasini hamda pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan

yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori va pedagog xodimlari hisobotlarini eshitadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot Pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

70. Ixtisoslashtirilgan tashkilotda bolani tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan tuziladi.

- Ixtisoslashtirilgan tashkilotning Kuzatuv kengashi:
- Ixtisoslashtirilgan tashkilotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmasi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktorini saylaydi, shuningdek uni egallagan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktorining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budjet, budjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi davriy hisobotlarini eshitadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori, pedagog xodimlari va boshqa xodimlari faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;
- Maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organlariga Ixtisoslashtirilgan tashkilot xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotning Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

71. Ixtisoslashtirilgan tashkilot Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

72. Ixtisoslashtirilgan tashkilotga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organlari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan direktor rahbarlik qiladi.

73. Direktor Ixtisoslashtirilgan tashkilotning faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi va Kuzatuv kengashiga hamda muassisa hisob beradi.

74. Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktorining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlarida, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

75. Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktorining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

76. Direktor:

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot nomidan faoliyat olib boradi, uning manfaatlarini ifodalaydi, Ixtisoslashtirilgan tashkilot mulkini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etadi va shartnoma tuzadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi va Ixtisoslashtirilgan tashkilotga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;
- o'z vakolati doirasida Ixtisoslashtirilgan tashkilotning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;
- o'quv-moddiy bazani mustahkamlash, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, malakali pedagog va tibbiy kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq ayrim masalalarni hal qilish yuzasidan hamda Ixtisoslashtirilgan tashkilot faoliyatiga oid boshqa masalalar bo'yicha tegishli organlarga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritadi;

- pedagog, tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar bilan mehnat shartnomalarni tuzadi;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

77. Uch nafar direktor o`rinbosari Ixtisoslashtirilgan tashkilotning tarkibiy bo`linmalariga joriy rahbarlik qiladi:

- o`quv-tarbiya ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari maktabgacha ta`lim hududiy boshqaruv organi va O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi bilan kelishuv bo`yicha Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori tomonidan tayinlanadi;
- davolash ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari sog`liqni saqlash hududiy boshqaruv organi tomonidan tavsiya etiladi hamda maktabgacha ta`lim hududiy boshqaruv organi va O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi bilan kelishuv bo`yicha Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori tomonidan tayinlanadi;
- umumiy masalalar bo`yicha direktor o`rinbosari maktabgacha ta`lim hududiy boshqaruv organi va O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi bilan kelishuv bo`yicha Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori tomonidan tayinlanadi.

78. Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori o`rinbosarlarining huquq va majburiyatlari ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasida belgilanadi.

12-bob. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi

79. Ixtisoslashtirilgan tashkilotda tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi tuziladi va faoliyat olib boradi, Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori uning raisi va o`quv-tarbiya ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari, davolash ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari, psixolog, pedagog hamda tibbiyot xodimlari uning a`zolari hisoblanadi.

80. Tibbiy-psixologik-pedagogik kengash:

- bola Ixtisoslashtirilgan tashkilotning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan yakka tartibdagi yo'nalishni ishlab chiqadi;
- o'quv yili davomida 3-marta (sentyabr, yanvar va mayda) ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilarini tekshiradi;
- yakka tartibdagi yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi;
- korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi;
- bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lgan muddat davomida uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi;
- Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilotlarda bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuboradi;
- tarbiyalanuvchilarni tekshirish ma'lumotlari yoki korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalarining ijobiy dinamikasi asosida Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bo'lish muddati tugashigacha tarbiyalanuvchini ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotidan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilotning reabilitatsiya markazida ambulator sharoitida belgilangan davolash kursi doirasida reabilitatsiya

muolajalarini olishga yuborilgan bolalarni yakka tartibda tekshiradi va bolaning o'ziga xos va yosh xususiyatlariga, sog'lig'i holatiga va rivojlanish darajasiga qarab korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlarini tayinlaydi; bola korreksion-pedagogik va reabilitatsiya muolajalarini vaqti va davriyligi bilan olishi to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqadi;

- bolaning qonuniy vakillari roziligi bilan bola Ixtisoslashtirilgan tashkilot xostelida yashashi uchun u ambulator sharoitida belgilangan davolash kursi doirasida reabilitatsiya muolajalarini olishi zarurligi va uning davomiyligi haqida xulosa beradi.


13-bob. Yakunlovchi qoidalar

81. Ixtisoslashtirilgan tashkilotda siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

82. Ixtisoslashtirilgan tashkilotda xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog va tibbiyot xodimlari amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi PQ- 5144-son qarori bilan tasdiqlangan olis va chekka hududlarda joylashgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” yoki “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning har bir tarbiyalanuvchi farzandlari uchun mazkur daftarlar jamg'armalari hisobidan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining bir nafar tarbiyalanuvchisi uchun sarflanadigan xarajatlar summasining 25 foizi miqdorida subsidiyalar olish;

davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga foydalangan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari narxining 50 foizi miqdorida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan oylik kompensatsiyalar olish;”



Nazorat savollari

1. Maxsus muassasalarni tashkil etish va ularning asosiy vazifalari haqida nimalar tushundingiz?

2. Maxsus muassasalarni tashkil etishga oid bo'lgan muryoriy-huquqiy hujjatlar haqida gapiring?

3. Rehabilitatsiya markaziga ega davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti va uning ahamiyati haqida gapiring?

Mavzu: Rehabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish


Rehabilitatsiya tushunchasi uning mazmuni, turlari va ularning mohiyati

Rehabilitatsiya so'zi - (lotincha «*rehabilitatio*» - so'zidan tarjima qilinganda tiklash) ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha tibbiyot sohasida - organizmning buzilgan funksiyalarni, bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuidir.³⁵ Og'ir kasalliklar hisoblangan (miokard infarkti, insult, orqa miya shikastlanishlari, umurtqa pog'onasi va bo'g'imlarning shakli o'zgarishi bilan kechadigan kasalliklar) da rehabilitatsiya ishlari amalga oshiriladi;

³⁵ L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil.

Bundan tashqari realilitatsiya ishi markaziy nerv sistemasining jiddiy zararlanishlari, ruhiy kasalliklar va boshqalarga uchragan bemorlar uchun ham qo'llaniladi va ular ham bu jarayonga ko'proq muhtoj bo'ladilar.

Tibbiy reabilitatsiya kasallik tufayli funksiyasini yo'qotgan a'zo faoliyatini qisman yoki to'liq tiklash yoki kasallangan sohadagi avj olayotgan jarayonning iloji boricha oldini olishga qaratiladi. Reabilitatsiya bo'limi bor kasalxonalar, ilmiy tadqiqot institutlari, mahalliy kurort va sanatoriylarda mavjud va unda reabilitatsion ishlar amalga oshirilishi bilan birga har bir bemorning umumiy ahvolidan kelib chiqqan holda kasallikning shakli va kechishiga qarab turli davo usullarini belgilash amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda reabilitatsiyaning bir qancha turlari mavjud va bu turlarning har biridan keng qamrovli foydalanib kelinmoqda va bular quydagilar;



Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan reabilitatsiya atamasiga mazmunan mos va tegishli ta'rif berilgan.

“Reabilitatsiya atamasiga Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan kasallik yoki ma'lum funksiyalarning shikastlanishi, qobiliyatlarini tiklash yoki uni o'zi yashayotgan jamiyatdagi yangi sharoitlarga maksimal darajada moslashishiga erishish natijasida

nogironligi bo'lgan shaxsni ta'minlashi kerak bo'lgan tadbirlar majmui deb ta'rif berilgan".

"Reabilitatsiya bu - kasal yoki nogiron odamga maksimal darajada foydali, shu jumladan ijtimoiy yoki iqtisodiy foyda olish uchun har tomonlama yordam berishga qaratilgan harakatlar yig'indisidir".³⁶

Reabilitatsiya tushunchasiga berilgan har qanday ta'riflar mazmunidan kelib chiqqan holda aytish kerakki bu jarayon har qaysi paytda murakkab deb hisoblanishi kerak. Reabilitatsiya ijtimoiy-tibbiy muammo bo'lib, mutaxassislar uning bir necha jihatlarini alohida ajratgan holda reabilitatsiyaning bazi turlarini alohida ajratib ko'rsatadi: *tibbiy reabilitatsiya, jismoniy reabilitatsiya, psixologik reabilitatsiya, kasbiy reabilitatsiya, mehnat reabilitatsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy reabilitatsiya* va boshqalar.

Har kim qachondir eski turmush tarziga qaytish uchun professional yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Bemorning sog'lig'ini tiklash uni mehnat jarayoniga va ijtimoiy hayotga qaytarish bo'yicha ko'p qirrali va ancha uzoq muddatli ish reabilitatsiya hisoblanadi. O'rganilgan adabiyotlarda aytilishicha mutaxassislar reabilitatsiya turlarini o'zaro bog'liqlik va birlikda ko'rib chiqadilar. Ularning har biri o'ziga xos turdagi xususiyatlarga mos keladi.


\Masalan, kasallikning tibbiy va biologik oqibatlarini morfofunktsional normal holatdan og'ish, mehnat qobiliyatining pasayishi bemorni ishlashdan bosh tortishga olib keladi, oila, jamiyat bilan aloqalar buzilgan taqdirda ijtimoiy reabilitatsiya yoki moslashuv talab etiladi. Bemorning ma'lum bir kasallikdan keyin tuzalishi va faqat uning jismoniy tiklanishini muammoning to'liq yechimi deb bo'lmaydi. Reabilitatsiya turlarining har biri odamga alohida ta'sir qilishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Chunki bemor to'liq tuzalgandan keyin u mehnatga layoqatli bo'lishi, ijtimoiy mavqeini tiklashi mumkin deyiladi.

³⁶ A.Madvaliyev tahriri ostida "O'zbek tilining izohli lugati" 80 dan ortiq so'z va so'z birikmalari "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T.: 2010-yil

Reabilitatsiya jarayoni natejasida inson avvalgi holatiga oilada ham, jamoada ham, jamiyatda ham to'liq qaytishi kerak bo'ladi.

Tibbiyot sohasida reabilitatsiyaning turlari juda ko'p - jismoniy, tibbiy, rekonstruktiv jarrohlik, ma'lum tibbiy va texnik vositalar yordamida tiklash, dietoterapiya va boshqalar. Tibbiyotda kasallikning yoki shikastlanishning holatiga qarab ma'lum bir usul qo'llaniladi. Jismoniy shikastlanishni tiklashda fizioterapiya muolajalari va fizioterapiya mashqlari tavsiya etiladi. Bemor kishi haqiqatan ham o'ziga yordam berishni xohlasa barcha jarayonlarda faol ishtirok etishi lozim ekanligi, mutaxassislar tomonidan alohida e'tirof etiladi va bu eng samarali reabilitatsiyani hosil qiladi. Tibbiy tiklanish usullarini uchta kichik guruhga bo'lish mumkin va ular quydagilar:



Tibbiy reabilitatsiya - tizimlariga uzoq vaqtdan beri yagona yoki asosiy yo'nalish sifatida qaralib kelinadi. U asosan shifokorlarning fikriga ko'ra buzilgan funksiyalarni tiklash uchun kasallikni davolash istagi bilan bog'liq deb ko'rsatiladi. Tibbiy reabilitatsiya uchun birinchi navbatda reabilitatsiya mavzusini aniqlash masalasi asosiy deb ko'rsatiladi.

Odamlarda faqat anatomik va fiziologik kasalliklarga asoslangan nogironlikning biologik konsepsiyasi, boshqa narsalar qatori, bemorning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlaridagi nomutanosiblikka asoslangan nazariya bilan almashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Psixologik rehabilitatsiya - psixolog yoki narkologning yordamida amalga oshiriladigan jarayon bo'lib bu jarayon tuzalishni xohlamaydigan bemorlar uchun zarur sanaladi. Bular spirtli ichimliklarga ruju qo'yganlar, giyohvand moddalarga ruju qo'yganlar yoki giyohvandlar bo'lishi mumkin. Bu rehabilitatsiya usuli giyohvandlikka moyil bo'lgan va irodasini butunlay yuqotganlar uchun ham qo'llaniladi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya - bu shaxsning jamiyat bilan yaqinroq munosabatda bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bir tomondan, u ijtimoiy tajribani shaxslarga o'tkazish usuli va uni munosabatlar tizimiga kiritish usulini, ikkinchi tomondan, shaxsiy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natejasi shuni ko'rsatadiki bemorning atrof-muhitga ta'sir qilishi jarohat yoki kasallikdan xalos bo'lishi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Buning natejasida "Ijtimoiy rehabilitatsiya" tushunchasi paydo bo'ladi. Ijtimoiy rehabilitatsiyaning amalga oshirilishi bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich - bemorga kasallikning o'tkir davrida yoki jarohatdan keyingi vaqtda yordam berish. Ushbu bosqich intensiv terapiya bo'limlarida, og'irroq holatlarda - intensiv terapiyada, bir so'z bilan aytganda, rehabilitatsiya va birinchi yordam uchun sharoitlar mavjud bo'lgan joylarda - ushbu kasallikning bartaraf etilishiga ixtisoslashgan tibbiy tashkilotlarda o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich - kasallik yoki shikastlanishdan keyin erta shifo topish, shuningdek, turli tibbiy tashkilotlarning statsionar sharoitlarida kasallikning qoldiq ta'sirida bemorni qo'llab-quvvatlash deb ataladi. Bu rehabilitatsiya markazi, sanatoriylardagi bo'limlar va boshqa joylarda amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchi bosqich - bu qoldiq ta'sirlar davrida, shuningdek kasallikning surunkali darajada kuchaymasidan oldin yordam berish hisoblanadi. Ushbu bosqichda u fizioterapiya xonasida, amalga oshiriladigan jismoniy terapiya yoki refleksologiya ko'rinishida qo'llaniladi. Bu bosqichda terapiya, tibbiy psixologiya va boshqa sohalar yordam beradi.

Fizioterapevtik usullar har qanday rehabilitatsiyaning kalitlaridan biridir. Ular bemorda yo'qolgan funksiyalarni to'liq tiklashga qaratilgan va tananing a'zolari va to'qimalarida, birinchi navbatda, tayanch-harakat tizimi, asab va qon aylanish tizimlarida reparativ jarayonlarni tezlashtirishga yordam beradi.

Fizioterapiya tiklanish usulida hech qanday dori-darmonlar qo'llanilmaydi, shuning uchun allergik reaksiya yoki yon ta'sirlar, shu jumladan giyohvandlikka qaramlik xavfi istisno qilinadi. Bemor uchun maxsus tanlangan rehabilitatsiya dasturi unga operatsiya yoki jarohatlardan so'ng imkon qadar tez va samarali tiklanishiga yordam beradi, harakatda erkinlik hissi va atrofdagi odamlar bilan hech qanday cheklovlarsiz muloqot qilish qobiliyatini tiklaydi.

O'tkir serebrovaskulyar – bu kuchli avariylar natejasida miya to'qimalarining shikastlanishiga olib keladigan kasallik hisoblanadi. Bu kasallik bugungi kunda juda keng tarqalgan bo'lib bu kasalikda to'liq harakatsizlik, kuchning pasayishi, nutqning buzilishi va sezuvchanlikning sezilarli pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Bu kasallikda zararlangan organlarni normal holatga qaytarish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirilish kerak.

Bu kasallikni davolash - nevrologiya bo'limida boshlanishi lozim, keyin esa sanatoriyda davom etirilishi shart. Zararlangan barcha funksiyalarni tiklash uchun prognoz miyaning ta'sirlangan joylarining hajmi va joylashuvi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, individual rehabilitatsiyaning aniqligi va to'liqligi ham bu kasallikni davolashda muhim sanaladi.

Ijtimoiy reabilitatsiya - sohasi uchun eng asosiy muammo qaramlikdir. Xoh u spirtli ichimliklarga qaramlik bo'lsin, xoh giyohvandlik vositalariga qaramlik - bu kasallikdir. Psixoaktiv moddalarni muntazam ravishda istimol qiladigan shaxs ijtimoiy xavf hisoblanadi.

Shu bilan birga, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilish natijasida shaxsda doimiy ruhiy va jismoniy qaramlik paydo bo'ladi. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj insonlar nafaqat o'zi va jamiyat uchun ham muammo hisoblanadi. Bundan insonlardan OIV infeksiyasini yuqtirish xavfi, gepatitning kuchayishi, yurak-qon tomir kasalliklari paydo bo'lishi va boshqalarning yuqori bo'lganligi ham ijtimoiy xavf hisoblanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj insonlarning yon atrofida qilari ularning bu holatidan bezovtalanishi oqibatida ularning psixologik holati ham yomonlashadi. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo'lganlarning ko'pchiligi yaqinlari tomonidan narkologik klinikalarga joylashtirilgan. Biroq, bir hafta davomida davolanish kursini olgan bemorlar uylariga qaytadilar va 99,9% hollarda bir muncha vaqt o'tgach, o'zlarining avvalgi turmush tarzini davom ettira boshlaydilar - ular yana spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilishadi va ular ijtimoiy muammo bo'lib qolaveradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy reabilitatsiya ishlarini olib boruvchiy tashkilotlar soni juda ko'p. Ularning juda ko'pchiligi o'zlarining shaxsiy ish dasturlariga ega. Bunday tashkilotlarda o'n ikki bosqichli reabilitatsiya dasturi amalda hisoblanadi. Qaysi reabilitatsiya markazini va qaysi reabilitatsiya usulini tanlash bemorning o'zi, balki uning yaqinlari tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy reabilitatsiya sohasining asosiy konsepsiyasi mavjud bo'lib bu konsepsiyaning asosiy mazmuni jamiyatda muammolar yoki qiyin hayotiy vaziyatlar tufayli yo'qolgan shaxs maqomini tiklash jarayonidir. Bularga nogironlikning boshlanishi, migratsiya masalasi, qamoqxonalar faoliyati, ishsizlik va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaning bir qancha ommabop turlari mavjud ular muammolarning turiga qarab tanlanadi, hozirda bir vaqtning o'zida bir nechta asosiy tiklash turlari qo'llaniladi.

Bu reabilitatsiya yo'nalishida bemorda to'liq hayot uchun yangi ko'nikmalarni shakllantirishni, shuningdek, kundalik hayotni tashkil qilish va saqlashda yordam beradi. Bundan tashqari bu yo'nalishda, bemorlarga ayrim hollarda, ijtimoiy reabilitatsiya markazi tomonidan amalga oshiriladigan restorativ va rekonstruktiv terapiya buyuriladi. Bemorning ruhiy yoki psixologik salomatligini qaytarish, uning guruh ichidagi munosabatlari va aloqalarini optimallashtirish, shuningdek, yordam va psixologik tuzatishni tashkil qilish uchun shaxsning imkoniyatlarini aniqlash bu yo'nalishning mazmunini tashkil qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya - bu shaxsning ta'lim olish qobiliyati buzilgan taqdirda professional yordamni tashkil etish va amalga oshirishni nazarda tutadi. Buning uchun tegishli uslub va dasturlar bo'yicha o'qitishning shakl va uslublari bilan bir qatorda tegishli shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilishi lozim sanaladi.

Kasbiy, mehnat va ijtimoiy-ekologik reabilitatsiya - insonning yo'qotilgan mehnat, kasbiy fazilatlari va ko'nikmalarini qayta tiklash shuningdek, tegishli muhitda ijtimoiy ahamiyatini tiklashga qaratilgan jarayonlar jamlanmasi hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayyoramizning olti yuz yarim milliondan ortiq aholisi jiddiy kasalliklardan aziyat chekmoqda, ularning uchdan bir qismini bolalar tashkil etadi. Eng yomoni shundaki bu ko'rsatkichlar har yili o'sib bormoqda. Nogiron tug'ilgan yoki hayotining birinchi yilidayoq nogiron bo'lib qolgan bolalar faqat xizmat ko'rsatish va reabilitatsiya markazlari orqali o'z salohiyatini to'la tiklab olishlari mumkin.

Ushbu toifadagi bolalar sog'lig'ini tiklash bo'yicha mamlakatimizda rezidentlar ham chaqaloqlar, ham o'smirlar uchun ham ko'rsatiladigan barcha turdagi xizmatlarni o'z ichiga oladi.

"Bolalarni reabilitatsiya qilish" atamasi bugungi kunda bolaning ijtimoiy ishtirokini ta'minlash bo'yicha xizmatlarning butun majmuini qamrab oladi.

Bolaning sog'lig'ini tiklash, uning aqliy va jismoniy funksiyalarini optimal darajada rivojlantirish bolalarni reabilitatsiya qilish deb yuritiladi. Bu reabilitatsion ishlar tegishli joylarda ya'ni barcha sog'liqni saqlash yoki ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, hayotning ushbu bosqichida ularning sog'lig'ini tiklashni ta'minlaydigan oilalarida amalga oshiriladi. Bolani tibbiy reabilitatsiya qilish bir nechta muassasalarda amalga oshiriladi va bolani tibbiy reabilitatsiya qiluvchi eng muhim va asosiy nuqta tug'ruqxonalarda faoliyatidir.

Bundan tashqari, bolalarning tibbiy reabilitatsiyasida ya'ni normal rivojlanishida poliklinika, ambulatoriya va konsultatsiyalar shuningdek, shifoxonalar va ularning amaliy faoliyati muhim hisoblanadi. Bolaning yoshi ulg'aygani sayin uning tibbiy reabilitatsiya ishlari ixtisoslashtirilgan dispanserlarda, sanatoriylarda, sog'lomlashtirish oromgohlarida, maktab-internatlarda amalga oshiriladi.

Bemor bolalar salomatligini tiklashga qaratilgan davlat dasturlari uch bosqichni o'z ichiga oladi - klinik, sanatoriy va moslashuvdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqich - statsionar bosqich bo'lib bu bosqich nafaqat ta'sirlangan tizimlarning funksiyalarini tiklashni, balki bolaning tanasini keyingi reabilitatsiya davriga tayyorlashni ham ta'minlaydi. Qayta tiklashning ushbu bosqichidagi vazifalarni hal qilish uchun reabilitatsiyaning barcha usullari – farmakologiya, parhez, fizioterapiya, massaj, fizioterapiya mashqlari qo'llaniladi.

Ikkinchi bosqich – bu bosqich sanatoriyalarda amalga oshiriladi va u tiklanish davri deyiladi hamda bu bosqich hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uni amalga oshirish jarayonida ta'sirlangan tizimning funksiyalari normallasadi. Mutaxassislar bolaning individual xususiyatlariga ko'ra jismoniy va ruhiy holatiga alohida e'tibor berish muhimligini ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – bu bosqich moslashuv bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bu bosqichning maqsadi bolani normal hayotga qaytarish uchun funksional ko'rsatkichlarni normallashtirishdir. Ushbu bosqichdagi reabilitatsiya jarayonlarining mazmuni nafaqat chaqaloqning sog'lig'i, balki uning funksional moslashuvi darajasi bilan ham belgilanadi. Uchinchi davr bolalarning to'liq tiklanishi bilan tugaydi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida jamiyatning zaif qatlamlarini reabilitatsiya qilishning individual dasturi yaratilishi va uning amaliy ahamiyati amaliy jarayonlarda sinab ko'rilishi karak. Bolalarni psixologik reabilitatsiya qilish ijtimoiy funksiyalarni, jismoniy va hissiy holatini tiklash uchun amalga oshiriladi.

Reabilitatsiya davri oyoq-qo'llarning harakatchanligini va tayanch-harakat tizimini tiklash, mushaklar va bo'g'imlarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tibbiy reabilitatsiya simulyatorlarining zamonaviy ishlab chiqaruvchilari tiklanish jarayonini yaxshilash va tezlashtirish uchun o'z mahsulotlarini doimiy ravishda yangilab bormoqdalar.

5.1. Reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonunga va boshqa qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga,³⁷ ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga muvofiq faoliyat olib boradi.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil

Ixtisoslashtirilgan tashkilotning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishiga, shuningdek ularni tarbiyalash va reabilitasiya qilishga qaratilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirilishini ta'minlash;

- bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korrekstiyalash uchun qulay shart - sharoitlar yaratish;

- bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

- nogironligi bo'lgan bolalarga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek bunday bolalar tarbiyalanayotgan oilalarga malakali ijtimoiy - maishiy, ijtimoiy - psixologik, ijtimoiy - pedagogik, ijtimoiy - iqtisodiy, ijtimoiy - huquqiy yordam ko'rsatish, jamiyatdagi, oiladagi hayotga, o'qishga va mehnat qilishga imkon qadar to'liq hamda o'z vaqtida moslashishiga ko'maklashish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim - tarbiya va korrekstion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim - tarbiya va korrekstion - pedagogik yordam berilishini ta'minlash;

- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf - odatlarga hurmat, o'ziga va atrof - muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

- tibbiy reabilitatsiya va reabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korrektsiya qilish;
- bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;
- bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;
- o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

5.3. Reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining huquq va majburiyatlari

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilot qonunchilik hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin:

- bolalarning jismoniy o'sishi va sog'lig'i mustahkamlanishi uchun sanitariya-gigiena me'yorlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratishi va ularga rioya etilishini ta'minlashi;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli nozologiyalarni davolash standartlariga muvofiq bolalarning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasini o'tkazish uchun shart - sharoitlarni yaratishi;
- ta'lim - tarbiya va korrektsion-pedagogik jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, psixik

va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashi;

- bolalar to'g'ri ovqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

- bolalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda umumta'lim muassasalarida o'qishga sifatli tayyorlashni ta'minlashi;

- maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash ustidan nazorat olib borishda, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash, abilitatsiya va reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi;

- ixtisoslashtirilgan tashkilotdagi guruhlarini ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirilishi;

- zarur moddiy - texnik bazasi va malakali tibbiyot xodimlari mavjud bo'lganda, asosiy ta'lim - tarbiya faoliyati bilan birga pulli davolash-sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatishi shart.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilot quyidagilar uchun javob beradi:

- bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolalar Ixtisoslashtirilgan tashkilotda bo'lgan vaqtida ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;

- belgilangan talablarga muvofiq ta'lim - tarbiya, korrekstion - pedagogik hamda reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshirish;

- bolani tarbiyalash va ta'lim berish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berish;

- umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta'minlash;

- nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

Bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'lsa, kalendar yil davomida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ularning qonuniy vakillari roziligi bilan quyidagilar asosida qabul qilinadi:


- Tibbiy - psixologik - pedagogik komissiyasining belgilangan tartibda berilgan xulosasi;


- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi;

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

- eshitishida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ko'rishida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- aqliy zaiflik bilan tarbiyalanuvchilar uchun;
- tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:





Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi:

- og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik;

- shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;
- tez - tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;
- turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;

- asab tizimining organik shikastlanganligi sababli siydik va najas ushlab turolmaslik;

- yurak - qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi;

- ko'zi ko'r qulog'i karlar.

Bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdan quyidagilar asosida chiqariladi:

- bolani qonuniy vakillarining arizasi;
- sog'liqni saqlash organlari muassasalarining tibbiy ko'rsatmalari;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot va bolaning qonuniy vakillarning o'rtasidagi shartnoma shartlarining bajarilmasligi;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot tibbiy - psixologik - pedagogik kengashining xulosasi;

- Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasida ko'rsatilgan bolaning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugashi;

- maktab yoshiga etishi (7 yosh).

- Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni ta'lim olishi, tarbiyalashni, ularni parvarishlashni va bolalarga korrekstion - pedagogik yordamni ko'rsatishni ta'minlaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan (shu jumladan, mualliflik, moslashtirilgan va boshqa) dastur bilan belgilanadi.

Ta'lim - tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, taqvim - mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim - tarbiya jarayoni ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi yo'nalish asosida bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar frontal, kichik guruh va yakka tartibda olib boriladi. Guruhlar va korrekstion-ta'lim kabinetlar zarur ixtisoslashtirilgan asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim beriladi va tarbiyalanadi:

- ta'limning korrekstion yo'naltirilganligi;
- ijtimoiy moslashuvi;
- ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda besh kunlik ish haftasi belgilanadi. Bolalar tashkilotda bo'ladigan muddatga qarab guruhlar:

- to'liq kunli guruhlar (kuniga 10, 5 soatgacha);
- bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar (24 soat) bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ishlash tartibi va tarbiyalanuvchilarning bo'lish muddati Ixtisoslashtirilgan tashkilotning ustavida va muassis qarorida belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga joylashtirilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi. Bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'ladigan vaqt ushbu shartnomada ko'rsatiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning maxsus maktabgacha ta'lim bo'yicha tegishli malakaga ega pedagog xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Ta'lim jarayonining psixologik - pedagogik kuzatuv psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

5.4. Reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vazifalari

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ta'lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilari quyidagilardan iborat:



Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilari quyidagi huquqlarga ega:

- bepul maktabgacha ta'lim olish;
- reabilitatsiya va tibbiy xizmatlardan foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan dori-darmonlar ro'yxatiga asosan dori vositalari bilan bepul ta'minlanish;
- O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va me'yorlariga muvofiq ovqatlanish.

Tegishli ixtisoslashtirilgan ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka, yuksak axloqiy xislatlarga ega shaxslar Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda pedagogika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Bolaning qonuniy vakillari ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning ta'lim-tarbiya faoliyati, o'z farzandiga berilayotgan ta'lim va ko'rsatilayotgan reabilitatsiya yordami bilan ushbu tashkilotning ishiga aralashmay tanishish huquqiga ega. Reabilitatsiya tadbirlari Ixtisoslashtirilgan tashkilotning tarkibiy bo'linmasi hisoblangan reabilitatsiya markazida shtatdagi tibbiyot va pedagog xodimlari, shuningdek Ixtisoslashtirilgan tashkilotga hududiy birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlari muassasalarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Reabilitatsiya markazining tibbiyot va pedagog xodimlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlagan davolash standartlariga muvofiq bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini korrekstiya qilish, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tibbiy reabilitasiya, abilitasiya qilish va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan reabilitasiya tadbirlarini o'tkazadi.

Belgilangan davolash kursi doirasida reabilitasiya tadbirlarini o'tkazish ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning har bir tarbiyalanuvchisi uchun yakka tartibda mashg'ulotlar jadvalini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Bolalarni ambulator sharoitida qabul qilishda ularga ko'rsatiladigan reabilitasiya muolajalarni davriyligi yakka tartibdagi reabilitasiya dasturida belgilanadi, unda bir oy davomida reabilitasiya muolajalari kursini olish, bolaning sog'lig'i holatiga qarab va Ixtisoslashtirilgan tashkilotni tibbiy – psixologik pedagogik kengashining tavsiyalari bo'yicha 3 yoki undan ko'proq oydan so'ng muolajalarni takroran o'tkazish nazarda tutiladi.

Reabilitasiya markazida ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotining har bir tarbiyalanuvchisiga hamda ambulator sharoitida davolanish kursidan o'tgan bola uchun belgilangan namunadagi tibbiy kartasi ochiladi. Tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugagandan keyin yoki ambulator sharoitida davolanish kursi tugaganidan so'ng bolaning qonuniy vakillari yashash joyi bo'yicha tibbiyot muassasasi uchun tibbiy kartasidan ko'chirma beriladi.


Reabilitasiya markazida besh kunlik ish haftasi belgilanadi. Qabul qilish jadval bo'yicha belgilangan vaqtda - har kuni 7, 2 soatdan amalga oshiriladi. Tibbiy jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar tibbiy jismoniy tarbiya instruktori yoki tegishli tayyorgarlikka ega o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Reabilitasiya markazida barcha sog'lomlashtirish va reabilitasiya tadbirlari to'g'ri tashkil etilishi hamda o'tkazilishi ustidan nazorat sog'liqni saqlash hududiy boshqarish organlari tomonidan olib boriladi.

Sog'liqni saqlash hududiy boshqarish organlari reabilitasiya markazini tibbiyot kadrlari bilan to'ldirish, ularning malakasini oshirish, shuningdek davolash va sog'lomlashtirishning zamonaviy texnologiyalari hamda usullarini keng jalb qilish, maslahatlari bilan yordam ko'rsatishi uchun yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun mas'uldir. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning shtatdagi xodimlari sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot xosteli - Ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga bola ambulator sharoitida belgilangan davolash kursi doirasida reabilitasiya muolajalarini oladigan davrda bola (bolalar) o'z qonuniy vakillari bilan birgalikda vaqtinchalik yashashi uchun xostel tashkil etishga ruxsat berilsin. Xostellardan tushgan tushumlar Davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar, Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilinadi. Ixtisoslashtirilgan tashkilot qonunchilik hujjatlariga, Nizomga va Ixtisoslashtirilgan tashkilotining ustaviga muvofiq boshqariladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:



Ixtisoslashtirilgan tashkilot Pedagogik kengashi:

- Ixtisoslashtirilgan tashkilotda ta'lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot ish rejasini hamda pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilot ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori va pedagog xodimlari hisobotlarini eshitadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotda bolani tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan tuziladi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotning Kuzatuv kengashi:

- Ixtisoslashtirilgan tashkilotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktorining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora - tadbirlar, moliya - xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi davriy hisobotlarini eshitadi;
- Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori, pedagog xodimlari va boshqa xodimlari faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

Maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organlariga Ixtisoslashtirilgan tashkilot xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Uch nafar direktor o'rinbosari Ixtisoslashtirilgan tashkilotning tarkibiy bo'linmalariga joriy rahbarlik qiladi:

- o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori tomonidan tayinlanadi;
- davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari sog'liqni saqlash hududiy boshqaruv organi tomonidan tavsiya etiladi hamda maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori tomonidan tayinlanadi;
- umumiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori tomonidan tayinlanadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori o'rinbosarlarining huquq va majburiyatlari ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasida belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotda tibbiy – psixologik - pedagogik kengashi tuziladi va faoliyat olib boradi, Ixtisoslashtirilgan tashkilot direktori uning raisi va o'quv - tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, psixolog, pedagog hamda tibbiyot xodimlari uning a'zolari hisoblanadi.

Tibbiy – psixologik - pedagogik kengash:

Bola Ixtisoslashtirilgan tashkilotning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korrekstion-pedagogik hamda reabilitasiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan yakka tartibdagi yo'nalishni ishlab chiqadi;

- o'quv yili davomida 3 marta (sentyabr, yanvar va mayda) ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilarini tekshiradi;
- yakka tartibdagi yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi;

- korrekstion-pedagogik va reabilitastiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi;

- bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lgan muddat davomida uni Tibbiy – psixologik - pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi;

Tibbiy – psixologik - pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilotlarda bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni Tibbiy – psixologik - pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuboradi;


- tarbiyalanuvchilarni tekshirish ma'lumotlari yoki korrekstion - pedagogik va reabilitastiya tadbirlari natijalarining ijobiy dinamikasi asosida Tibbiy – psixologik - pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bo'lish muddati tugashigacha tarbiyalanuvchini ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotidan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega;

- Ixtisoslashtirilgan tashkilotning reabilitastiya markazida ambulator sharoitida belgilangan davolash kursi doirasida reabilitastiya muolajalarini olishga yuborilgan bolalarni yakka tartibda tekshiradi va bolaning o'ziga xos va yosh xususiyatlariga, sog'lig'i holatiga va rivojlanish darajasiga qarab korrekstion-pedagogik va reabilitastiya tadbirlarini tayinlaydi; bola korrekstion - pedagogik va reabilitastiya muolajalarini vaqti va davriyligi bilan olishi to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqadi;

- bolaning qonuniy vakillari roziligi bilan bola Ixtisoslashtirilgan tashkilot xostelida yashashi uchun u ambulator sharoitida belgilangan davolash kursi doirasida reabilitastiya muolajalarini olishi zarurligi va uning davomiyligi haqida xulosa beradi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotda siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Ixtisoslashtirilgan tashkilotda xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog va tibbiyot xodimlari amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



Mavzu: Ko`p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim tashkilotlari va qo`shma turdagi maktabgacha ta`lim tashkilotining ahamiyati va ularni tashkil etish

6.1. Ko`p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta`lim tashkilotlari va qo`shma turdagi maktabgacha ta`lim tashkilotlari to`g`risida Nizom va uning mohiyati

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar deb ataladi) va qo'shma turdagi maktabgacha

ta'lim tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga amalga qiladi.³⁸

3. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishiga, shuningdek, ularni tarbiyalash va rehabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda alohida guruhlarda birgalikda o'qishini va tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkin.

4. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori

5. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot akkreditatsiyasi attestatsiya asosida qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda shtampga, mustaqil balansga, budjet va budjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega.

7. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, ajratilgan mol-mulkka, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha o'z ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhrga va shtampga ega bo'lishi mumkin.

8. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot litsenziya olgan vaqtdan boshlab qonunchilikda belgilangan tartibda ta'lim faoliyatini amalga oshiradi.

6.2. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari

2-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning maqsadlari hamda vazifalari

9. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;
- bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

10. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksiya-pedagogik yordam berilishini ta'minlash;

- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga hurmat, o'ziga va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

- tibbiy abilitatsiya va reabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;

- bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

- maktabgacha yoshadgi bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;

- o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

3-bob. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartib.

11. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat ixtisoslashtirilgan

maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotning muassislari bo'lishi mumkin.

12. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni 6 tani tashkil etadi.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etishi kerak

a) kamida 3 ta inklyuziv guruh;

b) quyidagi ixtisosliklar bo'yicha rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kamida 3 ta guruh:

- eshitishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;
- ko'rishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;
- psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;
- aqliy zaiflik bilan tarbiyalanuvchilar uchun;
- tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun.

13. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 5 yoshga bo'lgan bolalar kontingenti mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili yig'ib boradi va bu ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadi.

14. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organlari, deb ataladi) Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda sog'liqni saqlash hududiy boshqaruv organlari deb ataladi) bilan birgalikda bunday muassasalarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish yakunlari bo'yicha tashkil etiladi.

15. Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar mavjud bo'lsa, maktabgacha ta'limning hududiy boshqaruv organlari sog'liqni saqlashning hududiy boshqaruv organlari bilan birgalikda davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga murojaat qiladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi taklif oxirgi 5 yil har yilga bo'lib chiqilgan va tegishli hududdagi 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida qayd etilgan kasalliklar o'sishini ko'rsatadigan sog'liqni saqlash organlarining rasmiy statistika ma'lumotlari bilan asoslangan bo'lishi kerak.

16. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish masalasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib olganidan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tegishli taklif bilan murojaat qiladi.

17. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni yoki qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotni tashkil etish to'g'risidagi qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan qabul qilinadi.

18. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarining va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining bino hamda inshootlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilmasdan xususiylashtirilishi, o'zgaga berilishi va qayta ixtisoslashtirilishi mumkin emas.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot o'quv yili tugaganidan keyin qonunchilikda belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini qayta tashkil etish yoki tugatish

jarayonida bolalarni boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi tomonidan bolaning qonuniy vakillari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

4-bob. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash

19. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan litsenziyani olgan vaqtdan boshlab amalga oshiradi.

5-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

20. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

- tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.
- Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

21. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar:

- bolalarning jismoniy o'sishi va sog'lig'i mustahkamlanishi uchun sanitariya-gigiyena me'yorlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratishi va ularga rioya etilishini ta'minlashi;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli nozologiyalarni davolash standartlariga muvofiq bolalarning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasini o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratishi;
- ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogika jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, psixik va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashi;
- bolalar to'g'ri ovqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;
- bolalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda umumta'lim muassasalarida o'qishga sifatli tayyorlashni ta'minlashi;
- maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash ustidan nazorat olib borishda, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash, abilitatsiya va reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi;
- ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi guruhlarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirilishi;
- qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlardagi inklyuziv guruhlar uchun mo'ljallangan guruhlarni umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirishi shart;
- Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

22. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagilar uchun javob beradi:

- bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta`minlash;
- bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda yoki qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotda bo`lgan vaqtida ularning hayotini himoya qilishni va sog`lig`ini mustahkamlashni tashkil etish;
- belgilangan talablarga muvofiq ta`lim-tarbiya, korreksion-pedagogika hamda reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshirish;
- bolani tarbiyalash va ta`lim berish masalalari bo`yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berish;
- umumta`lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta`minlash;
- ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

23. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring hamda nazorat vakolatli davlat organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

24. O`quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta`lim olayotgan bolalarni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligiga zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

6-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotlarga bolalarni qabul qilish hamda ulardan chiqarish

25. Bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotga qabul qilish ushbu tashkilotda bo`sh joylar bo`lsa, kalendar yil davomida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga bolalarni qabul qilish:

- tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida amalga oshiriladi.

- Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlarga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lmagan bolalar:

- bola qonuniy vakilining arizasi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma (qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti uchun);

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarga, shuningdek qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlariga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:


- bola qonuniy vakilining arizasi;

- tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

26. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda, qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotining rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan hamda inklyuziv guruhlarda bo'lish davri, korreksion ishlari muddati tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.

27. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi:



27. Bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdan va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo`lgan bolalar uchun guruhlardan quyidagilar asosida chiqariladi:

- bolani qonuniy vakillarining arizasi;
- sog`liqni saqlash organlari muassasalarining tibbiy ko`rsatmalari;
- maktabgacha ta`lim tashkilot va bolaning qonuniy vakillarning o`rtasidagi shartnoma shartlarining bajarilmasligi;
- maktabgacha ta`lim tashkilot tibbiy-psixologik-pedagogik kengashining xulosasi;
- Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasida ko`rsatilgan bolaning ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda bo`lish muddati tugashi;
- maktab yoshiga yetishi (7 yosh).

7-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

28. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot maktabgacha ta'limga qo'yiladigan belgilangan davlat talablariga muvofiq bolalar ta'lim olishi, tarbiyalanishi, parvarishlanishi va sog'lomlashtirilishini ta'minlaydi.

29. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturi asosida, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan (shu jumladan, mualliflik, moslashtirilgan va boshqa) dastur bilan belgilanadi.

30. Ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi.

31. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot qonunchilikka hamda Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.


32. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi yo'nalish asosida bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar frontal, kichik guruh va yakka tartibda olib boriladi.

33. Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim beriladi va tarbiyalanadi:

- ta'limning korreksion yo'naltirilganligi;
- ijtimoiy moslashuvi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

34. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda besh kunlik ish haftasi belgilanadi.

35. Bolalar tashkilotda bo'lish vaqtiga qarab ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi guruhlar:



36. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ishlash tartibi hamda tarbiyalanuvchilarning bo'lish vaqti uning ustavida va muassis qarorida belgilanadi.

37. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola ushbu tashkilotga joylashtirilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

38. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus maktabgacha ta'lim bo'yicha tegishli malakaga ega pedagog xodimlar tomonidan o'tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagog kuzatuv psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

39. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotda ta`lim-tarbiya davlat tilida hamda “Davlat tili to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

8-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotda reabilitatsiya jarayonini tashkil etish

40. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo`shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo`lgan bolalar uchun reabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga yoki qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotga hududiy biriktirilgan sog`liqni saqlash organlari tibbiyot xodimlari tomonidan o`tkaziladi.

41. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo`shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlarda reabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, boshqa tibbiyot xodimlari tomonidan shartnoma asosida o`tkaziladi.

42. Tibbiyot xodimlari O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan davolash standartlariga muvofiq tarbiyalanuvchining rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilishga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo`lgan bolalarni tibbiy reabilitatsiya qilish, abilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan davolash-sog`lomlashtirish tadbirlarini o`tkazadi.

43. Davolashning belgilangan kursi doirasida tibbiy reabilitatsiya muolajalarini o`tkazish har bir tarbiyalanuvchi uchun mashg`ulotlar jadvalini hisobga olib yakka tartibda o`tqaziladi.

44. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotda bolaning bo`lish muddati tugaganidan so`ng uning qonuniy vakillari yashash joyidagi tibbiyot muassasasi uchun

rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan har bir bolaning tibbiy kartasidan ko'chirma beriladi.

45. Tibbiy jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar tibbiy jismoniy tarbiya instruktori yoki tegishli tayyorgarlikka ega o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

46. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda barcha sog'lomlashtirish va reabilitatsiya tadbirlari to'g'ri tashkil etilishi hamda o'tkazilishi ustidan nazorat ushbu tashkilot joylashgan joydagi sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.


47. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining shtatidagi xodimlar sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

48. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar xodimlari sog'liqni saqlash organlarining muassasalari tomonidan shartnoma asosida tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi.

6.3. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun bolalar guruhlarini tashkil etish va ta'lim jarayonini tashkil etish

9-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda guruhlarini to'ldirish

49. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:



50. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:

- kar tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- zaif eshituchi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;
- ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;
- zaif ko'ruvchi yaxshi ko'rmaydigan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;
- tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 15 nafar va ko'pi bilan 18 nafar tarbiyalanuvchi;

- gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o'rta darajada aqliy zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 6 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

51. Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar yoshi bo'yicha to'ldiriladi.

52. Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan inklyuziv guruhlar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldiriladi hamda quyidagini tashkil etadi:

- kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan

(zaif ko`ruvchilar yoki zaif eshituvchilar yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo`lgan) 3 nafar bola;

- kamida 20 nafar va ko`pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko`pi bilan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo`lgan (ambliopiya bilan, ko`zi g`ilaylik, yoki nutqida og`ir nuqsonlari bo`lgan yoki autizm bilan) 2 nafar bola;

- kamida 20 nafar va ko`pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko`pi bilan nutqida og`ir nuqsonlari bo`lgan 3 nafar bola;

- kamida 20 nafar va ko`pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko`pi bilan psixik rivojlanishda kechikayotgan 3 nafar bola.

- Qo`shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to`ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagini tashkil etadi:

- kar bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko`pi bilan 10 nafar bola;

- zaif eshituvchi bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko`pi bilan 12 nafar bola;

- ko`zi ojiz bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko`pi bilan 10 nafar bola;

- zaif ko`ruvchi bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko`pi bilan 12 nafar bola;

- tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo`lgan bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 15 nafar va ko`pi bilan 18 nafar bola;

- gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko`pi bilan 12 nafar bola;

- bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bilan bolalarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko`pi bilan 10 nafar bola;

- yengil darajada aqli zaif bo`lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko`pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi; o`rta darajada aqli zaif bo`lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo`ljallangan guruhlarda-kamida 6 nafar va ko`pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

- psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

- murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda-kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

53. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarini to'ldirish tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlab turish, tuzish va ularda ishlash tartibini tashkil etishga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablarini hisobga olgan holda muassis tomonidan belgilanadi.

10-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda ovqatlanishni tashkil etish

54. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda ovqatlanish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

55. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda tarbiyalanuvchilar ovqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik ushbu tashkilotning rahbari zimmasiga yuklanadi.

11-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish

56. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot faoliyati quyidagilar hisobiga moliyalashtiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan ota-onalar to'lovi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

57. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga va qo'shma turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'shimcha budjet mablag'larini jalb qilish budjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmaydi.

58. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotni moliyalashtirish hamda moddiy-texnik ta'minlash muassis mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

59. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan ota-onalar to'lovi qonunchilikda belgilangan miqdorda undiriladi.

60. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlari o'zi ko'rsatayotgan maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari haqi muassis tomonidan shartnoma asosida belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha to'lanadi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

61. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan oilalarning bolalarini parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun ota-onalar to'lovi imtiyozli shartlar asosida qonunchilikda belgilangan miqdorlarda olinadi.

62. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida ota-onalar to'lovi undirilmaydigan tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlar ro'yxati qonunchilikda belgilangan tartibda belgilanadi.

63. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni moliyalashtirish ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tomonidan tasdiqlangan va qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining inklyuziv guruhlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga

olingan umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarning rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

64. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotida xodimlar ish haqi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida rahbarlar, pedagog va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda ishlovchi pedagog va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.


65. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot tegishli davlat organlariga qonunchilikda belgilangan tartibda moliyaviy va statistik hisobot taqdim etadi.

66. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining moliya-xo'jalik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan nazorat qilinadi.

12-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqaruvi

67. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqarish qonunchilikka, ushbu Nizomga va mazkur tashkilotning ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

68. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqarish organlari quyidagilardan iborat:



Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va nodavlat qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlar o'z boshqaruv organlari tizimini mustaqil belgilaydi.

69. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti pedagogik kengashi:

- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;
- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti ish rejasini hamda pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;
- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;
- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;
- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;

- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari va pedagog xodimlari hisobotlarini eshitadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining Pedagogik kengashi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

70. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotida bolani tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan tuziladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining Kuzatuv kengashi:

- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

- tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek uni egallagan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilyotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budjet, budjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi davriy hisobotlarini eshitadi;

- davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;
- tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotining Kuzatuv kengashi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

71. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

72. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan direktor rahbarlik qiladi.

73. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning yoki qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilotning rahbari hisoblanadi.

74. Direktor davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassis oldida hisob beradi

75. Direktor nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot yoki qo'shma turdagi nodavlat maktabgacha tashkilot faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

76. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot rahbarining huquqlari hamda majburiyatlari qonunchilikda, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

77. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilot rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

78. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda psixolog, tibbiyot va pedagog xodimlardan iborat tibbiy-psixologik-pedagogik kengash tuziladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi:

- bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda rehabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqadi;

- individual yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi;

- korreksion-pedagogik va rehabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi;

- bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda bo'lgan muddat davomida uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi;

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha

tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilotlarda bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuboradi.

13-bob. Yakunlovchi qoidalar

79. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

80. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotda xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlar va tibbiyot xodimlari amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6.4. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi va uning asosiy ish xujjatlari

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining **“Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”**gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i³⁹ga asosan Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi va uning asosiy ish xujjatlari quydagilardan iborat bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

11-01. O'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar:

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. “Ilm yo'li” variativ dasturi, “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi, 2-7 yoshli alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturi.

³⁹ O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'iga

11-02. Bolalar davomatini qayd etish daftari, (tabel, filtr va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar):

Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabel, filtr daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar haqidagi ma'lumotlar ham qayd etiladi. Daftarlari umumiy bitta bo'lishi yoki 3 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 11-02 raqami qo'yiladi. Daftarlarning yuritilish tartibi ommaviy turdagi MTT tarbiyachilari tomonidan yuritilishiga o'xshab tuziladi (05-03ga qaralsin).

11-03. Pedagoglarning o'zaro hamkorlik daftari:

Pedagoglari bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi mutaxassislar o'rtasida o'zaro yuritilib, bir-birlarini to'ldirishga qaratilgan bo'lib, rejalashtirilgan ishlar hamkorlikda amalga oshiriladi. Mazkur xujjatni yuritishdan maqsad O'zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan 2-7 yoshli alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturi talablarini bajarish asosida ertalabki soat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka tartibda ishlashni loyihalashtirishdan iboratdir.

Ushbu hujjat pedagoglarning umumiy guruhdagi ishlar va kundalik faoliyatlar (rejim momentlari) bo'yicha hamkorlik rejasi hisoblanadi. Har bir KTIMTT ustavi, kun tartibi, guruh ixtisoslashuvi (tiflo, surdo va boshqalar) asosida hamkorlik ishlarini rejalashtiradi. Ushbu hujjat tarbiyachi va defektolog tomonidan to'ldiriladi. Tarbiyachining oylik va haftalik ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ish rejasi tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi.

Na'muna

Pedagoglarning o'zaro hamkorlik daftari (defektolog va tarbiyachi tomonidan yuritiladigan hujjat) Oylik ish reja daftari quyidagicha to'ldiriladi:

- ish rejaning titul varag'i;
- tasdiqlangan haftalik mashg'ulotlar jadvali;
- bir oylik mavzuli reja;

- 15 kunga mo'ljallangan ertalabki badantarbiya mashqlari;
- ota-onalar bilan ishlash rejasi;
- rejaning asosiy qismida kundalik faoliyat turlari qayd etib boriladi.

11-04. Bolaning rivojlanish xaritasi. Yillik hisobot:

TPPK xulosasi asosida tashkilotga qabul qilingan kunidan alohida extiyojga ega bo'lgan bola o'quv yili davomida doimiy ravishda kuzatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dastlabki kuzatish o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari (boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi.

Uning shu davrgacha *erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari* aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (+) bilan belgilaydi. Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilayotgan natijalar) "ishlamasa", pedagog (tarbiyachi) "Pedagog izohi" ustunida eslatma yozishi lozim.

Alohida extiyojga ega bo'lgan bolalarda boshlang'ich imkoniyatlarini, joriy rivojlanish darajasini aniqlab, individual ta'lim yo'nalishini tuzish hamda ushbu ma'lumotlardan foydalanish uchun 0 yoshdan boshlab belgilanishi maqsadga muvofiq.

Bolaning rivojlanish darajasi quyidagi tushuntirishlar yordamida belgilanadi:

K – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti harakatlari kam yoki umuman namoyon qilmaydi).

B – ba'zida kuzatiladi (bola asosiy ko'nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari tasodifiy yoki ma'lum vaziyatlarda).


T – tez-tez kuzatiladi (bola asosiy ko'nikma / xatti-harakatni vaziyatga qarab namoyish etadi).

D – doimiy ravishda kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi xatti harakatlari talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi).

Oraliq kuzatish shu tartibga binoan o‘tkaziladi. Kuzatishning bu turi birinchi yarim yillik oxiri (dekabr, yanvar) da o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni o‘tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to‘g‘riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatish natijalariga ko‘ra, pedagog, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug‘ilgan holatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O‘quv yili oxirida (odatda may oyida) pedagog yakuniy kuzatishni o‘tkazadi. Mazkur kuzatish asosida yil boshida qo‘yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko‘zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi.

Kuzatishni o‘tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:



Bolalarni kuzatish natijalariga ko‘ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalarida rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda, keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi. 6-7 yoshli

bolalarning yakuniy kuzatuvidan so'ng bolaning maktabga tayyorligi xaritasi to'ldiriladi.

Yillik hisobot. (04-02 indeks ostida namunasi ko'rsatilgan)

11-05. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash daftari

Ushbu daftarda tarbiyachi individual ta'lim yo'nalishi bo'yicha bolalar bilan rejalashtirilgan ishlarni (kuniga 5 nafar boladan ko'p bo'lmagan) va bu ish natijalarini yoritib boradi.

Yakka tartibdagi ishlar bo'sh vaqtlarda, sayrda, tushdan keyin amalga oshiriladi.

Na'muna

Sana	Bolaning FISH	Maqsad/vazifa	Amalga oshirilgan ish	Natija
04.10.2024	Maxmudova Dilafruz Timurovna	Maqsad: qoshiqni ushlash. Vazifa: bolada o'yinchoqlarni ushlash ko'nikmasini rivojlantirish	O'yin: "O'yinchoqni ol" O'yin: "To'pni o'ynaymiz"	D.Maxmudo va qoshiqni qo'li bilan olish ko'nikmasini hosil qiladi To'pni o'ng qo'li bilan irg'ita oladi

6.5. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi faoliyati va asosiy ish hujjatlari

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining "**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida**"gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'iga asosan Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma turdagi

maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi va uning asosiy ish xujjatlari quydagilardan iborat bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

12-01. O'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar:

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Moslashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi; 2-7 yoshli alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturi.

12-02. Yillik va istiqbol ish rejasi. Yillik hisobot:

Yillik va istiqbol ish rejasi har bir guruhning yosh xususiyati va ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Na'muna

T/r	Sana (hafta)	Hafta mavzusi	Faoliyat turlari	Lug'at
1.	18-22.09.2023	1.Mening shahrim 2. Artikulyatsiya va eshitish organlari bilan tanishtirish 3. Predmetlarning o'lchamlari bo'yicha taqqoslash. Miqdorni "katta, kichik, teng" so'zlari bilan belgilash	"Mening shahrim" mavzu bo'yicha suhbat O'YINLAR: "kam-ko'p", "erkalab ayt", "rangiga qarab tanla", "nima etishmayapti", "4 si ortiqcha", Nafas olish va artikulyar gimnastika 1. "Shahar bo'ylab sayohat" O'YINLAR: Tematik didaktik o'yinlar	Ot: fe'l: Sifat: Ravish; va boshqalar

Yillik hisobot. (04-02 indeks ostida namunasi ko'rsatilgan)

12-03. Tarbiyachi bilan hamkorlik ish rejasi

Mazkur xujjat 11-03 indeksi ostida ko'rsatilgan izoh bo'yicha yuritiladi

12-04. Bolaning individual ta'lim yo'nalishi:

Korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalish (ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun) - bu aniq bir bola uchun mo'ljallangan ko'p yo'nalishli ta'limiy yakka tartibdagi yo'nalishini tavsiflovchi, shu jumladan oila bilan hamkorlikda olib boriladigan hujjatdir.

KTIDMTT va QTMTTning tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib, korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalish ishlab chiqadi, uni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi.

Korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringi olib boriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi xulosasiga binoan KTIDMTT va QTMTTga qabul qilingan bola mutaxassislar tomonidan 2 hafta davomida kuzatiladi.

Korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni tuzish bosqichlari:

1. Bola haqida ma'lumotlarni to'plash (kuchli tomonlari va muammolari).
2. Maqsad va vazifalarni aniqlash.
3. Ta'lim usullarini tanlash.
4. Amalga oshirish.
5. Baholash (maqsadga qanday erishildi?).
6. Tekshirish va korreksiyalash.

Maqsadlarni belgilashda uning aniqligini hisobga olish va bola unga xaqiqatdan ham erishishga imkon beradigan rivojlanish darajasida ekanligiga ishonch hosil qilish lozim. Maqsadni shunday belgilash kerakki, olingan natijalarni o'lchash yoki baholashning imkoni bo'lsin.

Har bir MTT tarbiyalanuvchilarining kontingentiga qarab o‘ziga xos korreksionpedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o‘tkazish yuzasidan individual yo‘nalishini tuzish huquqiga ega.

12-05. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi:

Ushbu daftarda defektolog individual ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bolalar bilan rejalashtirilgan ishlarni va o‘tilgan mavzularni mustahkamlash bo‘yicha ish natijalarini yoritib boradi.

Sana	Bolaning F.I. Sh	Maqsad/vazifa	Amalga oshirilgan ish	Natija
04.10.2024	Maxmudova Dilafruz	Maqsad: qoshiqni ushlash. Vazifa: bolada o‘yinchoqlarni ushlash ko‘nikmasini rivojlantirish	O‘yin: “O‘yinchoqni ol” O‘yin: “To‘pni o‘ynaymiz”	D.Maxmudova qoshiqni qo‘li bilan olish ko‘nikmasini hosil qiladi To‘pni o‘ng qo‘li bilan irg‘ita oladi
	Axmedov Bekzod	Maqsad: sabzavotlarni biladi Vaziva: sabzavotlarni rang va shakliga qarab ajratish	O‘yin: “Sabzavotni top” O‘yin: “Mazzasidan bil”	B. Axmedov sabzavotlardan kartoshka va sabzini bildi
	Va boshqalar			

12-06. Bolaning yakka tartibdagi uy vazifasi daftari

Uy vazifasi daftariga bolaning bajara olish qobiliyatiga qarab, mustaqil bajarish uchun haftasiga 4-5tadan vazifa beriladi (ota-onaga tushuntirilgan holda).

Uy vazifasi daftari haftada bir marotaba to'ldirilib, juma kunlari xafta mashg'ulotlarini takrorlash, mustahkamlash uchun ota-onalarga berib, dushanba kuni bola uy vazifasi daftari bilan qabul qilinadi.

Nazorat savollari

1. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari haqida nimalar bilib oldingiz?
2. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularni tashkil etish haqida gapirib bering?
3. Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining majburiyatlari haqida tushuntiring?

III BOB. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha inklyuziv ta'limga jalb etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining vazifalari

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etish

7.1. Defektologlik faoliyati va uning asosiy mazmuni

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida defektolog faoliyatini tashkil etish mavzusi bo'yicha yaratilgan matreallarni va adabiyotlarini o'rganish natejasida defektolog faoliyatining naqadar muhim ekanligini anglash mushkul emas.⁴⁰ Mazkur manbalarda bu faoliyatning ta'riflarini quydagi ko'rinishlarda uchratish mumkin.


Defektologiya tibbiyot va pedagogikani birlashtirgan kasb bo'lib, u maxsus bolalar va ularning ota-onalari uchun eng yaxshi do'st va maslahatchilik vazifalarini bajaruvchi shaxs.

Defektologlik kasbi mohiyatan o'qituvchi, psixolog, shifokor, nutq terapevti va MTT tarbiyachisi kasbiga yaqin hisoblanadi.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori



Defektolog shaxsiga tegishli bo'lgan shaxsiy fazilatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.



Aqlning yuqori darajasi - u defektolog kasbini o'zlashtirishning eng zaruriy omili bo'lib uning nutqni savodli va aniq yetkazishi kerak, u yaxshi xotiraga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri tuzishi va tashkil eta olishi kerak.

Intuitiv qobiliyat - muayyan holatga mos keladigan texnikani aniqlash uchun sezgi kerak. Shuning uchun ham defektologning intuitsiyasi yaxshi darajada rivojlangan bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kuzatuvchanlik va ehtiyotkorlik - defektolog uchun bu ikki fazilat bola bilan aloqa o'rnatish uchun va uning xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga va buni mantiqan tushunishga hamda tushuntirishga yordam beradi.

Hamjihatlilik - mutaxassis bolalar bilan umumiy tilni topa olishi va ular bilan muloyim bo'lishi, har doim bolani gaplashishiga va ikki tomonlama muloqotni qo'zg'atishga qodir bo'lishi kerak.

Hissiy barqarorlik va sabr-toqat - kuchli asab tizimi defektologning jismoniy yoki aqliy qobiliyati cheklangan bolalar bilan o'tkazadigan mashg'ulotlarining samaradorligi va natejadorligining kalitidir.

Odoblilik - mutaxassis maxsus bolalar va ularning ota-onalari bilan muomala qilishda juda iltifot va ehtiyotkorlikni ko'rsatishi uning ish faoliyati uchun juda muhim sanaladi. Chunki bu toifadagi bolalari bor oila a'zolarining ko'pchiligida kuchli agresiya holati mavjud bo'ladi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash bo'yicha faoliyat olib borgan hamda bu sohada eng yuqori natejalarga erisha olgan mashhur defektologlar hayoti va faoliyati haqida adabiyotlarda va enternet saytlarida talaygina ma'lumotlar mavjud. Masalan; Rossiya Federatsiyasining taniqli olimlari o'zlarining ishlarini ushbu muammo bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlarga bag'ishladilar. Olim-defektologlarning oltin fondiga quyidagilar kiradi:

Rus nevropatologi, psixiatr va psixolog, ilmiy maktab asoschisi **Vladimir Mixaylovich Bekhterev** 1857-yil 20-yanvar kuni dunyoga keladi. U o'z davrida eng mashhur rus nevrologi va ob'ektiv psixologiyaning otasi hisoblangan. U gipokampusning xotiradagi roli, reflekslarni o'rganishi va Bexterev kasalligi aniqlash va u bilan mashhurlikka erishgan olim hisoblanadi. Bundan tashqari, u shartli reflekslarni o'rganish bo'yicha Ivan Pavlov bilan raqobatdosh

hisoblabganlihi haqida adabiyotlarning ko'pchiligida qayd etiladi. Uning o'limining kutilmaganda sodir bo'lishi haqida turli-tuman mish-mishlar hozirgacha ham mavjud uning Iosif Stalin buyrug'i bilan vafot etgani haqida ko'p aytiladi.

Bu gumonli fikrning sababi shundaki, Bexterev o'limidan sal oldin Stalinga tibbiy tashxis qo'ygan va bu sovet diktatori mavqeiga siyosiy ziyon keltirgan. Biroq, bu fikrni to'g'ridan-to'g'ri asoslash bo'yicha dalillar yo'qligi sababli olimlar o'rtasida bu o'lim sababi bahsli bo'lib kelmoqda.



Vladimir Bexterev Rossiya imperiyasining Vyatka gubernatorligining Volga daryosi va Ural tog'lari oralig'idagi Sorali qishlog'ida tug'ilgan. Bexterevning otasi - Mixail Pavlovich - tuman militsiyasi xodimi bo'lgan onasi esa Mariya Mixaylovna – viloyat maslahatchining qizi bo'lib, musiqa va fransuz tilidan maktab-internatida dars beradigan o'qituvchi bo'lgan.

Ularning Vladimirdan tashqari yana ikkita o'g'li bo'lib ularning ismlari Nikolay va Aleksandr edi ular Bexterevdan 6 va 3 yosh katta bo'lgan. 1864-yilda Bexterevning oilasi Vyatkaga ko'chib o'tdi va bir yil ichida oila boshlig'I ya'ni uning otasi sil kasalligidan vafot etdi. Bolaligi oddiy bo'lmagan bo'lsa-da, Bexterev 1867-yilda Rossiyadagi eng qadimgi maktablardan biri bo'lgan Vyatka gimnaziyasida, shuningdek, 1873-yilda Sankt-Peterburgdagi Harbiy tibbiyot akademiyasida o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Keyin u Sankt-Peterburg tibbiyot xirurgiya akademiyasida tahsil oldi va u yerda professor Yan Lujan Mierzejevskining qo'l ostida ishlaydi. Bexterevning nevropatologiya va psixiatriya fanlariga qiziqishi aynan shu yerda paydo bo'ladi. Rossiya 1877-yilda Usmonli imperiyasi bilan urush boshlaydi. Bexterev tez yordam otryadida ko'ngilli bo'lib, urush harakatlariga yordam berish uchun o'qishdan ta'til oladi.

Urushdan keyin u maktabga qaytdi. Maktabda o'qiyotganda Bexterev tibbiyotni yaxshilash institutida ruhiy va asab kasalliklari klinikasida kichik shifokor bo'lib ishlaydi. Bu yerda u o'zining kichik tadqiqot ishlarini olib borishni boshlaydi. 1878-yilda Bexterev Sankt-Peterburg tibbiyot va jarrohlik akademiyasini tibbiyot bakalavriga o'xshash daraja bilan tugatgan.

O'qishni tugatgach, Bexterev Sankt-Peterburgdagi ruhiy kasalliklar klinikasida ishlashni boshlaydi. Bu yerda u miyaning anatomiyasi va fiziologiyasini, keyinchalik u o'zining eng muhim hissalarini qo'shgan sohani o'rganishni boshlaydi. Aynan shu davrda Bexterev Natalya Bazilevskayaga uylandi va 1927-yil 24-dekabrda vafot etadi.



Lev Semyonovich Vygotskiy

1896-yildan 1934-yilgacha yashab ijod qilgan mashhur olimlardan biri bo'lib u pedagogika va psixologiya sohasini birinchilardan bo'lib bir-biriga bog'lagan sovet psixologi hisoblanadi. Bundan tashqari u bola rivojlanishining tadqiqotchisi, korreksion pedagogika, ijtimoiy psixologiya va psixolingvistikaning fanlari va sohalarini

o'rganuvchilarning eng yirik vakili bir so'z bilan aytgan shu sohalarining asoschisi sanaladi. Vygotskiyning tug'ilgan sanasi 1896-yil 17-noyabr, Mogilev viloyati,

Orsha shahri Rossiya imperiyasiga to'g'ri keladi. Vafot etgan vaqti 1934-yil 10-iyun kuni 37 yoshida, Moskva, SSSRga to'g'ri keladi. Turmush o'rtog'i Roza Noevna Smexova bo'lib 1924-yilda turmush qurishadi. Farzandlari Elena Evgenievna va Kravtsovalar hisoblanadi. Vygotskiy "Defektologiya va g'ayritabiiy bolaning rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi ta'limot" asarini 1929-yilda yaratadi.

Bu ta'limotda Vygotskiy shunday fikrlarni qoldiradi. Ayni paytda biz psixologiyaning biologik tutqunligidan tarixiy, inson psixologiyasi sohasiga chiqish haqida gapiramiz. "Ijtimoiy" so'zi bizning mavzuimizga nisbatan katta ahamiyatga ega. Avvalo, bu so'zning keng ma'nosida hamma madaniy narsa ijtimoiy ekanligini bildiradi. Madaniyat insonning ijtimoiy hayoti va ijtimoiy faoliyati mahsulidir, shuning uchun madaniy rivojlanish muammosini shakllantirishning o'zi bizni bevosita rivojlanishning ijtimoiy rejasi bilan tanishtiradi.

Bundan tashqari, shuni aytishimiz mumkinki, barcha yuqori funktsiyalar biologiyada emas, balki sof filogenez tarixida rivojlanmagan - yuqori aqliy funktsiyalar asosidagi mexanizmning o'zi ijtimoiylikning nusxasidir. Bizni bolaning madaniy rivojlanish tarixiga olib boradigan asosiy natijasini xulq-atvorning yuqori shakllarining sotsiogenezi sifatida belgilashimiz mumkin. Bolalar xulq-atvorining murakkab shakllarining tuzilishi aylanma yo'llarning tuzilishidir, chunki u to'g'ridan-to'g'ri yo'lda bolaning psixologik operatsiyasi imkonsiz bo'lib qolsa, yordam beradi.

Ammo bu aylanma yo'llar insoniyat tomonidan madaniy-tarixiy taraqqiyotda qo'lga kiritilganligi sababli, ijtimoiy muhit boshidanoq bolaga bir qancha aylanma yo'llarni taklif qilganligi sababli, biz ko'pincha rivojlanish bunday aylanma yo'ldan borishini sezmaymiz.

Shunday qilib, yangi nuqtai nazar bolaning nafaqat salbiy xususiyatlarini, nafaqat kamchiliklarini, balki uning shaxsiyatining ijobiy suratini ham hisobga olishni belgilaydi, bu, birinchi navbatda, rivojlanishning murakkab yo'llarining rasmini taqdim etadi. Yuqori aqliy funksiyalarning rivojlanishi faqat ularning madaniy rivojlanish yo'llari bo'ylab mumkin bo'lgan rivojlanish madaniyatning tashqi vositalarini (nutq, yozish, arifmetika) o'zlashtirish yo'nalishi bo'ylab yoki aqliy funksiyalarni ichki takomillashtirish yo'nalishi bo'ylab boradi.

O'zlari (ixtiyoriy e'tiborni rivojlantirish, mantiqiy xotira, mavhum fikrlash, kontsepsiyaning shakllantirish, iroda erkinligi va boshqalar). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, g'ayritabiiy bola odatda bu borada kechiktiriladi.

Xuddi shu rivojlanish organik tanqislikka bog'liq emas. Shuning uchun bolaning madaniy rivojlanish tarixi bizga tezlikni ilgari surishga imkon beradi: madaniy rivojlanishda yetishmovchilikni qoplash mumkin bo'lgan asosiy sohadir. Keyinchalik organik rivojlanish mumkin bo'lmagan joyda, madaniy rivojlanish yo'li cheksiz bo'ladi. Iqtidorlilik haqida gapirganda, biz madaniyatning iqtidordagi tafovutlarni qanday tekislashi va madaniy rivojlanish organik rivojlanishning tabiiy yengishini qanday yo'q qilishiga, to'g'rirog'i, tarixiy holga keltirishiga alohida e'tibor qaratdik.

Biz shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, ichki xatti-harakatlarning (ixtiyoriy e'tibor va mavhum fikrlash) madaniy rivojlanishi bilan bog'liq holda, madaniy xatti-harakatlarning tashqi vositalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan aylanma yo'llarning bir xil texnikasi yaratilishi kerak.

Aqli zaif bola uchun uning yuqori e'tibor va fikrlash funksiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq holda, ko'r bola uchun Brayl yozuviga yoki soqov bola uchun daktilologiyaga o'xshash narsa yaratilishi kerak, ya'ni madaniy rivojlanish uchun aylanma yo'llar tizimi. nuqson tufayli to'g'ridan-to'g'ri yo'llar kesiladi.



Leonid Vladimirovich Zankov 1901-yil 10-aprel kuni tug'iladi va 1977-yil 27-noyabr kuni vafot etadi. Zankov defektologiya, xotira, yodlash, pedagogik psixologiya bo'yicha mutaxassis va sovet psixologi edi. O'z davrining eng mashhur olimlaridan hisoblangan L. S. Vygotskiyning shogirdi bo'lgan. Uning hayoti davomidagi eng yirik tadqiqotlari bolalar rivojlanishining eksperimental tadqiqotlari bo'lib unda qanday qilib samarali foydalanish mumkinligini hamda bu muammoning eng muhim shartlari aniqlandi. Zankov ilk

mehnat faoliyatini 1918-yilda Tula viloyatidagi qishloq maktabida o'qituvchilikdan boshladi.

1919-yildan boshlab o'qituvchi va qishloq xo'jaligi koloniyalari boshlig'i bo'lib ishladi, avval Tambov viloyatida, keyin Moskva viloyatida faoliyat olib bordi. Zankov 1925-yilda Moskva davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetini tamomlaydi va 1929-yildan Defektologiya ilmiy-tadqiqot institutida ishlab 1951-yilgacha ilmiy tadqiqot ishlarini shu yerda olib boradi. Zankov 1935-yilda SSSRda birinchi maxsus psixologiya laboratoriyasini tashkil qiladi. L.V. Zankov maxsus psixologiya kafedrasini mudiri va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishlaydi. 1944-yildan 1947-yilgacha L.V. Zankov direktor lavozimida ham ishlaydi. 1942-yilda L.V. Zankov "Ko'payish psixologiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1968-yilda eski akademiya qayta tashkil etilgandan so'ng SSSR Pedagogika fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi.


Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrasini a'zosi va 1951-yilda L.V. Zankov Pedagogika fanlari akademiyasining Pedagogika nazariyasi va tarixi ilmiy-tadqiqot instituti direktorining fan bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlanadi va u yerda 1955-yilgacha ishlaydi. Keyinchalik u 1977-yildan vafotigacha ushbu institutda laboratoriyaga rahbarlik qildi. Ajoyib rus psixologi va o'qituvchisi L.V. Zankovning nomi SSSRda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiyalashning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq muhirlanib qoladi. L.V. Zankov ilmiy va pedagogik faoliyatining boshi rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'rganish, o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq edi.

XX-asrning 20-yillari oxiridan boshlab L.V. Zankov Defektologiya ilmiy-amaliy institutida (hozirgi Rossiya Ta'lim Akademiyasining Tuzatish pedagogika instituti) ish boshladi. Faoliyatini ushbu institutning psixologik laboratoriyasida boshlagan. Bu yillarda Defektologiya ilmiy-amaliy instituti SSSRda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning asosiy muammolarini ishlab chiqishni amalga oshiruvchi ilmiy markaz edi.

Aynan shu davrda institutda keyinchalik rus pedagogikasi va psixologiyasining klassikasiga aylangan taniqli psixologlar va o'qituvchilarning butun guruhi ishladi.

Ular orasida: R. M. Boskis, T.A. Vlasova, L.S. Vygotskiy, I.I. Danyushevskiy, R.E. Levina, I.M. Solovyov, J.I. Shif kabi mutaxassislar bore di. Hatto shunday taniqli psixologlar va o'qituvchilar bilan o'ralgan muhitda ham L.V. Zankov yetakchi o'rinlardan birini egallagan. U L.S. Vygotskiyning shogirdi va hamkasbi edi. Vygotskiy maktabining boshqa vakillari: A. R. Luriya, A. N. Leontiev, D. B. Elkonin bilan bir qatorda u psixologiya fanining yetakchi nazariy muammolarini ishlab chiqdi.

L.S. Vygotskiy vafotidan keyin L.V. Zankov ushbu institutning rahbarlaridan biriga aylandi. U L.S. Vygotskiy boshlagan rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'rganish, o'qitish va tarbiyalash sohasidagi nazariy ilmiy tadqiqotlarni davom ettirdi. L.V. Zankov asarlarida ishlab chiqilgan ko'plab nazariy tamoyillar defektologiyaning asosiy muammolarini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi. Ayniqsa, L.V. Zankovning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi sohasidagi ishlari katta ahamiyatga ega. U maxsus psixologiyaning asosini yaratganlardan biridir. Uning asarlari rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixikasini o'rganishda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. U aqli zaif bolalarning kognitiv imkoniyatlarini, karlarda og'zaki nutqning rivojlanishini, karlarda yuz va imo-ishora nutqining shakllanishini, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktab o'quvchilarida xotira muammolarini o'rgandi.



Mariya Semyonovna Pevzner 1901-yil 14- aprel Senno shahrida tug'ilgan hamda 1989-yil 3-avgust, Moskvada vafot etgan. Pevzner sovet psixiatri, psixolog, defektolog, tibbiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, professor darajalarigacha erishgan mutaxassis. 1901-yil 14-aprelda Mogilev viloyatining Senno shahrida

ishchi oilasida tug'ilgan Pevzner 1918-yilda Saratov viloyati Atkarsk shahridagi 2-darajali maktabni tugatgan.

U Moskva davlat universitetining tibbiyot fakultetini 1924-yilda tugatadi va bolalar nevrologiyasi bo'yicha maxsus kurslarda 1925-yilgacha ta'lim oladi. Saratovda prof. I. N. Markova bilan tanishadi va bolalik davridagi xatti-harakatlarning psixopatik shakllarini o'rganishga bag'ishlangan ish natijalarini 1929-yilda Leningradda bo'lib o'tgan psixiatrlarning inson xulq-atvorini o'rganishga bag'ishlangan kongressiga taqdim etadi, u yerda Mariya Semyonovna taniqli psixolog L.S. Vygotskiy bilan uchrashadi.

1896-yilda u ensefalit bilan kasallangan bolalarning xatti-harakatlari patologiyasi haqidagi ilmiy ma'ruza qiladi bu ma'ruza mutaxassislar tomonidan yuqori baholadi va unga hamkorlik qilishni taklif qiladi. 1938-yilda u "Bolalikdagi psixopatik holatlar" mavzusida tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishadi ya'ni nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1960-yil dekabr oyida unga pedagogika fanlari doktori (maxsus psixologiya) ilmiy darajasi beriladi. 1963-yilda u professor ilmiy unvoniga ega bo'ladi. 1960-yildan 1972-yilgacha u SSSR Fanlar akademiyasining Defektologiya ilmiy-tadqiqot institutida g'ayritabiiy bolalarni klinik va neyrofiziologik tadqiq qilish sektorini boshqargan va u yerda uning rahbarligi ostida yangi yo'nalish - g'ayritabiiy bolalarni genetik o'rganish bo'yicha nazariya ishlab chiqilgan. Mariya Semenovna rahbarligida va bevosita ishtirokida milliy pedagogika fanining yangi yo'nalishi - klinik defektologiya yaratilgan.

U bir necha bor SSSR Pedagogika fanlari akademiyasi va SSSR Mudofaa vazirligining diplomlari bilan taqdirlangan; 1941-1945-yillardagi Ulug "Vatan urushidagi jasoratli mehnati uchun" medali va "Moskvaning 800 yilligi xotirasi" ko'krak nishoniga munosib ko'rilgan. 1989-yil yanvar oyida u og'ir kasallik tufayli nafaqaga chiqdi.

1989-yilning yozida u murakkab operatsiyani boshdan kechirdi va ko'p vaqt o'tmay 3-avgust kuni vafot etdi. U Novodevichy qabristoniga Igor Mixaylovich Raysnening yoniga dafn qilinadi.



V.P. Kashchenko 1870-yil 21-martda Kuban viloyati Yeisk shahrida harbiy shifokor oilasida tug'ilgan. 1891-yilda u Imperator Moskva universitetining tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi. A.N. Bernshteyn va G.I. Rossolimo rahbarligida psixologiyani o'rganib, psixologiya sohasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Kashchenko 1894- yilda talabalarning inqilobiy to'garaklarida qatnashgani uchun Moskvadan haydaladi.

1897-yilda Kiev Sankt-Peterburg universitetining tibbiyot fakultetini tamomlaydi va shifokor bo'lib ishlashni boshlaydi va inqilobiy harakatda qatnashadi. 1

908-yildadan boshlab u Moskvada doktor rasmiy nomi ostida V.P. Kashchenkoning nuqsonli bolalar maktab-sanatoriyasini tashkil etadi - bu Rossiyadagi aqli zaif va xulq-atvori zaif bolalar uchun birinchi muassasalardan biri bo'ladi.

1917-yildan keyin ushbu maktab negizida tashkil etilgan muassasalar: bolalar o'quv uyi 1918-yilda tashkil etiladi va Tibbiyot-pedagogika stansiyasi 1920-yilda tashkil etiladi va Kashchenko unga rahbarlik qiladi.

1920-yildan 1924-yilgacha bolalar nuqsonlari pedagogika instituti rektori va professori bo'lib ishlaydi. 1921-yilda RSFSR Xalq Maorif Komissarligining Davlat Ilmiy Kengashi (GUS) V. P. Kashchenkoga professor unvonini beradi.

1927-yilda 19-dekabr kuni Kashchenko to'satdan barcha rahbarlik lavozimlaridan ozod qilinadi va Lev Vygotskiyning Tibbiyot-pedagogika stansiyasining yangi direktori etib tayinlanadi. 1928-yil 10-oktyabrgacha bu lavozimda qoladi.

Bolalarning hayotga ijtimoiy-pedagogik moslashuvini amalga oshirilgan noyob muassasa V.P. Kashchenko rahbarligidagi sanatoriy-maktab bo'lib, u 1908-yilda Moskvada ochilgan muassasa bo'ladi va bu muassasa 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan xatti-harakatlari va intellektual rivojlanishida og'ishli bolalarni qabul qiladi. U bir vaqtning o'zida 22 nafar talabaga xizmat ko'rsatishi mumkin edi. V.P. Kashchenko va uning xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan butun ta'lim tizimi bolalarni kelajak hayotiga moslashtirishga qaratilgan edi. V.P. Kashchenko, K.D. Ushinskiy singari, ta'lim tizimida mehnat faoliyatiga muhim o'rin ajratadi va shunday yozadi: "Maxsus muassasalarda qo'llanilayotgan qo'l mehnati, bir tomondan, hunarmandchilikni o'rganish sifatida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa ularning o'qishni tugatgandan so'ng yasalgan narsalarni unga qaytarib berish, talabalarga daromad topish imkoniyatini berdi; boshqa tomondan, qo'l mehnati intellektning rivojlanishiga bevosita ta'sir qilsa, u diqqatni, irodani, ish samaradorligini rivojlantiradi va mustahkamlaydi, bolaning manfaatlarini oshiradi va rang-barang qiladi. Shunday qilib, muhim pedagogik va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'l mehnati boshqa fanlar orasida ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak, u nogiron bolaga barcha ta'lim, tarbiya va tarbiyaviy ta'sirlarimizning asosidir".

V.P. Kashchenko muassasasida o'qituvchilarning barcha sa'y-harakatlari bolalarning mehnat qobiliyatini, qiziqishini, faolligini va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan. Xuddi K.D. Ushinskiyning pedagogik tizimida bo'lgani kabi, V. P. Kashchenkoning o'quv faoliyatida ham bolalarni qiziqtiradigan oqilona va foydali mashg'ulotlar orqali bolalar faolligi va ijodini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Barcha darslarda qo'l mehnatidan foydalanish bilim olish, qobiliyatlarni rivojlantirish va shaxsni tuzatish jarayonida o'quvchilarning faolligini ta'minlaydigan asosiy usul edi. Bolalarning o'zlari tortadilar, o'lchaydilar, chizadilar, kolleksiyalar tuzadilar, loydan va boshqa materiallardan modellar yasaydilar va buning natejasida sezilarli rivojlanadilar.

Sanatoriy maktabidagi eng muhim tamoyil o'quvchilarga individual yondashish edi. O'qituvchilar o'quvchilarning faoliyatini diqqat bilan kuzatib boradilar, ularning u yoki bu turdagi ishlarga qiziqishlari va moyilliklarini aniqlaydilar va o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarni bajarishlariga yordam beradilar.

O'qituvchilar talabalarning mehnat faoliyatining ijodiy tabiatini faol qo'llab-quvvatlaydilar. O'qituvchilar o'quvchilar ishining ijodiy tabiati kelajakdagi hayot yo'lini tanlashning muhim sharti ekanligiga ishonadilar.

Buni sanatoriy maktabi o'qituvchisi I.I. Voskoboynikovning quyidagi so'zlaridan ham ko'rish mumkin, u o'quvchining jismoniy tajribalar o'tkazish uchun asbob yaratishga bo'lgan chuqur qiziqishini ta'riflaydi: "Ish... ko'pincha beminnat va har doim tashqarida o'qishda muqarrar bo'ladigan to'siqlarni yengib o'tishni o'z ichiga oladi."

Kashchenkoning Sanatoriy-kurort maktabining imkoniyatini imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash borasidagi faoliyatini zamondoshlari yuqori ba'holaydi. Sanatoriy-kurort maktabiga tashrif buyurgan mashhur oligofrenopedagog A.N. Graborov barpo etilgan ta'lim tizimining ravshanligi va izchilligi, o'quvchilarga ijobiy ta'sirini ta'kidlaydi. H.S. Zamskiy bu ilmiy-uslubiy ish tashkil etilgan birinchi muassasalardan biri, deb hisoblaydi: V.P. Kashchenkoning maktab-sanatoriyasi nafaqat bolalar uchun maxsus muassasalardan biri, balki birinchi ilmiy-uslubiy muassasa ham edi.

Kashchenko Rossiyada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha birinchi asarlaridan birini yozgan - "Pedagogik tuzatish: bolalar va o'smirlardagi xarakter nuqsonlarini tuzatish" - kitob muallifning bolalardagi xarakter nuqsonlarini tuzatish bo'yicha qarashlarini tizimlashtiradi va terapevtik usullarni ochib beradi. Kitobda tibbiyot, pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan har tomonlama yondashish berilgan. Pedagogik tuzatish talabalar, o'qituvchilar, oila va jamiyatning o'zaro ta'siri bo'lgan yaxlit jarayon sifatida qaraladi. Kitobning mazmunidan kelib chiqqan holda markaziy asab tizimida buzilishlar va xulq-atvori anomalliklari bo'lgan bolalarni


o'qitish va tarbiyalash tizimi yaratildi. V.P. Kashchenko - rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning ajoyib tashkilotchisi. U rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos tizimini yaratdi.

Bundan tashqari nomlari yuqorida qayt etilgan mutaxassislar bilan birgalikda hamnafas bo'lib ijod qilgan yana bir qancha olimlarning faoliyati defektologiya sohasining rivojlanishida muhim sanaladi va bu olimlar nomlari quydagilar: A.N. Graborov (hissiy madaniyatni tarbiyalash tizimining asoschisi), F.A. Rau, J.I. Shif, E.K. Gracheva (birinchi rus o'qituvchi-defektologlari), I.V. Malyarevskiy, M.F. Gnezdilov (mahalliy oligofrenopedagog, metodistlari), G.E. Suxareva, G. M. Dulnev (ruhiy kasallikning evolyutsion-biologik kontsepsiyasi muallifi) larning o'rni beqiyos.

7.2. Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etishning maqsadi

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan, shu jumladan nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish uchun defektolog shtat birligi kiritiladi. Mashg'ulotlar maxsus pedagogika sohasida oliy ma'lumotga yoki pedagogika bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan va maxsus pedagogika sohasida kasbiy qayta tayyorlovdan o'tgan defektolog tomonidan o'tkaziladi.

Defektolog bilan mashg'ulotlarga maktabgacha ta'lim tashkilotining quyidagi tarbiyalanuvchilari jalb qilinadi:



Nutqida nuqsonlari bo'lgan 5-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar yashash joyi bo'yicha davolash-profilaktika muassasasi logopedining korreksion-pedagogik ishlarni o'tkazish tavsiya qilinayotgan muddat belgilangan holda, ushbu davolash-profilaktika muassasasi muhri bilan tasdiqlangan va tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan xulosasi asosida defektolog bilan bo'lgan mashg'ulotlariga jalb qilinadi. Defektolog bilan mashg'ulotlarning zaruratini aniqlash uchun tarbiyalanuvchilar rivojlanishi va nutqini dastlabki tekshirish bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan vaqtdan boshlab 2 hafta ichida o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazilganda va unda tarbiyalanuvchilarda tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasini berish uchun asos bo'ladigan tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatida ko'rsatilgan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari aniqlanganda, tarbiyalanuvchi hududiy tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyasidan o'rnatilgan tartibda o'tish uchun yuboriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazilganda va unda 5-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar orasida nutqida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar aniqlanganda, maktabgacha ta'lim tashkilotiga hududiy birlashtirilgan davolash-profilaktika muassasasi logopedining ushbu

muassasa muhri bilan tasdiqlangan va tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan xulosasi rasmiylashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining defektologi tomonidan 3- 7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari va 5-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar nutqida nuqsonlari aniqlanganda, ushbu tarbiyalanuvchilar maktabgacha ta'lim tashkilotiga hududiy biriktirilgan davolash-profilaktika muassasasiga chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yuboriladi. Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari tasdiqlanganda hududiy tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyasidan o'rnatilgan tartibda o'tish uchun yuboriladi. Nutqida nuqsonlari tasdiqlanganda logopedning davolash-profilaktika muassasa muhri bilan tasdiqlangan va tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan xulosasi rasmiylashtiriladi.

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etishdan maqsad rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari, shu jumladan nutqida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishdir.

7.3. Defektolog faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- nuqsonlarni aniqlashtirish maqsadida va yakka tartibdagi korreksion-pedagogik ish rejasini tuzish uchun kompleks psixologik-pedagogik tekshiruvni tashkil etish;

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlarni, shuningdek xotira, tafakkur, diqqat-e'tiborni imkon qadar korreksiya qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

- tarbiyalanuvchining imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq korreksion-pedagogik usullarni tanlash;

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy moslashuvi, shuningdek rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish

yuzasidan pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu faoliyatlarni muvofiqlashtirish.

Defektolog ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, shuningdek ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion faoliyatni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Umumrivojlantiruvchi va korreksion dasturlar bo'yicha o'tkaziladigan yakka tartibdagi, kichik guruhdagi yoki frontal mashg'ulotlar korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi.

Defektolog maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagoglari, boshqa mutaxassisleri bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi, mashg'ulotlarni borib ko'radi, pedagog xodimlari va bolaning qonuniy vakillarga nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga yordam ko'rsatishning maxsus usullar va uslublarini qo'llash yuzasidan maslahat beradi.

Inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida belgilangan muddatgacha o'tkaziladi.

Nutqida nuqsonlari bo'lgan 5-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar maktabgacha ta'lim tashkilotida korreksion-pedagogik ishlar 6 oy o'tkazilganidan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotiga hududiy birlashtirilgan davolash-profilaktika muassasasining logopedi tomonidan tekshiriladi.

Agar tarbiyalanuvchining nutqida nuqsonlari bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchiga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilishini davom ettirish tavsiya etilganligi to'g'risidagi logopedning xulosasi beriladi.

Xulosada ko'rsatilgan muddat tugashigacha nuqsonlar bartaraf etilsa, defektolog tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar to'xtatiladi.

8.4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etish

Defektolog faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va uni nazorat qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tomonidan amalga oshiriladi;

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi inklyuziv guruhlar yosh prinsipi bo'yicha to'ldiriladi;

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

- 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda ko'pi bilan 30 nafar bola;
- bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda-ko'pi bilan 30 nafar bola;
- turli yoshdagi guruhlarda-ko'pi bilan 25 nafar bola;
- bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarda-ko'pi bilan 10 nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan joyda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo'lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarini tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

3 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan inklyuziv guruhlar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldiriladi hamda ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan 3 nafar bolani tashkil etadi.

8.5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog tomonidan yuritiladigan asosiy ish xujjatlari

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining **“Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”**gi

2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i⁴¹ga asosan umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi va uning asosiy ish xujjatlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

09 - Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (Umumiy tur) defektologi		
9-01	“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi va metodik qo'llanmalar	Yangilar bilan almashtirilgandan so'ng 27 b-modda
9-02	Defektologning ish rejasi (Ish jurnali) Yillik hisobot	3 yil 124-modda
9-03	Defektologning bolalarni ro'yxatga olish va ro'yxatdan chiqarish, mashg'ulotga qatnovini qayd etish kitobi	3 yil 124-modda
9-04	Bolalarning nutq xaritasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda
9-05	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha 172-modda

09-01. O'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar:

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi

09-02. Defektologning ish rejasi (Ish jurnali): quyidagi bo'limlar kiritiladi:

1. Istiqbol ish rejasi;
2. Guruhli mashg'ulotlar rejasi;
3. Yillik hisobot.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i

1. Istiqbol ish rejasi

Oy	Hafta	Nutq o'rtirish mashg'uloti	To'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish va mustahkamlash

Defektologning korreksion pedagogik ishiga qamrab olingan bolalar nuqsonlari, yoshiga qarab mavzularning ijodiy tanlanishi va o'zgartirilishi tavsiya etiladi. Defektologning istiqbol ish rejasi MTT direktori tomonidan tasdiqlanadi.

2. Guruhli mashg'ulotlar rejasi

Guruhli mashg'ulotlar quyidagi shaklda qayd qilinadi:

Sana	Mashg'ulot maqsadi va mavzusi	Mashg'ulotning borishi	Kerakli jihozlar	Vaqt

Izoh. Guruhli mashg'ulotlar 20-25 daqiqa olib boriladi. Xafta davomida nutq o'rtirish mashg'uloti 1 (bir) marotaba, to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish va mustahkamlash mashg'uloti 1 (bir) marotaba o'tkazilishi tavsiya etiladi. Logoritmika elementlarini guruhli mashg'ulotlarga ijodiy yondashgan holda olib borish - ish samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

3 Yillik hisobot

Na'muna

_____ tuman _____-sonli maktabgacha ta'lim
tashkilotining 20 ____ -20 ____ o'quv yili yakunidagi defektolog
mashg'ulotiga qatnaydigan bolalar harakati bo'yicha

HISOBOT

T/r	Bolalar harakati	Bolalar soni
1.	<i>Jami bolalar soni</i>	
2.	<i>Tashxislar</i>	
	Dislaliya	
	Alaliya	
	Dizartriya	
	Duduqlanish	
	Rinolaliya	
	Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolalar	
	Ko'rishda nuqsoni bor bo'lgan bolalar	
3.	<i>U lardan:</i>	
	Nuqsonlari to'liq bartaraf etilgan bolalar	
	Nutqida ayrim nuqsonlari to'liq bartaraf etilmagan bolalar	
	Korreksion -pedagogik -psixologik ishga muhtoj bo'lgan, lekin defektolog mashg'uloti bilan qamrab olinmagan bolalar	
4.	<i>Korreksion- pedagogik -psixologik ish yakuni:</i>	
	Sog'lomlashtirilgan bolalar	
	Korreksion-pedagogik ishlar davom etadigan bolalar	
5.	<i>Jami o'rta ta'lim maktabiga kuzatilgan bolalar:</i>	

T/r	Bolalar harakati	Bolalar soni
	Sogʻlomlashtirilgan bolalar	
	Oʻrta taʼlim maktabida korreksion-pedagogik -psixologik ish davom ettirilishi lozim boʻlgan bolalar	

Izoh: MTT defektologi oʻquv yilining soʻngida bajargan ishlari yuzasidan hisobot tayyorlaydi. Hisobotda quyidagi maʼlumotlar koʻrsatiladi:

1. Guruhlarni umumlashtirish vaqti (bolaning guruhga kelgan vaqti).
2. Defektolog mashgʻulotlariga jalb qilingan bolalar soni.
3. Korreksion pedagogik jarayondan chiqarilgan bolalar soni va ularning nutqiga qisqacha tavsif.
4. Bolalarning qanday taʼlim tashkilotlariga borishi haqida maʼlumot (umumiy oʻrta taʼlim maktabiga, ixtisoslashtirilgan taʼlim tashkilotlariga, maktabgacha taʼlim tashkilotida taʼlimni davom ettirish).
5. Guruhda korreksion ishni davom ettirishga qoldirilgan bolalar soni (sababi koʻrsatiladi).
6. Yil davomida turli sabablar bilan nutq guruhidan chiqarilgan bolalar soni.
7. Navbatda turgan bolalar soni.
8. Yillik ish rejaga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi.

09-03. Defektologning bolalarni roʻyxatga olish va roʻyxatdan chiqarish, mashgʻulotga qatnovini qayd etish kitobi

1. Defektologning bolalarni roʻyxatga olish va roʻyxatdan chiqarish kitobi

Naʼmuna

Bolaning ismi va sharifi	Tugʻilgan yili	Guruh	Qabul qilingan sana	Tashxis	Roʻyxatdan chiqarilgan sana	Xulosa

« ____ » _____ 20__ yil Defektolog _____ imzo _____

1.1. Navbatga qo'yilgan bolalar ro'yxati

№	Bolaning ismi va sharifi	Tug'ilgan yili	Navbatga qo'yilgan vaqti	Guruhi	Tashxis

2. Bolalarning mashg'ulotga qatnovini qayd etish kitob

Na'muna

T/r	Bolaning ismi va sharifi	Mashg'ulotga qatnash kuni, oyi va yili												Sana	O'tilgan mavzular nomi

Izoh: yuqoridagi shakllar bitta kitobda yuritilishi tavsiya etilib, kitob MTT direktori tomonidan tasdiqlangan, muhrlangan va raqamlangan bo'lishi talab etiladi.

Tafakkurning umumiy rivojlanishini tekshirish:

1. Hisob:

- To'g'ri va teskari sanoq _____
- Katta-kichkina _____
- Baland-past _____

2. Geometrik shakllarni farqlash:

Doira - Kvadrat –

Uchburchak - To'g'ri to'rtburchak -

3. Ranglarni farqlar

Oq - Qizil - Yashil –

Qora - Sariq - Ko'k -

Fazoviy tasavvur _____

Ko'rish qobiliyati _____

Eshitish qobiliyati _____

Boladagi kuzatilayotgan kamchiliklar _____

Umumiy va mayda qo'l motorikasining holati _____

Intellekti _____

Defektolog tomonidan kuzatilgan kamchiliklar va xulosa _____

MTT direktori _____ F I SH (imzo, muhr)

MTT defektologi _____ F I SH (imzo)

Korreksion-pedagogik ishning boshlangan vaqti: _____

Yillik ish reja: _____

Korreksion-pedagogik ishning tugagan vaqti: _____

MTT direktori _____ F I SH (imzo, muhr)

MTT defektologi _____ F I SH (imzo)

09-05. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi:

Na'muna

Hafta kunla ri	Sana va mashg'u lot vaqti	Bolani ng ismi va sharifi	Gur uh nomi	Mashg'u lot mavzusi	Mashg'ulot ning maqsadi	Asosiy mashg'ulo tlar sanasi	Ilov a

Tovush qo'yish: Tashkiliy qism, nafas va artikulyatsion mashq, logomassaj, tovush qo'yish (taqlid yoki mexanik usulida), tovushni

mustahkamlash uchun didaktik o'yinlar, yakunlash (rag'batlantirish, mashg'ulotga yakun yasash);

Mustahkamlash: Tashkiliy qism, nafas va artikulyatsion mashq, tovushlarni bo'g'inlarda, so'zlarda, og'zaki nutq va tovushni mustahkamlash uchun didaktik o'yinlar, yakunlash (rag'batlantirish, mashg'ulotga yakun yasash);

Differensatsiya: Tashkiliy qism, tovushlarni bo'g'inlar, so'zlar, og'zaki nutq va mavzuni mustahkamlash uchun didaktik o'yinlar, yakunlash (rag'batlantirish, mashg'ulotga yakun yasash).

Izoh: Yakka mashg'ulotlar kundalik rejasida har kuni korreksion-pedagogik ishga olinadigan bolalar bilan olib boriladigan ishlar belgilab boriladi. Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlardan foydalanib bolaning kamchiliklariga to'g'ri yondoshilgan holda bosqichlar tanlanadi, qayd qilinadi va shu asosda faoliyat yuritiladi. Yakka tartibdagi mashg'ulotlar 15-20 daqiqa olib boriladi.

Nazorat savollari


1. Defektologlik faoliyati va uning asosiy mazmuni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etishning maqsadi haqida gapirib bering?
3. Defektolog faoliyatining asosiy vazifalari nechta va ular haqida gapiring?

Mavzu: Maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan bolalarga psixologik xizmatni tashkil etish

8.1. Psixologik faoliyat, uning mazmuni va turlari

Psixolog - bu psixologiya sohasida kasbiy ma'lumot olgan, amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan shaxs. Psixologlar asosan turli xil qiyinchiliklarga duch keladigan sog'lom odamlar bilan ishlaydi: munosabatlarda, o'z tajribalarida, vaziyatni qo'llab-quvvatlashga va tushunishga muhtoj (agar odamda jiddiy ruhiy kasalliklar mavjud bo'lsa, psixologlar uni psixiatrga yuborishadi).⁴²

Har bir psixolog o'zi ishlaydigan mijozlari uchun uzoq vaqt ajratadi. Bugungi kunga psixologik faoliyat bilan shug'ullanuchilarning bir qancha turi bor bolalar psixologi, oila psixologi, biznes-maslahatchisi, klinik psixolog va boshqalar. Har qanday psixolog qaysi yo'nalishda faoliyat ko'rsatmasin ular quydagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.



Maslahatchi psixolog-munozara davomida sizning masalangiz haqida suhbatlashadi va maslahat beradi. Ular vaziyatni tushungan holda muammoni aniqlaydi va unga echim topishga yordam beradi.

Gestalt terapevt-suhbatlashadi va suhbat davomida sizning his-tuyg'ularingizga murojaat qiladi, u bilan qanday aloqa o'rnatganingizni va

⁴² L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil.

muloqot qilishingizni payqaydi, istaklaringiz va ehtiyojlaringiz to'g'risida surash orqali muammoni aniqlaydi.

Art terapevt-har qanday kishining muammosini bemorga turli xil ijodiy topshiriqlar berish orqali muhokama qilishga harakat qiladi. Art terapevt bemorni tinglab, ma'lum bir texnikani amalga oshirishni taklif qiladi, unda qadamlar bo'ylab harakatlanib, vaziyatni o'zgartiradi.

Badan terapevti-bemor tanasining u yoki bu muammoning qanday aks ettirilganligini his qilish orqali bemorga yordam berish usullini izlab topadi. Tanada sodir bo'layotgan jarayonlardan xabardor bo'lish uchun ko'plab tana amaliyotlarini o'tkazadi.

Ko'pgina amaliyotchi psixologlar o'z ishlarida turli xil yondashuvlarni sintez qilishga o'rinadi. Masalan, artterapiya, ertak terapiyasi bolalar bilan, psixosomatika (hissiyotlarni ushlab turish natijasida namoyon bo'ladigan tana kasalliklari), tana terapiyasi, aloqa muammolari, gestalt terapiyasi va boshqalar bilan juda yaxshi natejaga erishish mumkinligini aytadi.

Psixologiya fani bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish natejasida aytish mumkinki aslida insonlar quydagi holatlatlarga uchraganda psixologning yordamiga ehtiyoj sezadi:

-haddan tashqari stressni boshdan kechirganlar (yaqin kishining o'limi, zo'ravonlik, ajralish va hk)

-uzoq vaqt davomida bir xil takrorlanadigan vaziyatlarni his qilib, nima qilishini bilmay, chiqish yo'lini topa olmayotganlar;


-uzoq vaqt tushkunlikni his qilganlar va yomon uyqu va ishtahasi yo'qolganlar;

-yaqinlari bilan munosabatlari yomonlashgan va bu muammoning yechimini topa olmayotganlar;

8.2. Maktabgacha inklyuziv ta'limda psixologik xizmatni tashkil etish


Maktabgacha inklyuziv ta'lim tashkilotlarida psixologning asosiy vazifasi – har bir nuqsonli bolaning individual rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish va maktabgacha inklyuziv ta'limdagi barcha ishtirokchilarning ijtimoiy psixologik faravonligini ta'minlash ya'ni qulay shart-sharoit yaratishdir.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim jarayonida psixologik xizmatni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy masadlar quydagilar:




Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixolog bola o'z o'rnini topishi, muammolarini mustaqil ravishda hal qilishini ta'minlab beruvchi psixologik yordamni tashkil etishi kerakligi uning navbatdagi asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Har qanday turdagi muammoni o'rganish va yechim topishda foydalaniladigan Psixologik yordamning ikkita turi mavjud.



-tez hal qilishni talab
qiladigan turli
muammolarni hal qilishni
nazarda tutuvchi dolzarb
yo`nalish;



- har bir bolaning
individualligini
rivojlantirish uchun turli
muammolarni hal qilishni
nazarda tutuvchi istiqbolli
yo`nalish



Maxsus maktabgacha ta`lim tashkilotlarining psixologik faoliyatida 4 ta asosiy ish yo`nalishi belgilangan:

- rivojlanishda muammolari bo`lgan bolalar bilan ishlash;
- pedagoglar bilan ishlash;
- ta`lim tashkilotining rahbariyati bilan ishlash;
- nogironligi bo`lgan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar bilan ishlash.

Rivojlanishda muammolar bo`lgan bolalar bilan ishlashning asosiy yo`nalishlari quydagilar:

- psixodiagnostika;
- rivojlantiruvchi va psixo-korreksion ish;
- profilaktik faoliyati;

Nogironligi bo`lgan bolalar bilan ishlashning asosiy qoidalari ham majud bo`lib ularning tatibini quydagicha ko`rsatish muki:




Nogironligi bo'lgan bolalar bilan psixolog ishini olib borishning asosiy mohiyati:


- psixik zo'riqishni yo'qotish;
- o'z-o'zini baho berishni korreksiyalash;
- psixik funktsiyalarni rivojlantirish (diqqat, xotira, tafakkur va boshqalar);

- passivlikni yengish;
- agressivlikni yengish;
- mas'uliyat, mustaqillikni shakllantirish;
- ijobiy his-tuyg'ularni shakllantirish;
- faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish;
- muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va boshqalar.

Psixologning nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlash usullari va shakllari:




Psixologiyada nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasini psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar ham muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'z farzandlarining psixologiyasini belgilaydilar. Psixologiyada nogironligi bo'lgan bolalarining ota-onalar bilan inklyuziv ta'lim psixologining asosiy faoliyati quydagi shakllarda olib boriladi:



Bu tadbirlar suhbat, ma`ruza, anketa shaklida o`tkazilib, ota-onalarning pedagogik malakasini oshirishga qaratilgan. Psixolog yordamchi o`qituvchi va ta`lim muassasasining boshqa mutaxassislari bilan birgalikda ota-onalar uchun seminarlar o`tkazadi, mazkur seminarlarda ota-onalar didaktik adabiyotlar, psixologik o`yinlar bilan tanishadilar va olingan ma`lumotlarni amaliyotda qo`llashni o`rganadilar. Pedagog kadrlar bilan psixologik ishlar psixologik tanishtiruv shaklida psixologik kompetentsiyasini oshirishga qaratilgan suhbatlar, ma`ruzalar va mahorat darslari shaklida o`tkaziladi.

Shunday qilib, nogironligi bo`lgan bolalar bilan olib boriluvchi barcha ishlarni quyidagi yo`nalishlarga bo`lish mumkin:



Inklyuziv ta`lim jarayonida psixologning faoliyati to`g`risidagi barcha ma`lumotlarni qayta ishlagandan so`ng, biz uning zarur mehnat harakatlarini aniqlaymiz:

- turli xil ta`lim ehtiyojlariga ega bo`lgan bolalar bilan birgalikda va individual ravishda faoliyatini tashkil etish;
- nogironligi bo`lgan bolalarning rivojlanishi va kasallik tarixi haqidagi ma`lumotlarni to`plash va qayta ishlash;
- diagnostik va korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatini amalga oshirish;
- nogironligi bo`lgan bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlashda ularning his-tuyg`ularini nazorat qilish;

- nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan o'qituvchilar va otalarning psixologik uquvini oshirish;
- nogironligi bo'lgan bolalarni oddiy jamiyatga ijtimoiylashuvi va jamiyatning nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan bag'rikeng munosabatiga qaratilgan ommaviy tadbirlarni o'tkazish;
- inklyuziv ta'limning barcha o'qituvchilari bilan samarali hamkorlik qilish;
- nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim muhitini loyihalash;
- bolalarlar uchun individual ta'lim dasturlari, o'quv rejalari, loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun uslubiy vositalarni ishlab chiqish va tanlash;
- rivojlanishning optimal traektoriyasini aniqlash (bola rivojlanishining individual yo'nalishi);
- tibbiy pedagogik psixologik komissiyani (TPPK) o'tkazish uchun hujjatlarni tayyorlash.

Psixologik yordamning mazmuni va tuzilishi ko'p jihatdan bolaning tashxisi va nuqsoni kompensatsion imkoniyatlari, uning shaxsga yo'naltirilgan yondashuviga bog'liq. Mutaxassislar bolalarni individual ravishda tekshiradilar, ularning ta'lim jarayonidagi faoliyatini erkin tarzda kuzatadilar. Alohida shartlar asosida bolalarning har bir toifasi uchun maxsus ishlar belgilanadi. Nogiron bo'lgan bola bilan hamkorlik qilishning eng maqbul usulini tanlash uchun ushbu davrda bolaning imkoniyatlarini batafsil o'rganadi.

8.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ehtiyojmand bolalarga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy mazmuni

"Nogiron" atamasi lotincha ildizga qaytadi (valid - "samarali, to'liq huquqli, kuchli") va so'zma-so'z tarjima qilinganda "noloyiq", "past" degan ma'nolarni anglatishi mumkin.

Rus tilida, Pyotr I davridan boshlab, bu nom kasallik, jarohat yoki jarohat tufayli harbiy xizmatni o'tay olmagan va keyingi xizmatga fuqarolik lavozimlariga yuborilgan harbiy xizmatchilarga nisbattan ishlatilgan.⁴³ Ikkinchi jahon urushidan so'ng, inson huquqlarini shakllantirish va himoya qilish bo'yicha umumiy harakatga muvofiq, aholining ayrim toifalari jismoniy yoki aqliy nogironligi bo'lgan barcha shaxslarni nazarda tutuvchi "nogiron" tushunchasi shakllandi. Bugungi kunda nogironlar aholining eng ijtimoiy himoyasiz toifasiga kiradi.

Ularning daromadlari o'rtacha darajadan ancha past, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordamga bo'lgan ehtiyoj ancha yuqori. Ularning ta'lim olish imkoniyati kamroq va mehnat faoliyati bilan shug'ullana olmaydi. Ularning ko'pchiligining oilasi yo'q, jamoat hayotida qatnashishni istamaydi. Nogironlik muammosining rivojlanish tarixini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, insoniyat jismoniy halokat, jamiyatning "past" a'zolarini izolyatsiya qilish g'oyalaridan ularni mehnatga jalb qilish tushunchalariga o'tib, jismoniy nuqsonlari, patofiziologik sindromlari va psixo-ijtimoiy buzilishlari bo'lgan shaxslarning reabilitasiya qilinishidan hosil bo'ladi.

Shu munosabat bilan nogironlik muammosiga klassik yondashuvni "past odamlar" muammosi sifatida rad etish va uni butun jamiyatga ta'sir qiluvchi muammo sifatida taqdim etish zarurati mavjud. Boshqacha aytganda, nogironlik bir shaxsninggina emas, hatto jamiyatning bir qismining ham emas, balki butun jamiyatning asosiy muammosidir. Uning mohiyati nogironlarning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sirining huquqiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, aloqa va psixologik xususiyatlaridadir. Jamiki rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda nogironlarga malakali yordam ko'rsatadigan juda kam muassasalar mavjud.


Imkoniyati cheklangan kishilar uchun eng muhim muammolardan biri ularning mehnatga jalb etilmaganligidir. Bu ularning nafaqat moliyaviy ahvoliga, balki psixologik holatiga ham salbiy ta'sir

⁴³ L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil.


ko'rsatmoqda. Har bir nogiron kishi, barcha odamlarning ehtiyojlariga o'xshash umumiy muammolardan tashqari, alohida ehtiyojlarga ham ega.

U muloqotga muhtoj, turli ijtimoiy ob'ektlardan bepul foydalanishni, madaniy-maishiy tadbirlarda qatnashishni, bilim olishni xoxlaydi. Ammo sanab o'tilgan masalalarning aksariyatiga oddiygina yechim topib bo'lmaydi. Natijada nogironlar turli xil psixologik muammolarga ega bo'lgan maxsus ijtimoiy-demografik guruhni ifodalaydi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda psixologik nogironlikning quydagi turlari mavjud;



Psixologik faoliyat olib boruvchi mutaxassislar faoliyati jarayonida quydagi tashkiliy tamoyillarga rioya qilish kerak:



1. Ixtiyoriylik-psixologik diagnostika va tuzatish ishlari qat'iy ixtiyoriy asosda amalga oshirilishi kerak.

2. Ilmiy-psixologik yordam ko'rsatishda qo'llaniladigan usullar ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

3. Kasbiylik-psixologik texnika va texnologiyalardan professional darajada foydalanishi kerak.

4. Dinsizlik-psixologik yordam ko'rsatish uchun diniy urf-odatlar, uslublar va marosimlardan foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, psixologik yordamni diniy ibodat bilan almashtirmasligi va ruhoniylarni psixologik yordam agenti sifatida ish jarayoniga jalb qilish mumkin emas.

5. Subyektivlik-psixologik ish jarayonida mijozi o'zini o'zi o'zgartirish sub'ekti bo'lib, uning natijalari maqsadlari, niyatlari va harakatlariga bog'liq bo'ladi. Mijozga jarayonning faol sub'ekti sifatida yondashish maqsadlarni aniq belgilash, usullarni aniqlashtirish va texnologiyalarning ta'sir qilish mexanizmini ochib berish kerak.

6. Trening forma-odam konteksti psixo-ijtimoiy ishda mijozning xabardorligi va faolligini nazarda tutadigan o'z-o'ziga yordam kontekstiga o'zgaradi. Shu sababli, o'zaro ta'sirni tashkil etish sinflar, o'qishlar, treninglar, kurslar, dastur sifatida tuzilishi kerak, ya'ni o'rganishning qandaydir formati aniq bo'lishi shart.

7. Mijozlarni tanlash- jismoniy salomatlik darajasi past bo'lgan, aqliy anomalliklari va o'zini-o'zi takomillashtirish motivatsiyasi past bo'lgan mijozlarni tekshirishni o'z ichiga oladi.

8. Texnologiyalashtirish va standartlashtirish-psixologik jarayon aniq texnologiklashtirilgan bo'lishi va mijozlarning ayrim toifalari uchun standart psixologik yordam dasturlari ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

9. Guruh va individual ishlarning kombinatsiyasi-psixologik yordam jarayoni ham individual, ham guruh shaklida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hamda qo'llanilgandagi samarasiga qarab amalga oshirilishi kerak.

Har qanday nogironlik dastlab tibbiy psixolog tomonidan tayinlanadi.

Dastlabki maslahatlashuvning asosiy vazifasi nogironning psixologik holatiga muvofiq psixologik rehabilitatsiya maqsadlarini shakllantirish va rehabilitatsiya tadbirlarining aniq rejasini ishlab chiqishdan iborat. Bu vazifa ijtimoiy rehabilitatsiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan yuqori ruhiy funksiyalarni, hissiy-irodaviy sohaning xususiyatlarini, nogironning shaxsiy xususiyatlarini va uning ijtimoiy-psixologik holatini ekspert rehabilitatsiya psixodagnostikasi orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya vazifalari doirasidagi psixologik diagnostika quyidagilarni aniqlash orqali psixologik yordam ko'rsatishni belgilab oladi:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlash;
- yuqori aqliy jarayonlarning o'z funksiyalarni bajarish darajasiga ko'ra (diqqat, idrok, xotira, fikrlash);
- miyaning mahalliy vazifalarni bajara olish holatiga ko'ra (praksis, gnosis, yozish, hisoblash, o'qish);
- hissiy-irodaviy sohalarning rivojlanish darajasiga ko'ra (hissiy barqarorlik, ixtiyoriy harakatlarni shakllantirish va saqlash qobiliyati);
- shaxsiy xususiyatlarni mavjudlik darajasiga ko'ra (o'zini o'zi qadrlash, qadriyatlarni tushunish, motivatsion sohaning xususiyatlari, eng ko'p qo'llaniladigan psixologik himoya mexanizmlari, qiziqishlar doirasi, intilishlar darajasi, kasallikning ichki surati);
- shaxsning mikroijtimoiy sohadagi o'rniga ko'ra (oiladagi ijtimoiy-psixologik iqlim, oiladagi munosabatlar tizimi, ijtimoiy guruhlardagi kishining o'rnini);

Psixologik diagnostika jarayonida psixolog nafaqat aqliy funksiyalar va shaxsiy xususiyatlarning buzilish darajasini, balki ularni davolash qobiliyatini, nogironning rehabilitatsiya potentsialini, shuningdek, bemorning psixologik yordam olishga shaxsiy tayyorligini ham aniqlaydi. Psixodagnostik tekshiruv ma'lumotlariga asoslanib, aniqlangan buzilishlarning tabiatini, ularning hayotiylik darajasini, rehabilitatsiya motivatsiyasini tavsiflovchi xulosa chiqaradi, shuningdek, ijtimoiy

reabilitatsiya doirasida bemorga psixologik yordam ko'rsatishning aniq vazifalarini ishlab chiqadi.

Psixolog quyidagi reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirishi mumkin: ijtimoiy-psixologik va psixologik maslahat, psixologik tuzatish, ijtimoiy-psixologik patronaj, psixo-profilaktika va psixo-gigiena ishlari, psixologik trening, o'zaro yordam guruhlarida, muloqot klublarida ishtirok etish. Agar bemorda chuqur hissiy va shaxsiyat buzilishlari bo'lsa (nevrozga o'xshash alomatlar, dunyoning salbiy tasviri, salbiy depressiya belgilari, tashvish va boshqalar), psixolog bemorga konsultatsiyadan o'tishni tavsiya qiladi. Agar bemorning psixologik holatida ijtimoiy reabilitatsiya bo'limi psixologining vakolatidan tashqarida buzilishlar aniqlansa, bemorga boshqa mutaxassislariga murojaat qilish tavsiya etiladi: psixiatr, jinsiy terapevt, nutq terapevti va boshqalar.

Psixologik reabilitatsiyaning butun jarayoni davomida psixolog bemorning ruhiy holatining dinamikasini kuzatib boradi, uning yaxshilanishi psixologik reabilitatsiya samaradorligini ko'rsatadi. Nazorat psixodiyagnostik tekshiruvlari ma'lumotlari asosida xulosalar ham tuziladi.

Nogironlarni reabilitatsiya qilish - bu odamlarda atrof-muhitga eng maqbul tarzda moslashishga yordam beradigan asosiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni demkdir. Reabilitatsiya choralarini ishlab chiqishda nogironning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish kerak. Nogironni psixologik reabilitatsiya qilish psixolog va psixoterapevt tomonidan amalga oshiriladi, jumladan, psixologik maslahat, psixokorreksiya, ijtimoiy-psixologik oilaviy patronaj, psixoprofilaktika va psixogigiena ishlari, psixologik treninglar, nogironlarni qo'llab-quvvatlash guruhlari va ijtimoiy klublarga jalb qilish.

Psixologik maslahat-mijozlarga oilaviy nizolarning oldini olish va bartaraf etish usullari, oilaviy ta'lim usullari, yosh oilalarda oilaviy va nikoh munosabatlarini shakllantirish va ularda qulay mikroiklimni yaratish bilan bog'liq shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tushunish va o'rnatishda malakali yordam olishini ta'minlashi tushuniladi.

Ijtimoiy-psixologik maslahat -mijozdan olingan ma'lumotlar va u bilan duch kelgan ijtimoiy-psixologik muammolarni muhokama qilish asosida unga o'zining ichki resurslarini kashf etish va safarbar etishda, muammolarini hal qilishda yordam berish tushuniladi. Psixodiagnostika va shaxsiyat tekshiruvi mijozning xatti-harakati va atrofidagi odamlar bilan munosabatlaridagi og'ishlarga ta'sir qiluvchi ruhiy holati va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish natijalariga asoslanib, prognoz qilish va tuzatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishi kerak.

Psixokorreksiya-faol psixologik ta'sir sifatida mijozlarning rivojlanishidagi, hissiy holatidagi va xatti-harakatlaridagi og'ishlarni bartaraf etish yoki zaiflashtirishni ta'minlashi kerak (emotsional reaktsiyaning noqulay shakllari va shaxslarning xatti-harakatlari stereotiplari, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar, bolalarda muloqotning buzilishi yoki bolalardagi buzilishlar) ko'rsatkichlarni yosh standartlari va ijtimoiy muhit talablariga muvofiqlashtirish.

Ijtimoiy-psixologik patronaj-mijozlarni tizimli kuzatish asosida ruhiy noqulaylik, shaxsiy (shaxs ichidagi) yoki shaxslararo nizolar va mijozning og'ir hayotiy ahvolini og'irlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa vaziyatlarni o'z vaqtida aniqlashni va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishni ta'minlashi kerak. Ayni paytda ularga psixologik yordam lozim.

Psixoprofilaktik ish - mijoz tomonidan psixologik bilimlarni olish, umumiy psixologik madaniyatni shakllantirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik buzilishlarning o'z vaqtida oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Psixogigienik ish - bu shaxsning to'liq psixologik faoliyati uchun sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui (ish joyida, oilada va nogiron kishi kiritilgan boshqa ijtimoiy guruhlarda psixologik noqulaylik omillarini bartaraf etish yoki kamaytirish).

Psixologik treninglar-faol psixologik ta'sir sifatida travmatik vaziyatlarning oqibatlaridan, nevropsik zo'riqishlardan xalos bo'lishni ta'minlashi, hayotning asotsial shakllarini engib o'tadigan odamlarda ijtimoiy ahamiyatga ega xulq-atvor normalarini singdirishi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish uchun shaxsiy shart-sharoitlarni shakllantirishi kerak.

Nogironlar uchun psixologik treninglar nogironning ruhiy sohasiga ta'sir qiladi va uning ongida davolanishning befoydaligi haqidagi fikrlarni yengishga yordam beradi. Reabilitatsiyaning ushbu shakli bemorga davolanish va reabilitatsiya tadbirlarining butun sikli davomida hamroh bo'lishi kerak. Nogironlarni o'zaro qo'llab-quvvatlash guruhlari va muloqot klublarida ishtirok etishga jalb qilish ularga noqulaylik holatidan chiqishda (agar mavjud bo'lsa), ruhiy salomatlikni saqlash va mustahkamlashda, stressga chidamliligini oshirishda, psixologik madaniyat darajasini va birinchi navbatda shaxslararo munosabatlarni va muloqot sohasi o'zgartirish karakligini tushuntiradi.

Ijtimoiy-psixologik yordam bo'yicha individual va oilaviy ish shakllarini amalga oshirish uchun tegishli mebel va yoritish moslamalari, magnitafon va boshqa zarur materiallar bilan jihozlangan kichik xona kerak. Guruh psixoterapiya kabineti psixoterapevtik ishning guruh shakllarini, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik treningning boshqa turlarini, ijtimoiy-psixologik kompetentsiyaga ta'sir qiluvchi kognitiv va boshqa funksiyalarni o'rgatish, avtotrening, giyohvandlik bilan og'rigan odamlar bilan guruh psixoterapevtik mashg'ulotlarini o'tkazadi.

Bu oson harakatlanuvchi mebel, magnitafon va boshqa zarur yordam va psixologik ishda ishlatiladigan narsalar bilan jihozlangan muhim xona bo'lishi kerak. Video treningda sizda videokamera va videomagnitofon bo'lishi lozim. Guruh psixoterapiyasi odatda haftada bir marta 4 oy davomida amalga oshiriladi. Individual psixoterapiya nogironning psixoterapevtga bir qator tashriflarini o'z ichiga olishi mumkin 5 hafta davomida taxminan haftada bir marta 50 minut davomida amalga oshiriladi.

8.4. Dunyo tajribasida nogironlarga psixologik yordam ko`rsatish va uning samaradorligi



Svetlana Kulakova - izlanuvchan psixolog va "Boshqalarga yordam berish, o`zingga yordam berish" loyihasining maslahatchilaridan biri. Onlayn makonda, shuningdek, ishonch telefoni orqali u boshqalarga psixologik maslahatlar beradi, munosabatlardagi muammolarni hal qilishga yordam beradi, qiyin hayot sharoitidan chiqish yo`lini izlaydi va topishga yordam

beradi. "Men uchun eng qiziq narsa - bu yerda va hozir ishonch telefonida ishlash", deb tushuntiradi

Svetlana. - Vaqt tez o`tadi - go`shakni qo`yishga ulgurmay, kimdir yana qo`ng`iroq qiladi. Eng oddiy odamlar murojaat qilishadi. Ammo juda boshqacha! Turli yoshdagilar, turli muammolar". Svetlana 44 yoshda, birinchi ma`lumoti bo`yicha u muhandis-iqtisodchi, ammo kasbi bo`yicha faoliyat yuritmagan u o`zini psixolog deb hisoblaydi. Psixologiya fani uni uzoq vaqt oldin - taxminan o`n besh yil oldin qiziqtirgan: "Menda hatto psixologiya bo`yicha ikkinchi daraja olish fikri ham bor deydi u.

Ammo men bunga erisha olmadim - men bu mavzu bo`yicha ko`plab adabiyotlarni o`qigan bo`lsam ham, biror joyga borishga dangasa edim. Va jarohatdan bir necha yil o`tgach, men ijtimoiy himoya organlaridan biriga qo`ng`iroq qildim va masofadan o`qishni taklif qildim. Imkoniyati cheklangan insonlar mana shunday o`rganishadi". 2005-yilda avtohalokatga uchragan Svetlana nogironlar aravachasidan foydalanadi, ammo bu uning psixolog bo`lish orzusini amalga oshirishga to`squinlik qilmaydi.

Nogiron psixolog mamlakatimiz uchun ham, umuman jahon amaliyoti uchun ham yangi va noyob hodisadir. Biroq, Moskva shahar psixologik-pedagogika universitetida nogironlar orasidan psixologlar 6 yil davomida masofadan o`qitilgan. "Sog`lig`ida jiddiy cheklovlar mavjudligi, qoida tariqasida, psixologiya bilan shug`ullanishga to`squinlik qilmaydi. Aksincha, jahon amaliyotida o`z sog`lig`ining cheklovlari nafaqat to`squinlik qilmagani, balki ba`zida psixologiyada yangi xususiy usullar va tendentsiyalarni yaratishga hissa qo`shganiga yorqin misollar mavjud - xuddi Milton Erikson yoki Alfred Adlerning misolida.

Ammo hali hech kim sog`lig`i bilan bog`liq muammolar bo`lgan juda ko`p sonli psixologlarni muntazam ravishda o`qitgani yo`q, chunki bu muammo juda murakkab", deydi Vera Zaxarova, "Agar siz boshqalarga yordam bersangiz, o`zingizga yordam berasiz" loyihasi koordinatori. Bu loyiha, aslida, boshqa har qanday psixologik yordam xizmatidan unchalik farq qilmaydi. Bu sohaning boshqa sophalardan ikkita asosiy farq bor:

-birinchidan, u butunlay masofaviy, ya`ni nafaqat mijozlar psixologik xizmatlarni masofaviy formatda olishadi, balki barcha xodimlar masofadan turib ishlashlari mumkin.

-ikkinchidan, unda nogironligi bo`lgan odamlar ishlaydi, ko`pchilik nogironlar aravachasi foydalanuvchilari (shikastdan keyingi yoki miya yarim falaj oqibati bo`lgan odamlar).


Svetlana Kulakovaning tajribasiga ko`ra birinchi bor qo`ng`iroq qilgan kishining birinchi savoli "Men odam emasmanmi"? Bu savollarga javob berish menga qiyin emas.

Chunki buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan, men ko`p narsalarni yaxshiroq tushunaman - o`zim ham shu darajada ekanligim tufayli. Garchi men unda hech qanday dahshatli narsani ko`rmayman-aslida og`ir qiyinchiliklar biz uchun emas oddiy odamlar uchun hech qachon duch kelmagan qiyinchiliklari mavjud.

Ikkinchidan, masalan, kimdir: "Ha, men nogironman, men odam emasman", deb aytsa, men unga har doim e`tiroz bildirishim mumkin. Ammo oddiy psixolog uchun muloqot qilish qiyinroq, ma`lum bir

aybdorlik hissi paydo bo'ladi: nega u buni qilishi kerak? O'zing sog'-salomatsanku" kabi savollar tug'iladi. "Biz ataylab shunday markazni, birinchi navbatda, eng harakatsiz bo'lajak psixologlarning kasbiy moslashuvi uchun yaratishga qaror qildik, chunki ko'proq harakatchan va mustaqil harakat qiladiganlar mehnat bozorida o'zini topish uchun hech bo'lmaganda bir oz imkoniyatga ega.



Zamonaviy odam - markazimizning potentsial mijozi uchun, sog'lig'ida muammolar bormi yoki yo'qmi - psixologik yordam olishning masofaviy varianti tobora tanish va qulay bo'lib bormoqda, - deydi ijtimoiy loyiha koordinatori *Vera Zaxarova*. "Aytish kerakki, bugungi kunda biz muloqot qilishimiz kerak bo'lgan deyarli barcha psixologik muassasalar rahbarlari nogironligi bo'lgan odam qanday qilib umuman psixolog bo'lib ishlashi mumkinligi va undan ham ko'proq masofadan turib ishlashi haqida juda kam tasavvurga ega. Demak, ish tajribamiz bilan biz asta-sekin jamoatchilik ongini o'zgartirmoqdamiz!", deb tushuntiradi Zaxarova.

Psixologik maslahat uchun "Ishonch telefoni" ishga tushdi undan keyin ko'p qo'ng'iroqlar bo'ldi va bu holat barcha maslahatchilarni albatta, juda xursand qildi.

Ammo ba'zida 6 soat - 12 dan 6 gacha navbatchilik qilish jismonan qiyin edi, - deb eslaydi Svetlana Kulakova. Hozir qo'ng'iroqlar biroz kamaydi, har bir maslahatchi odatda kuniga 3 soatdan navbatchilik qiladi. Gap shundaki, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarda telefon yoz oxirigacha ishlashi aytilgan edi. Ishonch telefoni dushanbadan jumagacha tushdan 18:00 gacha ochiq bo'ladi.

Vera Zaxarovaning ta'kidlashicha, masofaviy ish o'rinlarini tashkil qilish bilan bu yerda hamma narsa texnik va tashkiliy-uslubiy jihatdan ancha murakkablashdi: "Ishonch telefoni psixologlari uchun masofaviy ish joylari bugungi kunda printsiptial jihatdan mavjud emas.

Bizga Skype orqali telefon liniyasini ochishni taklif qilishdi. Ha, bu tez va eng arzon, lekin u barcha muammolarni hal qilmaydi. Endi bizda telefon maslahatchilari uchun to'liq masofaviy ish o'rinlari mavjud, biz maslahatchilardan birini kutilmaganda sog'lig'i yomonligi yoki aloqa bilan bog'liq muammolar tufayli tezda almashtirishimiz mumkin

Endilikda "Ishonch telefoni"ga oyiga o'rtacha yuzdan ortiq qo'ng'iroqlar keladi. Maslahatchi Svetlana Kulakovaning aytishicha, odamlar bizga turli muammolar bilan murojaat qilishadi: yolg'izlik, tushkunlik, "o'zini o'zi qabul qilish" muammolari, sevgi munosabatlari, oilaviy muammolar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, yaqin kishining o'limidan qayg'u va boshqalar.

Shu bilan bog'liq bo'lgan qo'ng'iroqlarning qariyb 20 foizi nogironlar va ularning yaqinlari tomonidan amalga oshiriladi. "Boshqalarga yordam ber, o'zingga yordam ber" loyihasi to'laqonli psixologik markazga aylanishini istardim, u yerda soha bo'yicha o'qiganlar amaliyot o'tashi, xoxlasa, ishlashda davom etishi mumkin. Chunki talab juda katta ammo kuniga olti soat juda oz vaqt - deydi Svetlana Kulakova.

Bugungi kunda psixologik xizmatga bo'lgan talabga kundan -kunga oshib bormoqda va bu soha bo'yicha amalga foydalanilayotgan psixologik loyiha "Boshqalarga yordam berib, o'zingga yordam berasan" loyihasi "Fuqarolik tashabbusi" milliy mukofotiga "Imkoniyatlar chegarasini olg'a suring" nominatsiyasida nomzod bo'ldi.

8.5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining ish xujjatlari va ularning yuritilishi

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining **"Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"**gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i⁴⁴ga asosan *Maktabgacha ta'lim*

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i

tashkiloti psixologi va uning asosiy ish xujjatlari quydagilardan iborat bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

06 – Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

06-01. O'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar:

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

06-02. Oylik ish reja (Ish jurnali).

Yillik hisobot: Quyidagi bo'limlar kiritilgan:

1. O'quv yili uchun yillik ish reja.
2. Oylik ish reja.
3. Ota-onalar va xodimlar uchun maslahatlar qaydnomasi.
4. Umumiy o'rta ta'limga ketadigan bolalar bilan olib boriladigan ishlar reja.

5. Pedagogik jarayonni kuzatish qaydnomalari.

6. Yillik hisobot (*04-02 indeks ostida namunasi ko'rsatilgan*)

Namunaviy yillikish rejasi:

Yillik ish reja 5 ta bo'limdan iborat va u quyidagicha yuritiladi:

Na'muna

№	Ish mazmuni	Ish shakli	Muddat	Kutilayotgan nateja
	PSIXOPROFILAKTIKA			
1.				
2.				
3.				
	PSIXODIAGNOSTIKA			
1	2	3	4	5
1.				
2.				
3.				
	PSIXO KORREKSIYA			
1				

№	Ish mazmuni	Ish shakli	Muddat	Kutilayotgan nateja
PSIXOLOGIK TARG‘IBOT ISHLAR				
1.				
2.				
3.				
METODIK ISHLAR				
1.				
2.				
3.				

3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologining oylik ish rejasi

Oylik ish reja yillik ish rejadan kelib chiqqan holda psixolog tomonidan psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik targ‘ibot hamda metodik ishlar hafta va hafta kunlariga qarab joylashtiriladi.

Na’mina

oyi uchun oylik ish reja

	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta	5-hafta
Dushanba	sana	sana	sana	sana	sana
Seshanba	sana	sana	sana	sana	sana
Chorshanba	sana	sana	sana	sana	sana
Payshanba	sana	sana	sana	sana	sana
Juma	sana	sana	sana	sana	sana

4. **Ota-onalar va xodimlar uchun maslahatlar.** Ushbu bo‘limda psixologmaslahatiga muhtoj ota-onalar va xodimlarning murojaatlari, yakka tartibda ish talab etiladigan bolaning rivojlanish xaritasidagi indikatorlar hamda uning yechimi qayd etib boriladi.

Sana	Maslahat oluvchining ism va familiyasi	Maslahat oluvchi		Muammo	Tavsiya
		Xodim	Ota - ona		

Izoh: Ma'lumotlar yopiq saqlanadi

Izoh: Ushbu bo'limda psixolog tarbiyachining tavsiyasi va ota-onaning murojaatig asosan hamkorlik ishlarni qayd qilib boradi. Muammo qatoriga indikatorni shakllantirishga qaratilgan yoki ota-ona tomonidan bildirilgan muammo yoziladi. Tavsiya ustunida tarbiyachi bilan ota-onaga kerakli psixologik tavsiyalar yoritiladi.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablariga chiqariladigan bolalar bilan olib boriladigan ishlar. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasi, bolalarni kuzatishlar asosida rivojlanishi xaritasini to'ldirilishi yakunlariga ko'ra aniqlanadi. Bolalarning psixologik rivojlanish darajasini aniqlash uchun turli psixologik testlar o'tkazilishi mumkin.

Na'muna

T/r	F. I. Sh	Kern - Yirasek	Uycha	Grafik diktant	9 ta shakl	O'quv maqsad (ijtimoiy va mantiqiy, savollar)	Umumiy rivojlantiruvchi daraja

5. Pedagogik jarayonni kuzatish

Kuzatuv daftari MTT tarbiyalanuvchilari uchun guruhlar kesimida yuritiladi, bundan bolalarning moslashuv davri, ularning faoliyatlardagi ishtiroklari va pedagog xodimlarning olib borayotgan ish jarayoni muntazam ravishda kuzatiladi.

Kuzatuv jarayonida bolaning “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida egallayotgan bilimlari, mashg‘ulot va o‘yinlarda tengdoshlari bilan munosabati, undan tashqari, bolaning iqtidor qirralari, notinch, muammoli tomonlari, agressiya belgilari aniqlanishi mumkin (aniqlangan kamchiliklar kuzatuv natijasi bandida qayd etiladi). Kuzatuv natijalariga ko‘ra, psixolog tarbiyachi bilan birgalikda bolaning ta’limiy tarbiyaviy faoliyatdagi salbiy munosabati va aniqlangan muammolari yuzasidan individual ish olib boradi. Kuzatuv bir oyda 8-10 marotaba o‘tkaziladi.

Na’mina

T/r	Ish mazmuni	Kuzatuv sanasi	Kuzatuv vaqtida aniqlangan holat	Berilgan maslahat va tavsiyalar	Imzo

06-03. Psixologik xulosalar va bolaning psixologik rivojlanish xaritasi – xizmat doirasidagi hujjat hisoblanib, bola shaxsi va huquqlarini hurmat qilgan holda, u haqida aniqlangan ma’lumotlar begonalarga e’lon qilinmaydi. O‘quv yilining sentyabr-oktyabr oyida katta va maktabga tayyorlov guruh bolalarining bilish jarayonlari (tasavvur, xotira, diqqat, tafakkur, mayda qo‘l motorikasi va nutqi) diagnostika qilinadi.

Diagnostik tahlil olib boriladi va rivojlanish darajasida past ko‘rsatkich aniqlangan bolalar korreksion ishlar olib borish ro‘yxatiga kiritiladi va ular bilan korreksion ishlar olib boriladi. Bolalarning bilish jarayonini aniqlash maqsadida 2 va undan ortiq metodika qo‘llaniladi. Diagnostika natijasi ballar asosida rivojlanish xaritasi jadvalida aks ettiriladi. (3 -ball yuqori, 2-ball o‘rta, 1-ball past).

Bolalarning psixologik rivojlanish darajalari ko'rsatkichlari

O'tkazilgan sana _____ Guruh _____

T/r	Bolaning ismi va familiyasi	Tasavvur	Xotira	Diqqat	Tafakkur	Mayda motorika	Nutq	Umumiy ko'rsatkich
		Metodikalar						

Psixologik xulosalar va bolaning psixologik rivojlanish xaritasi:

Xaritani yuritishda bolaning ismi, familiyasi, aniqlangan muammosi, muammoni bartaraf etishda qanday usullardan foydalanilishi, korreksiya jaryonida ota-ona yoki tashkilot xodimlari bilan olib borgan hamkorlik ishi va bu ishlarning natijasi to'liq bayon etiladi.

Psixologik xulosalar va bolaning psixologik rivojlanish haritasi**(Bolaning F.I.Sh.)** Korreksion ish maqsadi: bolada

1. Tasavvur

2. Xotira

3. Diqqat

4. Tafakkur

5. Mayda motorikani rivojlantirish. Korreksion ish rejasi (metodlar, o'yinlar nomi): Korreksion ishdagi hamkorlar: _____

Korreksion ish natijasi: _____

Psixolog imzosi _____

06-04. Korreksion ish jurnali.

Diagnostic ish natijasida past ko'rsatkichga ega bo'lgan bolalar, MTT defektologi, hamshirasi, pedagog xodimlar va ota-onalar murojaatlari asosida korreksiyaga muhtoj bo'lgan bolalar ro'yxatiga

kiritiladi. Korreksiya muhtoj bo'lgan bolalar ro'yxati tuziladi va ular bilan tuzatish ishlari olib boriladi.

Psixokorreksion ishlar orqali ijobiy natijalarga erishilgan bolalarni, pedagog xodimlar va direktor bilan birgalikda yig'ilishda muhokama qilinib, shundan so'ng u bolalar ro'yxatdan chiqariladi va ularning o'rniga II yarim yillikda navbatdagi korreksiya muhtoj bo'lgan bolalar kiritiladi. Natijalar kerakli bo'limga, ya'ni korreksion ish yakuniga, bolaning ijobiy yoki salbiy va davomiy ishlari qayd etiladi.

Na'muna

X i	Bolaning ismi, familyasi va sharifi	Muammo	Olib boriladigan ish mazmuni	Nateja


Nazorat savollari

1. Psixologik faoliyat, uning mazmuni va turlari haqida nimalar bilib oldingiz?
2. Alohida ehtiyojmand bolalarga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy mazmuni qanday?
3. Dunyo tajribasida nogironlarga psixologik yordam ko'rsatish haqida bilib olganlaringizni gapirib bering?

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logoped faoliyatini tashkil etishning zarur shart-sharoitlari

9.1. Logopedik faoliyat va uning maqsad va vazifalari


Logopediya sohasi nutqiy faoliyat buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganuvchi mustaqil sohalardan biridir. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar. «Logopediya» yunon tilida «logos» (so'z, nutq), «peydeo» (tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri nutqni tarbiyalash» ma'nosini bildiradi.⁴⁵ Logopediyada nutq normalari va uning buzilishi tushunchasini farqlash muhim hisoblanadi va bu tushunchalarga quydagilar kiradi.



Logopediya tushunchasi ham boshqa tushunchalar singari keng ma'noli bo'lib bu tushucha turli xil sohalarda ma'no kasb etishi bilan

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i

ahamiyatlidir. Logopediya tushunchasi asosan quydagi sohalarga aohida ahamiyatga ega hisoblanadi.



Logopediya – tushunchasi tabiiy tushuncha bo’lib umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi hamda harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalangan holda rivojlanadi.

Logopediya – tushunchasi tibbiy tushuncha bo’lib otolaringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya sohalari bilan uzviy bog’langan deb tushuniladi. Jumladan, nutq va eshitish a’zolarining patologiyasi nafaqat buzilishlari etimologiyasini aniqlashga, balki tibbiy ta’sir ko’rsatish bilan bo’ladigan logopedik ishlarni to’g’ri qo’shib olib borish uchun ham imkon beradi.

Logopediya - badiiy tushuncha bo’lib tilshunoslik va psixolingvistika fanlari va uning asosiy sohlari bilan uzviy bog’langan. Nutq tillar birligining turli darajasi va ularning amal qilish qoidalaridan foydalanishni ham nazarda tutadi.

Logopediya - ilmiy tushuncha bo’lib umumiy, maxsus psixologiya va psixodiagnostika bilan chambarchas bog’langandir. Logoped uchun bolaning ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini bilish, turli yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlash metodlarini bilish zarurdir.

Bu sohaning boshqa sohalar bilan tizimlar ichra va tizimlararo aloqalari bor. Tizimlar ichidagi aloqalarga pedagogika hamda maxsus pedagogikaning turli sohalari: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika metodikasi, umumiy va maxsus psixologiya bilan

bo'ladigan aloqalar kiradi. Tizimlararo aloqalarga esa tibbiy-biologik va tilshunoslik fanlari o'rtasidagi aloqalar kiradi.

Har qanday faoliyatning boshqasidan ajralib turishi uchun o'z tushunchalari, o'ziga xos atamalari mavjud bo'lishi kerak. Logopediya sohasida «nutqning nuqsonlari», «nutq kamchiliklari» «nutq buzilishlari» kabi nutq atamalari ko'p ishlatiladi. «Nutqning to'liq rivojlanmaganligi» va «nutq buzilishi» tushunchalari bir-biridan farq qiladi, «nutqning to'liq rivojlanmay qolishi» atamasi nutq faoliyati buzilishining faqat alomatli darajasinigina xarakterlaydi. Bundan tashqari, bunday buzilishda ko'pincha nutqning rivojlanmay qolishiga nisbatan uning tizimli buzilishi kuzatiladi. «Nutqning parchalanishi» tushunchasi mavjud bo'lgan nutq ko'nikmalari va kommunikativ malakaning (bosh miyaning lokal yoki diffuziyali xastalanishi oqibatida) yo'qolganligini anglatadi. Nutqning buzilishi alomati – bu nutqiy faoliyatning qandaydir buzilishi belgisi (namoyon bo'lishi) dir.

Nutqning buzilish alomati – bu nutqiy faoliyat buzilishining belgilari majmuidir.

Nutq buzilishi mexanizmlari deganda, nutqiy faoliyat buzilishining paydo bo'lishi va rivojlanishini shart qilib qo'yuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarilishidan chetlashish xarakteri tushuniladi.

Nutq buzilishining patogenezi – bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo'lishi va rivojlanmay qolishiga sabab bo'luvchi patologik mexanizmdir.

Nutq buzilishlarini bartaraf etishda shunday tushunchalar qo'llaniladi: «logopedik ta'sir etish», «tuzatish», «o'rnini to'ldirish», «rivojlantirish», «o'qitish», «tarbiyalash», «qayta tarbiyalash», «tuzatish tarbiyalash orqali o'qitish» va boshqalar.

Logoped - bolalar va kattalar nuqtidagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan shug'ullanadigan pedagog mutaxassisdir.⁴⁶ Logopedning vazifasi nutqida nuqsonlari bor kishilarni aniqlash, nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish, nuqsonlarning oldini olish, logopedik bilimlarini aholi va

⁴⁶ M. Yu. Ayupova «Logopediya» -T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti 2007-yil

o'qituvchilar o'rtasida tashviq qilishdan iborat. Oliy defektologiya ma'lumotiga ega bo'lganlarga logoped bo'lib ishlashlari mumkin. Logoped shtatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari qoshidagi logopedik punktlarda, maxsus nutq o'stirish maktablarida, poliklinika, psixonevrologik dispanserlar qoshidagi logopedik kabinetlarda tashkil etilgan bo'lib ular manashu joylarda ishlashlari mumkin.

Logopedik ta'sir nutqiy faoliyat buzilishini tuzatish, nutqi buzilgan bolani tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi.

Nutq buzilishini tuzatish - nutq buzilishi alomatini to'g'rilash yoki yengillashtirishdir («nutq buzilishlarining oldini olish», «tuzatish» bu borada qo'llaniladigan atamalardir).

Kompensatsiya (muzlash) - organizmning qandaydir harakatlarining yo'qolishi yoki buzilishi hollaridagi psixologik funksiyalarni qayta qurishning ko'p qirrali, murakkab jarayonini o'zida namoyon qiladi. Tenglik, shakllanmagan va buzilgan nutqli hamda nutqsiz harakatlarning rivojlanishi va tiklanishi logopedik ta'sir etishning maxsus tizimidan foydalanish asosida amalga oshadi. Bu jarayonda kompensatsiya shakllanadi.


O'qitish - ikki tomonlama boshqariladigan jarayondir. U bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish borasidagi faol bilish faoliyatini, bu faoliyat ustidan pedagogik rahbarlikni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni uzviy birlikdagi ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.


Tarbiyalash jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda shaxsning yoki uning alohida sifatlarining shakllanish jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda uzluksiz, va tashkiliy tarzda boshqarish demakdir.

Qayta tarbiyalash jarayonida nutqiy faoliyati buzilgan kishilarning o'ziga xos muhim xususiyatlarini tuzatish ishlari amalga oshiriladi. Bosh miyaning ma'lum bir qismidagi xastalanishi hollaridagi logopedik ishlarda buzilgan nutqiy va nutqsiz vazifalarni tiklashga qaratilgan

tiklovchi ta'limdan foydalaniladi. Bunday ta'lim asosida harakatning saqlanib qolgan qismiga tayanish va barcha funksional tizimni qayta qurish yotadi.

Logopediya sohasida nutq buzilishi bilan bog'iliq bo'lgan bir qancha darajalar mavjud va bu logopedlar uchun muhim sanaladi.






9.2. Logoped shaxsi va uning o‘ziga xos xususiyatlari


Logoped umumnazariy, maxsus va ixtisoslik bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi kerak. Bu bilimlarning majmui va kengligi unda nuqsonli rivojlanishning tipologiya va tarkibi, nutqiy nomukammallikning oldini olish va uni bartaraf etish usullari haqidagi, ruhiy-pedagogik ta’sir etish metodlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Logoped nutq buzilishlarini payqab olishi, ularni tuzatish va bartaraf etish usul hamda metodlarini egallagan bo‘lishi, bunday nuqsonlarning oldini olishga doir profilaktik ishlarni yo‘lga qo‘yishi, nutqi zaiflashgan bolalarni maktabgacha yoshdagi hamda, maktab yoshida ham ona tili bo‘yicha o‘qitishning maxsus metodlaridan qo‘llay olishi, g‘ayritabiiy nutqli bolalarning muhim psixik xususiyatlarini bilishi, ularni tarbiyalash usul hamda metodlarini egallagan bo‘lishi, ulardagi oliy miya qobig‘i faoliyatini tuzatish va rivojlantirish uslublarini qo‘llay olishi kerak.

Logopedning ixtisosik bo‘yicha chuqur bilimga egaligi dasturlarni, darsliklarini, logopediya bo‘yicha qo‘llanmalarni bilishni o‘z ichiga oladi. Bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ularning buzilgan nutqlari yuzasidan olib boriladigan ishlarning samaradorligiga erishish uchun logopedning shaxsi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi va logoped umumiy ma’noda quyidagi asosiy sifatlarni egallashi shart hisoblanadi.



Logoped ilg'or tajribalarni umumlashtirib bolalarning nutqini tuzatishning eng yaxshi vositalari bo'yicha izlanish olib borishi kerak. U egallab olishi lozim bo'lgan malakalar keng va turlichadir:



-o'quv-bilish (adabiyotlar bilan ishlash, bolani kuzatish, pedagogik jarayonni modellashtirish, tuzatish tarbiyalash orqali ta'sir etishning samarali yo'llarini tanlash va boshqalar);

-o'quv-tashkiliy ishlar (muqobil va kalendar rejalashtirish, yakka tartibda va guruhli mashg'ulotlar o'tish, jihozlarni yaratish, keng qamrovli ta'sir etishni ta'minlash hamda bu qamrovda ishtirok etish va boshqalar);


-o'quv-pedagogik ishlar (har bir voqeani tahlil qilish, tuzatishning aynan bir xil vositalarini tanlash va hokazo).

Bundan tashqari, logopedning ishi deontologiya tamoyillariga qat'iy amal qilishga asoslanishi kerak (logoped nutqi buzilgan shaxs, uning qarindoshlari, ish joyidagi hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini qanday tashkil etishi lozim) degan muammolar ham mavjud. Pedagogik deontologiya pedagogik etika va estetika, pedagoglik burchi va pedagoglik odobi haqidagi ta'limotlarni o'z ichiga oladi. Unga amal qilishda logopeddan nutqida kamchiligi bor bolaning ota-onalari psixologiyasini tushunishi va ular bilan bir qatorda qayg'urishi talab qilinadi.

Logoped juda sabotli, tadbirkor va xayrixoh, nutqi buzilgan shaxsga va uning ota-onalariga shifokorning bemorga va uning yaqin kishilariga muomalasi kabi munosabatda bo'lishi, nutq buzilishlarining og'ir jihatlari va muhim mexanizmlarini aniqlashda, ular haqida oldindan ma'lumot to'plashda ehtiyotkorlik qilishi nutq buzilishlarining tashqi ko'rinishini, ularning mohiyatini hisobga olishi kerak. Logoped va bolalar muassasasi shifokori, logoped va tarbiyachi, logoped va pedagog o'rtasida o'rnatiladigan o'zaro to'g'ri munosabatlar pedagogik deontologiya muhim sharti hisoblanadi. Logopedning shaxsiy sifatleri ijobiy bo'lishi bilan bir qatorda uning kasbiy jihatlari ham ijobiy bo'lishi lozim.

Kasbiy fazilatlari orasida uning nutqi va atrofdagilar bilan bo'lgan munosabati alohida e'tiborga molik.

Logoped nutqi atrofdagilarga-nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham namuna bo'lishi lozim. Logoped yagona nutqiy tartibni ta'minlaydi, maxsus bolalar muassasalaridagi o'rta va kichik xodimlarga nutq madaniyatini o'rgatadi, qator hollarda, masalan, maxsus bolalar uylari sharoitlarida barcha o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqaradi. Bakalavr-defektolog, magistr-logoped o'qituvchilar mamlakatimizda faqatgina Toshkent davlat pedagogika universitetida tayyorlanadi.



1960-yillardan nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i rivojlana boshladi. Dastlab bular ommaviy bog‘chalar qoshida tashkil qilingan alohida eksperimental guruhlar edi, keyinchalik esa nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan alohida bolalar bog‘chalari va yasli bolalar bog‘chalari tashkil topa boshladi. Dastlabki bosqichda bolalar bog‘chalarida yengil nutq kamchiligiga ega bo‘lgan (nutqning fonetik tomoni rivojlanmagan) bolalar uchun guruhlar ochilgan bo‘lsa, keyinchalik birmuncha murakkab nuqsonli bolalar (duduqlanadigan, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar) guruhlari tashkil qilindi.

Maorif vazirligining 1972-yil 21-noyabrdagi 125-sonli qaroriga asosan maorif sistemasidagi anomal bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari nomenklaturasi (ro‘yxati) tasdiqlandi. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan bog‘chalar, yasli-bog‘chalar va umumiy tipdagi bog‘cha, yaslibog‘chalar qoshidagi tegishli maktabgacha tarbiya guruhlari yuqorida nomlari ko‘rsatib o‘tilgan muassasa qaraydigan xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan komplektlashtiriladi. Normal nutqni o‘zlashtirgan, ta’limni muvaffaqiyatli tamomlagan va 7 yoshga to‘lmagan bolalar umumiy tipdagi bog‘chaga o‘tkazildi. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida turli xil

nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarga beriladigan logopedik ta'limning asosiy vazifalari yetakchi nutq nuqsonini tuzatish bilan birga xat-savodni egallashga tayyorlash ishini ham o'z ichiga oladi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalarida barcha tuzatish jarayonlarini aniq tashkil qilish ko'zda tutiladi. Tuzatish ishlari quyidagilardan iborat bo'lib ular logopedning tarbiyachi va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilishi orqali ta'minlanadi.



Nutqida kamchiligi bor shaxslarning barcha yosh guruhlarida nutq bilish faoliyati, emotsional irodaviy sohalardagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari tibbiy va pedagogik ta'sirlar kompleksining o'z vaqtida va aynan bir xil qo'llanishiga bog'liqdir.

Tuzatuvchi ta'lim ishlarining barcha komplekslarini o'tkazish umumdastur talablarini bajarish bilan birga nutq nuqsonlarini tuzatish bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni qo'shib olib borishni talab qiladi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlar uchun oddiy kun tartibidan farq qiladigan maxsus kun tartibi ishlab chiqilgan. Jumladan unda logoped tomonidan o'tkaziladigan umumiy guruhlardagi va yakka tartibdagi mashg'ulotlar ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga kechki vaqtda tarbiyachining logoped topshirig'i bo'yicha guruhlarda va alohida bolalar bilan nutqni tuzatish yuzasidan maxsus soatlar ajratilgan. Tarbiyachi o'z ishini dastur talablari va bolalarning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtiradi.

Tarbiyachi bola nutqining shakllanishidagi individual kamchiliklarni bilishi, nutqining talaffuz va leksiko-grammatik tomonidan nuqsonlarni bilishi, ta'lim va ta'limdan tashqari faoliyat jarayoni davomida har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini hisobga olishi shart.

Logoped bilan hamkorlikka nutqning to'liq rivojlanmaganligi (FNR guruhlarida), nutqni o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, savod o'rganishga tayyorlash bo'yicha mashg'ulotlar rejalashtiriladi. Logoped bilan tarbiyachining ishidagi izchillikni maxsus daftarda qayd qiladi.

Logoped har kuni tarbiyachiga bolalar bilan logopedik ish olib borishi uchun topshiriqlar yozadi. Beriladigan topshiriqlarga quyidagilar kiradi:

- ayrim artikulyatsion mashqlarni bajarish;
- logoped tomonidan maxsus tanlangan so'zlar, gaplar, qisqa hikoyalar, she'rlarni, bola nutqiga kiritilgan tovushlarni mustahkamlash maqsadida qo'llash;
- bola diqqati, xotirasi va fonematik malakasini rivojlantirishga doir topshiriqlarni bajarish;
- o'qish malakalarini shakllantirish mashqlarini bajarish;
- qirqma harflar bilan ishlash.

Berilgan topshiriq turlari bolalarga tanish bo'lishi, olib borish metodikasi tarbiyachiga yaxshi tushuntirilgan bo'lishi kerak. Tarbiyachi olib borgan ish haqidagi qisqa ma'lumotni daftarning hisobga olish grafasiga belgilab qo'yadi.

Logoped hisoboti. Logoped o'quv yilining oxirida qilgan ishlari yuzasidan hisobot yozadi. Hisobotda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- 1.Guruhlarning komplektlashtirish vaqti (bolaning guruhga kelgan vaqti).
- 2.Logopedik mashg'ulotlarga jalb qilingan bolalar soni.
- 3.Nutq guruhlaridan chiqarilgan bolalar soni va ular nutqiga qisqacha tavsif.
- 4.Bolalarning qanday muassasalarga borishi haqida yo'llanma (umumta'lim maktabi, logopunkt, kasalxona, bolalar bog'chasi).

5. Guruhlarda qayta qoldirilgan bolalar soni (sababi) ko'rsatiladi.

6. Yil davomida turli sabablar bilan nutq guruhlaridan chiqib ketgan bolalar soni.

Hisobotda yana qanday logopedik targ'ibot ishlari olib borilganligi, qanday nutqiy nuqsonli bolalar aniqlanganligi ko'rsatilishi kerak. Og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar maktablarida quyidagi hujjatlar yuritiladi:

Nutq kartasi maktabning har bir o'quvchisi uchun to'ldiriladi. Nutq kartasiga o'quv yili boshida o'tkazilgan tekshirish natijalari, yil davomida o'qituvchi nutqiy rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun bola bilan qanday ishlar olib borilganligi haqida qisqa ma'lumot va logopedik mashg'ulotlarning natijalari belgilab qo'yiladi.

-Chorakka mo'ljallangan individual ish rejasi (boshlang'ich sinflarda).

-Chorak davomida olib boriladigan individual ish rejasida o'qituvchi ishlashi lozim bo'lgan bolalar tarkibini aniqlaydi va ular nutqidagi kamchiliklarga qisqacha tavsif beradi, qanday nutq nuqsoni ustida ishlash kerakligini aniqlaydi.

Chorakda olib boriladigan taxminiy ish sxemasi:

1. O'quvchilarning familiyasi, mashg'ulotga kelgan vaqti.

2. Nutq nuqsonlariga qisqacha tavsif.

3. Tuzatish ishlari (tuzatish ishlari olib borilayotgan nuqson ko'rsatiladi).

4. Tuzatish ishlarining muddati.

5. Mashg'ulotning tashkiliy shakllari.

6. Natijalar.

7. Izohlar, sanasi va unda o'tilgan mavzular qayd qilinadi.

Sog'liqii saqlash tizimida xizmat qiladigan logoped quyidagi hujjatlarni yurgizadi:

-birinchi qabul qilingan bemor uchun karta yoki jurnal, bunga bemorning familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, kim tomonidan yuborilganligi, poliklinika yoki kasalxonaga murojaat qilgan vaqti,

tashxisi, o'tkazilgan mashg'ulotlar soni, o'qitish metodlari, o'qitish ishlarining natijalari chiqarilgan vaqti yozib boriladi.

- har kuni bemorni qabul qilish uchun yurgizilgan jurnal.

- bemor bilan o'tkaziladigan har bir mashg'ulotning qanday mazmunda ekanligini yozib borish uchun kundalik daftar.

- bemorning uyiga borib kelishi haqidagi ma'lumotlarni belgilovchi jurnal.

- yillik hisobot.

Logopedlar o'z ma'ruzalari bilan ilmiy-nazariy konferensiyalarda faol ishtirok etishlari lozim.

9.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logoped va uning ota-onalar bilan hamkorligi

Ota-onalar majlislari birinchi ota-onalar majlisi avgustning oxirida yoki sentyabrning boshida o'tkaziladi. Ota-onalar ta'lim tashkiloti tuzilishi, ish mazmuni va vazifalar bilan, bolalar yil davomidagi kun tartibi va qoidalar bilan tanishtiriladi. Odatda, bu majlisni ta'lim tashkiloti mudirasi barcha maxsus guruhlar bolalarining ota-onalari bilan birgalikda o'tkazadi. Ikkinchi majlisni har bir logoped o'z guruhida oktyabr oyida o'tkazadi. Ushbu majlisning maqsadi ota-onalarni bolalarni tekshirish natijasida olingan ma'lumotlar bilan tanishtirishdir.

Bunda logoped har bir bolaning nutqiy va umumiy rivojlanishini atroflicha ta'riflaydi. Ota-onalarga bolalarning nutqiy rivojlanishlaridagi asosiy kamchiliklarni tushunarli qilib yoritib berish, ularning normadan orqada qolish darajasini va ushbu nuqsonni bartaraf etishda hamkorlik qilish zarurligini ko'rsatib berish kerak. Uchinchi ota-onalar majlisi yanvar oyida o'tkaziladi.

Unda yarim yillik ish natijalari sarhisob qilinib keyingi tuzatish ishlarining yo'nalishi va ko'lami belgilab olinadi. Har bir bolaning nutqiy va umumiy rivojlanishi, bolalardagi ijobiy dinamika, shuningdek mashg'ulot davomida uchragan qiyinchiliklar ta'riflanadi.

Oxirgi ota-onalar majlisi may oyida o'tkaziladi. Unda yil davomida bajarilgan ishlar yakunlanadi. O'tilgan materialni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar beriladi. Logoped ota-onalarni bolani ommaviy maktabda, nutq maktabida ta'lim olishi yoki zarurat bo'lsa, ta'lim tashkilotining maxsus guruhida qayta tarbiyalanishi haqida komissiyaning qarori bilan tanishtiradi. Komissiyaning qarori to'liq asoslanadi.

Shanba yoki chorshanba kunlari (kunning ikkinchi yarmida) har hafta ota-onalar uchun qisqa muddatli majlislar (pyatiminutka) o'tkaziladi. Ba'zi bir ota-onalar bolalari bilan taklif qilinadilar. Logoped ota-onalarni tovushlarni mustahkamlashning asosiy usullari bilan tanishtiradi. Uyda qanday mashqlar bajarish kerakligani ko'rsatib beradi. Ota-onalarning ochiq logopedik mashg'ulotlarda ishtirok etishi butun o'quv yili davomida rejalashtiriladi (3 oyda 1 marta).

Bunday mashg'ulotlarda logoped ota-onalarni ta'limning asosiy usullari, materialni tanlash, shuningdek, mashg'ulot davomida bolalarga qo'yiladigan asosiy talablar bilan tanishtiradi.

Ota-onalarga mo'ljallangan stendlar bunday vositalarni logoped va tarbiyachi butun yil davomida chiqarib turadilar. Stendda normadagi bola nutqining rivojlanishi, nutq anomaliyalarining xilma-xil turlari, ommabop adabiyotlar ro'yxati kabi masalalar yoritilib boriladi. Tovushlarni talaffuz qilish, bog'lanishli nutqni shakllantirishga doir nutqiy material vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

Ota-onalar burchagida axborot bo'limi mavjud bo'lib, unda ota-onalar majlislarining sanalari, logoped bilan suhbatlashish uchun takliflar, mutaxassislarning konsultasiya berish vaqti ko'rsatilgan bo'ladi. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tashkilotining anomal bolalarga ta'lim va tarbiya berish umumiy sistemasida perspektiv o'rin bo'lib hisoblanadi, qaysiki u nuqsonning keyingi davrda rivojlanishining oldini oladi.

Bir qator patologik shakllarda (oligofreniya, ko'rish nuqsonlari, tayanch harakat apparatidagi nuqsonlar) nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarga maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida logopedik yordam ko'rsatiladi.

9.4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti logopedining ish hujjatlari va uning yuritilishi

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining **“Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”**gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i⁴⁷ga asosan umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining logopedi va uning asosiy ish xujjatlari quydagilardan iborat bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida logopedik faoliyat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish faoliyati mazmunidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi va logoped tomonidan yuritiladigan hujjatlar defektolog faoliyati va uning hujjatlari mazmuniga to'g'ri keladi. Defektolog tomonidan yuritiladigan “09-04 Bolaning nutq xaritasi” nomli hujjat logoped faoliyatiga mos tushadi. Bu hujjatning yuritilishi bo'yicha quyida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

09-04 Bolaning nutq xaritasi

Bolaning ismi va sharifi	
Tug'ilgan yil, kun, oy	
Uy manzili, telefoni	
Guruhi	
Defektologning xulosasi	
Ota-onasining shikoyati	
Bola nechanchi homiladorlikdan tug'ilgan?	
Homiladorlik qanday kechgan?	
Tug'ruq jarayoni qanday kechgan?	
Kechirgan kasalliklari, jarohatlari	
Nutqida kamchilik sezilgan vaqt	
Bog'langan nutq	

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i

Nutqiga umumiy xarakteristika	
Artikulyasion apparatning holati	
Artikulyasion apparatning harakatchanligi	
Lablar harakatchanligi	
Til harakatchanligi	
Yumshoq tanglay harakatchanligi	

Nutq prosodik komponentlarining holati

Ovoz kuchi (yo‘g‘on, ingichka, yumshoq, qattiq)

Ovoz tembri (me‘yorda, bo‘g‘iq, xirildoq, past, titroqli)

Ohang (me‘yorda, manqalangan)

Sur‘ati (me‘yorda, sekinlashgan, tez)

Tovushlar talaffuzi:

	S	Sh	Z	Ch	J	L	R	K	G	T	D	F	Q	G’
Alohida talaffuzda														
So‘z boshida														
So‘z o‘rtasida														
So‘z oxirida														

Eshitish faoliyati va nutqni qabul qilish:

1. Tibbiy xarita asosida biologik eshitishi:

2. Atrofdagi nutqni tushunishi:

Fonematik qabul qilish: 1. Defektolog ketidan bo‘g‘inlar qatorini talaffuz etish:

Bo‘g‘inlar	Bolalar talaffuzi	Bo‘g‘inlar	Bolalar talaffuzi
Ta - da		Sha – sha - sa	
Sa - za		Ba – pa - ba	
Ra - la		Va – fa - fa	
Ka - ga		Qa - g‘a - qa	

2. Soʻzlarni takrorlash:

Soʻzlar	Bolalarning talaffuzi
Sim - Shim	
Bosh - tosh	
Gul - kul	
Kun - tun	

6. Soʻzlarda tovush oʻrnini aniqlash:

Soʻz boshida			Soʻz oʻrtasida			Soʻz oxirida		
Olma	Ilon	Uzum	Lagan	Sabzi	Kosa	Terak	Futbol	Gilos

4. Berilgan tovushga soʻz topish:

“S” tovushiga soʻz topish			“L” tovushiga soʻz topish			“A” tovushiga soʻz topish		

Lugʻat boyligi:

1. Predmetni toʻgʻri nomlash:

2. (Koʻrsatilgan rasmlarda predmetlarni nomlay oladimi?) _____

2. Umumlashtirish.

Bir soʻz bilan nomla:

Koʻylak, shim, qalpoq, palto, yubka _____

Etik, tufli, botinka, _____

Choynak, piyola, kosa, qoshiq _____

Samolyot, avtobus, tramvay, trolleybus _____

Karam, lavlagi, kartoshka, piyoz, sabzi _____

Quyov, ayiq, boʻri, tulki _____

Qoʻy, ot, echki, sigir _____

Olma, anor, uzum, behi _____

Qoʻl, oyoq, koʻz, quloq, lab _____

Nutqning grammatik tuzilish xususiyatlari:

1.Rasmga qarab gap tuzish: _____

2.Soʻzlarni kichraytirish, erkalash formasini hosil qilish:

Ayiq - Qiz –

Mushuk - Uy –

3. Nutqda fe'llarning ishlatilishi:

Shifokor nima qiladi? _____

Oshpaz nima qiladi? _____

Biz bolta bilan nima qilamiz? _____

7. Birlik, koʻplik tushunchalarni hosil qilish:

Qalam - Ruchka –

Bola - Sabzi -

Mustaqil nutqning shakllanganligi: _____

Nazorat savollari

1.Logopedik faoliyatning maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilib oldingiz?

2.Logoped shaxsi va uning xususiyatlari nimalardan iborat?

3.Logopedning ota-onalar bilan olib boradigan ishlarining asosiy yoʻnalishlarini ochib bering

IV BOB. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha inklyuziv ta'limga jalb etishda maxsus jihozlar va ulardan foydalanish

Mavzu: Ko'zi ojiz (ko'r) va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus jihozlar va ularning ahamiyati

10.1. Ko'rish faoliyatining buzilishi va uning asosiy sabablari hamda ko'z kasalliklari

Tiflopedagogika (yun. typhlos ko'r va pedagogika) - defektologiyaning ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohasidir. Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi. Tiflopedagogika ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ta'limni takomillashtirish yo'llarini, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab hamda maktabgacha muassasalar tuzilmasini, ularning ta'lim-tarbiyasining tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi.


Teflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan ko'rish imkoniyatlaridan o'qish jarayonida to'g'ri foydalanish va uni rivojlantirish, ko'rish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta'limning texnika vositalarini qo'llashdan iborat.⁴⁸ Inson tanasining eng nozik nuqtalaridan biri bo'lgan ko'z tevrak-atrof haqidagi eng asosiy ma'lumotlarni yetkazib beruvchi asosiy va yetakchi azolardan biri hisoblanadi. Ko'z faoliyatiga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma nuqsonlarning sabablari orasida irsiy kasalliklar alohida ajralib turadi. Masalan homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, homilaning ko'rish organlariga embrional


⁴⁸ L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil

rivojlanish paytda zararlanishi, miya o`smasi va shu kabi kasalliklarga olib keladi.

Ko`rishda nuqsoni bo`lgan bolalar ko`rish o`tkirligiga ko`ra 2 turga bo`linadi:



Zaif ko`ruvchilar ko`rish o`tkirligiga ko`ra quyidagicha turga bo`linadi



Ko`rish faoliyatining zaiflashuviga asosiy sabablar bu kasalliklar hisoblanadi. Bugungi kunda ko`rish faoliyatining zaiflashuviga yoki butunlay yuqolishiga olib keluvchi bir qancha kasalliklar bor. Bu kasalliklar orasidan ba`zi birlari ahohida ajralib turadi:

1. *Albinizm*-odamlarning terida, ko`zda, sochda rangning (pigmentning) bo`lmasligi bilan tug`ilish. Ularda rangsiz teri va juda

yorqin oq-sariq soch bo'lishi mumkin va bu kasallik ko'rish faoliyatiga ta'sir qiladi.

2. **Katarakta**-bu ko'z linzalarining xiralashuvi oqibatida ko'rish tiniqligini qiyinlashtiradi. Katarakta ko'p hollarda bir necha sabablar bilan bog'liq. Ko'p bolalar katarakta bilan tug'iladi.

Katarakta ko'zdagi qizarishlar, shishlar va boshqa alomatlardan iborat bo'lishi mumkin. Bunda bolaning ko'zi odatdagidan kichikroq bo'ladi. Homiladorlik davridagi infeksiyalar ham kataraktaga sabab bo'lishi mumkin.

3. **Diabetga aloqador ko'z kasalligi** - ko'p davlatlarda ko'rish zaiflashuvining asosiy sababchisi sifatida ko'rsatiladi. Bundan glaukoma, katarakta diabetik retionapiya kelib chiqishi mumkin.

4. **Glaukoma**-ko'rish nervi orqali miyaga ma'lumot beradi. U shikastlanganda ko'zda bosim oshadi. Ko'zlarning to'g'ri ishlashi ularning shaklini ushlab qolishi sog'lom bo'lishi uchun bosim ma'lum miqdorda bo'lishi kerak. Bosim juda yuqori bo'lsa bolada quyosh yoki yorqin nurlarda noqulaylik kuzatilishi, bolada g'ilaylik bo'lishi yoki ko'z yoshlanishi mumkin.

5. **Daryo ko'rlik**-daryo bo'yida yashaydigan qora pashshadan yuqadigan, ko'z kasalligi hisoblanadi va bu kasallikda hamma ichki to'qimalari zararlanib, qon ketish, qizarish, shish va boshqa yakuniy asoratlari paydo bo'ladi va ko'rlikka olib keladi. Bu kasallikka uchraganlarning 99% Afrikada, 1%i Yaman, Meksika, Gvatemala, Ekvador, Kolumbiya, Venusuellada yashaydi.

6. **Pigmentli retinet** retinetli kasallik bo'lib uning asosiy belgisi, erta bolalikda salbiy ta'sir bilan ro'y beradi. Qorong'uda kuchsiz ko'radi va ko'rish maydoni torayishni boshlaydi. Pigmentli retinit turmushda va oilaviy hayotda uchraydigan eng odatiy ko'z kasalligidir.

7. **Traxoma kasalligi**- bu kasallik asosan chivinlar orqali yuqadigan kasallik hisoblanadi. Bu kasallikda ko'zdan infeksiya ajralib chiqadi. Bir necha yillardan keyin infeksiya takrorlanadi, ko'zning ichida chandiqlar

bo'lishi, qovoqlar og'rishi bilan xarakterlanadi va bu kasallik oxir oqibat ko'zi ojizlikka ham olib kelishi mumkin.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari

Inson shaxsining to'laqonli, atroflicha, mukammal bo'lib rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sog'lom bo'lishi lozim. Aks holda shaxs bir butun holda, me'yor darajasida rivojlanmaydi, aniqrog'i rivojlana olmaydi.

Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan ta'ssurotlarni qabul qilish, balki ularni tahlil qilish bilan ham bog'liq uning faoliyatni buzilsa insonning atrof-olam bilan bo'ladigan munosabati ham izdan chiqadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'rish analizatorining zararlanishi inson psixikasining turli tomonlariga bir xilda ta'sir etmaydi. Ayrim qismlarning zararlanishidan, psixik holatlar, jarayonlar chuqur zarar ko'rsa, ayrimlari nisbatan yuzakiroq zarar ko'rishi mumkin.

Ko'rlik muammosi insoniyat paydo bo'libdiki, kishilarni o'ylantirib keladi. Afsuski, bugungi kungacha rivojlanib kelayotgan ilm-fan yutuqlari ham ko'rlik muammosi ustidan to'la g'alaba qozona olgani yo'q. Ko'rish jarayoni inson ruhiyatining rivojida alohida, ahamiyatga ega bo'lib kerak bo'lsa yetakchi o'rinni egallaydi. Tug'ilgan chaqaloqning dastlabki kunlaridagi rivoji uchun, mo'ljal olish faoliyati yetakchi o'rinda turadi.

Bu faoliyatning rivoji uchun esa ko'rish a'zosi va uning ahamiyati muhim sanaladi. Aks holda bola ko'rmasa, unda mo'ljal olish reaksiyasi rivojlanmaydi. Lekin, ko'rish nuqsoni shaxsning turg'un sifatlarining shakllanishida yetakchi ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Bu sohadagi kamchiliklar maxsus ta'lim-tarbiya orqali to'g'rilanib boradi.

Ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning ruhiy taraqqiyoti qator qiyinchiliklar, to'siqlar bilan birga kechadi. Buning boisi shundaki, ko'r yoki zaif ko'ruvchilarning 90% tug'ma yoki ilk yoshlarda orttirilgan bo'ladi. Ko'rish a'zosining chuqur zararlanishi natijasida insonning atrofni qabul qilish faoliyatida qator nuqsonlar, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu nuqsonlar asosida inson faolligi keskin pasayadi.

Bu faollik N.A. Bernshteynning ta'kidlashicha, biologic mohiyat kasb etib, shaxsning muhitga moslashishini qiyinlashtiradi. Shaxs faolligining dastlabki ko'rinishlari ontogenetik taraqqiyotida yuz berib qator shartsiz reflekslar tarzida namoyon bo'ladi. Bularga misol qilib so'rish reflekslarini ko'rsatish mumkin. Ko'rish nuqsoni, ayniqsa mo'ljallash, qidirish faoliyatlariga kuchli salbiy ta'sir etadi.

Bolalardagi «bu nima ekan» refleksi shaxs rivojida alohida ahamiyatga ega. Shaxs faolligining rivojida nafaqat xohishlarni qondirishga bo'lgan ehtiyojlar, balki individni o'rab turgan muhit, va uning ularga ta'siri ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning atrof-muhitda kam harakat qilishi, siljishining chegaralanganligi ham ularning ruhiyati rivojiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Ko'zi ojiz bolalar faolligining sustligi, ayniqsa maktabgacha ta'lim yoshigacha va maktabgacha yoshdagi davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

L.I. Solnsevaning ta'kidlashicha, normal bolaga nisbatan ko'r bola rivoji umumiy orqada qolish bilan farqlanadi. Sekinlashgan umumiy rivojlanish dastlab ulardagi ko'rish tasavvurlarining kamligi va zaifligi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, atrof-muhitni bilishga bo'lgan faollikning kamligidir. Boshlang'ich sinfdagi bolalarda ham faollikning pasayganligini ko'rish mumkin. Ko'r bolalar faoliyatini ta'kidlar ekan B.I. Kovalenko va N.B. Kovalenkolar ko'rlik va uning asoratlari faollikni pasaytiradi, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olishga to'sqinlik qiladi. Bu kamchiliklar ayniqsa tug'ma ko'rlarda va ilk yoshda ko'r bo'lganlarda, hamda qisman ko'rmaydigan bolalarda uchraydi, deb ko'rsatadilar. Ushbu ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan muntazam olib borilgan ta'lim-tarbiya natijasida bu bolalarda sezilarli rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Ko'r bolalarda faollikning sustligini ularning xulqida ham ko'rish mumkin. Yuqoridagi mualliflarning ta'kidlashlaricha - «Ko'r bolalar sezgilar va idrok qilishda haddan tashqari chegaralangandir. Ular juda faol emas va kam harakatlidir.

Ko'rish sezgilarining kamligi natijasida ushlash harakatlari juda kamdir. Bola intilmaydi, qo'l uzatmaydi, sudralmaydi, tik turmaydi, qo'llari bilan biror narsani ushlamaydi. Tik turish va yurishlari 2-3 yilgacha orqaga suriladi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojining yetarli emasligi oqibatida ulardagi nutqining rivojlanishi 3-4 yilga kechikadi».

Shu kabi kamchiliklar va rivojlanishdagi nuqsonlar, zaif ko'ruvchi bolalarda ham uchraydi. Mo'ljal ola bilish refleksining salbiy natijalari o'z navbatida atrofni sezishga bo'lgan intilishning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. «Idrok qilishga xohish» pasayadi. Buning oqibatida tabiiy ravishda atrofni bilish ham pasayadi. Shunday qilib, faollikning pasayishi, bilishga bo'lgan intilishlarning rivojlanmasligi natijasida bilish faoliyati ham bir butunligicha, to'laqonli rivojlanmaydi.

Bularga qaramasdan qator ilmiy-tadqiqotlarning ko'rsatishicha yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan kamchiliklarning ko'pchiligini ta'lim-tarbiya natijasida bartaraf etish mumkin ekan. Saqlangan, zararlanmagan analizatorlar ishini faollashtirish evaziga qator yutuqlarga erishish mumkinligini ko'rish mumkin. Ammo, nuqsonli bolaning aqliy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar bilan amalga oshadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, qator ruhiy jarayonlar, holatlar (sezgilar, idrok, tasavvur) nuqson chuqurligi bilan bevosita bo'g'liq bo'lsa, ayrim ruhiy jarayonlar (yorug'likni sezish, idrok tezligi) nuqson mazmuniga, mohiyatiga bo'g'liq bo'ladi. Shu bilan birga ayrim ruhiy jarayonlar (tafakkur) boshqa ruhiy jarayonlar holati bilan bevosita bo'g'liq holda rivojlanadi.

Bularga qaramasdan ruhiyatning shunday tarkibiy qismlari borki (dunyoqarash, ishonch, temperament, xarakter), ular na nuqson chuqurligi bilan, na nuqson mazmuni bilan bo'g'liq bo'lmaydi. Bular bilan bir qatorda yana shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, bola ruhiyatining rivoji nafaqat ko'rish sezgilarining nuqsonlaridan, balki uning kechish, dinamikasi bilan ham uzviy bo'g'liqdir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ko'rish nuqsonlari aqliy taraqqiyotni sekinlashtiradi.

Ammo, o'z vaqtidagi adekvat, o'ziga mos ta'lim-tarbiya, korreksiyalash ishlari orqali ruhiy rivojlanishni boshqarib borish mumkin.

Hatto total ko'rlarda ham atrof-muhit haqida adekvat tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirish mumkin. Turli ko'nikmalar, odatlar, irodaviy sifatlarni tarbiyalash mumkinligini tajribalar ko'rsatadi. Shu kabi natijalarga erishish uchun uzoq yillar talab etiladi. «Atrof-muhitni idrok qilish odamning yerdagi hayotga moslashishining natijasidir.

L. Feyerbax ta'kidlashicha, inson atrof-muhitni butunligicha idrok qilishi uchun unda shuncha sezgilar mavjuddir». Demak, odamdagi mavjud sezgilarning kamayishi atrof-muhitni to'la idrok qilishga qarshilik qila boshlar ekan. Hatto aralash nuqson, ko'r-karlarda ham atrof-muhitni adekvat, mos qabul qilish saqlanar ekan. Lekin, gnostik bilishning 3 ta turi: ko'rish, eshitish va sezish sezgilari birgalikda kelgandagina bilish jarayoni birmuncha izdan chiqar ekan.


I.M. Sechenov davridan buyon psixologik adabiyotlarda bayon etilishicha, ko'rish va sezish tasavvurlari o'xshash bo'lib, ko'z va qo'l predmetlarining bir xil xususiyatlarini ochib berar ekan. Buning isboti sifatida mashhur fiziolog P.K. Anoxin fikrlarini keltirish mumkin. Uning ta'kidlashicha, atrof-muhit turli o'lchovlarda, shakllarda, obrazlar tarzida miyada va ongda aks etar ekan. Bunga misol qilib ko'r, kar, soqov odamlarning xulqini ko'rsatish mumkin.

Ko'rish nuqsoniga ega kishilarning atrof-muhitni idrok qilishlaridagi, tasavvurlaridagi farqlarga qaramasdan, me'yorda idrok etilayotgan narsalarga mos kelar ekan. Normal ko'ruvchi bolalar bilan zaif ko'rmaydigan bolalar tasavvurlarida qat'iy farqlar deyarli yo'q. Ushbu mavzuda asosan ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktablarida ta'lim-tarbiya oluvchi bolalar tarkibi haqida so'z yuritiladi. Qaysi kasallikni boshidan kechirgan, qanday asoratlar qoldirgan, ko'z nurining o'tkirlik darajasi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga murakkab nuqsonlilar: ko'rlik, zaif ko'rish nuqsoni bilan birga aqli zaiflik, harakat tizimining buzilishi va boshqa ruhiy-jismoniy nuqsonlarning qo'shib kelish hollari haqida tushunchalar beriladi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar maxsus maktab-internatida o'quvchilarga faqatgina umumta'lim ma'lumoti berilib qolinmasdan,

o'quv-tarbiyaviy ishlar olib borilmasdan, balki ko'zi ojizlikni to'ldiruvchi, qoplovchi, davolovchi muassasa ham hisoblanadi. Bu o'quv muassasasida o'quvchilar, bolalar davolovchi shifokor-pediatr, oftalmolog, nevropatolog, tibbiyot hamshirasining doimiy nazoratida bo'ladilar.

Ko'zi ojizlar uchun maxsus maktab-internatga o'quvchilar maxsus tashkil etilgan tibbiy-pedagogik komissiya ko'rigidan o'tkazilib, ushbu komissiya xulosasiga binoan qabul qilinadi. Tibbiy-pedagogik komissiya viloyat, shahar xalq ta'limi bo'limlari qoshida tashkil etiladi. Respublikamizning turli tumanlaridagi oftalmolog shifokorlarning xulosasiga asosan tumanlar xalq ta'limi bo'limi ushbu tibbiy-pedagogik komissiyaga yo'llanma-murojaatnoma bilan murojaat qiladilar. Hozirgi kunda Respublikamizda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlar ishlab turibdi. Bu maxsus maktab-internatlarga har bir tuman hududida yashovchi, maxsus tiflopedagogik ta'limga muhtoj o'quvchilar jalb qilinadi:




Zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlariga ko'rish nuri 0,05-4 gacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi, bunda kasallikning xuruj qilishi, shakli, turi ham inobatga olinadi. Ko'z nuri 0,2 dan yuqori bo'lgan bolalar umumta'lim maktablarida o'qishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga esa 3-7 yoshgacha bo'lgan shu darajadagi bolalar qabul qilinadi. Maktab-internatning 1-sinfiga bolalar 7 yoshdan boshlab shu darajaga mos bo'lganlari qabul qilinadi.

Aqli zaif bo'lgan ko'zi to'liq ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar yordamchi dastur asosida ta'lim-tarbiya beriladigan maxsus sinflarda o'qitiladi. Ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi bolaning o'zlashtirish me'yorlarini aniqlash uchun aqli zaif deb topilgan bola kamida 1 yil maxsus maktab-internatning umumta'lim dasturi asosida o'qitiladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayon kuzatib boriladi, faqat shundan keyingina tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga asosan yordamchi dastur asosida 8 yil o'qitiladigan to'liq ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarga maxsus bilimga ega bo'lgan defektolog-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya beradilar.

Quyidagilar ko'zi ojiz bolalar maxsus maktab-internatiga qabul qilinmaydi:



Bunday kasalliklarga uchragan bolalar xalq ta'limi bo'limlari qoshida tashkil qilingan tashxis markazlarining hamda maxsus tibbiy-pedagog komissiyaga yuboriladi. Ularning xulosasiga asosan sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va maishiy ta'minot vazirligi qoshidagi maxsus bolalar muassasalariga yuboriladi. Ko'zi ojizlar uchun maktablarda, maxsus maktab-internatlarida ta'lim maxsus nuqtalardan tashkil topgan Brayl tizimida olib boriladi.

Ko‘rlik va zaif ko‘rishning kompensatsiyasi ko‘zi ojiz bolalarning asosiy ko‘z kasalligi, ko‘zning qo‘shimcha kasalliklarini tuzatish, qoplashga (korreksiya, kompensatsiya) qilishga qaratilgan davolovchi xususiyatga ega bo‘lgan maxsus mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bu mashg‘ulotlarni defektolog, tiflopedagog mutaxassislar olib boradilar. Maxsus maktab-internat o‘quvchilari davlat ta‘minotida bo‘ladi.

Ko‘zi ojiz bolalar oliy asab faoliyatining xususiyatlari o‘ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Ko‘zi ojizlik nasldan naslga o‘tish yo‘li bilan bolaning ona qornida, ya‘ni embrion davrida onaning turli og‘ir, yuqumli kasalliklar (gripp, angina va b.) bilan kasallanishi oqibatida, bola hayoti davrida orttirilgan, ya‘ni qizamiq, meningit, suvchechak va boshqa o‘tkir yuqumli kasalliklarga chalinishi oqibatida, turli tan jarohatlari sababli yuzaga keladi. Bu davrda o‘z-o‘zidan bolaning asab faoliyatidagi o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keladi

. Ko‘rish ne‘matidan mahrum bo‘lgan bola injiq, qaysar, qo‘pol bo‘lishi mumkin. Ba‘zi bolalarda ko‘rmaslik oqibatida boshni to‘xtovsiz chayqash, ko‘zni qo‘l bilan ushlab turish, gavgani beixtiyor tebratish, yuz muskullarini o‘ynatish, labni cho‘chchaytirish, turgan joyida sakrash va boshqa yoqimsiz odatlar yuzaga keladi.

Albatta, bu odatlar barcha ko‘zi ojiz bolalarga xos deyish noto‘g‘ri, lekin to‘liq ko‘zi ojiz bolalarda bu odatlar tez-tez yuzaga keladi, ko‘p holatlarda uchrab turadi. Ko‘zi ojizlik bolaning gavgda muskullariga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Gavgani bir tomonga olib yurishga harakat qilish, bukchayib yurish, yuzni bir tomonga o‘girib yurish, boshni osiltirib yoki orqa tomonga tashlab yurish, umurtqa pog‘onasining qiyshayishi va boshqa o‘zgarishlar kuzatiladi.

To‘liq ko‘zi ojiz bolalarda qo‘l silkitish, ko‘z olmasini qo‘l bilan ushlab turib gapirish, quloqni ding qilib turish kabi odatlar tez-tez uchrab turadi. Kattaroq yoshdagi bolalar o‘z harakatlarining ortiqchaligini tushunsalarda, bu ularga xalaqit bermasligini ta‘kidlaydilar. Chunki, bu odatlarning yuzaga kelishi ko‘zi ojiz bolaning asab faoliyati bilan bog‘liqdir.

Ko'zi ojiz bolalarda eshitish sezgisi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bu analizatorlar bir-birlarining faoliyatlarini to'ldirib turishi bilan izohlanadi. Ko'rish analizatori o'z faoliyatini to'xtatganida hid bilish, eshitish, teri sezgilari faoliyati kengroq rivojlanadi. Kam harakatlilik, hadiksirab harakatlanish, harakatlanishda o'ta ehtiyotkorlik bilan qadam bosish kabi holatlar kuzatiladi.

Tug'ma ko'zi ojiz bolaga nisbatan, orttirilgan ko'zi ojizlikka uchragan bolalarda bu odatlar, holatlar kam uchraydi. Bolaning tashqi muhitga moslashishida o'zi yashayotgan muhitga shart-sharoitlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Ba'zi bir ota-onalar bola uchun hamma ishlarni o'zlari bajarishga harakat qiladilar. Ularni haddan ziyod ehtiyot qilishga urinadilar. Ko'zi ojiz bolaning mustaqil bo'lishiga, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishi uchun qilgan harakatlari, intilishlarini so'ndiradilar.

Ota-ona bu harakatlari bilan «bolaga yaxshilik qilyapman» deb o'ylaydilar. Aslida esa, bu g'amxo'rlik ko'zi ojiz bolaning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday bolalar maxsus maktab-internatga kelganlarida bolalar jamoasiga o'ta qiyinchilik bilan moslashadilar. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikma malakalarining shakllanish jarayoni juda sustlik bilan amalga oshadi. Kichik yoshdan boshlab mehnat malakalarini egallagan ko'zi to'liq ojiz bola esa bolalar jamoasiga osonroq moslashadi. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga harakat qila boshlaydi. Bolada o'z kuchi, imkoniyatlariga ishonch paydo bo'ladi. «Men bu ishni bajara olaman, bajarishim kerak» - degan tushuncha hosil bo'ladi.

Ko'zi to'liq ojiz bolada begona odamlarga nisbatan shubha hissi kuchli bo'ladi. Bu shubhalanish 9-11 yoshlardan boshlanib 12-14 yoshlarda kuchayadi, 15-17 yoshgacha, ba'zan esa bundan ham ko'proq yoshgacha davom etishi mumkin. Bu davrda bola o'ta hadiksirovchan, salga xafa bo'lib qoladigan, ko'proq yolg'izlikka moyil, tortinchoq bo'lib ko'zga tashlanadi. Bolalarga xos bo'lgan o'tish yoshida ular o'z jismoniy kamchiliklarini yanada chuqurroq his qiladilar, Ayrim ko'zi ojiz bolalarda esa bu holatning aksi sodir bo'ladi.

Bolaning axloqida salbiy o'zgarishlar yuz beradi. Sababsiz shovqin solish, keraksiz talablarni qo'yish, yig'lashga moyillik, qo'pollik holatlarini kuzatish mumkin. Bularning hammasi ko'zi ojiz bolaning asab tizimi bilan bog'liqdir. Bolaning individual (yakka) xususiyatlarida bu o'zgarishlar o'z aksini topadi. Tug'ma ko'zi ojiz bolalarda ko'rish nuqsonining qay darajada chuqurligi yoki ko'z nurining saqlanganligi ham bola asab tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ko'zi ojiz bolalarda bosh og'rig'I xuruji tez-tez yuz beradi, biror-bir faoliyatda tez charchab qolish, uyquning buzilishi holatlarini ham kuzatish mumkin. Sog'lom bolalar tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi bilimlarni eshitishga nisbatan 30 marta ko'p ko'rish analizatori orqali qabul qiladilar. To'liq ko'zi ojiz bolalar esa bunday imkoniyatga ega emas. Ularda eshitish qobiliyatiga xos taktil sezgilar yaxshi rivojlangan bo'ladi. XIX asrda yashab o'tgan ko'zi ojiz yozuvchi Moris de Sizeranning ushbu ta'rifi so'zlarimizga isbot bo'la oladi, deb o'ylaymiz. «Eshitish ko'zi ojiz odam uchun hayot demakdir. Eshitish orqali ko'zi ojiz odam ongida daraxt jonlanadi, tabiatning buyuk ovozi eshitiladi».

Ma'lumki, inson nutqi uning hissiy va aqliy kechinmalari bilan uzviy bog'liqdir. Har bir odam boshqalardan ovozi o'zining takrorlanmas ohangi, nutqining tuzilishi, til boyligi, ma'lumoti, saviyasi bilan ajralib turadi. Ko'zi ojiz bola odamlar nutqidagi nozik ohang, kayfiyatni, xarakter, tafakkur qilish xususiyatlarini tez ilg'ab oladi. Shu sababli ham ko'zi ojiz odamlar orasida musiqaga bo'lgan qiziqish kuchli bo'ladi. Ko'plab buyuk musiqashunoslar ko'r yoki zaif ko'ruvchilar orasidan yetishib chiqqan.

Maxsus maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida va atrofdagi katta kishilarning yordami bilan, turmush tajribasining ortishi tufayli ko'zi ojiz bolalarda fazo, vaqt, harakatni idrok qilish imkoniyati kengayadi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qiladi. Darslarda olgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali ham ko'zi ojiz bolalarning idrok qilish faoliyati rivojlana boshlaydi, fikrlash qobiliyati o'sa boradi.

Ko'zi ojiz bolaning aqliy rivojlanishida turli mavzulardagi suhbatlar, savol-javoblar, fikr almashuvlar muhim rol o'ynaydi. Ko'zi ojiz bolaning dunyoni tushunishi, ko'rishida kitoblarning ahamiyati beqiyosdir. Kitoblar ko'zi ojiz bolani atrof-muhitdagi voqea-hodisalar, odamlar, fan-texnika taraqqiyoti, madaniyati, san'at yangiliklari, ijtimoiy, siyosiy bilimlarini kengaytiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi.

Tafakkur qilish uchun turli boy manbalarning mavjudligi, o'quv- tarbiyaviy ishlarning muntazam ravishda reja asosida olib borilishi ko'zi ojiz bola aqliy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola hayoti davomida orttirilgan ko'zi ojizlik oqibatida keying yillarda og'ir ruhiy kechinmalarni boshidan kechiradi. O'z vaqtida berilgan yordam, korreksion ishlarni erta boshlash ko'zi ojiz bolaning keyingi hayotida samarali iz qoldiradi.

Ma'lumki, inson organizmida bir analizatorning faoliyati to'xtaganida, ikkinchi bir analizator kompensatorlik vazifasini bajaradi. Bolalikdan tug'ma ko'zi ojiz bolalar shunday hayot tarziga ko'nikib qoladilarki, agar biror kishi uning bu nuqsonini ta'kidlagan taqdirdagina buni esga oladilar hamda ko'zi ojizligini biladilar. Aks holda bola o'zining nuqsoniga e'tibor bermaydi, uni eslamaydi ham. Chunki, ko'zi to'liq ojiz bola ko'rmaslikni o'zi uchun oddiy holat deb tushunadi.

O'z oldiga qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun duch kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladi. Mehnat ko'nikma- malakalarini yaxshi egallab olishi ko'zi to'liq ojiz bola hayotini ancha yengillashtiradi. Ko'zi to'liq ojiz bolalarni atrof-muhitda harakatlanish qoidalariga o'rgatib borilmasa, ular bir joyda uzoq o'tirib qolishga o'rganadilar. Natijada jismoniy jihatdan kuchsiz, tez charchab qoladigan, o'z harakat imkoniyatlarini cheklaydigan bo'lib qoladi.


Maxsus maktablarda ko'zi to'liq ojiz bolalar uchun atrof-muhitda harakatlanishga o'rganib borish mashg'ulotlari olib boriladi. Bu o'z navbatida ko'zi to'liq ojiz bola hayotini ancha yengillashtiradi, o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyatini kengaytiradi va bolani hayotga moslashtiradi.

10.2. Tiflotexnik vositalar va ularning ahamiyati

Maxsus ta'lim – tarbiya jarayonida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ta'limga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularning rivojlanish va mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish muhim hisoblanadi.

Maxsus sanoatda ko'zi ojiz bolalar uchun yaratiladigan barcha texnik vositalar tiflotexnika turkumiga kiradi. Tiflotexnika ko'rishda nuqsoni bor shaxslar mehnat faoliyatini kengaytiradigan, ularga noqulay bo'lgan kasb yoki kasbiy jarayonlarni qulaylashtiradi. Tiflotexnika ko'r bolalar ish qobiliyatini oshiradi, ish jarayonida ko'rish nazorati yo'qligi asosida yuzaga keladigan kamchilik, nuqsonlarini bartaraf etishga yordam beradi. Tiflotexnika ko'p yillik tarixga ega.

Tiflotexnika tarixi ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning ijtimoiy ahvolini rivojlantirish tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan bog'liq holda tiflotexnika sohasida rivojlanishining to'rta bosqichini ko'rsatish mumkin.



Tiflotexnika turlari - pedagogik tiflotexnika vositalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin. Jihozlar, relyefli tasvirlar model va maketlar amaliyotda foydalaniladigan qurilma, asboblari.

Relyefli tasvirlarga va boshqa materiallarda ishlangan gertej, rasm, borelflar, applikatsiyalar kiradi. Relyefli chizma uchun turli asbob va qurilmalarning yanada takomillashtirilgan variantiga kotrev teshishi orqali yasalgan chizmalar va rasmlar kiradi. Har bir o'quv fani predmet-narsa haqidagi tasavvurni aniqlashtirish uchun bir qancha modellarga ehtiyoj sezadi. Sog'lomlar uchun modellardagi bo'yoqlar, ko'rishda nuqsoni bo'lgani uchun sezishga qulay bo'lgan relyeflar bilan ajratilishi kerak, shunda ham bo'yoqlar saqlangan bo'lishi kerak.

Ranglarning yorqinligi, aniqligini ko'rish orqali ham ko'zi ojiz bolalar sezishlari mumkin. Masalan, inson a'zolarini mulyajlarida qon-tomirlari ajratilib turiladi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida qo'llaniladigan inson organlari mulyajlarida qon-tomirlari relyefli bo'yoq bilan ifodalangan bo'ladi. Modellarni emal yoki moyli bo'yoq bilan qoplash maqsadga muvofiqdir. Model juda ham murakkab tuzilishga ega bo'lsa, o'rganilayotgan predmetni mohiyatiga ega bo'lgan qismini ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga idrok etish uchun berish mumkin.

Kunda predmet mohiyatiga, mazmuniga e'tibor bergan holda detallarni sxematik, tizimli holda ko'rishda nuqsoni bo'lgan, bolalar uchun mo'ljallanganda u tugal qismlarga ega bo'lishi kerak, barmoqlari bilan modelning bir tomoni emas, barcha tomonlari sezishga qodir bo'lishi lozim. Sog'lom bolalarga mo'ljallangan maket ularga predmet to'g'risidagi tasavvurni shakllantirishga yordam bersa, ko'zi ojizlar ta'lim jarayonidagi maketlar orqali sezgi idroklarini shakllantirishga yordam beradi, inshootlar qismi, metall, daraxt, toshdan yasalgan bo'lsa, suv, muz o'tli qoplamalar natural holatda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola idrok etishga asos bo'ladi. Shu sababli, modellar natural holat materiallardan tayyorlangan bo'lsa, maqsadga muvofiqdir.

Masalan, metall falga bilan qoplangan daraxtni, tosh ustkiqoplam xarakteriga ko'ra sement, albaster, chinni, melli qo'shimcha bilan, suvli

ustlikni sellofan paket bilan muzli talkani, prishipka, muykoni sun'iy muyka bilan almashtirib, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida qo'llash mumkin.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maket ob'yekti boshqa ob'yektlarga nisbatan, bolalarga tomonlari mukammal tasvirlangan bo'lishi kerak. Agar maketning ba'zi bir qiyomlarini hamma jihatdan tasvirlashning iloji bo'lmasa, uni hajmi bo'yicha yasab, maketga ilova qilish kerak.

Maketning ahamiyatga molik tomonlaridan biri uning hajmidir. Masshtab keng bo'lgan maketlar sog'lom bolalarga nisbatan ko'rishda nuqsoni bo'lganlar uchun qiyinchilik tug'diradi.

10.3. Ko'zi ojiz bolalarni o'qitish vositalari

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun Brayl tizimi bo'yicha xilma-xil adabiyotlar yaratilgan. Bular darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, badiiy, ilmiy-ommabop, musiqiy adabiyotlar. Brayl tizimi bo'yicha chiqarilgan hamma darsliklar relyefli rasmlar, chizmalar, sxemalar bilan bezatilgan.

Qoldiq ko'ruv saqlangan ko'zi ojizlar uchun relyefli va rangdor nashrli o'quv qo'llanmalari chiqarilgan. Ko'zi ojizlar uchun kattalashtirilgan shriftda va mos ranglarda bezatilgan maxsus darsliklar keng qo'llaniladi. Ko'zi ojizlar uchun ko'ruv va teri orqali sezishni hisobga olgan holda tasvirlarni tanlab, yaratish va rekonstruksiyalash uchun maxsus o'quv qo'llanmalar ishlab chiqarilgan (V.P. Yermakov).

Tiflotexnika tushunchasi o'z ichiga texnik moslamalar va usullarni nazariy asoslab berish bilan birga, ko'zi ojizlarning ko'ruv funksiyalarining buzilganligini hisobga olgan holda bu moslama va usullarning amaliyotda ishlatilishini ham o'z ichiga oladi. Tiflotexnika fani o'qishning material-texnik bazasini mukammallashtiradi va rivojlantiradi, ta'limning mazmuni va usullarini boyitadi, ko'ruv protsessi buzilgan bolalarni MTT da, umumta'lim maktablarida, oliy o'quv

yurtlarida o`qitishni rivojlantiradi va shuningdek, politexnik hamda ishlab chiqarish tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Ko`rish analizatorining buzilgan funksiyalarini kompensatsiyalash uchun yaratilgan tiflotexnik vositalar ishlanmasi asosida ko`ruv informatsiyasini signallarga aylantirish, signallar esa eshituv va teri orqali idrok etilishi yotadi (saqlanib qolgan analizatorlar orqali). Yorug`lik signallarini qabul qilish funksiyalarini va uni tovushga aylantirish vazifasini tifloasbob bajaradi.

Tiflotexnik vositalar yordamida to`laqonli ko`rmaslikni korreksiyalash to`laqonli bo`lmagan ko`ruv analizatorining normal ishlatilganligi oqibatida kelib chiqadigan shovqinlarga qaraganda foydali optik signaldan kelib chiqadigan tovushni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Bunga kuzatilayotgan ob`yekt tasvirini ko`z to`r pardasiga tushayotgan yorqinligini, kontrastligi va burchak o`lchamlarini kattalashtirish orqali erishiladi. Ko`ruv protsessi past bo`lib, odatdagi ametropiya korreksiyasi effekt bermaganda maxsus optik, televizion, yorug`lik texnikasi vositalaridan foydalaniladi.

Korreksiyaning boshqa optik vositalariga har xil turdagi lupalar (qo`lga olib yuriladigan, har xil tirgovuchlar va statsional holatdagi), ko`zoynaklar (mikroskop, teleskop, giperokulyarli), monokulyarlar va binokulyarlar, proyeksion kattalashtiruvchi asboblari kiradi. Hamma bu vositalar ko`ruv uchun yaqin yoki uzoq masofadan ishlatilishiga bog`liq. Lupalar bundan tashqari o`lchov asboblari shkalasining ustiga, stanok o`rniga o`rnatilishi mumkin. Ko`ruvi zaiflashganlarga unifokal yoki bifokal ko`zoynaklar chiqarilgan.

Ko`zi ojizlar uchun oltmish barobar kattalashtiradigan televizion uskunalardan foydalanish mumkin. Foydalanish xarakteriga qarab televizion uskunalar individual yoki kollektiv foydalanishga mo`ljallangan bo`ladi. Ko`zi ojizlarni o`qitishning frontal usullarini qo`llash imkonini beradigan maxsus yopiq televizion tizimlardan foydalaniladi.

Tevarak-atrofni ko`rishda nuqsoni bo`lgan shaxslarga (trubkasimon ko`ruv, gemianopsiya) ko`ruv maydonini yetarlicha o`zgartiradigan maxsus optik tizimlar qo`llaniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ko`rishida nuqsoni bo`lgan shaxslar uchun kompyuter texnologiyalarining bir qator na`munalari yaratilgan. Jumladan, Syscom, kompaniyasi JK-monitorlar ishlab chiqarish kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan kompyuterlarining monitorining yuqori qismida matn yozish uchun mo`ljallangan klavishlar, pastki qismida esa Brayl alifbosi qatori keltirilgan.

Ko`rishida nuqsoni bo`lgan bolalar kompyuterda matnlarni yozish, internetdan foydalanish, musiqa eshitish kabilardan foydalanish imkoniyatini beradi. Yuqori darajada yoritilganlikda ko`rishi pasayadiganlarga yorug`likdan himoyalaydigan korrektsiyali linza (rangli oynadan yoki qoplamali rangsiz oynadan yasalgan) yorug`lik texnik vosita sifatida foydalaniladi.


Ko`zi ojiz bolalar uchun har xil murakkablikda texnik uskunalar va moslamalar yaratilgan: ignaga ip o`tkazish uchun moslama, yordamchisiz harakatlanish uchun Brayl tizimi bo`yicha asboblari shular jumlasidandir. Ko`zi ojiz programmistlar uchun maxsus yozuv mashinkalari yaratilgan. Relyefli chizmalar va rasmlar uchun maxsus asboblari bor.

Gramplastinkalarga yozilgan ko`p nusxali so`zlovchi kitoblari, yozuvining magnitli lentalarda yozuvi hamda eshituv uchun maxsus uskunalar yaratilgan. Ko`rlari va ko`zi ojizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun maxsus trenajyorlar, tovushli nishonlar, tovushli mo`nlardan foydalaniladi. Mehnat va kasbiy o`qitish uchun, ishlab chiqarish korxonalaridagi o`rinlarida maxsus texnik moslamalar hamda texnik vositalari ko`rlari va ko`zi ojizlari uchun elektromexanik va radioelektron mahsulotlari tifiotexnik vositalari qatoriga kiradi.

10.4. Ko`r va zaif ko`ruvchi bolalar uchun foydalaniladigan texnik vositalar

Ko`zi ojiz va zaif ko`ruvchi bolalar uchun maxsus jihozlar							
Narsalarni tasavvur qilib qabul qilishni rivojlantirish va qo`lning mayda harakatlarini sezishni rivojlantirish xonasi uchun jihozlar							
478.	Sinf doskasi	Dona	1	1	1	1	
479.	O`quvchi stoli va stuli (1 dona stol, 1 dona stul)	to`plam	6	8	10	12	
480.	O`qituvchi stoli	Dona	1	1	1	1	
481.	Yarimyumshoq stul	Dona	1	1	1	1	
482.	Kitob javoni (ko`rgazmali qurollar uchun)	Dona	2	2	2	2	
483.	Relyefli rasm chizish asbobi	Dona	6	8	10	12	
484.	Lupa	Dona	6	8	10	12	
Sinf uchun uskunalar							
498.	Dazmol (taxtasi bilan)	Dona	1	1	1	1	
499.	Mozaika	to`plam	1	1	1	1	
500.	Tovushli koptoklar	Dona	3	4	5	6	
501.	Lupa	Dona	3	4	5	6	
Yozuv anjomlari va maxsus o`quv qo`llanmalari							
502.	Temir daftar	Dona	6	8	10	12	
503.	Grifel	Dona	6	8	10	12	
504.	Braylev lineykalari	Dona	3	4	5	6	
505.	Pazli	Dona	1	1	1	1	
506.	Braylev harf-kubiklari	to`plam	6	8	10	12	
507.	Azbuka-kolodka	Dona	6	8	10	12	
Maishiy tiflotexnika							
508.	So`zlovchi tanometr	Dona	1	1	1	1	
509.	Ignalar	Dona	1	1	1	1	
510.	O`lchov asbobi (tuz, muruch, shakar uchun)	Dona	3	3	3	3	
511.	Charxlash asbobi	Dona	1	1	1	1	

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus jihozlar							
Narsalarni tasavvur qilib qabul qilishni rivojlantirish va qo'lning mayda harakatlarini sezishni rivojlantirish xonasi uchun jihozlar							
512.	Hassa	Bolalar sonidan kelib chiqqan holda ajratiladi					
513.	Konserva ochqich	Dona	1	1	1	1	
514.	Baliq tozalagich	Dona	6	8	10	12	
515.	Sabzavot tozalagich	Dona	6	8	10	12	
516.	Suv tozalash filtri	Dona	1	1	1	1	
517.	Torozi	Dona	1	1	1	1	
518.	Metr	Dona	1	1	1	1	
Maishiy asboblari							
519.	Sartaroshlik anjomlari	to'plam	1	1	1	1	
520.	Temir yo'l elektron o'yinchog'i	Dona	1	1	1	1	
521.	Avtomobillarning o'yinchoq maketlari	to'plam	1	1	1	1	
522.	Chang yutgich	Dona	1	1	1	1	
523.	Pishiriqlar uchun shakllar va shpritslar	to'plam	1	1	1	1	
524.	Go'sht qiymalagich	Dona	1	1	1	1	
525.	Yopgich mashinkasi	Dona	1	1	1	1	
526.	Idish yuvish mashinasi	Dona	1	1	1	1	
527.	Kir yuvish mashinasi	Dona	1	1	1	1	
528.	Tog'ora	Dona	1	1	1	1	
529.	Oshxona kombayni	Dona	1	1	1	1	
530.	Turli pichoqlar to'plami	Dona	1	1	1	1	
531.	Oshxona buyumlari to'plami	to'plam	1	1	1	1	
532.	Blender	Dona	1	1	1	1	
Ko'zi ojizlar uchun o'yinlar							
533.	Ko'zi ojizlar uchun shashka	Dona	3	4	5	6	
534.	Ko'zi ojizlar uchun shaxmat	Dona	3	4	5	6	



Lupa-kattalashtiruvchi oyna muhim tarkibiy qismlardan iborat optik tizimdan tashkil topgan linzalarlardan iborat bo'ladi. U faqat bitta ob'ektlilik yoki bir nechta ob'yetlik bo'lishi mumkin.

Ushbu mahsulot yuqori sifatli vizual kattalashtirish va kichik o'lchamdagi narsalarni tekshirish uchun mo'ljallangan uskuna hisoblanadi. Lupa dizayni oddiy bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu asbob inson faoliyatining ko'plab sohalarida ajralmas bo'lib chiqishi haqiqatini inkor etmaydi. Bularga biologiya, tibbiyot, bank ishi va zargarlik kiradi.

Tajribali kriminologlar o'zlarining qiyin ishlarida ko'pincha kattalashtiruvchi oynadan foydalanadilar, bu yerda har bir kichik narsa muhim rol o'ynaydi. Yuqori sifatli kattalashtiruvchi oynadan foydalanish dolzarb bo'lgan barcha sohalarni sanab o'tish uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi. Kattalashtiruvchi oynaning ta'rifi bugungi kunda ko'pchilikka ma'lum. Ammo bugungi kunda hamma joyda qo'llaniladigan ushbu mashhur va keng tarqalgan qurilmaning tarixi qayerdan boshlanganini ko'pchilik bilmaydi. U ilk bor 1250-yilda yaratilgan bo'lib ushbu qurilmaning rivojlanishi Rojer Bekonning faoliyatiga to'g'ri keladi.

O'sha paytda u Oksford universitetida o'qituvchi edi. Rojer ko'zgular bilan juda ko'p turli xil tajribalarga ko'p vaqt sarfladi, bu nurlarning sinishi va aks etish tamoyillarini batafsil tushuntirishga imkon beradi. Uzoq o'tmishda Rojer Doktor Mirabilis (lotincha "ajoyib shifokor") nomi bilan mashhur edi.

Bekon qavariq linzalarning xususiyatlarini birinchi bo'lib aniqlagan bo'lsada, ming yillar davomida turli ob'ektlarni vizual kattalashtirish uchun optik qurilmalar ishlatilgan. Qadimgi Misr davrida kristallning shaffof qismlari ko'pincha kichik narsalarni aniq va batafsil ko'rish uchun ishlatilgan. Mashhur Rim imperatori Neron lupalardan foydalanishning

yana bir qiziqarli usulini ixtiro qildi: u uzoq sahnadagi aktyorlarni aniq ko`rish uchun qimmatbaho toshlardan foydalangan qurulmani yaratadi.

Qo`lda ushlab turiladigan kattalashtiruvchi oynaning standart modeli dizayni odatda quyidagi asosiy komponentlarni o`z ichiga oladi:

- kattalashtiruvchi oyna ya`ni linza;
- uni yaxshi ushlab turadigan kuchli ramka (ko`pincha bardoshli plastmassa, yog`och yoki metall dan yasalgan);
- o`rta uzunlikdagi tutqich.

Ushbu mahsulotlardan foydalanish imkon qadar sodda va tushunarli. Qo`lni past kattalashtiruvchi lupalar kichik ob`ektlarni vizual ravishda kattalashtirish uchun juda mos keladi. Ko`pincha bu qurilmalar nafaqat maishiy sharoitda, balki bir qator professional sohalarda ham qo`llaniladi. Ko`pgina hollarda, ular tasvirni 5 martadan ko`p bo`lmagan holatda kattalashtirishga moslashtirilgan.


АЛФАВИТ БРАЙЛЯ

А	Б	В	Г	Д	Е	Ё	Ж	З	И	Й
⠠	⠡	⠢	⠣	⠤	⠥	⠦	⠧	⠨	⠩	⠪
К	Л	М	Н	О	П	Р	С	Т	У	Ф
⠬	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ъ	Ы	Ь	Э	Ю	Я
⠬	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭	⠭

Brayl shrifti (frantsuzcha Brayl)-ko`zi ojiz va zaif ko`ruvchilar tomonidan yozish va o`qish uchun mo`ljallangan, ko`tarilgan nuqtali taktil shrift hisoblanadi. U 1824-yilda poyabzalchining o`g`li frantsuz

Lui Brayl tomonidan ishlab chiqilgan. Lui uch yoshida otasining ustaxonasida egar pichog`i bilan o`zini jarohatlaydi;

Ko`zning yallig`lanishi boshlanganligi sababli, bolaning ko`rish qobiliyati yo`qoladi. 15 yoshida Lui artilleriya kapitani Charlz Barbierning "tungi shrifti" ning soddaligidan ilhomlanib, Valentin Gauyning chiziqli relyef shriftiga muqobil sifatida o`zining nuqtali relyef



shriftini yaratdi. O`sha paytda harbiylar qorong`uda o`qilishi mumkin bo`lgan xabarlarni yozish uchun "tungi skript" dan

foydalangan. Brayl alifbosi birinchi ikkilik kodlangan yozuv tizimida edi.1960-yilda

Qo'shma Shtatlardagi maktab yoshidagi ko'zi ojiz bolalarning 50% Brayl alifbosini o'qiy olgan. Brayl yozuvi harflarni ifodalash uchun oltita nuqtadan foydalanadi. Nuqtalar ikki ustunda joylashgan. Yozish paytida nuqtalar teshiladi va siz faqat ko'tarilgan nuqtalardan o'qishingiz mumkinligi sababli, matnni varaqning orqa tomoniga "yozishingiz" kerak bo'ladi. Matn o'ngdan chapga yoziladi, so'ngra sahifa aylantiriladi va matn chapdan o'ngga o'qiladi.

O'quvchi uchun nuqtalar chapdan o'ngga ustunlar va yuqoridan pastgacha satrlarda raqamlangan. Teskari varaqda yozayotgan odam uchun raqamlash boshqacha ko'rinadi: 1 nuqta yuqori o'ng burchakda, uning ostida 2 nuqta va pastki chap burchakda 6 nuqta.

Ba'zi sovet tiflopedagoglari 1 va 3 bandlari almashtirilgan raqamlash tizimini ilgari surdilar. Bu tizim xalqaro standartlarga zid edi. Keyinchalik yana ikkita nuqta qo'shildi: 3-nuqta ostidagi 7-nuqta va 6-nuqta ostidagi 8-nuqta. Bu tizim kengaytirilgan brayl tizimi sifatida tanildi. Brayl shriftining o'lchovli xususiyatlari. Qavariq nuqta balandligi 0,5 mm bu nuqtani teginish orqali tanib olish uchun yetarli hisoblanadi. Nuqtaning diametri 1,2 mm. Nuqtalar orasidagi masofa 1,2 mm, belgilar orasidagi masofa 2,3 mm gorizontal va 3,8 mm vertikal.



Brayl alifbosida chop etish uchun ko'plab varaq formatlari mavjud bo'lib, ularning tarqalishi milliy bosma an'analarga qarab o'zgaradi. Rossiya va postsovet makonida an'anaviy bo'lgan Brayl alifbosidagi kitobning bir varag'i har biri 30 yoki 32 belgidan iborat bo'lgan 25 satrdan tashkil topgan bo'lib, umumiy o'lchami 23x31 sm bo'lgan.

An'anaviy (olti nuqtali) Brayl alifbosidan foydalanib, siz 26=64 xil belgi yozishingiz mumkin: 63 ta kodlovchi harf yoki belgilar va bitta bo'sh joy mavjud.



Elektron hasa ko'r odamlarning bemalol o'zlari yura olishiga yo'l ochib bermoqda. «WeWalk» nomli aqlli hasa odamlarni osilgan narsalar va to'siqlardan himoya qilish vositasi sifatida ultrasonik sensorlardan

foydalanadi, ya'ni ushbu qurilma tebranish orqali yaqin atrofdagi to'siqlar haqida o'z xo'jayinini ogohlantiradi.

Unga maxsus kamera o'rnatilgan bo'lib, kamerani oson boshqarish uchun smartfonning Bluetooth tizimi bilan bog'lash mumkin. U Voice Assistant va Google Maps dasturiy ta'minoti bilan birlashtirilganligi sababli, yaqin atrofdagi do'konlar va infratuzilma tafsilotlarini foydalanuvchiga yetkazish uchun dinamiklardan foydalanishi mumkin. «WeWalk» bosh direktori va mutaxasisi

Kursat Jeylanning aytishicha, u zamonaviy texnologiyalarni ko'zi ojizlar uchun vosita sifatida ishlatish istagidan kelib chiqqan holda hassani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan. «Ko'zi ojiz odam sifatida, men metro stansiyasida bo'lganimda, qaysi yo'ldan chiqishimni bilmayman... qaysi avtobus yaqinlashayotganini ham bilmayman... yoki atrofimdagi do'konlardan bexabar bo'laman. Bunday ma'lumotni esa ``WeWalk`` orqali olish mumkin».

Hozirda «WeWalk» 500 dollarga sotilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar hozirda bir-biriga raqobatni kuchaytirar ekan, ishlab chiqaruvchilar navigatsiya qobiliyatlarini yanada yaxshilash uchun uni haydovchilar va transport xizmatlari bilan birlashtirishga harakat qilishmoqda.



Ko`rish qobiliyati zaif odamlar uchun elektron ko`zoynaklar juda muhim hisoblanadi. Ko`zoynak taqish ko`rishni tuzatishning an`anaviy usuli sanalanadi. Biroq, bugungi kunda ular texnologiya rivojlanishi tufayli sezilarli darajada o`zgargan.

Demak, sozlanishi dioptri ko`zoynaklar eng so`nggi ishlanmadir. Ya`ni, endi odam linzaning optik quvvatini bir zumda sozlashi mumkin. Ushbu qurilmalar adaptiv ko`zoynaklar deb ataladi va ular har qanday odamning ko`rish keskinligini tuzatish uchun universal vositadir. Hozirda elektron ko`zoynaklar borligi haqida kam odam biladi. Ko`rish qobiliyati zaif odamlar ko`pincha turli xil muammolarga duch kelishadi.

Ulardan biri - odamning ko`zlari boshqacha ko`rganida sodir bo`ladi. Ushbu kamchilikni tuzatish uchun siz turli xil dioptrili ko`zoynaklardan foydalanishingiz mumkin. Va nihoyat, oxirgi holat - ko`rishning yomonlashishi, linzalarni kuchliroqlari bilan almashtirishni talab qiladi. Yuqoridagi barcha muammolar sozlanishi fokusli ko`p funktsiyali ko`zoynaklar tomonidan hal qilinishi mumkin, uning tizimi juda oddiy mexanizmdir.

Moslashuvchan ko`zoynaklar kuchli o`zgaruvchan xususiyatlarga ega bo`lib ulatrning eng muhim xususiyati - bir-biri bilan aloqa qiladigan bir juft kavisli linzalarning mavjudligidir. Har bir chekkada optik quvvatni sozlash uchun kichik g`ildirak biriktirilgan bo`lib, u tasvirni ko`zlar uchun alohida sozlash imkonini beradi. Agar siz g`ildirakni aylantirsangiz, linzalar harakatlanadi. Ushbu harakat dioptrini -6 dan +3 gacha o`zgartiradi. Natijada, adaptiv ko`zoynaklardan uzoqni ham, yaqinni ham ko`ra olmaslik qobiliyatiga ega odamlar foydalanishi mumkin.

Moslashuvchan ko'zoynaklarning boshqa versiyalari ham mavjud, ularda fokus elektr impulsi yordamida o'zgartiriladi. Dunyodagi birinchi elektron ko'zoynaklar an'anaviy optik linzalarga chek qo'yishni va'da qilmoqda. Ularni boshqalar bilan to'ldirish yoki o'zgartirish shart emas, chunki bu qurilmalar sizning ko'rishlaringizga avtomatik moslashadi.

Nazorat savollari

1. Tiflotexnika tarixi bo'yicha qanday ma'umotlarga ega bo'ldingiz?
2. Tiflotexnikaning asosiy maqsad va vazifalarini ayting?
3. Tiflotexnik vositalarni sanab bering?
4. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar uchun foydalaniladigan qanday texnik vositalarni bilasiz?

Mavzu: Kar (eshitmaydigan) va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus jihozlar va ulardan foydalanish

11.1. Muloqot qilish qobiliyati bilan bog'liq muammolar va ularning sabablari

Surdopedagogika (lotincha surdus kar va pedagogika) – defektologiyaning mustaqil tarmog'idir. Bu soha kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o'qitish va tarbiyalash masalalarini qamrab oladi. Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o'qitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, o'quv fanlarini o'qitish, talaffuzni o'rgatish va "lab bilan o'qish", mehnatga o'rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalarini targ'ib qilish kiradi. Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish

xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv-tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o'quv-tarbiya muassasalarini tashkil etish tartibini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o'rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og'zaki nutqni o'rgatish uchun so'zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko'rsatiladi. Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va so'zlarni ajratib olishga, ya'ni "labga qarab o'qishga" o'rganadi.⁴⁹


O'rganilgan adabiyotlardagi manbalarga ko'ra eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazining, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda karlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi ham mumkin.

Eshitish analizatoriga turli zaxarli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi nevrallarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi. Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning to'liq rivojlanib, kamol topishida va dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitish faoliyatidagi kamchiliklar darajasiga ko'ra quydagicha tavofutlanadi.

Bu toifadagi bolalarda eshitish qobiliyatining yo'qotilishi turlicha: total, yoki karlikka yaqin, yoki zaif eshitadigan bolalarda kuzatiladiganiga yaqin bo'ladi. Bolalarda ko'plab tovushlarni eshitmagani yoki buzuvchi holda eshitgani, ularga nima deyishganini tushunmaganligiga og'ir psixik reaksiya paydo bo'lishi mumkin.

Ba'zan bu bolaning har qanday muloqotdan to'liq bosh tortishiga, hatto psixik kasallikka olib keladi. Muammo bolani og'zaki nutqni qabul qilish va tushunishga o'rgatishdan iborat

⁴⁹ L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil



Koʻpincha eshitish patologiyasini keltirib chiqaradigan sabab va omillarning 3-guruhi farqlanadi.

1-guruhi nasliy xarakterga egaligi-bu kabi sabablar eshitish analizatori strukturasida buzilishlarga va nasliy karlikning rivojlanishiga olib keladi. Bolalarda karlikning nasliy omillari hissasiga barcha holatlarning 30% dan 50% igacha toʻgʻri keladi.

Nasliy karlik yoki zaif eshitish organizmdagi boshqa aʼzolar va tizimlardagi anomaliyalar (koʻrish aʼzolarining kasallanishi, suyak-mushak, asab tizimi, endokrin tizim patologiyasi) bilan birga kechishi mumkin. Nasliy karlik masalalari bilan shugʻullanadigan genetiklarning taʼkidlashicha, odam gametalarida eshitish oʻtkirlikiga taʼsir etadigan 50 tagacha turli genlar boʻlishi mumkin.

Ota-onalardan biri nasliy karlik bilan ogʻriganida kar yoki zaif eshituvchi bola tugʻilish ehtimoli keskin ortib ketadi. Ota-onalarning har ikkisida nasliy karlik kuzatilsa, eshitishida nuqsoni boʻlgan bola tugʻilishi ehtimoli 50% dan ortadi.

2-guruhiga homilaning eshitish aʼzolariga tugʻma karlikka olib keladigan endogen va ekdogen taʼsirlar kiritiladi. Homiladorlik paytida onaning boshdan kechirgan kasalliklari katta ahamiyat kasb etadi. Bu kabi kasalliklarga qizilcha, gripp, parotit kiradi. Homiladorlik paytida homila

va bo'lg'usi ona rezusiga mos kelmaydigan ototoksik dorilar iste'mol qilish ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolaning eshitishi rivojlanishida patologiya paydo bo'lishiga homilador ayolning alkogol, giyohvand vositalarini iste'mol qilishi, shuningdek, chang ko'p bo'lgan va boshqa kasbiy zararlar mavjud korxonalarda ishlashi ham ta'sir o'tkazadi.


3-guruh omillari rivojlanishning turli bosqichlarda sog'lom bolaning eshitish a'zosiga ta'sir etadi va orttirilgan zaif eshituvchanlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Afsuski, eshitish qobiliyatining yo'qolishi ko'pincha nutq apparati bilan bog'liq muammolar bilan birga keladi. Muloqot qilish qobiliyati bilan bog'liq muammolar, o'z navbatida boshqa odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Va ular eshitish halokatining muhim salbiy ko'rinishlaridan biriga aylanadi.

Ko'pgina odamlar ushbu kasallikdan nafaqat kattalar, balki bolalar ham aziyat chekmoqda. Muammo turli sabablarga ko'ra namoyon bo'ladi - quloq pardasi tuzilishidagi o'zgarishlardan tortib ichki quloq patologiyalarigacha.

Tibbiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, eshitish muammolari kam uchraydi. Turli darajada, dunyo aholisining 2% ulardan aziyat chekadi. Va eng ko'p tashxis qo'yiladigan darajaga sensorinoral eshitish qobiliyatini yo'qotishdir. Ko'pincha kasallik keksalarda aniqlanadi. Lekin shunday tashxis yoshlar orasida kam uchraydi (shu jumladan kasallikka irsiy moyillik paydo bo'lishi mumkinligi sababli).

Ushbu kasallikning boshqa nomlari - sezgi yoki sensorinoral eshitish qobiliyatining yo'qolishi bilan ko'zga tashlanadi. Bu kasallikning rivojlanishi jarayonida eshitish analizatorining tovushni qabul qilish bo'limi va uning ma'lum bir sohasiga ta'sir qiladi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:



Eshitish qobiliyatini yo'qotishning sensorinoral shakli ichki quloqning nerv hujayralari, eshitish nervi yoki asab tizimining markazi zararlanganda ham rivojlanadi. Kasallik xavflidir, chunki uning to'liq bo'lmagan, noto'g'ri davolanishi (yoki terapiyaning to'liq etishmasligi) to'liq karlikka olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, eshitishning bunday patologik holatiga qisqa vaqt ichida erishiladi. Xavfliligi shundaki, bu holda karlik qaytarilmas xususiyatga ega bo'ladi. Ikki tomonlama sensorinoral eshitish qobiliyatini 1 daraja yo'qotish tashxisi nimani anglatadi?

Kasallik, shunga ko'ra, qo'shimcha ravishda darajalarda farqlanadi:

1. Birinchi (yengil eshitish halokati). Bunday holatda bemor 1-3 metr masofadagi pichirlashni va taxminan 4 metr masofadagi odamlarning suhbatini ajrata oladi.

2. Ikkinchi (og'ir eshitish halokati). Ushbu patologik holat bilan odam suhbatni va shivirlashni faqat yaqin masofadan eshitishi mumkin.

3. Uchinchi. Bemor pichirlashni umuman eshitmaydi. Baland ovozli nutqni faqat 1 masofadan aniqlash mumkin.

4. To'rtinchi. Eshitish qobiliyatini yo'qotishning bu darajasi mutlaq karlik bilan taqqoslanadi. Bemor deyarli hech narsani eshitmaydi.

Nogironlikka kelsak, u har doim ikki tomonlama sensorinoral eshitish qobiliyatini yo'qotgan bemorga tashxis qo'yishda tayinlanadi. Shuningdek, bemor to'rtinchi darajali eshitish qobiliyatini yo'qotganda "nogiron" maqomini oladi. Bemor bolalarga kelsak, ularga nogironlik belgilanadi, agar kasallikning uchinchi yoki to'rtinchi darajasi aniqlangan

bo'lsa. Har qanday kasallik singari, sensorinoral eshitish qobiliyatini yo'qotish erta bosqichda aniqlansa, davolash osonroq bo'ladi.

Shuning uchun, uning alomatlarini o'z-o'zidan tashxislashda, KBBga tashrifni kechiktirmaslik juda muhimdir. Bu tekshiruv eshitish qobiliyatining 1 va 2 darajalari uchun eng samarali hisoblanadi. Agar bemor shifokorning ko'rsatmalariga diqqat bilan amal qilsa va kerakli dori-darmonlarni qabul qilsa, eshitish qobiliyatini tiklash ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Sensorinoral eshitish halokatida dori terapiyasi buyuriladi.


Shifokor ichki quloq sohasida ham, umuman miyada ham qon mikrosirkulyatsiyasini yaxshilaydigan dori-darmonlarni buyuradi. Dorilar qonning reologik tarkibiga foydali ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, eshitish organi to'qimalarida metabolizmni yaxshilaydi.

11.2. Muloqot qilish qobiliyati bilan bog'liq muammolar va ularning oldini olish

Ba'zi hollarda (eshitish qobiliyatini yo'qotish sababiga qarab) diuretiklar buyuriladi va gormonal vositalarni qo'llash tavsiya etiladi. Qo'llab-quvvatlovchi, yordamchi terapiya sifatida quyidagilar qo'llaniladi:

Agar kasallik e'tiborsiz qoldirilsa yoki, og'ir shaklda bo'lsa, yuqoridagi barcha usullar yetarli foyda bermaydi. Bemor doimiy ravishda eshitish apparati, implant kiyishni talab qiladi. Bugungi kunda Siemens eshitish asboblari bu kaslikda eng ko'p foydalaniladigan sifat va mashhurlik bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

Eshitish qobiliyatini yo'qotishdan aziyat chekadiganlar ularning sifati, ishonchliligi, foydalanish qulayligini qayd etadilar. Lekin Rossiyadagi nemis ishlab chiqaruvchisi qurilmalari nisbatan uning boholanishiga etiroz bildirgan. Ikki tomonlama sensorinoral eshitish halokatini muvaffaqiyatli davolash mumkinmi? Mutaxassislar buni stomatologik terapiya bilan solishtirishadi.



Agar ikki quloqdagi kasallik haqida gapiradigan bo'lsak, unda to'liq davolanish imkoniyati yanada pastroq bo'ladi.

Ikki tomonlama sensorinoral eshitish halokati bilan kasallikning o'tkazuvchan shaklidan farqli o'laroq, konservativ terapiyani muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Xususan, bu shifokor tomonidan tayinlangan dori-darmonlarni qo'llash, elektr stimulyatsiyasini qo'llash, fizioterapiya usullarini qo'llashdan iborat bo'ladi.

Ammo shuni tushunish kerakki, yuqoridagi barcha davolash usullari faqat kasallikni aniqlashning dastlabki bosqichida samara beradi. Eshitish tashxisi paytida ikkita quloq shikastlangan yoki og'ir darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotish aniqlangan bo'lsa bu kasallikni davlash usullarini alohida ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Shuning uchun kasallikni o'z vaqtida aniqlash uchun sensorinoral eshitish qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq belgilarini bilish muhimdir. Eslatib o'tamiz, ularning asosiylari doimiy tinnitus, sababsiz bosh aylanishi, vestibulyar apparatlar bilan bog'liq muammolar. Haqiqatan ham, eshitish qobiliyatini qisman yo'qotish bilan uni qayta tiklash, eshitish qobiliyatini yo'qotishni davolash mumkin. Har qanday kasallik bilan

bog'liq profilaktika chora-tadbirlarining belgilovchi tarkibiy qismi bu o'z sog'lig'iga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishdir. Yomon odatlardan voz kechish, faol turmush tarzi, muvozanatli ovqatlanish, doimiy stressdan himoya qilish, jismoniy faoliyatni nazorat qilish eng ommapob usullar sirasiga kiradi.

Eshitish qobiliyatini yo'qotishning oldini olishga kelsak, bu erda biz umumiy yuqumli kasalliklarni, eshitish apparatiga ta'sir qiluvchi patologiyalarni o'z vaqtida davolashni ta'kidlashimiz mumkin. Agar shovqinli muhitda ishlasangiz, quloqqa tiqinlar taqishni unutmang. Uyda musiqa tinglashga, televizor tomosha qilishga, o'rtacha ovoz balandligida naushniklardan foydalanishga harakat qiling.

Eshitish qobiliyatining buzilishi bilan bog'liq deyarli barcha kasalliklar dunyo aholisining taxminan 7% ga ta'sir qiladi. Eshitish qobiliyatini yo'qotishning eng keng tarqalgan sababi - otit mediasidir. Otitdan keyin eshitishni tiklash, boshqa kasalliklardan farqli o'laroq, konservativ emas, balki muqobil terapiyaga bog'liq. Ushbu kasallikning sababi ham hipotermiya yoki doimiy sovuq havo oqimi bo'lishi mumkin

Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sensorinoral eshitish qobiliyatini yo'qotish kabi muammo juda keng tarqalgan. Ushbu kasallik asta-sekin eshitish halokati bilan bog'liq holatlarni keltirib chiqarishi bilan haflidir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda shunga o'xshash tashxisga ega bemorlarning soni sezilarli darajada oshmoqda. Shuning uchun kasallikning asosiy sabablari va belgilari haqida ma'lumot ko'plab o'quvchilar uchun foydali bo'ladi.

Eshitish organlari tomonidan o'z funktsiyalarini yo'qotish endogen va ekzogen omillar ta'sirida rivojlanishi mumkin. Biroq, oxir-oqibat, bunday jarayon eshitish idrokining buzilishiga olib keladi, odam nutqni eshita olmaydi va ajrata olmaydi. Eshitish qobiliyatining buzilishi aloqa jarayoniga to'sqinlik qiladi va insonning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Hozirgi vaqtda tibbiyotda eshitish buzilishining genetik sabablari bilan qo'zg'atilgan yoki orttirilgan turli shakllari mashhur. Eshitish qobiliyatiga juda ko'p omillar ijobiy va salbiy ta'sir qiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi

Eshitishning turli xil buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skarlatina, otit, gripp kasalliklarini infeksiyon-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish darajasining buzilishlari ichki, o'rta, tashqi quloqlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta quloq shikastlangan bo'lsa eshitish pasayishi kuzatiladi.

Maktabgacha yosh davrida ovoz darajalarining yuqori chastotasi ham, eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyati pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishiga homiladorlikning noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklariga chalingani ham muhim rol o'ynaydi (qizamiq, gripp). Eshitish darajasining buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirlarining akustik ta'siri bo'lishi mumkin. Eshitishning darajasining buzilishi o'rta quloqning o'tkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollash) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar odamning chaqaloqlik davriga jiddiy xavf soladi. Eshitish darajasining pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ototopsik preparatlar asosan antibiotiklar muhim o'ringa egadir. Eshitish darajasining buzilishlari yuzaga kelishida kasbiy omillar ham katta ahamiyatga ega.

Karlar oilasida eshituvchilar oilasiga qaraganda ko'p miqdorda kar bola tug'iladi. Shuningdek, yaqin qarindoshlar nikohida va er-xotin yoshi o'rtasida katta farq ham eshitish darajasining buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Aroqxo'r ota-onalar, kensok kasalligi, turli xromasomali kasalligi mavjud oilalar (uchuvchi va suvga sho'ng'uvchilar) da ham eshitishida nuqsoni mavjud bolalar tug'ilishi kuzatiladi.


Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlarini to'g'ri tushunish uchun ularga o'z vaqtida tashxis qo'yish, ta'lim-tarbiya muassasasini tanlash, bu jarayonni tashkil etishda bu bolalarning tasnifi muhim o'rin tutadi. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlariga xos bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar atrof-muhit bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi, ularda shaxs va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Turli buzilish, nuqsonlarga ega bolalarning ruhiy rivojlanishi tahlilini L.V. Vigotskiy ta'rifi bilan aytganda 5 nuqson strukturasidan tuzilgan tahlildan kelib chiqadi. Birlamchi nuqson bu o'rinda - eshitishning buzilishi ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarga olib keladi.

Ikkilamchi buzilishlar turli sabablarga ko'ra chaqaloqlik, maktabgacha bo'lgan davrda o'xshash holatda namoyon bo'ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega hisoblanadi, funksional o'zaro munosabatlar strukturasini o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkablashadi.

Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning talaffuzida nuqsoni bo'ladi bu holat eshitishning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir. Nutqning boshqa jihatlarini rivojlantirish hali eshitish buzilishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash birmuncha yengil kechadi. Ikkilamchi nuqsonlar eshitish buzilishidagi psixologopedagogik korreksiyaning asosiy ob'yekti hisoblanadi.

Bolaning ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalash lozimligi bilan dalillandi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy buzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsoni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi bilan bo'g'liq bo'lib u maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'z yechimini topadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasniflash tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Jumladan, birinchi tasniflash XVI asrlarga to'g'ri keladi. Undan Italiya olimi D. Kardano 3 guruh karlarni ajratgan, karlikni vujudga kelish vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan holda uni quydagicha tasniflagan:




XVIII asr fransuz pedagogi R.A. Sikar eshitish nuqsoni har xil bo'lgan bolalarni turli guruhlariga bo'lishni va ularni alohida holda o'qitishni taklif qilgan. XIX asrning birinchi yarmida rus surdopedagogi V.I. Fieri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchilarni alohida holda o'qitishni taklif qilgan.⁵⁰ Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J. Itar besh guruh karlarni, ularning tovushlari va nutqlarning eshitishiga qarab ajratgan quydagilarga ajratgan:

- 1) yuqori nutq va tovushlarni quloqning yaqinidan eshituvchilar;
- 2) unli va undoshlilarni ajratuvchilar;
- 3) ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- 4) nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshitadiganlar;

⁵⁰ L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil


5) umuman eshitishida nuqsoni bo'lganlar.

Kar va zaif eshituvchi bolalar tasnifi-shitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bir necha tasnifi mavjud. Eshitish buzilishi quyidagicha tasniflanadi:



1. Eshitish funksiyasining buzilganlik darajasini aniqlash uchun L.V. Neyman kar va zaif eshituvchi bolalarni tonal audiometriya va nutq yordamida tekshirgan.

2. 1988-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar natejasiga ko'ra Xalqaro tasnif ishlab chiqildi. Xalqaro tasnifga ko'ra 4 ta daraja farqlanadi.




3. R.M. Boskisning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi (XX asrning 50-yillari) quyidagicha deb ko'rsatiladi. Bu tasnif eshitish va nutqning o'zaro ta'sirini psixologik o'rganish asosiga qurilgan. Tasnifning nazariy asosini eshitish analizatorida buzilishlar bo'lgan bola rivojlanishining o'ziga xosligini belgilaydigan qoidalar asosida aniqlanadi.

1. Bolaning eshitish analizatorining buzilish holatini kattalardagi shu kabi nuqsondan kelib chiqqan holda baholash zarur.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishini to'g'ri baholash uchun bolaning nutqni mustaqil egallash imkoniyatini hisobga olish muhim.

3. R.M. Boskis bolada eshitishning yetarli emasligini eshitishning shu kabi buzilishida nutqning rivojlanganlik darajasi nuqtayi nazaridan baholaydi.

R.M. Boskis tomonidan ishlab chiqilgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi eshitish analizatori funksiyasida og'ishlar bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga oladigan mezonlar asosida ishlab chiqilgan. R.M. Boskis eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 2 asosiy guruhini ajratadi: karlar va zaif eshituvchilar.



Nutqiy rivojlanishga bog'liq ravishda zaif eshituvchi bolalarning 2 guruhi farqlanadi:

- kichik nuqsonlarga ega bo'lganlar (tovush talaffuzi buzilishlari, nutqning grammatik qurilishidagi buzilishlar) ega bo'lgan, nisbatan rivojlangan nutqni egallagan bolalar;

- nutqiy funksiya rivojlanishida jiddiy kamchiliklar bo'lgan bolalar (jumlar qisqa, noto'g'ri qurilgan, ayrim so'zlar juda qo'pol tarzda buzilgan va boshqa.) bo'lgan bolalar.

Kar bolalarni ham nuqsonning yuzaga kelish vaqtiga nisbatan 2 guruhga bo'lish mumkin.

- eshitishni hayotining 1- va 2-yilida yo'qotgan yoki kar tug'ilgan bolalar;

- keyin kar bo'lib qolgan bolalar, ya'ni eshitishni 3 - 4 yoshida yoki undan keyin yo'qotgan, karlik ancha keyin yuzaga kelganligi sababli nutqni saqlab qolgan bolalar.

Bunday toifaga kiruvchi bolalar uchun shaxsiy darslar ham tashkil etilishi maqsadga muvofiq, buning uchun xonalar tuzatish ishlariga moslashgan statsionar bilan jihozlangan bo'lishi kerak va qo'shimcha shaxsiy jihozlar tebranish moslamasi bilan jihozlangan, vizual qurilmalar va maxsus kompyuter dasturlari, kompyuter dasturlari eshitish idrokini rivojlantirish uchun moslashtirilgan bo'lib, bolalarning kamchiliklarini yo'qotishga qaratilganligi bilan muhimdir. Musiqa va ritm darslari uchun xonalar eshitish darajasini, idrokini rivojlantirish va nutq texnikasi rivojlantirish uchun maxsus jihozlangan bo'lishi lozim.

11.3. Kar (eshitmaydigan) va zaif eshituvchi bolalar maxsus uchun jihozlar

Korreksiya xonalari uchun jihozlar							
Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bolalar maxsus uchun jihozlar							
Ritmika xonasi uchun jihozlar							
416.	Gimnastik gardish	Dona	3	4	5	6	
417.	Pianino	Dona	1	1	1	1	
418.	Bolalar stuli	Dona	6	8	10	12	
419.	O'qituvchi stoli	Dona	1	1	1	1	
420.	Yarimyumshoq stul	Dona	1	1	1	1	
421.	Kitob javoni (ko'rgazmali qurollar uchun)	Dona	2	2	2	2	
422.	Televizor uchun tumba (podstavka)	Dona	1	1	1	1	
423.	Televizor	Dona	1	1	1	1	
424.	Ovoz kuchaytirgich	to'plam	1	1	1	1	
425.	Gimnastika o'tirgich	Dona	2	2	2	2	
426.	To'plar	Dona	3	4	5	6	
427.	Gimnastik tayoqlar	Dona	2	2	2	2	

Korreksiya xonalari uchun jihozlar							
Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bolalar maxsus uchun jihozlar							
Ritmika xonasi uchun jihozlar							
428.	Devoriy ko'zgu	m ²	Xona o'lchamidan kelib chiqqan holda ajratiladi				
429.	Sinf doskasi	Dona	1	1	1	1	
430.	O'quvchi stoli va stuli (1 dona stol, 2 dona stul)	to'plam	1	1	2	2	
431.	O'qituvchi stoli	Dona	1	1	1	1	
432.	Yarimyumshoq stul	Dona	1	1	1	1	
433.	Kitob javoni (ko'rgazmali qurollar uchun)	Dona	2	2	2	2	
434.	Ovoz kuchaytirgich statsionar	to'plam	1	1	1	1	
435.	Kompyuter texnikasi	Dona	1	1	1	1	
436.	Logoped zondi	Dona	1	1	1	1	
437.	Devoriy ko'zgu	Dona	1	1	1	1	



Piano (italyancha *pianino*, soʻzma-soʻz: kichik piano) kichik xonalarda yopiq xonalarda musiqa ijro etish uchun maxsus yaratilgan, zarbli (bolgʻa) tovush chiqarish usuliga ega, klaviaturali torli cholgʻu asbobi. Tik pianino - bu pianinoning kichikroq versiyasi boʻlib, unda torlar, ovoz borti va harakatlar gorizontaal emas, balki vertikal ravishda joylashtirilgan, natijada pianino royalga qaraganda kamroq joy egallaydi.

Pianinoning peshqadamlari klavesinlar va keyinchalik ixtiro qilingan klavikordlar edi. Ularning kamchiliklari legato oʻynashga xalaqit beradigan tez parchalanadigan tovush va musiqaning muhim ekspressiv

vositalaridan biri - dinamikani (tovush o'zgarishini) istisno qiladigan doimiy ovoz balandligi edi.

Zamonaviy pianino mexanikasi italiyalik usta Bartolomeo Kristofori Franchesko tomonidan taxminan 1709-yilda ixtiro qilingan, uning dizaynida bolg'alar torlar ostida joylashgan edi. Dizayn gravikembalo kol piano e forte deb nomlangan, shuning uchun asbobning zamonaviy nomi. Xuddi shunday tizimlar Frantsiyada Marius 1716-yil va Germaniyada Shryoter tomonidan 1717-1721 yillarda ishlab chiqilgan. Erard ikki marta mashq qilish mexanikasini ixtiro qildi, bu esa tugmachani tez bosish orqali ovoz chiqarish imkonini berdi.



Ovozni qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan ko'pgina tizimlar ovoz kuchaytirgich deb nomlangan maxsus aksessuarga ega. Uning yordami bilan ovoz juda baland, begona elektromagnit aralashuvlarsiz va har xil buzilishlarsiz uzatiladi. Kuchaytirgichlar dizayni jihatidan

bir-biridan farq qiladi, shuningdek, boshqa audio uskunalalar bilan sinxronlash va qo'llash sohalariga ega.

Ovoz kuchaytirgich har qanday qurilmaning tizimiga o'rnatilishi yoki o'z boshqaruv paneli bo'lgan alohida mustaqil qurilma bo'lishi mumkin. Maishiy kuchaytirgichning vazifasi tovushga qo'shimcha kuch qo'shish, tovush signalini oddiy odamning qulog'i eshitadigan diapazon ko'rsatkichlariga yetkazish, ya'ni 15-23 dB gacha yetkazish hisoblanadi. Ovoz uzatishning bunday o'sishi, yoshi bilan odamning eshitish sezuvchanligi pasayishi va yetuk yoshdagi odamlar tovushlarni 16-18 dB dan yuqori bo'lmagan chastotada qabul qilishlari bilan asoslanadi. Sanoatda ovoz kuchaytirgichlar ham muhim va keng qo'llaniladi.

Ular bino va inshootlarda, ishlab chiqarish ustaxonalarida, ochiq maydonlarda, shuningdek yirik savdo yoki ko'ngilochar markazlarda

axborot bildirishnomalari uchun ishlatiladi. Bunday qurilmalardan foydalanishning maqsadi - katta hududlarda bo'lgan barcha tinglovchilarga ma'lumotni maksimal darajada yetkazishdir.



Eshitish apparatlari -tovushni kuchaytirib beradigan asbobdir. Eshitish pasayganda, karlikda ishlatiladi. Hozirgi zamon eshitish apparatlari tovushni kuchaytirib berishga asoslangan. Eshitish apparatlari mikrofon, tovush kuchaytirgich va telefondan iborat.

Tovushni bevosita suyak orqali o'tkazib berish uchun quloq orqasiga telefon yoki tovushni havo orqali o'tkazib berish uchun tashqi eshituv yo'liga maxsus moslama tiqib qo'yiladi. Eshituv a'zosining tovush qabul qiluvchi yoki tovushni o'tkazib beruvchi qismi zararlanganiga qarab, unga loyiq eshitish apparatlari buyuriladi. Eshitish apparatlarining ko'zoynakka o'xshash, shuningdek, cho'ntakda turadigan xillari bor. Eshitish apparatlaridan foydalanganda ko'pincha eshitish jarayoni bilan birga nutq ham bir qadar yaxshilanadi.

Bu apparat nutqnigina emas, balki binodagi boshqa tovushlarni ham qo'shib kuchaytiradi. Shuning uchun qulog'i og'ir bemor o'zi uchun yangi bo'lib tuyulgan tovush sharoitiga birdaniga ko'nika olmaydi. Eshitish apparatlariga o'rgangan kishi nutqni begona tovushlardan ajratib, yaxshi qabul qiladi, baland tovushlarga chidami ortadi.

Bemorga tavsiya etilgan bir nechta mashqlarni bajarganidan keyingina eshitish apparatlaridan foydalanishi mumkin. Mashq avval tinch xonada yolg'iz bir kishi bilan, keyin shovqinli yerda, so'ngra esa ko'pchilik orasida gaplashib o'tkaziladi. Eshitish apparatlari texnik jihatdan nosoz bo'lib, nutqqa begona shovqinlar qo'shib ketsa yoki qitirlasa, bunda bemor tez toliqadi, qulog'i shang'illaydi, boshi og'riydi. Eshitish apparatlarni otorinolaringolog (LOR) vrach tavsiyasi bilan maxsus eshituv protezi asosida tayyorlash tavsiya etiladi.



Nutq terapiyasi problari - bu nutq apparati mushaklariga mexanik ta'sir qilish uchun ishlatiladigan simli asboblarning jamlanmasidir. Bularga, birinchi navbatda, til va lablar mushaklari, shuningdek, yonoq va yumshoq tanglay kiradi. Problar yordamida

nutqni tuzatish butunlay mahalliy ixtirodir.

Amalda bir necha turdagi vositalar qo'llaniladi. Tovushlarni ishlab chiqarish uchun zondlardan birinchi bo'lib rus va sovet defektologi F. A. Rau foydalangan. Gap shundaki, bir necha darsdan so'ng bolaning o'zi, nutq terapevti yordamisiz, tovushni talaffuz qilishda tilini to'g'ri holatga keltira olishga erishishi mumkin.



Nutq terapiyasi massaji oddiyroq usullar bilan tovushlarning noto'g'ri talaffuzini tuzata olmaydigan hollarda amalga oshiriladi. Zondlar yordamida massaj tizimining birinchi muallifi taniqli nutq terapevti Elena Novikova hisoblanadi.

Novikovaning fikriga ko'ra massaj uchun bir nechta ko'rsatkichlar mavjud: rinolaliya; dizartriya; dyslalia duduqlanish; motor alaliyasi; tuprikning ko'payishi (gipersalivatsiya); chaynash va yutish jarayoni buzilganda qo'llaniladi. Nutq apparatini faollashtirish, yuz mushaklarining ohangini oshirish yoki kamaytirish, tilning harakat doirasini oshirish uchun nutq terapiyasi massaji kerak bo'ladi.

Shu tarzda tuzatish, birinchi navbatda, nutq rivojlanishi kechikkan bolalarni gapirishga undash uchun zarurdir. Bolalar serebral falajlanishida dizartriyaning o'ziga xosligi artikulyatsion dispraksiyaning namoyon bo'lishi hisoblanadi, bu esa maqsadli harakatlarni amalga oshirishni

qiyinlashtiradi va tovushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlarni yanada og‘irlashtiradi.

Bolalar serebral falajida logopedik ishlarning asosiy vazifasi artikulyatsion holat va harakatlarni his etishni rivojlantirish, artikulyatsion dispraksisni oldini olish sanaladi. Artikulyatsion harakatlarni his etishni yaxshilash uchun qarshilik ko‘rsatish mashqi, ko‘zgu yordamida ko‘rib nazorat qilish mashq va yopiq ko‘zlar bilan nazorat qilish mashqlarini almashtirib bajarish ishlari qo‘llaniladi.

Bolalar serebral falajida nutqiy buzilishlarni iloji boricha erta aniqlash va korreksion-logopedik ishlarni o‘z vaqtida boshlash juda muhim hisoblanadi. Logopedik tekshirish vaqtida bolaning artikulyatsion, nafas va ovoz apparatlarining holatini va ishlash vaqtidagi hamkorligi darajasini aniqlab olish zarurdir. Buning uchun esa quyidagilarga: yuz muskullarining tonusiga; majburiy va keskin harakatlar, tonus o‘zgarishining mavjudligiga; harakatlarning hajmiga; og‘izning avtomatlashgan harakatlarining mavjudligi yoki mavjud emasligiga; logopedning barmog‘i yordamida og‘iz va og‘iz atrofi sohalarini stimullashga – jalb qilish jarayoniga javob reaksiyasining mavjudligiga e’tibor qaratish lozim.

Og‘iz mushaklari tonusi holatini tekshirib ko‘rish muhimdir: jag‘larning harakatsiz va harakat vaqtidagi holatini; lablarning harakatchanligi, tonusi va o‘zaro simmetriyasini; til muskullari tonusi, alohida harakatlarni bajara olishi, bir harakatdan boshqasiga o‘ta olishini; qattiq va yumshoq tanglay mushaklarini; nafas ritmi va hajmi, nafas va nutq, nafas olish va nafas chiqarish orasidagi koordinatsiyani (ovoz reaksiyalarini), bolaning nafas olishi tana yoki bosh harakatlari bilan birgalikda kuzatilishini tekshirish muhim hisoblanadi.

Bolaning ichki va tashqi nutqini, uning balandligi va kuchini, tovushlarni talaffuz qilishini, fonematik idrokini, nutqning leksikogrammatik tomonlarini aniqlab olish kerak bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Muloqot qilish qobiliyati bilan bo'g'liq muammolar va ularning sabablari haqida gapiring?
2. Muloqot qilish qobiliyati bilan bo'g'liq muammolar va ularning oldini olish choralari haqida gapiring?
3. Kar (eshitmaydigan) va zaif eshituvchi bolalar maxsus uchun jihozlarni sanang?

Mavzu: Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlar va ularning afzalliklari

12.1. Tayanch harakat apparatida nuqsoniga olib keluvchi sabablar va uning oqibatlari

Ortopediya so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib parvarish qilish ma'nosini anglatuvchi tibbiyotning mustaqil bir sohasi. Tug'ma nuqsonlar, shikastlar va turli kasalliklar oqibatida tayanch harakat a'zolari shakli va funksiyasining buzilishini aniqlash, davolash va oldini olish yo'llarini o'rganadi.⁵¹ Hozirgi ortopediya faniga fransuz vrachi N. Andri 1658-1742 yillarda asos solgan.

Ortopediya sohasi uzoq tarixga ega va umurtqa pog'onasining qiyshayishi, maymoqlik, son suyagining bo'ksa bo'g'imidagi chiqishlar, singan va chiqqan suyaklarni solish va to'g'rilash usullari jamlanmasi. Gippokrat asarlaridayoq bu sohava uning ahamiyati haqidagi fikrlar mufassal bayon etilgan edi.

Qadimgi zamon vrachlari Asklepiy, Galen va boshqa ham ortopediyaga ko'pgina yangilik kiritdilar.

⁵¹ L. Mo'minova, D. Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil

O'sha davrda taklif qilingan "lordoz" (umurtqa pog'onasining oldinga qiyshayishi), "kifoz" (orqaga qiyshayishi), "skolioz" (yonboshga qiyshayishi) kabi terminlarni o'z mazmuniga qamrab oladi. Ortopediyada shu kunga qadar o'z mohiyatini saqlab qoldi. O'rta Osiyo olimlaridan Abu Ali ibn Sino, Abdulqosim Abdurahmon va boshqa o'z asarlarida silash usullarini tasvirladilar va singan qo'l yoki oyoqqa gips bog'lov qo'yishni amalda tatbiq etdilar. Fransuz xirurgi A. Pare esa qo'l yoki oyoq suyaklarining sinishi, chiqishi, umurtqa pog'onasining qiyshayishi, tug'ma maymoqlik va boshqalarning kelib chiqish sabablarini tasvirladi, turli davo usullarini taklif etdi.

XVIII asr oxirlarida maxsus ortopedik davolash muassasalari tashkil topdi. Singan qo'l-oyoq suyagini davolashda Yevropada birinchi marta gips qo'llanila boshladi. Ortopediyada konservativ davo usullaridan redressatsiya, singan qo'l-oyoqni cho'zish, gips bog'lov qo'yish, silash, davo mashqlari va boshqalardan ham keng foydalaniladi.

Antiseptika, aseptika, narkoz, keyinchalik rentgenografiyaimt rivojlanishi bilan Ortopediyada osteotomiya, osteosintez, artroplastika, muskul paylarini ko'chirib o'tqazish kabi operativ metodlar ham qo'llaniladi. 1806-yilda rus xirurgi Ye. O. Muxin harakat a'zolari xirurgiyasini tasvirlab berdi. N. I. Pirogov Ortopediya sohasida ilmiy asarlar, N. Ellinskiy desmurgiya to'g'risida qo'llanma, N.I. Studenskiy "Ortopediya kursi"ni yaratdi va h. k. Rus vrachi I.V. Rklitskiy birinchi bor suyakni pardasi ostidan arralab operatsiya qildi. Bu davrda son va tizza protezlari takomillashtirildi. XIX asr oxirida V.I. Kuzmin singan va bitmagan suyaklarni nikel shtiftlar bilan biriktirish usulini amalda tatbiq etdi. 1900-yilda Peterburg Harbiy-tibbiyot akademiyasida birinchi Ortopediya kafedrası va klinikasi tashkil etilib, 1906-yilda mustaqil institutga aylantirildi.

O'zbekistonda bu soha XIX asrning 20-yillarda rivojlana boshladi. 1926-yilda O'rta Osiyo universitetining tibbiyot fakultetida suyak sili va ortopediya dotsentlik kursi joriy etilishi, 1930-yilda fizioterapiya institutida Ortopediya klinikasi ochilishi, uning 1931-yilda Ortopediya,

travmatologiya va suyak sili ilmiy tadqiqot institutiga aylantirilishi travmatologiya va ortopediya muammolari ustidagi tadqiqot ishlarining rivojlanishiga imkon berdi. 1940-yil institut faoliyati ma'lum bir sabablarga ko'ra tugatildi lekin uning klinikasi Toshkent tibbiyot instituti tarkibida o'z faoliyatini davom ettirish uchun ko'chirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda ko'plab gospitallar ochildi, yaradorlarni davolash, ularni hayotga, mehnatga qaytarish yo'lida respublikamiz mutaxassislari professor Ortopediya Sh. Shokirov, professor N.M. Shomatov va boshqa katta tajriba orttirdilar. Bu O'zbekistonda suyak jarroxligi va protezlash sohalarining rivojlanishiga asos bo'ldi. Urushdan keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari tobora chuqurlashtirib borildi.


O'zbek olimlari tomonidan jarohatlarni davolashda suyak plastikasi qilish N.M. Shomatov, sharq tabobati usullarini qo'llash O. Sh. Shokirov ustida chuqur ilmiy ishlar olib borildi. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston uchun juda muhim muammo - bolalarda tug'ma majruxliklarning oldini olish va davolash masalasiga katta e'tibor berildi. N.M. Shomatov boshchiligidagi olimlarning harakatlari natijasida O'zbekistonda bolalar ortopediyasi xizmati tashkil topdi.

XIX asrning 70-80-yillarda O'zbekistonda o'lka patologiyasi deb hisoblanadigan keng tarqalgan ortopedik kasalliklarni davolash ustida ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Qo'l-oyoqlarning kuyishdan keyingi shakl o'zgarishlarini teri plastikasi yordamida davolash usullari K.X. Tagirov, B.M. Mirazimov, R.F. Bashkinova, S.M. Mannonovlarning ishlarida bolalar serebral falajini B.V. Shavarin suyak sinishini O'. S. Islombekov osteomiyelit kasalligini Sh.Sh. Hamroyev, Sh.B. Turg'unov davolash bo'yicha qilingan ilmiy ishlar mamlakatda travmatologiya va ortopediya fanining rivojlanishida katta rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasida ortopedik kasalliklarni Ilizarov usulida davolash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar professor B.M. Mirazimov nomi bilan bog'liqdir.

Hozir Kaunas masalalari bilan travmatologiya va ortopediya ilmiy tadqiqot instituti, shuningdek, barcha tibbiyot institutlaridagi ortopediya va travmatologiya kafedralari shug‘ullanmoqda.

Ma’lumki odam tanasining 1,5-1,7 qismi suyaklardan iborat bo’ladi va suyaklar yig’indisiga skelet deyiladi. Skelet so’zi grekcha “skeleton” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “quritilgan” degan ma’noni anglatadi. Skelet tushunchasiga bunday ma’noning berilishiga sabab shundaki, qadimgi davrda skelet quyoshdan keladigan nur ya’ni oftob ta’sirida yoki qumning issiqligidan foydalanib tayyorlangan shaklga nisbatan aytilgan. Odam skelet tarkibiga 200 dan ortiq suyaklar kirib, ulardan 33-34 tasi toqsonda bo’ladi. Skelet shartli ravishda 2 qismga ajratiladi (uq skeleti va qo’shimcha skelet) ga ajratiladi.



Skelet suyaklari organizmda bir qancha asosiy funksiyalarni bajaradi va bu funksiyalardan asosiylari quydagilar sanaladi

Himoya vazifasi - suyaklar yig’indisi odamlarda, hamma umurtqali hayvonlarda organizmni sirtidan joylashib, tashqi skeletni hosil qiladi va atrofdagi muhitda bo’ladigan turli-tuman tasirlardan saqlaydi. Ayrim suyaklar organizmda turli bo’shliqlar hosil qilib, bu bo’shliqlar ichida joylashgan a’zolari tashqi muhitdan himoyalagan bo’ladi.

Masalan, umurtqa kanalida orqa miya joylashgan, kalla skeleti ichida - bosh miya, ko'krak qafasida yurak, o'pkalar, qizilo'ngach va yirik qon tomirlari joylashgan.

Tayanch vazifasi - yumshoq to'qima va a'zolar skeletining tashkil etuvchi ayrim qismlariga birikib turishi natijasida, a'zolari organizmda muayyan joyda o'rnashib turishini ta'minlaydi.

Harakat vazifasi - skeletni tashkil qilib turgan suyaklar bir - biri bilan bo'g'imlar orqali birlashib, har xil richaglar hosil qiladi. Suyaklarga paylar va bog'lamlar yordamida muskullar birikib, nerv sistemasi tomonidan keladigan impulslar yordamida muskullar qisqarishini yuzaga keltiradi. Suyak va muskul sistemalaridan tayanch-harakat apparati hosil bo'ladi va tanani fazoda turli holatlarda saqlashda va turli harakatlarni bajarishda ishtirok etadi.

Qon yaratilishi yoki gemopoez funktsiyasi - ma'lumki, naychali suyaklarining kanalida suyak iligi yoki ko'migi joylashgan. Suyak ko'migi emrional hayotning uchinchi oyi oxirida paydo bo'ladi. Eritrotsitlar va donador leykotsitlar suyak ko'migida tashkil topadi. Demak, suyaklar qon yaratuvchi asosiy manba hisoblanadi.

Suyak - a'zo sifatida nafaqat suyak to'qimasidan, balki uni tarkibiga biriktiruvchi to'qima, qon tomirlari va nervlar kiradi. Tashqaridan suyak suyak usti pardasi yoki periost bilan qoplangan. Suyak pardasi pishiq biriktiruvchi to'qimadan tashkil topib, uning tarkibida qon tomirlari, limfatik tomirlar va nervlar o'tadi.

Suyak usti pardasining tashqi qavati tolali, ichki qavati - suyak hosil qiluvchi qatlam bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri asosiy suyak to'qimasi bilan birlashib ketadi. Suyak usti pardasi tarkibidagi osteoblastlar suyakni rivojlanishini, eniga o'sishini va turli jaroxatlardan so'ng tiklanishini ta'minlaydi. Endost yupqa, nozik parda bo'lib, suyakni suyak ko'migi tomondan qoplab turadi.

Endost tarkibida osteoblastlar va kollagen tolalarning tutamlari kiradi. Suyaklar bir vaqtda ham qattiq, ham elastik xususiyatga ega bo'lib, ularning tarkibida 1/3 qismi organik moddalar (ossein) bo'lsa, qolgan

2/3 qismini esa anorganik moddalar - kaltsiy, fosfor va magniy tuzlari tashkil etadi.

Suyaklarning elastikligini ossein ifodalasa, qattiqligi esa mineral tuzlari tufayli hosil bo'ladi. Organik va anorganik moddalarning nisbati suyaklarda yoshga qarab o'zgarib boradi. Yosh organizmning suyaklari tarkibida ossein ko'p bo'lganligidan ular egiluvchan va maxkam bo'ladi. Yosh ulg'ayib borgan sayin suyaklarda mineral tuzlar miqdori oshadi. Shuning uchun keksa kishilarning suyaklari o'zining elastik xususiyatlarini asta-sekin yo'qotib borib, mo'rt va tez sinadigan bo'lib qoladi.

Suyaklar tarkibida organik va anorganik moddalardan tashqari A, D va S vitaminlari ham bo'ladi. Yosh bolalarning suyaklari tarkibida kaltsiy tuzlari va D vitamini yetishmasa raxit kasalligi vujudga keladi, suyaklarning pishiqligi kamayadi va har tomonga qiyshayishi mumkin. Suyaklar bo'g'im hosil qiladigan sathlari bo'g'im tog'aylari bilan qoplangan. Suyak kavaklari suyak iligi bilan to'la bo'ladi. Suyak iligi, organizmga qon elementlari ishlab beradi va muhim biologik vazifani bajaradi. Ilik sariq va qizil bo'ladi.

Sariq ilik asosan yog' hujayralaridan iborat bo'lsa, qizil ilik retikulyar to'qimasidan iborat nozik qizil massa bo'lib, qon shakliy elementlarni ishlab chiqarish manbasi hisoblanadi. Odam embrionida suyak to'qimasi boshqa to'qimalarga nisbatan kechroq yoki embrional davrining 6-8 xaftalaridan rivojlanadi. Suyak to'qimasining rivojlanishiga osteogistogenez deyiladi Skelet suyaklari takomillashish davrida ularning hammasi ham bir xilda rivojlanmay, balki ba'zilar mezenximadan taraqqiy etadi, ba'zilar tog'ay to'qimadan rivojlanadi.

Lekin ikkala usulda ham suyakning rivojlanish manbasi mezenxima hisoblanadi, chunki dastlab tog'ay to'qimasi ham mezenximadan rivojlanadi. Embrional taraqqiyotning dastlabki davrlarda xordaning ikki yonidan mezenxima hujayralari to'planib, kelajakda hosil bo'ladigan muskullar ko'rtaklari orasidan yupqa to'siqlar hosil qiladilar.

***Suyaklar tuzilishi jixatdan bir-biridan keskin farqlanadi va ular
quydagicha ahamiyat kasb etadi.***

Suyaklarning shakli bajaradigan ishi bilan bog'liq. Suyaklar rivojlanishi, tuzilishi va bajaradigan funktsiyasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Naysimon suyaklar uzun va kalta bo'lishi mumkin. Naysimon suyaklarda ikkita kengaygan uchlar epifizlar, va o'rtasida joylashgan naysimon shaklidagi tanasi yoki diafizi bo'ladi. Tanaga nisbatan yaqin joylashgan suyakning uchi proksimal epifiz, tanadan uzoqroq joylashgan kengaygan uchi distal epifiz epifiz bilan diafiz orasida joylashgan suyakning qismiga metafiz deyiladi.


G'ovak suyaklar ustidan zich modda bilan qoplangan, ichida esa g'ovak modda joylashgan. G'ovak moddani suyak tizimchalari tartibsiz joylashmasdan, ma'lum bir yo'nalishda, yoylar shaklida o'rnashgan, bosim kuchlariga qarshilik ko'rsata olish va katta nagruzkalarni (yukni) ko'tarish qobiliyatiga ega. Qo'l va oyoqning kaft oldi suyaklari, umurtqa tanalari, sesamasimon suyaklar g'ovak suyaklar tarkibiga kiradi. Sesamasimon suyaklar bo'g'imlar yonida uchrab, muskullarning paylari ichida joylashishi mumkin. Eng katta sesamasimon suyakga tizza qopqog'i kiradi.

Yassi suyaklar bo'shliqlarni chegaralashda ishtirok etadi, masalan kalla skeleti, ko'krak qafasi, tos bo'shliqlarini hosil bo'lishini ta'minlaydi. Yassi suyaklarning ikkita tashqi plastinkalari zich moddadan, plastinkalar orasidagi qatlam esa yupqa g'ovak moddadan tshkil topgan. Kalla skeleti tarkibidagi yassi suyaklarning g'ovak moddasi diploe deyiladi. Yassi suyaklarga yelka, tos kamarlari, to'sh suyagi va kalla skeletining bosh miya qismini qoplovchi suyaklari kiradi.

G'alvirsimon suyaklar tanada havo bilan to'lgan bo'shliqlar bo'lib, bo'shliqlarning yuzasi shilliq parda bilan qoplangan. Suyakning bunday tuzilishi suyakni mustaxkamligini buzmasdan, uning massasini ancha yengillashtiradi. Kalla skeletining g'alvirsimon suyagi, yuqori jag', peshona suyagi, ponasimon suyagi g'alvirsimon suyaklar turiga kiradi.

Aralash tipdagi suyaklar murakkab shaklga ega bo'lib, bir nechta qismlardan iborat. Suyakni tashkil etuvchi qismlar kelib chiqishi, tuzilishi va shakli jixatidan bir-biridan farqlanadi. Bu gurux suyaklarga tos suyagi, umurtqalar, yuqorigi jag', chakka suyagi va boshqalar kiradi.

Suyaklarni birikish turlari-suyaklarning bir-biri bilan o'zaro birikishini o'rganuvchi soha artrologiya yoki sindesmologiya deb ataladi. Bu soha suyaklar birikishi uchta guruxga ajratadi:



Bundan tashqai bu sohada o'tgazilgan tadqiqotlarda aytilishicha suyaklarning uzluksiz yoki harakatsiz birlashishi uch xilda bo'lishi mumkin.

Sindesmozlar - biriktiruvchi to'qimalar (fibroz pardalar) vositasida suyaklarni bir-biri bilan birikishiga aytiladi. Fibroz birikishlarga paylar, bog'lamlar, suyaklararo pardalar yoki membranalar, biriktiruvchi to'qimali pardalar kiradi. Boylamlar zich tolali biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan. Boylamni uchrashish joyiga qarab, tarkibida kollagen yoki elastik tolalar ma'lum miqdoriy nisbatda bo'ladi.

Masalan, umurtqalar yoylari orasida uchraydigan sariq boylamlar tarkibida asosan elastik tolalari bo'ladi. Suyaklarning boylamlar yordamida birikishi ancha pishiq hisoblanib, yelka oldi, boldir, qovurg'alar orasida uchraydi.

Suyaklararo pardalar qo'shni suyaklar orasida joylashib, suyak skeletini to'ldirib, muskullarning birikishi uchun qo'shimcha sath tayyorlaydi. Suyaklararo pardalardan qon tomirlari va nervlar o'tadi.

Sinxondrozlar - suyaklarni bir biri bilan tog'ay to'qimasi vositasida birikishiga aytiladi. Bu birikishlarni haratchanligi chegaralangan, lekin pishiqligi va qaiyshqoqligi ancha yuqori bo'ladi. Misol qilib umurtqaaro disklarni keltirish mumkin. Umurtqaro disklar kollagen- tolali tog'aydan tuzilib, resorlik funksiyani bajaradi. Yurishda, chopishda, sakrashda, yiqilishlarda silkitish va itarilish kuchini yumshatib, odam tanasini himoyalaydi. Naysimon suyaklardagi epifiz bilan diafiz orasida joylashgan epifizar tog'ay tipik sinxondroz misoli bo'ladi. Epifizar tog'ay hisobiga, suyaklar uzoq vaqt davomida bo'yiga qarab o'sadi. 20-25 yoshdan so'ng epifizar tog'ay yemirilib ketib, sinxondrozdan sinostozga aylanadi. Epifiz bilan diafiz to'liq suyak to'qima orqali birikib ketadi.

Sinostozlar - suyaklarni suyak to'qimasi vositasida birikishiga aytiladi. Bunday birikishlarda harakatchanlik yo'qolib ketadi, lekin pishiqligi ortadi. Hayot davomida, yoshga qarab o'zgarishlarga sinxondrozlarni sinostozlarga aylanishini ko'rsatish mumkin. Masalan, miya qismdagi kalla skeletida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda bosh miya suyaklari bir-biri bilan yumshoq biriktiruvchi to'qima - sindesmoz orqali birikadi. Rivojlanishning keyingi bosqichlarida sindesmoz sinxondrozga aylanadi va 20-25 yoshlar oralig'ida sinostozga o'tadi.

Tana skeleti-odam gavda skeleti umurtqa pog'onasi, 12 juft qovurg'a va to'sh suyagidan tashkil topgan. 12 ko'krak umurtqalari, 12 juft qovurg'alarni to'sh suyagi bilan birikishi natijasida ko'krak qafasi hosil bo'ladi. Umurtqa pog'onasi kalla suyagi bilan odam tanasining o'q skeletini hosil qiladi, tananing turli qismlarini bir-biri bilan bog'laydi va aktiv harakatlarida ishtirok etadi.

Umurtqa pog'onasi o'zining kanalida joylashgan orqa miyani himoya qilish vazifasini bajaradi. Tananing og'irlik markazi umurtqa pog'onasining bel-dumg'aza sohasida joylashganligi, umurtqa pog'onasining segmentlardan tashkil topganligi, shakli, xajmi va egriklari odamda yurish va tik turish qobiliyatini ifodalaydi. Tananing asosiy ogirligi umurtqa pog'anasiga tushadi. Umurtqa pog'anasini misolida suyak sistemasiga hos bo'lgan mexanik qonuniyatlarini namoyon etilishini

kuzatish mumkin. Masalan, umurtqalar kichik xajmga ega, yengil, chunki asosiy qismi g'ovak moddadan tuzilgan, va shu bilan birga katta yuklarni ham ko'tarish qobiliyatiga ega. Umurtqa pog'onasini bir butun yaxlit tuzilma sifatida, ham pishiq, ham harakatchan bo'lishini baquvvat bo'lgan bog'lovchi apparati ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mazmunida ko'rish mukinki insonning tana tuzilishi va uning vazifalari aql bovar qilimas kuch va imkoniyatga ega. Ammo hayotimizda tana tuzilishi va uning o'z vazifalarini to'g'ri bararilishi bilan bo'g'liq muammolarga uchrab turamiz. Masalan bunday holatlardan eng ko'p uchraydigani serebral falajlikdir. Bu hastalik hayotimizda uchrashi mumkin bo'lgan tayanch harakat apparatlari bilan bog'liq holatda uchraydi. Ayniqsa ajinarlisi bu falajlik turi bolalarda ham keng tarqalgan.

Bolalar serebral falaji (BSF) – bosh miyaning harakat zonalari va harakatlarni o'tkazuvchi yo'llarining birlamchi jarohatlanishi bilan namoyon bo'luvchi markaziy nerv tizimi kasalligi hisoblanadi.⁵² Bu kasalikda miyaning harakat va nutq harakat tizimlarining erta organik jarohatlanishi kuzatiladi.

Ushbu nuqsonlarning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin: infeksiyon kasalliklar, ayniqsa virusli infeksiyon kasalliklar; xomiladorlik davrida zaxarlanish va turli xildagi jarohatlar; surunkali kasalliklar; ona va homilaning qon guruhi yoki rezus faktori bo'yicha o'zaro mos kelmasligi hamda boshqa sabablar; ba'zi holatlarda esa, masalan onaning tug'ruq vaqtida kamchiliklarga yo'l qo'yilishi natijasida kelib chiquvchi tug'ruq jarohatlari; xomilaning o'z o'qiga o'ralib qolishi natijasida bolada kislorod yetishmasligining paydo bo'lishi va buning oqibatidagi bosh miya nerv hujayralarining zararlanishi.

Respublikamizda so'nggi paytlarda bolalarning sog'lom tug'ilishini ta'minlash, alohida yordamga muhtoj bolalarning tug'ilishini oldini olish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo'lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari ustida talaygina ishlar

⁵² P. M. Po'latova «Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)» T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti 2005-yil

olib borilmoqda. Bu masalani tez va samarali hal bo'lishini ta'minlash maqsadida onaning xomiladorlik davridan boshlab to bola voyaga yetgunga qadar uning rivojlanishi tibbiyot xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilar, psixolog, korreksion pedagoglar tomonidan nazorat qilinib, "Sog'lom avlod" dasturini to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash choratadbirlari ishlab chiqilmoqda va tashkil etilmoqda.

Natijada, harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar ham aniqlanib, ularga maxsus yordam ko'rsatilmoqda. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida nogironlar aravachalari olib berilganligi sababli, ular MTT va maktablarga qatnay boshladilar. Serebral falajlangan bolalarning rivojlanishidagi psixo-jismoniy nuqsonlar birinchi navbatda harakat, sensor va nutqiy kamchiliklar bilan bog'liqdir. Bolalar serebral falajiga ega bo'lgan bolalarda barcha harakat funksiyalarining shakllanishi orqada qoladi va kamchiliklar bilan shakllanadi: bolalarning boshini tutishi, o'tirish, turish, buyumlar bilan harakatlarni amalga oshirish malakalari katta qiyinchilik bilan va juda kech rivojlanadi.


Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomielit (shol kasalligi asorati), harakat-tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi-artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya-tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya – mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqlarini harakatga keltira olmaydi. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi. Bolalar serebral falaj kasalligi hali yetilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir.

Onaning homiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolani kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonalari shikastlanadi, uning natijasida esa miyaning yaxlit yetilishi kechikadi va

buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi.

Kishi organizmining asosiy funksiyalari-nafas olish, qon aylanish, yutunish, tana harakati, nutqiy harakatlar va boshqalar harakat orqali-mushaklarning qisqarish natijasida sodir bo'ladi. Biz bajarayotgan harakatlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Aniq maqsadni ko'zlab bajarilgan ixtiyoriy harakatlar inson xatti-harakati, hissiy-irodaviy qobiliyati, bilish faoliyatini, hulqining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Kasallikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan harakat buzilishlari bolalar serebral falajida har xil namoyon bo'ladi.

Adabiyotlarda bolalar miya falajining quyidagi shakllari qayd qilingan: spastik diplegiya, spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemiplegiya, paraplegiya, monoplegiya, atonik-astatik sindrom. Yuqoridagi ta'sirlar natijasida bolaning bosh miyasida turli xildagi jarohatlanishlar kelib chiqadi. Bosh miyadagi harakat markazlarining jarohatlanish darajasi, xususiyatlariga ko'ra bolada harakat tayanch a'zolaridagi turli xildagi falajlanishlarni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra bu toifadagi nuqsonli bolalar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:



Ikki yoqlama gemiplegiya-bolalar serebral falajining eng og'ir shakli bo'lib, bu bolalarda inson uchun eng muhim bo'lgan funksiyalarning

faoliyatiga to'sqinlik qiladi ya'ni nutqiy, ruhiy va jismoniy holatlarda og'ir buzilishlar mavjud bo'ladi.

Bunday shaklning tashqi ko'rinishdagi asosiy belgilari: bola tanasining bir qismi falajlangan bo'lib, asosan qo'l bukilgan holatda, qo'l ham oyoq ham ichkariga qaragan va bukilgan holatda bo'ladi. Bu turdagi bolalarning nutqida anartriya yoki og'ir dizartriya kuzatiladi.

Spastik dipligiya-bu eng ko'p tarqalgan shakli bo'lib, ma'lum bir og'ir kasallik yoki Littal sindromining ta'sirida kelib chiqadi. Spastik dipligiya shaklidagi bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida ruhiy rivojlanishida sustlashishi kuzatiladi.

30-35% bu shakldagi bolalarda yengil darajadagi aqli zaiflik, 70% ida esa nutq nuqsonlari kuzatiladi. Spastik dipligiya turidagi falaj bolalarning oyoqlari qo'llariga nisbatan ko'proq serebral falajlik ta'siri ostida bo'lib, qo'llar bir oz beo'xshov harakatlanadi. Oyoqlar bir-biriga yopishgan va ichkariga qaragan holatda bo'lishi kuzatiladi.

Gemiparetik shaklida esa bir tomonlama falajlik kuzatiladi, ya'ni bolaning bir tomonlama oyog'i va qo'li falajlanadi. Bunday bolalarning 25–35% ida nutqiy nuqsonlar kuzatiladi.

Giperkinetik shaklining kelib chiqishiga ilk vaqtda gemolitik kasalliklarning natijasida bilirubin ensefalopatiyasi sabab bo'ladi. Bunday bolalarda harakatlanishdagi g'ayrioddiy holatlar, qo'l va oyoqni harakatlanishidagi buzilishlar kuzatiladi. Bolalar serebral falajining giperkinetik shaklining tug'ma turida bolalar juda kech o'tiradilar, kamdan-kam hollarda 2-3 yoshdan boshlab yura boshlaydi, ko'p hollarda esa ular 4-7 yoshdan boshlab, hatto 9-12 yoshlarida mustaqil yurishlari mumkin bo'ladi. Bu bolalarning 90% ida giperkinetik dizartriya, 50% ida – ruhiy rivojlanishining sustlashishi, 25-30% ida eshitishdagi buzilishlar kuzatiladi. Bolalar serebral falajining giperkinetik turida umumiy va artikulyatsion motorikaning quyidagi kamchiliklari kuzatilishi mumkinligi qayd etiladi: mushaklar tonusining o'zgaruvchan xarakteri (distoniya), ixtiyorsiz majburiy harakatlar; harakat va nutqiy jarayonlarning hissiy namoyon bo'lishi, statik qomat va holatni ushlab

turishning yetarli emasligi. Tonik zo‘riqishlar artikulyatsion, nafas mushaklari, hiqildoq muskullari bo‘ylab tarqalishi, hamda ovoz hosil bo‘lishi va nafasning o‘ziga xos buzilishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklar 90% holatlarda giperkinetik dizartriya shakliga xoslikni anglatadi.

Atonik-astatik shakli boshqa shakllarga qaraganda yengilligi bilan xarakterlanadi. Ularda harakat muvozanatidagi buzilishlar, reflekslar tonusidagi buzilishlar, 60-70% dizartriya kuzatiladi. Ayrim hollarda serebral falajlikning aralash shakli ham uchrab turadi. Bu shaklda bolada spastik-giperkinetik holatlar yoki atetoz harakatlar (nazorat qilib bo‘lmaydigan, g‘ayri odatiy harakatlar) bilan mushaklar tonusining tarangligi bilan kelishi mumkin. Serebral falaj bolalardagi mavjud nuqsonlarni korreksiyalashda nuqson turini erta aniqlab, alohida yondashish juda yaxshi samara beradi.

12.2. Tayanch harakat apparati nuqsonining dastlabki belgilari

Serebral falajning dastlabki belgilari: Bola tanasining qotib qolgan yoki bo‘shashgan bo‘lishi bola tug‘ilishi bilanoq ko‘zga tashlanishi mumkin. Ammo hamma vaqt ham buni sezishga imkoni bo‘lmaydi. Agarda bolada quyidagi holatlar kuzatilsa, tezda shifokorga olib borish lozim bo‘ladi.

Kutilmaganda tananing qotib qolishi-bunda bolani orqasi bilan yotqizish yoki bag‘riga bosish kerak bo‘lganda tanasini egish qiyin bo‘ladi.

Tananing bo‘shashishi-chaqaloqning boshi bo‘shashgan bo‘ladi va boshini ko‘tara olmaydi. Ko‘tarib turganda uning boshi va oyoqlari osilib turadi. Juda kam harakatlanadi.

Sekin rivojlanish-bola odatdagidan sekin rivojlana boshlaydi. Tanasining bir qismidan boshqasiga nisbatan ko‘proq foydalanishi mumkin. Masalan, ba’zi bolalar ikkita qo‘lidan ko‘ra birtasidan ko‘proq foydalanadi.

Sust ovqatlanish-emish va ovqatni yutish sust bo‘ladi. Bola tili bilan sut va ovqatni og‘zidan chiqarib tashlaydi. Og‘zini yopishda qiynaladi.

Noodatiy xatti-harakatlar-bola yomon uxlaydigan va ko‘p yig‘laydigan, ko‘p bezovtalanadigan bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha ko‘p uxlaydigan va tovush chiqarmaydigan bo‘ladi. Uch oylik bo‘lguncha kulmasligi ham mumkin.

Bundan tashqari boladagi serebral falajlikni aniqlashda quyidagilarni kuzatish tavsiya etiladi. Bolada serebral falajlanishni aniqlash ba’zi hollarda ancha qiyin kechishi mumkin. Buning uchun bolani har bir rivojlanish davrida kuzatib borish lozim. Agar bolada serebral falajlik mavjud bo‘lsa quyidagi holatlar unda ko‘proq kuzatiladi:

1 oyligida-bolaning oyoqlari bukilmaydi. Boshini yerdan ko‘tara olmaydi va qo‘llari bilan ko‘tarilishga harakat qila olmaydi. Boshi bir tomonga qaragan holda orqasini itarishga harakat qiladi. Qo‘llarini bir-biriga tekkiza olmaydi.

6 oyligida-bola boshini yerdan ko‘tara olmaydi. Beli bukilgan holatda bo‘ladi. Qo‘llari bukilmaydi, kafti musht holatda bo‘ladi. Boshi orqaga og‘ib ketadi yoki o‘tirganda orqaga tortib ketadi. Oyoqlari bukilmaydi va qaychiga o‘xshash ustma-ust holatda bo‘ladi

Nafas va tovushning artikulyatsion xususiyatlarining buzilishi-Ilk yoshdagi falaj bolalarning artikulyatsiya a’zolari lab, til mushaklarining pay tortishi, passivligi giperkinez holati deb izohlanadi. Bunda lab va tilning to‘g‘ri va faol harakatlanishi buziladi va bu buzilish so‘rish va yutish holatlarining qiyinlashishiga olib keladi. Yuz ifodasidagi mimik holatlar yo‘qoladi.

Ba’zan nafas olish faoliyati buziladi: noritmiiy, tez tez va tutilib hamda yutinib nafas olish kabi holatlar kuzatiladi Bolaning til mushaklaridagi buzilishi til a’zosining patologik shakl o‘zgarishiga olib keladi. Artikulyatsiya organlarining tonus o‘zgarishi turli notabiiy holatlarda o‘z aksini topadi. Bolalarning ovozi va holati past hamda nimjonroq qiyofada gavdalanadi.

12 oylikda-bola narsa buyumlarni yoki o'yinchoqlarni qo'lida ushlab turishda qiynaladi va ularni qo'lidan tez tez tushirib yuboradi. Oyoqlari bukilmaydi, emaklay olmaydi, tanasining faqat bir qismidan foydalanadi.

18 oylikda- bola tik turganda muvozanatni yaxshi tutib turolmaydi. O'ynaganda faqat bitta qo'lidan foydalanadi. Bir oyog'i qotib qolgan bo'lishi mumkin. Tana og'irligini faqat bir tomonga tashlagan holda o'tiradi. Ovqatlantirish paytida ovoz tovushida va nafas olishda salbiy o'zgarishlar kuzatiladi. Til va lab faol harakatida cheklanishlar yuzaga keladi. Bu holat asosan bola tilining chiqqunigacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi.

Tayanch harakat a'zolarining rivojlanish xususiyatlari-bunday bolalar maxsus stulda o'tirishadi. Boshini ushlab, qo'lida o'yinchoqni o'ynay olish kabi holatlarda faollikning susayishi kuzatiladi. Kattalar yordamida oyoqda tik turishi va harakatlanishi mumkin, lekin oyoqni bukishda turli murakkabliklar kuzatiladi. Ayrim bolalar mustaqil o'tira olishadi. Lab va til mushaklarining patologik holatining buzilishi og'iz bo'shlig'i a'zolarining harakati susayishiga va qiyinlashishiga olib keladi. Deyarli, barcha bolalarda fikrini so'z bilan ifodalashda va so'zlarni talaffuz qilishda qiynalish kabi holatlar yuzaga keladi. Bundan tashqari, ular biror narsani tishlash va chaynashga qiynalishadi.

Tayanch-harakat a'zolari falajlangan bolalardagi nuqson shaklini va darajasini erta aniqlash asosida ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish, nuqsonlarni samarali korreksiyalash maqsadida ilk yoshdan yordam berish lozim. Bolaga ilk yosh davrdan berilgan kompleks (mujassam) chora tadbirlar ularni kelajakda ta'lim tizimida samarali ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi, ya'ni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish imkoniyatining kengayishiga olib keladi. Bugungi kunda bolalardagi nuqson turi va darajasini hisobga olib erta reabilitatsiya qilish, ya'ni davolov chora-tadbirlarning uchta turi farqlanadi:

Tibbiy-pedagogik reabilitatsiya bunda tayanch harakat a'zolari falajlangan bolaning tibbiyot xodimlari tomonidan jismoniy holatidagi

kamchiliklarni tiklash bilan barobar korreksion pedagogik ishlar olib boriladi. Reabilitatsiyaning bu turi bolani jismoniy va pedagogik jihatdan rivojlantirishni maqsad qiladi

Kasbiy reabilitasiyaning maqsadi tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalarni mutaxassis defektologlar, pedagog va boshqalar tomonidan maxsus korreksion ishlarni olib borilishini nazarda tutadi.

Psixologik reabilitasiya bu turda tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalarning psixologik rivojlanishdagi nuqsonlarning oldini olishga, emotsional doirasini, individual shaxsiy xususiyatlarini yaxshilashga, ijtimoiy moslashuvining samaradorligini oshishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Quyida serebral falajlikka uchragan bolani ilk yoshidan ya'ni nutqini rivojlanishgacha bo'lgan davrda oilada ota-onalar tomonidan va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar ahamiyatli sanaladi. Serebral falajlangan bolalar bilan ilk yosh davrda olib boriladigan reabilitatsion ishlarni oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzviy bog'langan holda olib borish lozim. Davolov-korreksion-rivojlantiruvchi, reabilitatsion ish tizimi fizioterapevt, davolovchi jismoniy tarbiya mutaxassisi, nevropatolog, logoped va oligofrenopedagogning hamkorlikdagi kompleks ish asosida amalga oshirish ahamiyatlidir.

12.3. Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlar

Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlar			
Pediatr xonasi uchun jihozlar			
555.	Shifokor stoli	dona	2
556.	Yarimyumshoq stuli	dona	2
557.	Tibbiyot javoni	dona	2
558.	Karavot (kushetka)	dona	2
559.	Bo'y o'lchagich	dona	1

Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlar			
560.	Tibbiyot tarozisi	dona	
561.	Fonendoskop	dona	1
562.	Tonometr	dona	1
Muolajalar xonasi uchun jihozlar			
575.	Shifokor stoli	dona	1
576.	Tibbiy kushetka	dona	1
577.	Tibbiyot javoni	dona	1
578.	Yarimyumshoq stul	dona	2
579.	Birinchi tibbiy yordam stoli	dona	1
580.	Kvars lampasi	dona	1
581.	Muzlatgich	dona	1
Ortoped xonasi uchun jihozlar			
582.	Shifokor stoli	dona	1
583.	Tibbiy kushetka	dona	1
584.	Tibbiyot javoni	dona	1
585.	Yarimyumshoq stul	dona	2
586.	Birinchi tibbiy yordam stoli	dona	1
Dori-darmonlar saqlash xonasi uchun jihozlar			
587.	Tibbiyot javoni	dona	2
588.	Muzlatgich	dona	1
Fizioterapiya xonasi uchun jihozlar			
589.	Shifokor stoli	dona	1
590.	Yarimyumshoq stul	dona	10
591.	Tibbiyot javoni	dona	2
592.	Muzlatgich	dona	1
593.	Tibbiy kushetka	dona	10
594.	Fizioterapiya asbob-uskunolari to'plami	to'plam	1
595.	Qum soat	dona	4
Davolash gimnastika xonasi uchun jihozlar			
596.	Shved javoni	dona	4
597.	Turli xil gantellar (2 kg, 4 kg, 6 kg, 8 kg)	juft	2
598.	To'plar	dona	5
599.	Gimnastik gardish	dona	10

Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlar			
600.	Bo'y o'lchagich	dona	1
601.	Tibbiyot tarozisi	dona	1
602.	Shifokor stoli	dona	1
603.	Yarimyumshoq stul	dona	2
604.	Kiyim javoni	dona	2
605.	Gimnastika o'tirgich	dona	4
Parafin xonasi uchun jihozlar (qizlar uchun)			
606.	Parafin qizdirish uchun avtoklav	dona	1
607.	Tibbiy kushetka	dona	4
608.	Shifokor stoli	dona	1
609.	Tibbiyot javoni	dona	1
610.	Yarimyumshoq stul	dona	4
611.	Parafin uchun stol	dona	1
612.	Choyshab	dona	10
613.	Yoping'ich	dona	8
614.	Pelyonka	dona	10
Basseyin uchun jihozlar			
624.	"Sirkulyar" dushi	dona	1
625.	"Sharko" dushi	dona	1
Massaj xonasi uchun jihozlar			
629.	Tumba	dona	10
630.	Tibbiy kushetka	dona	10
631.	Yarimyumshoq stul	dona	10
632.	Tibbiyot javoni	dona	1
633.	Parda (shirma)	Dona	10
634.	Sochiq	Dona	10
635.	Yoping'ich	Dona	10




Qo'ltiqtayiq - yurish paytida inson tanasining og'irligini ushlab turish uchun yordamchi vosita hisoblanadi. Bu nom, go'yoki qo'ltiqtayiq shikastlangan suyakning o'rnini egallashi bilan izohlanadi.

Kasallik yoki jarohatlar tufayli tayanch-harakat tizimining funksiyalari buzilganda, reabilitatsiya

davrida, pastki oyoqning jarrohlikdan keyin harakatlanishni ta'minlash va uning o'rniga o'rnatilgan protezga moslashish, shuningdek, tayanch-harakat tizimi va koordinatsiyaning funksiyalarida turg'un buzilishlar sodir bo'lganda qo'llaniladi. Bunday qo'ltiqtayiqqlar bemorlarga yurish orqali mustaqil harakat qilish imkonini beradi.


Pastga qarab bitta stoykaga ulanadigan ikkita yog'och yoki alyuminiy planka o'rnatiladi. Stoyka ko'ndalang qo'ltiq novdasi (tepada), panja tutqichi (o'rtada) va rezina uchi (pastda) mahkamlanadi. Stoykaning balandligi teleskopik tarzda sozlanadi. Buning uchun turli xil qisqichlar, vintlar va boshqa qurilmalar ishlatiladi. Tutqichning balandligi ham holatning turiga ko'ra turlicha sozlanadi.

Patsientga quyidagi sabablarga: qarilik, oyoq mushaklarining zaiflashishi, semizlikka ko'ra o'z vaznini ushlab turish qiyin bo'lgan hollarda pastki qismlarning shikastlanishida qo'llaniladi. Qo'ltiqtayiqqlar keng ko'lamda sozlanishi mumkin bo'lganligi sababli, o'lchamda aniq gradatsiya yo'q. Biroq, quyidagilar mavjud:




Qo'ltiqtayoqlar insoniyatning eng qadimgi ixtirolaridan biri bo'lib u Misr piramidalari devorlarida topilgan ular haqida birinchi eslatma miloddan avvalgi 2830-yilga to'g'ri keladi. Biroq, qo'ltiqtayoqlarining shaklini patentlashni taxmin qilgan rasmiy ixtirochi Emil Shlik bo'lib, 1917-yilda ularni keng ishlab chiqarishga kiritib, mahsulotlarni tibbiyot muassasalari va jismoniy shaxslarga taqdim etdi.

O'shandan beri bu qurilmaning shakli biroz o'zgardi. Ushbu tibbiy asbob shifokor tomonidan quyidagi toifaga mansub kishilarga tavsiya etiladi:



Qo'ltiqtayoqlarning bir qancha turlari mavjud. Yog'ochli, plastmassa va alyuminiydan yasalgan qo'ltiqtayoqchalardir. Plastmassa va alyuminiydan yasalgan qo'ltiqtayoqlar yog'ochdan yasalgan qo'ltiqtayoqlardan kuchliroqdir, ular maksimal 100 kilogramm vaznli'larga mo'ljallangan. Aslida bu vositasini tanlashga imkon qadar ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan yondashish kerak.

Noto'g'ri tanlangan tayoqlar juda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin:



Qo'ltiq osti tayoqchasi bemorning individual parametrlarini va shikastlanishning tabiatini hisobga olishi kerak. Shunda ular nafaqat yurishni osonlashtirish, balki rehabilitatsiya jarayonini tezlashtirish va sog'lom odamlar safiga qaytish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu turdagi tayoqchalar yelkalarda harakatlanayotganda bir tekis vazn o'tkazishga yordam beradi. Qo'l mushaklari zaiflashgan va ortiqcha vaznli odamlar uchun buyuriladi.

Qulay barqaror tayanchga ega bo'lgan holda, ular shikastlanish yoki shikastlanishdan keyin darhol foydalanish uchun eng mos keladi. Biroq, qo'ltiq osti tayoqchasini 2 yildan ortiq doimiy ravishda ishlatmaslik kerak, chunki bu yelka-kamarida jiddiy buzilishlarga olib kelishi mumkin. Aluminiyning yengil korroziyaga qarshi qotishmasi mahsulotlarni bardoshli va ishlatish uchun qulay qiladi. Alyuminiy tayoqchalar 140 kilogrammgacha vaznga bardosh bera oladi. Bunday qo'ltiq tayoqlarning balandligi va tutqichning balandligi turlicha sozlanishi mumkin. I

kki marta sozlash tizimi tufayli universal variantlardan yetti yoshli bola ham, bo'yi 1 metr 90 santimetrgacha bo'lgan kattalar ham foydalanishi mumkin.



Birinchi nogironlar aravachasining qachon, qayerda va kim tomonidan ixtiro qilganligi hozurgacha noma'lum. Ammo birinchi taniqli nogironlar aravachasi 1595-yilda ixtiro qilingan va nogironlar aravachasi deb nomlangan.

Ispaniya Filipp II uchun noma'lum ixtirochi tomonidan 1655-yilda soatsoz Stiven Farfler uch g'ildirakli o'ziyurar stulni yasaydi. 1783-yilda Bath shahridan Jon Dawson, Bath nomli nogironlar aravachasini ixtiro qildi. Dawson ikkita katta va bitta kichkina g'ildirakli stulni yaratdi. XIX-asrning ikkinchi yarmida nogironlar aravachasi ustida ko'plab yaxshilanishlar amalga oshirildi.

1869-yilgi nogironlar aravachasi uchun namoyish bo'lib o'tdi. 1867-yildan 1875-yilgacha ixtirochilar velosipedda metall jantlarda ishlatilganiga o'xshash yangi ichi bo'sh kauchuk g'ildiraklarni o'rnatdilar. 1881-yilda qo'shimcha qo'zg'alish uchun surish moslamalari ixtiro qilindi. 1900-yilda nogironlar aravachasida birinchi spikulyar g'ildiraklar ishlatilgan.

1916-yilda Londonda birinchi motorli nogironlar aravachasi ishlab chiqarildi. 1932-yilda muhandis Garri Jennings birinchi qatlanadigan po'latdan yasalgan nogironlar aravachasini yaratdi. Bu eng zamonaviy nogironlar aravachasi bo'lib bugungi kunda ishlatiladigan turlariga o'xshaydi. Ushbu nogironlar aravachasi Jenningsning Gerbert Everest ismli do'sti uchun yaratilgan edi.

Ular birgalikda nogironlar aravachasi bozorini ko'p yillar davomida o'rganishgan va Everest Jenningsning kompaniyasini tashkil etishgan.

Birinchi nogironlar aravachalari stul g'ildiraklarini bemorning o'zi qo'lda aylantirgan holda o'zini-o'zi harakatlantirishi kerakligi bilan ajralib turar edi. Agar bemor buni qila olmasa, boshqa odam nogironlar aravachasini va bemorni orqadan itarib yurishi lozim edi. Motorli yoki

elektr nogironlar aravachasi kichkina dvigatel g'ildiraklarni aylanishiga olib keladigan haqiqiy ixtiro bo'ldi.

Motorli nogironlar aravachasini ixtiro qilishga urinishlar 1916-yillarga qadar bo'lgan avj olgan, ammo o'sha paytda muvaffaqiyatli amalga oshirilmagan. Birinchi elektr bilan ishlaydigan nogironlar aravachasini kanadalik ixtirochi Jorj Klein va uning muhandislar jamoasi tomonidan Ikkinchi Jahon urushidan qaytgan jabrlangan faxriylarga yordam berish dasturi natejasida Kanada Milliy tadqiqot kengashida ishlayotgan paytda ixtiro qilingan. Jon Donoghue va Braingate juda cheklangan harakatchanligi bo'lgan bemor uchun nogironlar aravachasini ishlatishda muammolarga duch keladiganlar uchun yangi nogironlar aravachasi texnologiyasini ixtiro qildilar.



Gantel so'zi nemischa Hantel so'zidan olingan bo'lib-mushaklarni rivojlantirish, bo'g'inlarni mustahkamlash va tananing umumiy ishlashiga qaratilgan og'irliklar bilan jismoniy mashqlarni bajarish uchun mo'ljallangan sport jihozidir.

Qoida tariqasida, klassik qattiq gantellarning o'rtada qo'l bilan ushlab turish uchun tutqich bilan bog'langan ikkita to'p shakliga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda tutqich bilan bog'langan 6 qirrali prizma shakliga ega bo'lgan va ko'pincha kauchuklangan qattiq gantel turlari mavjud. Yig'iladigan gantellar ko'pincha kichik shakliga ega bo'lib, unda kerakli miqdordagi almashtiriladigan disklar (kerakli og'irlikgacha) har ikki tomonga osilgan qulf bilan mahkamlanadi. Yig'iladigan gantellarning panjaralari gofrirovkaga ega bo'lib bu gantelning qo'ldan sirg'alib ketishining oldini oladi. Gantellarning o'ziga xos xususiyati - tez sozlash mexanizmiga egaligidir. Ishchi massani tanlash kreplarning boshida joylashgan diskni aylantirish orqali amalga oshiriladi.

Bu aniq massani tanlash, kuchni tejash va uni tezda kamaytirish yoki oshirish imkonini beradi. Og'irlikning sozlanishi uchun og'irligi 2,5 kg dan 24 kg gacha bo'lgan gantellardan foydalanish mumkin. Bu vositaning paydo bo'lishi va taraqqiy topishida bir qancha davlatlarning tajribasi ahamiyatli hisoblanadi.

Qadimgi Gretsiya-Qadimgi Yunonistonda ishlatilgan gantellar fransuzcha haltere deb nomlangan gantellardan foydalanishgan bu vosita nafaqat og'irlik ko'tarish, balki uzunlikka sakrash uchun ham foydalanilgan hamda 3 metrga sakrash uchun gantellarni orqaga tashlash bajarilgan. Uch hatlab sakrashda gantellar birinchi yoki ikkinchi sakrashdan keyin orqaga tashlangan.

Hindistonda kabik shaklidagi gantellar ming yildan ko'proq vaqt davomida kuch mashqlari uchun ishlatilgan. Ularning odatda vazni 1,8-4,5 kg oralig'idagi o'lchamlaridan foydalanilar edi. 19-asrda hind to'ylari Buyuk Britaniya va AQShda mashhur bo'lgan. Qadimgi Rim mozaikalarida gantel bilan mashq bajarayotgan qizlar tasvirlari mavjud va ular bu vositaning Rim davlatlarida azaldan foydalanilganligini ko'rsatadi. G'arbiy Yevropada gantellarning zamonaviy shakli

Tudorlar sulolasi davrida Angliyaga tarqaldi, u yerda qo'ng'iroqchilarni tayyorlash uchun ishlatilgan, va o'zgaruvchan og'irlikdagi gantellar 1865-yildan boshlab foydalanib kelingan. Sovet davrida ishlab chiqarilgan quyma gantel Ulug Vatan urushi davrida jarohatlar, yaralar va operatsiyalardan keyingi terapevtik mashqlar vositasi sifatida gantellar bilan mashqlar bajarilgan.

Gantellar bilan mashq qilishning maqsadi inson tanasining barcha mushaklarining uyg'un rivojlanishi, vaznni normallashtirish va salomatlikni yaxshilash hisoblanadi. Bu vositaning tayanch harakat-aparatida nuqsoni borlar hayotida asosiy o'rni bor deyish mumkin.

Chunki ularning orasida kamchiliklarini jismoniy mashqlar bilan yuqotish mumkin bo'lgan mulojalar bajariladi. Tanadagi juda og'ir bo'lmagan falajliklarni aynan mana shu vositadan foydalanish orqali yaxshigina natejaga erishish mumkin.

Nazorat savollari

1. Tayanch harakat apparatidagi nuqsonlar va ularning asosiy belgilar qanday?
2. Tayanch harakat apparatidagi nuqsonlar va ularning oldini olish ishlari haqida gapiring?
3. Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus jihozlar haqida gapiring?

Izohli lug'at

Maktabgacha inkulziv ta'lim – bu nuqsonli yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning maxsus ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini, metodlarini, tamoyillarini, qonuniyatlarini o'rganuchi fandır.

Defiktologiya- jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini o'rganish, ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish, undagi nuqsonlarni yo'qota borish qonuniyatlarini o'rganuvchi soha.

Surdopedagogika- kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv-tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o'quv-tarbiya muassasalarini tashkil etish tartib qoidalarini ishlab chiqadi.

Tiflopedagogika- ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiquvchi sohasi. Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi.

Oligofrenopedagogika- aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash, korreksiyalash (tuzatish), ijtimoiy xayotga jalb etish masalalarini o'rganuvchi defektologiya tarmog'i.

Logopediya- nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo'llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta'lim va tarbiya vositasida o'rganadi.

Korreksiya (lotincha correction-tuzatish) bu pedagogik psixologik va davolovchi tadbirlar tizimi bo'lib, bolalar xulq-atvoridagi va rivojlanishidagi psixofizik kamchiliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltiriladi.

Kompensatsiya (lotincha compensation-o'rnini to'ldirish, tenglashtirish)-bu murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, yo'qotilgan yoki

buzilgan funksiyalarni tiklash va almashtirish, shuningdek, o`rnini to`ldirishni o`z ichiga oladi.

Ijtimoiylashuv-bu, jamiyat orasida o`z o`rniga ega bo`lish jamiyat va tengdoshlari orasida ijtimoiy moslashuvning hosil bo`lishi demakdir. Ijtimoiylashuv tushunchasi tor va keng ma`nolarda qo`llaniladi.

Reabilitatsiya- organizmning buzilgan funksiyasini yaxshilash, bemorlar hamda nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmui.

Integratsiya- (lot. integration-tiklash, to`ldirish, integer-butun) ma`nolarini anglatadi va sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o`zaro bog`liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha sanaladi.

Adaptatsiya- lotincha adaptation-moslashuv bo`lib organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi yoki sezgi a`zolarining o`ziga ta`sir etadigan qo`zg`atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasining o`zgarishi natejasidir.

Motivatsiya-bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma`lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to`xtatishi sababidan hosil bo`ladigan jarayon. Motivatsiya „motiv“ so`zidan olingan bo`lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir.

**Rivojlanishda nuqsoni bo`lgan bolalar**-bular turli yoki bir necha analizatorlar faoliyatining buzilishi natijasida (ko`ruv, eshituv, nutqiy) psixofizik rivojlanishi orqada qolgan, shuningdek, markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishi natijasida rivojlanishdan orqada qolgan bolalar.

Psixofizik rivojlanishida kamchiligi bor bolalar-yuqorida sanab o`tilgan nuqsonlarga ega bo`ladi, lekin ularning aks ettirilishi ular imkoniyatlarini psixofizik rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalardek keskin chegaralanmagan.

Alohida ta`lim ehtiyojiga ega bo`lgan bolalar-bunday bolalar maxsus umumta`lim maktablarida maktabgacha ta`lim tashkilotlarida va

maxsus maktabgacha ta'lim internatlarida tashkil etiladigan maxsus ta'lim metodlari va maxsus korreksion qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili-bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon alohida ehtiyojmand bolalarni maxsus va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili-o'tgan yigirma yil davamida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Bog'lanishning mavjud bo'lish tamoyili- "Bog'lanish" so'zining mazmunida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun ta'lim muassasalariga kirish va chiqishning oson bo'lishi masalasi yotadi. Imkoniyati cheklangan bola ta'lim muassasasi binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli kira olmagan yoki ta'lim muassasalarining xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun ta'lim olish imkoniyati cheklab qo'yilmasligi kerak.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili-bu nogiron bolalarga faqat nuqson jihatdan yondashish emas, balki bunday bolalarga har tomonlama yondashish lozimligini anglatadi.

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili-bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak.

Malakaviylik tamoyili-bu maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi.

Anamniz (grekcha anamnesis «xotiralar»)-o'qituvchi defektolog o'rganilayotgan ob'yekti, kasallikning kelib chiqishi sabablari, potogenezi va asab sistemasining faoliyati imkominiyatlarini aniqlanadi.

Katamniz - anamez tushunchasining antonimi (grekcha katta, leyin, mnemaynen-tarbiya) mas'nalarini anglatadi. Bu tarbiyalanuvchining maktabni bitirgandan keyingi kundalik turmush sharoitida hamda amaliy faoliyati haqida olingan ma'lumotlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Defektolog - jismoniy yoki aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan o'qituvchi.

Defektolog - bu muhtojlarga yordamga birinchi bo'lib murojaat qilishi kerak, u boshqalarning muammolariga befarq bo'lmasligi kerak.

Defektolog - bu, avvalambor, tegishli ta'lim olgan shaxs bo'lib bolalarda mavjud bo'lgan og'ishlarni tashxislashi va ularni qoplash yo'llarini izlashi, shuningdek, muammoli bolani rivojlantirishga qaratilgan ma'lum bir darslarni o'tkazishi kerak. Bola va mutaxassis o'rtasida yosh to'sig'i bo'lmasligi lozim. Bundan tashqari yosh avlodning ishonchni qozonishi va bolaga do'sti bo'la olishi kerak.

Aqlning yuqori darajasi-u defektolog kasbini o'zlashtirishning eng zaruriy omili bo'lib uning nutqni savodli va aniq yetkazishi kerak, u yaxshi xotiraga ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri tuzishi va tashkil eta olishi kerak.

Intuitiv qobiliyat-muayyan holatga mos keladigan texnikani aniqlash uchun sezgi kerak. Suning uchun ham defektologning intuitsiyasi yaxshi darajada rivojlangan bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kuzatish va ehtiyotkorlik-defektolog uchun bu ikki fazilat bola bilan aloqa o'rnatish uchun va uning xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga va buni mantiqan tushunishga hamda tushuntirishga yordam beradi.

Hamjihatlik-mutaxassis bolalar bilan umumiy tilni topa olishi va ular bilan muloyim bo'lishi, har doim bolani gaplashishiga va ikki tomonlama muloqotni qo'zg'atishga qodir bo'lishi kerak.

Hissiy barqarorlik va sabr-toqat- kuchli asab tizimi defektologning jismoniy yoki aqliy qobiliyati cheklangan bolalar bilan o'tkazadigan mashg'ulotlarining samaradorligi va natejadorligining kalitidir.

Odoblilik-mutaxassis maxsus bolalar va ularning ota-onalari bilan muomala qilishda juda iltifot va ehtiyotkorlikni ko'rsatishi uning ish faoliyati uchun juda muhim sanaladi. Chunki bu toifadagi bolalar bor oila a'zolarining ko'pchligida kuchli agresiya holati mavjud bo'ladi.

Ertak terapiya-ko'p qirrali ta'sir orqali shaxsning rivojlanishi;

O'yin terapiya-ruhiy jarayonlarning erkinligini shakllantirishga hissa qo'shish.

Relaksatsiya-hissiy va mushaklarning zo'riqishini yechish; **Psixogimnastika**-zo'riqishni yechish, hissiy va shaxsiy sohani rivojlantirish;

Artterapiya-o'z-o'zini ifoda etish va o'z-o'zini anglashni rivojlantirish;

Qumli terapiya-mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, miya yarim sharlarini rivojlantirish.

Ixtiyoriylik-psixologik diagnostika va tuzatish ishlari qat'iy ixtiyoriy asosda amalga oshirilishi kerak.

Ilmiy-psixologik yordam ko'rsatishda qo'llaniladigan usullar ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

Kasbiylik-psixologik texnika va texnologiyalardan professional darajada foydalanishi kerak.

Dinsizlik-psixologik yordam ko'rsatish uchun diniy urf-odatlar, uslublar va marosimlardan foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, psixologik yordamni diniy ibodat bilan almashtirmasligi va ruhoniylarni psixologik yordam agenti sifatida ish jarayoniga jalb qilish mumkin emas.

Subyektivlik-psixologik ish jarayonida mijozi o'zini o'zi o'zgartirish sub'ekti bo'lib, uning natijalari maqsadlari, niyatlari va harakatlariga bog'liq bo'ladi. Mijozga jarayonning faol sub'ekti sifatida yondashish maqsadlarni aniq belgilash, usullarni aniqlashtirish va texnologiyalarning ta'sir qilish mexanizmini ochib berish kerak.

Trening forma-ordam konteksti psixo-ijtimoiy ishda mijozning xabardorligi va faolligini nazarda tutadigan o'z-o'ziga yordam kontekstiga o'zgaradi. Shu sababli, o'zaro ta'sirni tashkil etish sinflar,

o`qishlar, treninglar, kurslar, dastur sifatida tuzilishi kerak, ya`ni o`rganishning qandaydir formati aniq bo`lishi shart.

Mijozlarni tanlash- jismoniy salomatlik darajasi past bo`lgan, aqliy anomalliklari va o`zini-o`zi takomillashtirish motivatsiyasi past bo`lgan mijozlarni tekshirishni o`z ichiga oladi.

Texnologiyalashtirish va standartlashtirish-psixologik jarayon aniq texnologiklashtirilgan bo`lishi va mijozlarning ayrim toifalari uchun standart psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqilgan bo`lishi kerak.

Guruh va individual ishlashning kombinatsiyasi-Psixologik yordam jarayoni ham individual, ham guruh shaklida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hamda qo`llanilgandagi samarasiga qarab amalga oshirilishi kerak.

«**Nutq normasi**»-nutq faoliyati jarayonidagi til ishlatilishining umumiy qabul qilingan variantlari tushuniladi. Nutqning normal faoliyati holatida uning psixofiziologik mexanizmlari saqlangan bo`ladi

Nutq kamchiliklari-gapiruvchi shaxsning ma`lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati zaiflashuviga bog`liq holda til me`yorlaridan chetlashuvi bilan belgilanadi.

Kommunikativ nazariya-ilmiy nuqtai nazaridan qaraganda, nutq buzilishlari bu aloqa vositasining buzilishidir.

Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanidan test savollari

1. Inklyuziv ta'lim tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

A. *ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi).

B. Lotin tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–tarbiyalamoq, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi).

C. yunon tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–ta'lim olmoq, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi).

D. fors tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–ta'lim-tarbiya berish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi).

2. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilarining huquqlaridan biri?

A. *O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan dori-darmonlar ro'yxatiga asosan dori vositalari bilan bepul ta'minlanish;

B. ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish;

C. bolalar to'g'ri ovqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

D. bolalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda umumta'lim muassasalarida o'qishga sifatli tayyorlashni ta'minlashi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni joriy etishda qanday bolalar qamrab olinadi?

A. Inklyuziv ta'limga muhtoj bo'lgan barcha bolalar qamrab olinadi.

B. *Inklyuziv ta'limga aqliy jihatdan sog'lom, lekin boshqa nuqsoni bo'lgan bolalar qamrab olinadi.

C. Inklyuziv ta'limga aqliy va jismoniy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar qamrab olinadi.

D. Inklyuziv ta'limga kam ta'minlangan oila farzandlari qamrab olinadi.

4. Inklyuziv ta'lim bu...?

- A. Nuqsonli bolalar bilan ishlash
- B. Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasida munosabat o'rnatadi
- C. * Davlat siyosati bo'lib nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish maxsus ta'limga muhtoj bolalar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.
- D. bolaning o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

5.«Ilm yo'li» variativ dasturi asosida inklyuziv ta'limning tamoyillaridan biri-

- A. bolalarning ta'lim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etish;
- B. jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.
- C. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
- D. *Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning o'qishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;

6. O'zbekistonda birinchi inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasasi qayerda va qachon ochildi?

- A. Samarqandning Bulung'ur tumanida 2020-yil 23-sentabr kuni
- B. Toshkentning Qibray tumanida 2022-yil 11-noyabr kuni
- C. *Toshkentning Yakkasaroy tumanida 2019-yil 15-aprel kuni
- D. Qarshi shahrida 2022-yil 11-noyabr kuni

7.Qanday holatda defektolog tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar to'xtatiladi?

- A. *Xulosada ko'rsatilgan muddat tugagach.
- B. O'quv yili tugagach

C. 6 oy muddat tugagach.

D. 3 oy muddat tugagach

8. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning maqsadlaridan biri:

A. bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;

B. o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

C. *bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korrekstiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

D. bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

9. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga qanday nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi?

A. tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilar;

B. ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilar;

C. *tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar bo'lgan bolalar;

D. yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilar.

10. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga qanday nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinadi?

A. og'ir va chuqur darajadagi aqliy zaiflik;

B. turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;

C. yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi;

D. *tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar.

11. 2020-2025 yillarda xalq ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi necha bosqichda amalga oshiriladi?

A. 3 bosqich

B. 5 bosqich

C. *2 bosqich

D. 6 bosqich

12. Nechanchi yildan boshlab alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni o`qitish borasida bir qancha qarorlar va deklaratsiyalar ishlab chiqila boshlandi?

A. 1665-yil

B. *1990-yil

C. 1890-yil

D. 1995-yil

13. BMTning “Nogironlar huquqlari to`g`risida”gi konvensiya qachon qabul qilingan?

A. *2006-yil

B. 2004-yil

C. 2008-yil

D. 2007-yil

14. O`zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar bilan bog`liq tahlil va dastlabki baholash ishlari nechanchi yilda boshlangan?

A. 1987-yil

B. 1977-yil

C. *1966-yil

D. 1985-yil

15. O`zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta`lim loyihasi qachondan boshlab amalga oshirib kelinmoqda?

A. 2008-yil

B. *2014-yil

C. 2005-yil

D. 2003-yil

16. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashini nechanchi sessiyasidagi nutqida Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi?

- A. 44
- B. 45
- C. *46
- D. 47

17. Xalq ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyani 1-bosqichi 2020-2022-yillar davomida amalga oshirishi belgilangan qatorini belgilang?

A. inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida joriy qilish;

B. alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

C. inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish;

D. *inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish.

18. Inklyuziv ta'lim tamoyillari nechta?

- A.* 7 ta B. 8 ta
- C. 5 ta D. 11 ta

19. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- A. O'zi imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkoniyatini beradi
- B. Dunyoqarashi kengayadi hayotiy tajribasi oshadi
- C. O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi
- D. *Barcha javoblar to'g'ri

20. Ta'lim-tarbiyaning mutlaqo yangi tizimi bu-

- A. Maxsus ta'lim
- B. *Inklyuziv ta'lim

- C. Integratsion ta'lim
- D. Majburiy 1 yillik ta'lim

21. Reabilitatsiya markazida necha kunlik ish haftasi belgilanadi?

- A. 7 kunlik
- B. 6 kunlik
- C. *5 kunlik
- D. 4 kunlik

22. "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ko'p tarmoq ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida"gi Nizom nechanchi ilovaga muvofiq tasdiqlanadi?

- A. 2-ilovaga
- B. 3-ilovaga
- C. 4-ilovaga
- D. *5-ilovaga

23. Toshkentning Yakkasaroy tumanida qachon birinchi inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasasi ochildi?

- A. 2018-yil 18-oktabr
- B. *2019-yil 15-aprel
- C. 2018-yil 4-iyul
- D. B2019-yil 6-iyun

24. Nechanchi sonli MTTda davlat xususiy sherikchilik asosida xayriya faoliyati shaklida tashkil etildi?

- A. *369-sonli
- B. 391-sonli
- C. 234-sonli
- D. 223-sonli

25. Qachon XTVning 234-sonli buyrug'i bilan "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"i tasdiqlandi?

- A. 2004-yil 27-sentabr
- B. 2004-yil 6-aprel

C. *2005-yil 19-sentabr

D. 2005-yil 21-dekabr

26. Shvetsiyada Imkoniyati cheklangan bolalar o`qiydigan sinf va guruhlarda necha nafar o`qituvchi ishlaydi?

A. 4 ta

B. 3 ta

C. 6 ta

D. *2 ta

27. Bugungi kunda maxsus ta`limga ehtiyojli 482 ming bola qaysi ta`lim muassasalarida tahsil olmoqda?

A. Finlandiya

B. *Rossiya

C. Shvetsiya

D. Norvegiya

28. Umumiy tipdagi MTTlarda rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo`lgan ko`pi bilan necha nafar bolani tashkil etadi?

A. 2 nafar

B. *3 nafar

C. 4 nafar

D. 5 nafar

29. Ta`lim olishda alohida ehtiyojlari bo`lgan bolalar uchun ta`lim va tarbiya jarayoni (Inklyuziv ta`lim) Takomillashtirilgan Ilk Qadam davlat o`quv dasturining qaysi bobida keltirib o`tilgan?

A. *2-bob

B. 3-bob

C. 4-bob

D. 5-bob

30. Inklyuziv ta`limni O`zbekiston ta`lim tizimiga kiritish bilan shug`ullanadigan tashkilot qaysi javobda berilgan?

A. BMT

B. UNECKO

C. *UNICEF

D. Vazirlik

31. 2019-yil 15-aprel kuni birinchi inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasasi ochilgan joy nomini toping?

A. Nukus

B. Buxoro

C. *Toshkent

D. Samarqand

32. “Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qaror nechanchi va qachon tasdiqlangan?

A. 2019-yil 13-maydagi 391-sonli

B. 2018 yil 30 sentabrdagi 3955-sonli

C. 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli

D. *2021-yil 11-avgustdagi 510-sonli

33. Inklyuziv ta'limning prinsiplaridan birini belgilang.

A. Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;

B. Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;

C. Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

D. *Insonning qadr qimmatini uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi

34. O'quv yili davomida necha marta ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tarbiyalanuvchilarini tekshiradi?

A. *3 marta;

B. 4 marta;

C. 5 marta;

D. 6 marta.

35. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda ta`lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari kimlardan iborat?

A. Tarbiyalanuvchilar, pedagog xodimlari, bolaning qonuniy vakillari.

B. Tarbiyalanuvchilar, pedagog xodimlari, bolaning qonuniy vakillari va boshqa xodimlar

C. *Tarbiyalanuvchilar, pedagog xodimlari, bolaning qonuniy vakillari, tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar;

D. Pedagog xodimlari, bolaning qonuniy vakillari, tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlar

36. 2020-2025-yillarda xalq ta`limi tizimida inklyuziv ta`limni rivojlantirish konsepsiyasini necha bosqichda amalga oshirish belgilab olindi?

A. Besh bosqichda

B. To`rt bosqichda

C. Uch bosqichda

D. *Ikki bosqichda

37. Inklyuziv ta`lim tizimining maqsad va vazifalaridan biri-?

A. Ta`lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir;

B. Inklyuziv ta`lim barcha uchun ta`lim sifatini yaxshilaydi;

C. *Tarbiyalanuvchilarning ta`limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

D. Bolaning talab-ehtiyojlariga uzluksiz moslashuvini ta`minlash.

38. O`zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida Qonunining nechanchi moddasida “Alohida ta`lim olish ehtiyojlari bo`lgan bolalar” tushunchasi qo`llanilgan?

A. 2-modda

B. *3-modda

C. 4-modda

D. 5-modda

39. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi inklyuziv guruhlarga bolalarni qabul qilishga qanday hujjat asos bo'ladi?

A. Bolaning tug'ilganlik guvohnomasi, ota yoki onasining passport nushasi, yashash joyidan ma'lumotnoma;

B. MTTga qabul qilish bo'yicha yo'llanma, bolaning tug'ilganlik guvohnomasi, yashash joyidan ma'lumotnoma

C. *Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasi

D. bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi, yashash joyidan ma'lumotnoma

40. Nutqida nuqsonlari bo'lgan 5-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar maktabgacha ta'lim tashkilotida korreksion-pedagogik ishlar qancha vaqt o'tkazilganidan keyin MTTga hududiy birlashtirilgan davolash-profilaktika muassasasining logopedi tomonidan tekshiriladi?

A. 3 oy

B. 4 oy

C. 5 oy

D. *6 oy

41. Inklyuziv so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A. *uyg'unlashuv

B. birlashuv

C. imkoniyati cheklangan

D. alohida ehtiyoj

42. "Ilm yo'li" variativ dasturi inklyuziv ta'limning tamoyillaridan birini belgilang.

A. tarbiyalanuvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

B. jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

C. imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ruyobga chiqarish;

D. *Barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi;

43. Qaysi olim imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o`simlikka o`xshatadi?

- A. *Vigotskiy
- B. Komenskiy
- C. Ushinskiy
- D. TJY

44. Kar tarbiyalanuvchilarga mo`ljallangan guruhlarda kamida nechta tarbiyalanuvchi bo`lishi kerak?

- A. 10ta
- B. *8ta
- C. 9ta
- D. 6ta

45. Ixtisoslashtirilgan tashkilotning boshqaruv organlari nechta?

- A. 4ta
- B. *3ta
- C. 2ta
- D. 1ta

46. Gemiparez, manoparez, plegiya asoratlari bo`lgan bolalar guruhlarida kamida nechta tarbiyalanuvchi bo`ladi?

- A. *10ta
- B. 8ta
- C. 9ta
- D. 7ta

47."Inklyuziv ta`lim ham sog`lom ham imkoniyati cheklangan bolalarga birdek kerak"ushbu fikr kimga tegishli?

- A. Sh.Mirziyoyev
- B. Vigotskiy
- C. *Agrippina Shin
- D. A.Derkach

48. Defektolog bilan mashg'ulotlarga maktabgacha ta'lim tashkilotining qanday tarbiyalanuvchilari jalb qilinadi?

A. 6-7 yoshdagi nutqning rivojlanmaganligi bo'lgan tarbiyalanuvchilar

B. *3 -7 yoshdagi inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar

C. 2-3yoshdagi inklyuziv guruhdagi nutqida nuqsoni bo'lganlar

D. To'g'ri javob yo'q

49. Defektolog faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va uni nazorat qilish kim tomonidan amalga oshiriladi?

A. *Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori.

B. Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

C. Tarbiyachi.

D. Hamshira

50. Inklyuziv ta'limga qanday toifadagi bolalar qabul qilinmaydi?

A. nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);

B. *tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;

C. tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi-pakanalik);

D. aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar.

51. Reabilitastiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida to'liq kunlik guruhlar necha soatni tashkil etadi?

A. 9 soat

B. 10 soat

C. *10,5 soat

D. 12 soat.

52. Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va tayyorlov guruhida faoliyat qanday tashkil etiladi?

- A. 60 foiz o'yin – 40 foiz mashg'ulot;
- B. *80 foiz o'yin – 20 foiz mashg'ulot;
- C. 70 foiz o'yin – 30 foiz mashg'ulot;
- D. 30 foiz o'yin – 70 foiz mashg'ulot.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni Qonunchilik palatasi 19-mayda yangi tahrir 2020-yil
2. . O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13- oktabrdagi "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-505 T.: 2019-yil
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi T.: 2022-yil
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 11-avgustdagi "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 510-son qarori

11. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta'lim huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i
12. A.Madvaliyev tahriri ostida "O'zbek tilining izohli lugati" 80 dan ortiq so'z va so'z birikmalari "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T.: 2010-yil
13. "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti T.: 2010-yil
14. Maorif vazirligining 1972-yil 21-noyabrdagi 125-sonli qaroriga asosan maorif sistemasidagi anomal bolalar uchun maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari nomenklaturasi (ro'yxati) tasdiqlandi
15. A.Musurmonova «Umumiy pedagogika» o'quv qo'llanma «O'zkitobsavdonashriyoti» T.: 2020-yil
16. B.M.Umarov va boshqalar «Pedagogika. Psixologiya» darslik T.: «IJOD-PRINT», 2019 –yil
17. V.S.Rahmanova «Maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish)» T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti 2005-yil
18. J. Hasanboyeva va boshqalar «Pedagogika» darslik «Noshir» T.: 2020-yil
19. L.Mo'minova, D.Nazarova «Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati» T.: «RTM» nashriyoti 2012-yil.
20. L. P. Mo'minova «Maxsus pedagogika» T.: «Noshir» nashriyoti 2016-yil
21. L.R.Mo'minova va boshqalar "Maxsus psixologiya" o'quv qo'llanma T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2013-yil 272 bet
22. L. Mo'minova va boshqalar "Maxsus psixologiya" o'quv qo'llanma Toshkent: Noshir 2016 –yil 88 b.
23. M.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev «Pedagogika»T.: «O'qituvchi» nashriyoti 2000-yil.
24. M.U.Xamidova «Maxsus pedagogika» T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti 2018-yil

25. M.Yu.Ayupova «Logopediya» T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti 2007-yil.
26. M.Maxnudova «Muloqot psixologiyasi» o'quv qo'llanma T.: «Turon-iqbol» nashriyoti 2006-yil
27. M. E. Axmedova «Pedagogika nazariyasi va tarixi» o'quv qo'llanma T.: 2011-yil
28. O.Musurmonova «O'quvchining ma'naviy madaniyatini shakllantirishning shakl va metodi» - T.: «Fan» nashriyoti 1999-yil.
29. P.M.Po'latova «Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)» T.: «G'ofur G'ulom» nashriyoti 2005-yil.
30. P.M.Po'latova «Maxsus maktablarda ekologik ta'lim-tarbiyaning ilmiy-metodik asoslari» T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti 2008-yil.
31. P.M.Po'latova «Maxsus pedagogika» -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti 2014-yil
32. P.Ivanov va boshqalar «Umumiy psixologiya» darslik «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» T.: 2008-yil
33. R.Mavlonova va boshqalar «Pedagogika» darslik «O'qituvchi» T.: 2008-yil
34. R. B. Raximova “Abu ali ibn sino asarlarida pedagogik-psixologik yondoshuvning o'ziga xos jihatlari” nomli maqolasi *Международный научный журнал № 5 (100), часть 1 «Научный импульс» Январь, 2023* 419-423 bet
35. Z.T.Nishanova «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» darslik T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil
36. Z.T.Rajamuradov va boshqalar «Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi» darslik «Tafakkur bo'stoni» T.: 2013-yil
37. X. I. Ibragimov va boshqalar «Pedagogik psixologiya» o'quv qo'llanma «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti T.: 2009-yil

Mundarija

I BOB. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining konseptual asoslari va taraqqiyot bosqichlari.....	
1.1. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari.....	
1.2. Maktabgacha inklyuziv ta'lim fanining normativ, meyoriy-huquqiy asoslari.....	
1.3. Maktabgacha inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlari.....	
II BOB. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha inklyuziv ta'limni tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish.....	
2.1. Maktabgacha inklyuziv ta'lim uchun maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.....	
2.2. Reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish.....	
2.3. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	
III BOB. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha inklyuziv ta'limga jalb etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining vazifalari.....	
3.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etish.....	
3.2. Maktabgacha inklyuziv ta'lim jarayonida nogironligi bo'lgan bolalarga psixolog xizmatni tashkil etish.....	
3.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logoped faoliyatini tashkil etishning zarur shart-sharoitlari.....	
IV BOB. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha inklyuziv ta'limga jalb etishda maxsus jihozlar va ulardan foydalanish.....	

4.1. Ko‘zi ojiz (ko‘r) va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun maxsus jihozlar va ularning ahamiyati.....	
4.2. Kar (eshitmaydigan) va zaif eshituvchi bolalar maxsus uchun jihozlar va ulardan foydalanish.....	
4.3. Tayanch harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus jihozlardan foydalanishning zarurati.....	
Izohli lug‘at.....	
Testlar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	

Содержание

ГЛАВА I. Концептуальные основы и этапы развития инклюзивного дошкольного образования.....	
1.1. Объект, предмет, цель, задачи и принципы инклюзивного дошкольного образования	
1.2. Нормативно-правовые основы инклюзивного дошкольного образования	
1.3. Развитие и этапы развития системы инклюзивного дошкольного образования	
ГЛАВА II. Организация инклюзивного дошкольного образования для детей с ограниченными возможностями и реализация образовательного процесса	
2.1. Организация специальных дошкольных образовательных организаций инклюзивного дошкольного образования	
2.2. Организация государственной многопрофильной специализированной организации дошкольного образования с реабилитационным центром	
2.3. Многопрофильные специализированные организации дошкольного образования и организации дошкольного образования совместного типа	
ГЛАВА III. Обязанности педагогов организаций дошкольного образования по вовлечению детей с ограниченными возможностями здоровья в инклюзивное дошкольное образование.....	
3.1. Организация деятельности дефектолога в дошкольной образовательной организации	
3.2. Для детей с ограниченными возможностями здоровья в процессе инклюзивного дошкольного образования организация психологической службы	

3.3. Необходимые условия для организации логопедической деятельности в дошкольных образовательных организациях.....	
ГЛАВА IV. Специальное оборудование и его использование при вовлечении детей с ограниченными возможностями в инклюзивное дошкольное образование	
4.1. Специальное оборудование для слепых и слабовидящих детей и его значение..	
4.2. Специальное оборудование для глухих (слабослышащих) и слабослышащих детей и его использование..	
4.3. Необходимость использования специального оборудования для детей с нарушением основного двигательного аппарата.	
Толковый словарь	
Тесты	
Список использованной литературы	

Contents

CHAPTER I. Conceptual foundations and stages of development of inclusive preschool education	350
1.1. Object, subject, purpose, tasks and principles of inclusive preschool education	
1.2. Normative, regulative and legal foundations of inclusive preschool education	
1.3. Development and development stages of inclusive preschool education system	
CHAPTER II. Organization of inclusive pre-school education for children with disabilities and implementation of the educational process	
2.1. Organization of special preschool educational organizations for inclusive preschool education	
2.2. Organization of the state multidisciplinary specialized preschool education organization with a rehabilitation center	
2.3. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	
CHAPTER III. Duties of pedagogues of preschool education organizations in involving children with disabilities in inclusive preschool education	
3.1. Organization of the activity of a defectologist in a preschool educational organization	
3.2. For children with disabilities in the process of inclusive preschool education organization of a psychological service...	
3.3. Necessary conditions for the organization of speech therapy activities in preschool educational organizations	
CHAPTER IV. Special equipment and their use in involving children with disabilities in inclusive preschool education.....	

4.1. Special equipment for blind and visually impaired children and their importance	
4.2. Special equipment for deaf (hard of hearing) and hard of hearing children and their use	
4.3. The necessity of using special equipment for children with a disability of the basic movement apparatus	
Explanatory dictionary	
Tests	
List of used literature	

Ashirova Sojida Baxromovna

MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM

O`quv qo`llanma

Muharrir: S. Abdunabiyeva

Badiiy muharrir: K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi: B. Muxtorov

shr. List. AA № 205405

Bosishga ruxsat etildi: 10.07.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.

"Times New Roman" garniturası.

Shartli b/t 10,7. Nashr hisob t 10.1

Adadi 20 dona. 67-buyurtma

"MAKON SAVDO PRINT" X K. nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent shaxri , Shayxontohur tumani, Jangoh MFY, Jangoh Mavzesi, 37-uy.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi .

100198, Toshkent, Qo'yliq 4 mavze, 46